




**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
IJTIMOIY-IQTISODIY FAKUL`TETI
« IJTIMOIY MADANIY FAOLIYAT »
KAFEDRASI O`QITUVCHISI
MANSUROV ULUGBEK UMAROVICHNING**

ETNOMADANIYAT

F A N I D A N

MA`RUZALAR MATNI



N a m a n g a n - 2011

Tuzuvchi:

U.Mansurov

Taqrizchi:

B. Bo`ronov

Ma`ruzalar matni Ijtimoiy-madaniy faoliyat kafedrasining 2011 yil \_\_\_\_\_№\_\_\_\_ bayonnomasi yig`ilishida muhokama qilinib tasdiqlandi va ko`paytirishga tavsiya etildi.

№	Mavzular	Soat
1.	Etnomadaniyat faniga kirish. Fanning tarixiy-nazariy asoslari	2
2.	O`rta Osiyo etnomadaniyatini o`rganishda o`zma manbalarning o`rni	2
3.	Qadimgi davr o`zbek folklori	2
4.	O`zbek xalq ogzaki ijodining rivojlanishida latifa, lof va askiyaning tutgan o`rni	2
5.	Xalq ogzaki ijodi an`analari	2
6.	Xalq teatri va milliy raqslar	2
7.	Ilk orta asrlar davrida tarbiya va pedagogik qarashlar	2
8.	XIV-XV asrlarda tarbiya va pedagogik qarashlar	2
9.	Ma`rifat darg`alari	2
10.	Barkamol avlod tarbiyasi	2
11.	Bayramlarning vujudga kelishi O`zbek xalq bayramlari tarixidan	2
12.	Tabiat bayramlari. Navro`z va Xosil bayrami	4
13.	Diniy bayramlar	2
14.	Qadimiy diniy e`tiqodlar va dinlar	2
15.	Shamanlik genezisi va lokal xususiyatlari	2
16.	Zardushtiylik dini bilan bog`liq an`ana va marosimlar	2
17.	An`anaviy oila – turmush marosimlarda qadimiy diniy e`tiqodlar	2
18.	Farzand tugulishi va bola tarbiyasi bilan bog`liq marosim urf odatlarda qadimiy e`tiqodlar izlari	
19.	Nikoh to`yi marosimlarida afsungarliklar va qadimiy diniy e`tiqodlar simbiozi	2
20.	Motam marosimlarida arxaik diniy e`tiqodlar izlari	2
21.	O`zbeklarning xo`jalik an`analarida diniy-etiq`odiy q`arashlar simbiozi	2
22.	An`anaviy dehqonchilik mashg`ulotida agrar kultlar va qadimiy diniy e`tiqodlar simbiozi	
23.	Chorvachilik bilan bog`liq marosimlarda qadimiy diniy e`tiqodlar.	2
24.	O`zbek xalqi moddiy madaniyatida qadimiy diniy tasavvurlar va e`tiqodiy qarashlarning arxaik izlari	2
25.	Turar joylar bilan bog`liq urf-odatlarda qadimiy e`tiqodlar	2
26.	An`anaviy kiyimlarda qadimiy diniy tasavvurlar va ramziylik	2
27.	Marosim taomlari va ularning mexnati	2
	Jami:	56 soat

1-Mavzu: ETNOMADANIYAT FANI VA UNING TARIXIY-NAZARIY ASOSLARI.

Reja:

1. Kirish.
2. Fanning maqsad va vazifalari.
3. Fanning ilmiy-nazariy sifatlari.
4. Markaziy Osiyo halqlarining ma'naviy madaniyati va uning tub negizlari.
5. Madaniyat tushunchasi.

Bugungi kunda turmush tarzimizni ijtimoiy-madaniy faoliyat yutuqlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Buning boisi o'zbek xalqi uzoq o'tmishdan boshlab ma'naviy madaniyatni yuksaltirishda etarlicha faoliyat ko'rsatib kelgan. Kishilik tarixida yaratilgan va ma'lum taraqqiyot bosqichlarni o'z boshidan kechirgan buyuk siymolar xamda ota-bobolarimiz, ma'naviy madaniyat yutuqlarini oltin meros sifatida kelajak avlodlarga qoldirib ketganlar. Albatta bunday vorisiylik o'z navbatida yosh avlodning ijtimoiy ongida xurmat, ehtirom shukxini tashkil etsa, bu muqqadas qadriyatni ijtimoiy xayotda sodir bo'layotgan barcha o'zgarishlarga qaramay, bu merosdan mukammal foydalanishni, uni yanada taraqqiy etishi uchun barcha imkoniyatlarimizni amalda qo'llashlikni taqozo etadi.

O'zbekiston Resublikasi Vazirlar Maxkamasining *"Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi xuzurida "Oltin meros" xalqaro xayriya jamg'armasini qo'llab-qo'ltiqlash to'g'risida"* gi Qarorida o'tmish milliy madaniyatimizni yanada taraqqiy ettirish, buyuk ajdodlarimizning asrlar davomida yaratgan bebaho madaniy-ma'rifiy merosini ko'z qorachig'iday asrab-avvaylash, kelgusi avlodlarga yodgorlik qilib qoldirish, xalqimizning umuminsoniy qadriyatlar xazinasiga qo'shgan ulkan xissasini butun dunyoga qayta tanitish, uni keng targ'ib etish, kishilarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ongiga milliy g'urur, milliy iftixor, Vatanga muxabbat va istiqlool g'oyalariga sadoqat tuyg'ularini singdirib borish kerakligi xaqida aniq ko'rsatmalar beriladi. Shunday ekan xozirgi jamiyatimiz xayotida sodir bo'layotgan jadal o'zgarishlar xar birimizdan davr bilan hamnafas bo'lib faoliyat ko'rsatishga, O'zbekiston mustaqilligini mustaxkamlashga, istiqlool yo'lida buyuk davlat barpo etish ishida safarbarlikni qo'ldan bermaslikka da'vat etadi.

Oliy o'quv yurtlarining ijtimoiy-madaniy faoliyat yo'nalishida olib boriladigan Etnomadaniyat fani o'z oldiga yuqorida qayd etilgan ulkan vazifalarni bajarishga qaratilgan. *Etnomadaniyat faniga ta'rif* berib uni to'laligicha izohlab, shu asnoda *Elektron darslik (ED)* yaratib chiqishdan oldin, shu fanga bo'lgan mutaxassis-olimlarimizning e'tibori, tadqiqot xamda ilmiy-amaliy yo'nalishlarda olib borilgan kuzatish, taxlillash, izoxlash xamda ilmiy-ommaviy risolalarda qayd etilgan fikr xamda yakuniy tushunchalarga tayanishga to'g'ri keldi. Ayniqsa bu fan asoslarini o'rganish borasida muxtaram Prezidentimiz I.A.Karimovning O'zbekiston Resublikasi Oliy Majlisi sessiyalaridagi chiqishlari, nutq, ma'ruza xamda barcha asarlarida bayon etilgan ko'rsatma, fikr, muloxoza va takliflari o'rganib chiqildi. Prezidentimiz tomonidan jamiyatimiz xayotida tubdan o'zgarishlarni amalda bajarishga qaratilgan isloxotlar yo'lidagi Farmonlari, Vazirlar Maxkamasining Qarorlari, *"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"* talablari, *"Ta'lim to'g'risidagi qonun"* asoslari xamda O'zbekiston Resublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan ta'sis etilgan qaror, buyruq xamda yo'riqnomalarda ko'rsatilgan ijtimoiy-madaniy faoliyat yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash masalasidagi me'yoriy xujjatlar o'rganib chiqildi. Ayniqsa, *O'zbekiston Resublikasi Vazirlar Maxkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlari. Asosiy qoidalari. Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori"* kabi xujjatlarni bajarishga xarakat qilindi. Etnomadaniyat asoslarini o'rganish va ularga tayangan xolda kundalik o'quv-tarbiya jarayonida qo'llash uchun zarurat bo'lgan o'quv-uslubiy qo'llanmaning xozirgi kunimizgacha chop etilib talaba yoshlarimizga yetib bormaganligi kundalik muammoga aylanib qolmoqda. To'g'ri, xalqimizning

tarixiy shakllanishi, uning ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot bosqichlari, milliy madaniyatimizning o'tmishda qo'lga kiritgan yutuqlari, elat, qavm, millat tushunchalarini yoshlarimiz ongiga tushuntirish borasida birqancha diqqatga sazavorli ishlar bajarilgan. Jumladan, milliy madaniyatimizning serqirra tomonlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy-ommabop monografiya va risolalar, ilmiy maqola xamda amaliyotda qo'llashlikka qaratilgan qo'llanmalar chop etilgan. Shunga qaramay Etnomadaniyat fani yuzasidan maxsus tayinlangan darslik yoki qo'llanma yo'qligi barchamizga ma'lum. Shu boisdan xam Elektron darslikni yaratish vazifasi oldimizga qo'yilgan maqsadlarni amalda bajarishga qaratilgandir. *Elektron darslikning mazmunida* asosiy e'tibor o'tmishda va hozirgi kunimizda ma'lum sifatlarda shakllanib va taraqqiy etib kelgan milliy madaniyatimizning tadrijiy - tarixiy jarayonini o'rganishga qaratilgandir. Katta quvonch va xis-tuyg'ularga tayangan xolda mag'rurlanib aytamizki, Mustaqillik sharofati tufayli bizning ma'naviy qadriyatlarimiz, o'tmishda ajdodlarimizdan qolgan mumtoz meros o'zining to'la mukammalligida tiklandi. Qur'oni karimning O'zbek tiliga o'girilishi, xadisu shariflar to'liq nashr etilishi, bobokalonlarimiz Nasriddin Rag'buzy, Ahmad Yassaviy, Baxovuddin Naqshband, Imom Ismoil al-Buxoriy, Burxoniddin al-Marg'inoniy, Abu Mansur Motrudiy va o'nlab buyuk siymolarimizning asarlaridan baxramand bo'lish, buyuk sarkarda, jamoat va davlat arbobi soxibqiron Amir Temur ma'naviy dunyosining hikmatli o'git va amallari barchamizni xayrli ishlarga safarbar etmoqda.

Mustaqillik sharofati xalqimiz tag'dirini yuksaltirdi, ko'p millatli xalqimiz o'z qadri va insoniy xuquqlarini egalladi, shu bilan birga uzoq muddatli me'yorlarning buzilishi, millatimiz va xalqimiz tabiatiga xos to'g'ri tushunchalarning toptalishiga chek qo'yildi. Xar bir narsa o'z nomi bilan atalmoqda, iymon, e'tiqod, millat, Vatan kabi tushunchalar barchamizning ongimizda, ruhimizda va vujudimizda qaynoq buloq bo'lib joylandi. Madaniyatimizning milliyliigi mustaxkamlandi, asriy qadrli qadriyatlarimiz qaytadan tiklanib madaniyatimiz o'zining tabiiy tarixiy-milliy, diniy va falsafiy negizlarini mustaxkamlati. Yurtboshimiz va hukumatimiz yuritayotgan oqilona siyosat, ayniqsa ma'naviy merosimizni o'rganish faxr-iftixor ishiga aylanganligi, buyuk allomalarimiz va tarixiy shaxslarimiz nomlari, milliy-madaniy merosning qayta tiklanayotganligi, ona tilimizga, dinimizga munosabat o'zgarganligi ma'naviyatimizning yuksalishiga kuch-quvvat baxsh etib, jamiyatimizning kelgusi taraqqiyoti uchun zamin bo'ldi. Milliy istiqlol g'oyasi o'zining tarixiy omillariga erishmoqda.

O'zbekiston Resubikasi Prezidentining *"Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtrish va samaradorligini oshirish to'g'risida"*gi Farmonida ko'rsatilganidek, odamlarning o'zliklarini chuqur anglashini, mustaqillik qadrini tobora teran tushunishni, milliy tafakkurning kengayishi va takomillashuvini, tarixiy hurlik, mustaqillik ruhining uyg'onishini ta'minlash ma'naviyat soxasidagi siyosatimizning asosiy maqsadiga aylanishi lozim. Mustaqillikka erishganimizdan keyin jamiyatimiz ijtimoiy xayotining turli jabxalarida, shiddatli tarzda ro'y berayotgan ulkan taraqqiyot va yuksalish barchamizda xalqimizning o'tmish madaniyatini o'rganishga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytirmoqda. Bunday harakat o'tmishda sodir bo'lgan madaniy taraqqiyotni to'laqonlik bilan tushunib o'rganishga da'vat etadi. Shu bilan birga bu murakab jarayonni jamiyatimizning bugungi kundagi tub o'zgarishlariga aynan ta'sir etib kelayotganligini ko'ramiz. Nihoyat, o'tmishda yashab o'tgan ajdodlarimizning ijtimoiy-ma'naviy dunyosini o'rganib ularning nazariy hamda amaliy tajribalarini hozirgi zamon talablari darajasida hayotga tadbiiq etish, yoshlarni istiqlol g'oyalariga sodii ravishda elparvar, vatanparvar etib tarbiyalash barkamol avlodni voyaga etkazish vazifasi yotganligini tushunib yetdik. Shu bilan bir vaqtda o'tmishdagi milliy madaniyatimizning shakllanib, ma'lum sifatlarda taraqqiy etib kelganligini mukammal o'rganmay turib hozirgi kunimizda mustaqillik madaniyatimizni taraqqiy ettirib bo'lmasligini chuqur xis etmog'imiz kerak. Tarix - ijtimoiy xayot xamda inson tafakkuri maxsulidir. Shunday ekan o'tmishda yuz bergan har bir xodisa ma'lum ma'naviy-ruhiy, ijtimoiy-siyosiy muxit ta'sirida yuz berganligini ko'ramiz. Unga nazar solsak, asrlar silsilasini varaqlash jarayonida xar birimizdan alohida ziyraklik va zukkolik bilan ish ko'rishlik talab etiladi. Natijada voqealar



zamiridagi mantiq, falsafa, ruhiyat, siyosat qo'yinki, xar bir davrning o'ziga xos shukuxi-yu tashvishlari, sevin-chu iztiroblari ko'zga yaxlitligicha tashlanganligining guvohi bo'lasiz. Bunday xol kishini fikrlashga, o'tmishni idrok qilib kelajakni aql yo'rig'i bilan belgilashga chorlaydi. Tarixning tafakkur maxsuli va ulug' murabbiyligi, uning muqaddas hamda oliy qadriyat ekanligini o'tmish ajdodlarimiz isbotlab keldilar. Jonajon tariximiz Mustaqillik davrida yana ham oliymaqom mavqe' va nufuzga ega bo'ldi.

Fanning maqsad va vazifalari. Oliy o'quv yurtlarida o'tildigan **Etnomodaniyat** fani yuqorida dasturulamal sifatida qo'yilgan ulkan vazifalarni bajarishga qaratilgan. Bu fan

asoslarini insonshunoslik fanlariga tayangan holda o'rganamiz. Yoshlarning umuminsoniy dunyoqarshlarini shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatlarini yuzaga chiqarish kabi omillarni ilmiy jihatdan tadbicq etib, yoshlarni Istiqlol g'oyalari asosida tarbiyalash vazifasi yotadi.

Demak, Etnomodaniyat fani asoslariga kirish uchun biz xalqimizning uzoq o'tmish tarixiga e'tibor berishimiz zaruratdir. **Etnomodaniyat** atamasi ikki iboradan tashkil bo'lib: etno va madaniyat so'zlari qo'shilmasidir. **Etno** -yunon so'zi-elat, xalq demakdir va shu bilan birga, ma'lum bir elat yoki xalqqa bo'lgan ishora, ko'rsatuv. Bu ibora biror xalqning kelib chiqishi (etnogenezi)ni ifodalaydi. Bunday tarzda biz o'zbek xalqining kelib chiqishi, uning etnogenezi (urug'chilik, nasl) ni tushunishimiz kerak. Shu bilan bir vaqtda **etno** iborasi ko'pchilik ilmiy - nazariy manbaalarda: **Etnografiya** -xalqlarning kelib chiqishi, turmushi, moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rganadigan fan sifatida bo'lib biror xalqning turmushi, madaniyati va urf-odatlariga xos bo'lgan xususiyatlarini ham ko'rsatadi. **Etnonim** tushunchasi ham mavjud, bu xalq nomi yoki xalq nomini ifodalovchi so'z sifatidagi atamadir. Bu so'zni yanada mukammallashtirish maqsadida **Etnonimka** iborasi ham ishlatilib leksikologiyaning xalq, qabila hamda urug'chilik nomlarini o'rganishga qaratilgan bo'limiga aytiladi. **Etnograf** iborasini ham biz kundalik o'quv jarayonida qo'llaymiz va bu iborada biz etnografiya fani bo'yicha faoliyat ko'rsatadigan mutaxassisni tushunamiz. E'tiboringizni **etnografiya va folklor** faniga qaratib u:

1. Xalqlarning kelib chiqishi, turmushi, moddiy va ma'naviy madaniyatini;
2. Og'zaki, yozma hamda musiqiy ijodini o'rganadigan fan ekanligini tushunamiz.

Shunday qilib, biz yuqoridagi ta'riflarga qaritilgan barcha ilmiy- tarixiy asoslarga tayangan holda **Etnomodaniyat** fani asoslarini quyidagicha izoxlaymiz.

Etnomodaniyat biror xalqning kelib chiqishi (bu borada o'zbek xalqi), uning madaniyati, turmush tarzi, ma'naviy-ma'rifiy xususiyatlarini tarixiy jarayon (davr)larda ravnaq topib xozirgi kunimizgacha rivojlanib kelayotgan ma'naviy hamda madaniy merosini o'rganadigan fandir.
(Xurmatli talaba bu tarifni Siz yodlab oling)

Binobarin, fanni to'laligicha o'zlashtirish, uning nazariy va tarixiy-ilmiy asoslarini izohlash uchun bu fanni bilim tizimi ekanligini o'rganib chiqishni taqozo etadi. Vaxolanki, bu fanni o'rganib unga izox berilganda uning madaniy tarixiy jarayon mazmuni, tarixiy takomili va ashyoyu-dalillari, nazariy hamda amaliy (hayotiyligi nuqtai nazaridan) qonuniyati va uslublari asosida taraqqiy etishi, ijtimoiy-moddiy, ma'naviy-ma'rifiy saloxiyati, milliy etnik /genezi/ munosabatlaridagi o'rni, madaniy aloqalar hamda umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlardagi xususiyati, ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni kabi serqirra tomonlariga asosiy e'tibor qaratiladi.

Fanning ilmiy - nazariy sifatlari va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqadorligi.

Etnomadaniyat fani bilimlar tizimi ekanligini har tomonlama isbotlash uchun quyidagi masalalarni yoritishni taqozo etadi:

- Etnomadaniyat fani gumanitar fanlar bilan uzviy aloqadadir.

U ***falsafa, etika, estetika, sotsiologiya, tarix, psixologiya, etnografiya, folklor, musiqa, tasviriy san'at, arxitektura, dinshunoslik, pedagogika*** hamda ***adabiyotshunoslik*** kabi fan asoslari bilan hamkorlikda olib boriladi.

Etnomadaniyat quyidagi tamoyil va sifatlarni yoritishni o'zida aks ettiradi:

- etnomadaniyat tarixiy jarayon sifatida tarkib topib davrlar mobaynida ma'lum bir yutuq va kamchiliklarni o'zida namoyon bo'lganligini;
- etnomologik sifat masalasida jamiyat ma'anaviy-madaniy hayotini avloddan-avlodga etkazib uning kelajagi uchun zamin yarata olganligini;
- o'tmish madaniyatni ongli ravishda o'rganish, uni o'rganib olmasdan turib madaniy merosni yangi jamiyat farovonligi yo'lida qo'llashga asos bo'lmasligini;
- diniy, islomiy merosni chuqur o'rganish, uning milliy ma'naviyat va madaniyatning oliy sifati ekanligini;
- Markaziy Osiyo xududi moddiy-ma'naviy madaniyatning shakllanish va taraqqiyot markazi ekanligini;
- Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviyatining tarixiy taraqqiyoti va uning mohiyatini to'g'ri tushunishni;
- Sharq xalqlari ma'naviy madaniyatining asosiy tub negizlarini to'laligicha (tadqiqotlar asosida) o'rganish kabilarga e'tibor qaratadi.

Albatta yuqoridagi sifat va tamoillarni har tomonlama o'rganish va kundalik faoliyatga tadbiq etish maqsadida, ***birinchidan***, ajdodlarimizning tarixiy evalyutsiya davrlarida qo'lga kiritgan yutuqlarini; ***ikkinchidan***, xalqimizning madaniy-ma'rifiy merosi, milliy qadriyatlari, urf-odatlarini, rasm-rusumlarini; ***uchinchidan***, xalqimizning axloq-odob saboqlaridan namunalarni mukammal o'zlashtirishdir.

Xar bir xalqning madaniyati uning milliy ma'naviyati hamda ma'rifati bilan uzviy bog'langan. Mustaqil davlatimizning bugungi kundagi ma'naviy-madaniy taraqqiyoti isloxotlar davrida qo'lga kiritilgan yutuqlarimizning garovidir. Vaxolanki, biz bu tarixiy ma'naviy va madaniy yutuqlarni har tomonlama tadqiq va tashviq etish uchun etarlicha shart-sharoit va imkoniyatlarga egamiz.

Madaniyat iborasi arabcha *Madina* (shaxar, kent) so'zidan kelib chiqqan ekan. (Vatan tuyg'usi. Toshkent, "O'zbekiston" 1996 y. 114-115b.b.) Shahar ma'nosida kelgan madaniyat so'zining talqini kishilar xayotini ikki turdagi ko'rinishi, ya'ni ***ko'chmanchi-dashtu-sahrolarda*** yashovchi xalqlar hamda ***shaharda yashab, shaxarga xos turmush tarzida*** yashovchi xalqlarga nisbatan ishlatilib kelingan.



Madaniyat tushunchasi keng ma'noni anglatib **jamiyat va inson tarixiy tarqqiyotining muayyan bir darajasi, kishilar xayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek ular yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi.**

Madaniyat tushunchasi muayyan tarixiy davrlar, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar, masalan, **antik madaniyat, sotsialistik madaniyat**, shuningdek inson faoliyati yoki turmushining o'ziga xos sohalari, masalan **mehnat madaniyati**, diniy madaniyat, san'at madaniyati, turmush madaniyatini izohlash uchun qo'llanib kelinadi. Agarda bu so'zni tor ma'noda ishlatadigan bo'lsak bu atamani kishilarning faqat ma'naviy hayoti sohasiga nisbatan mansubligini ko'ramiz.

O'rta asr madaniyatining buyuk namayondalari Abu Nasr Muxammad ibn Uzlug' Tarxon Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy va boshqalar **shahar turmush tarzini etuklik shakli sifatida** ekanligini ochib berganlar. **(Buyuk allomaning quyidagi fikrlarini yodlashga harakat qiling)**

Har bir inson o'z tabiatiga ko'ra oliy darajadagi etuklikka erishish uchun intiladi. Bunday etuklikka faqat shaxar jamoasi orqaligina erishiladi. Madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo'ladiki, bu mamlakatda har bir odam kasb hunarda ozod, hamma barobardir, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb hunar bilan shug'ullanadi va odamlar chin ma'nosi bilan yashaydilar.

Farobiy

Albatta bunday tamoyillar faqat demokratik jamiyatdagina o'z ifodasini topishiga biz mustaqillik yillarida tushunib etdik.

Hazrat Navoiy etuk axloq va obro'da, odob va insoniy fazilatlarga xoslikni, ma'rifatli va adolatli jamiyat, jamoa masalasini olg'a surish bilan birga, ma'naviy yuksaklikka erishishning asosiy mezonini deb gumanistik ideallarga muvofiqlikni tushungan va o'z asarlarida bu ta'limotni namoyish etib kelganlar.

Ma'lumki, sho'ro tuzumi sharoitida Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy madaniyatini o'rganishning dasturil amaliy usullari g'ayri ilmiy g'oyalarga qurbon bo'ldi... **"Boy zamindorlarga, hokim sinf tabaqalarga xizmat qilgan o'tmish madaniyatining bizga keragi yo'q, yangi proletar (yo'qsil) madaniyatini yaratamiz"** - degan shiorlar ostida sobiq sovetlar ko'pmillatli xalqlarning, jumladan o'zbek xalqining, moddiy va ma'naviy madaniyatiga qiron keltirdi. Bunisi ham etmasdan tarixiy madaniyatni xar tomonlama o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan arab alifbosini ta'qiqlanishi, asosiy yozuv imlolaridan xalqning mahrum etilishi sal kam etmishbesh yil davomida siyosiy maqsadlarga bo'ysundirilib kelindi.

Bunday siyosiy totalitar-klerikal munosabatning negizida xalqning milliy o'zligini bilishga bo'lgan intilishlarini ongli ravishda yo'qqa chiqarish asosiy maqsad edi. Bunday urinishlar hamda taqiqlanishlar o'tmish tarixdan biror misol keltirish kerak bo'lib qolsa, sho'ro mafkurachilari iloji boricha G'arbga borib taqardi... (Vatan tuyg'usi, Toshkent, "O'zbekiston" 1998,b,! ?) Go'yoki, barcha xalqlar madaniyati Ovrupo (evromarkaz)dan andoza olgan deb baralla hayqirishgan.

Ular Turkiston xalqlarining milliy g'ururi uyg'onishidan, o'tmishdagi boy madaniyatidan iftixor tuyg'ulari kuchayishidan qo'rqiishar edi. Sho'ro mafkurachilari madaniyatni sinfiy hodisa deb takidlab kelganlar.

Madaniyat - umuminsoniy hodisa bo'lib, barchaga teng va barobardir. Allomalarimiz, olimu - fuzalolarimiz, shoiru – san'atkorlarimiz yaratgan barcha durdonalar xalqnikidir.

Quyidagi tasvirda jonlangan Kalta minor tarixiy obidamiz xalqimizning durdonasi hisoblanmish Xiva shaxrining ko'rki va salobatidir.



Xar bir jamiyat va davr o'z madaniyatiga ega bo'ladi. Jamiyat o'zgarishi bilan uning madaniyati, tili ham o'zgaradi. Shu bilan birga

*Madaniy taraqqiyot uzulib qolmaydi,
ilgarigi madaniyat yo'q bo'lib
ketmaydi, madaniy meros va an'analar
saqlanadi*

*O'tmish davrlardan insoniyatga qolgan
moddiy va ma'naviy madaniyat
boyliklari majmuiga madaniy meros
deyiladi.*

Har bir yangi avlod moddiy va ma'naviy madaniyat negizini xar gal yangitdan yaratmasligi mumkin. Shu bilan birga ajdodlar tomonidan yaratilgan madaniy boyliklarni o'z ehtiyojimiz va sharoitimizga qarab dunyoqarashimiz, jamiyatimiz va xalqimiz manfaatlariga mos keladigan, bugun va kelajak uchun xizmat qilishi mumkin bo'lgan qismini qabul qilamiz. Sho'rolar o'z niyatlarini barcha xalq va elatlarga singdirish borasida bir qancha g'ayriilmiy "qonunlar" yaratganlar. Shulardan biri: **"Sharq – G'arbdan sira oldin turishi mumkin emas, jahon sivilizatsiyasi G'arbdan boshlangan, G'arb insoniyat madaniyatining ilk beshigi" dir.**.- Bu soxtalikning yana bir isboti shundan iboratki, sho'rolar Markaziy Osiyoning g'ururi va shavkati hisoblanmish Samarqand shaxrining yilnomasi maxsus tarzda qisqartirilib ko'rsatilgan. Aslida

esa hamisha navqiron **"Samarqand sayqali ruyi zamin ast!"** xitobimizni yangratib aytamiz-ki **"Samarqand 3800 yoshda"** Bu sana buyuk qomusiy olim Abu Rayxon Beruniyning **"Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"** asarida to'laqonlik bilan isbotlangan. Beruniyning yozishicha, Samarqand Iskandar Maqduniy (Aleksandr Makedonskiy) Turonga kelishidan 1500 yil avval ham navqiron shahar bo'lgan ekan. Iskandar Turonga mil. av. III-asrda bosqinchilik qilgan. Bu xaqda buyuk adibimiz, akademik G'ofur G'ulom ham bir suhbatda: **"Fotixlar anoyi bo'lmaydilar. Ayniqsa muallimni avvalini, piri komil Arastudek ustozining shogirdi bo'lmish Iskandardek podshoh anoyi deb bo'lmaydi. O'sha olis zamonlarda Turon zamin obod, eli farovonu ma'mur bo'lgan, Samarqandu Buxoro, Shosh va Xorazmda hayot qaynagan. Bu obodon o'lkaning dovrug'i Eron osha Yunongacha borib etgan. Iskandarning fotixlik qonini jo'shtirgan, bu erlarni zabt etishga undagan"**- deb eslaganlar. Buyuk adibimizning bunday fikrlarini izohlashga o'rin bo'lmasa kerak, Bolshovoy siyosati, millatning ma'naviy - madaniy xayotini **"sovetlashtirish, baynalminallashtirish, butun jahon roletarlari, birlashingiz!"** xitobi kabi zo'ravonlik siyosati o'zbek xalqi bilan birgalikda O'rta Osiyodan tashqarida bo'lgan qondosh xalqlar boshiga ham tushgan. Mustaqillik sharofati bilan biz o'zligimizni angladik, dinimiz va millatimizni millat ekanligini tub ma'nolarda tushunib etdik.

Xulosa qilib quydagilarni aytish mumkin:

Etnomadaniyat fani asoslariga kirish jarayonida,
-fanning tarixiy - ilmiy mohiyatini o'rganish;
-universitetda o'tiladigan barcha ijtimoiy hamda insonshunoslik fanlarni o'zlashtirishni takomillashtirish;
-fanning nazariy hamda amaliy bo'limlarini mukammal o'rganish;
-bo'lg'usi mutaxassis kadrlarning ma'naviy dunyosini shakllantirish, ma'naviy – ma'rifiy faoliyatni yuzaga chiqarishning omillarini ilmiy jihatdan tadqiq etish;
-yuksak e'tiqodga munosib qilib tarbiyalash;
-o'tmish ajdodlarimizning ravnaq togan tarixiy merosini mukammal o'rganishga qaratilganidir.

Etnomadaniyat fani Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy va madaniy tarixini o'rganishning ba'zi masalalari, qadimiy ma'naviyat va madaniyat yodgorliklari, islomiy tafakkur muammolari, temuriylar davrida ma'naviy-madaniy hayot, Markaziy Osiyo xalqlarining birinchi va ikkinchi Uyg'onish davrlariga xos bo'lgan ilmiy-madaniy merosini, o'zbek va o'zbek xalqining kelib chiqishi tub negizlarini, bu xalqning jahon va boshqa xalqlardan farq qiluvchi xususiyatlarini, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarini, oila, maxalla turmush madaniyatini, Turkistonda ma'rifatchilik madaniyati, jadidchilik harakatining mohiyati va buyuk siymolar ijodi, tarixiy ajdodlarimizning mumtoz merosini o'rganishga sharoit yaratadi. Bu borada biz yana bir bor e'tiborimizni O'zbekiston Resublikasi Prezidenti I. A. Karimovning quyidagi fikrlariga qaratamiz.

"Biz istiqlool sharofati bilan ko'p qadriyatlarni - iymonimizni, milliy g'ururimizni, ozodlik, bir so'z bilan aytganda Parvardigorni qaytadan chinakam tanidik. Endigi vazifamiz - bobolarimizning paymol etilgan orzu umidlari haqqi, avlodlarimizga, sizubizning farzandlarimizga butun dunyo bilan teppa-teng bo'ylashadigan buyuk O'zbekistonni meros qilib qoldirmoqdir"
(Vatan tuyg'usi. Toshkent O'zbekiston" 1996 yil).

Bu so'zlardan tegishli saboq olib oldimizda turgan o'ta mas'uliyatli vaziflarni bajarishga qaratilgan ilmiy hamda amaliy ishlar Siz va biz uchun ishonchli va sharaflidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. –T., 2008.

2. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. "Muloqot" 11. 5-son. 1998y.
3. Karimov.I. A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka taxdid.barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.1997.
4. Aminjonova I E. Qadimiy yodgorliklar qissasi. T. 1968.
5. Ashirov A. Atadjanov SH. etnologiya. T. 2007 y.
6. Ashirov A. O`zbek xalqining qadimiy e`tiqod va marosimlari. T. 2007 y.
7. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik. Farg`ona. 1998 y.

2-Mavzu: Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati va uning tub negizlari.

Reja:

1. Zardushtiylik davrigacha va undan keyingi madaniyat takomili.
2. "Avesto" - zardushtiylik dinining muqaddas kitobi.
3. Zardusht haqida ma'lumot.

Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, Markaziy Osiyo kishilik jamiyatining eng qadimiy markazlaridan biri bo'lib kelgan. Bunday baxolanish mezoni, albatta tarixiy arxeologik, poleontologik xamda antropologik tekshiruvlar natijalariga tayanadi. Ko'plab qazilma hamda tekshiruvlar Markaziy Osiyo zaminining barcha hududlarida olib borilganligini bilamiz. Eramizdan million yillar burun bu zaminda kishilar yashab kelganligi ham isbotlangan.

Tarixchi, madaniyatshunos olimlarning fikrlariga asoslanib o'tmishdagi ajdodlarimiz madaniyati ma'lum darajada rivojlanib o'tgaligini asos deb kabul kiladigan bo'lsak, bu madaniyat rivojlanish kurtaklarini eng qadimiy poleolit davridan, ya'ni Urta Osiyoda odam zoti paydo bo'la boshlagan - 500 ming yil avvalgi davrlarga borib yetadi. Shu bilan bir qatorda bu yarim million yil doirasidagi inson hayoti, madaniyati, rasm-rusm hamda odatlarini urganish uchun xozirgi kunimizda yetarlicha sharoitlarga egamiz. (U.Qoraboev. "O'zbekiston bayramlari", Toshkent, 1991 yil. 6-7-bb.)

Miloddan ilgarigi I-ming yilliklar boshlarida, ya'ni bundan 30-26 asrlar muqaddam Markaziy Osiyoda o'troq dehqonchilik rivoj topishi, ibtidoiy jamiyat yemirila borib quldorlik tuzumining vujudga kelishi, Sug'd, Xorazm, Baqtriya kabi davlatlarning paydo bo'la boshlashi, yangi diniy karashlarning shakllanishi natijasida o'sha davrga xos bo'lgan turmush tarzini ifodalovchi an'ana, rasm-rusumlar, marosim va bayramona qadriyatlar yuzaga kelgan. Fargona vodiysining So'x tumanida topilgan Sulungur g'oridagi ashyoi - atiqalar, Anov va Namozgoh, Sopollitepa qazilmalarining namunalari ajdodlarimizning qadimgi makonlari qanday bo'lganligi, hayot va turmush tarzi, ma'naviy-madaniy xususiyatlari to'grisida ma'lum tasavvurlar hosil kilishga imkon beradi.

Agarda biz tarix zarvaraklarini ochishga e'tiborimizni beradigan bo'lsak, Markaziy Osiyoda istiqomad qilgan ajdodlarimiz - saklar, massagetlar, baqtriylar, sug'diylar, xorazimiylar o'zlari yashayotgan qadimgi viloyatlar, tumanlarni doimo asrashga, bir-birlariga yaqin bo'lishga intilishgan. /"O'zbekiston xalqlari tarixi" Toshkent, "FAN", 1-jild, 4-5-bb/" "... Dexqonchilik vohalarini o'rab olgan dashtu-adirlarda yashovchi chorvador xalqlar saklar nomi bilan mashhur bo'lib, ularning voha xalqlari tili, dini, kelib chiqish ildizlari, urf-odatlar bir-biriga yaqin, ular tashki dushmanga birgalashib kurashgan. Qavm-qarindosh, quda-anda bo'lib yashashgan, bir daryodan suv ichishgan, birgalashib O'rta Osiyoning qadimgi madaniyatini yaratganlar" degan ma'lumotga egamiz.

Tarixdan kishilik jamiyati taraqqiyoti ko'rsatdiki, insonlar uchun tirikchilik manbayi tabiatdan berilgan in'omlar tashkil etgan bo'lsa, zamonlar o'tishi bilan kishilarning tabiat xodisalariga nisbatan faol munosabatlari uning sirlarini xolisona o'rganishga bo'lgan qarashlari ham shakllana borib tabiatga bo'lgan xis va tuyg'ulari hamda qadriyatlari o'sgan. Natijada tabiat bergan in'om: nozu-ne'matlarni qayta ishlashga harakat qilingan, undan kelgan daromad va ehtiyojga bo'lgan munosabatlari sekin asta o'zgarib borgan. Bu xol er ishlovi madaniyatini yanada rivojlantirishga, chorvachilik va boshqa soxalarda esa yangicha uslub xamda usullardan

tulaligicha foyda ko'rish harakatiga olib kelgan. Bunday xol insonda tabiatga bo'lgan munosabatlarni tubdan o'zgartirib uni tabiatga ma'naviy munosabatda bo'lishga majbur etdi, shu bilan birga ijtimoiy-xo'jalik madaniyatining tarkib topishiga asos solingan. Tarixdan bizgacha yetib kelgan manbaalarda ta'kidlanishicha kishilik jamiyati taraqqiyotida davrlar mavjudligini ko'ramiz. (Neolit davri, tosh davri, bronza davri va xokazolar.) Masalan bronza davrlardan boshlab o'troq dehqonchilikning vujudga kelishi va uni tez rivojlanishi natijasida bahorda mehnat mavsumiga kirishish, kuzda hosilni yigib olish kabi tadbirlar yillar o'tishi bilan an'anaga aйлana boshlagan. Ma'lumki, dehqonlarning hayotida eng quvonchli voqea hosilni nes-nobud qilmay yig'ib - terib olishdir. Yil bo'yi kutilgan bunday jarayon, tabiiyki, dehqonlarda o'z mehnatlariga bo'lgan munosabat xamda ko'tarinkilik ruxidagi kayfiyatni vujudga keltirib, "*Hosil bayrami*", "*Mehnat bayrami*" uchun zamin yaratilgan. Bunday xol insonning tabiatga bo'lgan karamligiga chek qo'yib, "*Yashash uchun kurash*" shiori - mehnatning natijasida vujudga keldi. Bunday xolat mehnat natijasi yutuqlarini namoyon etib inson madaniyati va san'atini rivojlantirish uchun zamin yaratgan. Chunonchi, bunday mehnat va hosil bayramlari jarayonlarida turli chiqishlar: pantomima, erga ishlov berish, hosilni yig'ish kabi o'yinli harakatlar, raqslarga xos bo'lgan chiqishlar, biroz primitiv-soddagina ko'rinishlarda bo'lsada, keyinchalik bunday san'at turiga xoslik ma'lum darajada rivojlana borgan. Ibtidoiy jamiyat davrida jamoa va uning a'zolariga bag'ishlangan tantanalar asta-sekin shakllanagan. Bu davrda inson turli tosh qurollar yasash va ulardan foydalanishni o'rgandi, kamon va o'q-yoy, ibtidoiy sopol idishlar kashf etdi. Ibtidoiy chorvachilik va dehqonchilik shakllandi, ilk uy xayvonlari va madaniy o'simliklar paydo bo'la boshladi. Bu davrda ajdodlarimizning bunday hayotiy harakatlarida erga ishlov berish va chorva xayvonlarini parvarishlash nixoyatda muqaddas bir yumush, oliy maqsadga aylangan. Tarixdan ma'lumki, kishilar turli davrlarda har xil tarzda hayot kechirib kelganlar. Moddiy hayot sharoitlari o'zgarishi bilan ijtimoiy tuzum, ularning ongi va hayot tarzi xam, binobarin, kishilarning o'zlari xam o'zgara borganlar. Qadimgi otabobolarimiz turli-tuman dinlarga toinganlar, u bilan bog'lik bo'lib kelgan ko'plab rasm-rusumlarni bajarganlar. Ana shulardan biri har bir qabila, jamoaning o'z xudosisiga qurbonlik qilish odati mavjud bo'lgan.

Buyuk adib, tarixchi mutafakkir Abulqosim Firdavsiy "*Shoxnoma*"ning ayrim boblarida xamda "*Gushtasp*" dostonida Markaziy Osiyo va Eron xalqlarining *islomgacha bo'lgan dini-zardushtiylik* xamda uning asoschisi *Zardo'sht* haqida juda iltifot va mexr bilan yozib, uni *muhbadlar muhbad* - *donishmandlar peshvosi, payg'ambar* deb ta'riflaydi, shu bilan u asos solgan kitob "*Avesto*"ni eslaydi. Xaqiqatda xam, *Zardo'sht Sharqning birinchi faylasufi, notig'i, shoiri, donishmandi, xalq doxiysi xisoblanadi*.

Zardo'sht haqida qo'yidagilarni bayon etishni ma'qul deb hisoblaymiz. Sharqshunos olimlarimizning tadqiqotlaridagi muloxazalarga qaraganda, Spitamen urug'idan bo'lgan *Zardo'sht* eramizdan oldingi VI asrda yashagan. Otasini Paurushasa, onasini esa Dugdova deb atashgan. *Zardo'sht* bolaligidanoq ot, tuya boqish bilan shug'ullangan. O'z urug'lari orasida yurib ularning urf-odatlarini, dini hamda udumlarini o'rgangan, har xil e'tiqoddagi kishilar, donishmand va peshvolarning suxbatlarida bo'lgan, chorvadorlar orasida kezib yurib, muysafidlarning gurungi-suxbatlarida ishtirok etgan. *Zardo'sht* qurbonlik natijasida borgan sari mollarning kamayib, qirilib ketayotganini ko'rib aziyat chekkan, buning oqibati xunik bo'lishini ko'ra bilgan va qabilalar o'rtasida tez-tez sodir bo'lib turgan nizo, qirg'in urushlarning negizi xam mana shu odat bilan bog'liqligini tushungan. Keksalar bilan bo'lgan bir qancha suxbat va maslaxatlardan keyin u o'zining nor tuyasiga minib (*20 yoshli "sarik tuya egasi"* – *Zardo'sht* demakdir) qishloqma-qishloq, shaharma-shahar kezadi, natijada ko'p xudolikning zararli tomonlarini xalq o'rtasida tarqatib yakkaxudolik g'oyasini targ'ib etadi. Natijada, o'n yildan keyin yagona xudo Axuramazdani ko'rsatadi. *Zardo'sht* ilgari surgan g'oyaning asl negizi ikki narsaga tayanadi: mutloq g'oya Xurmuzdning yakkayu-yagonaligini tan olish; yaxshilik bilan yomonlik, rostgo'ylik bilan yolg'onchilik, zulmat bilan nur o'rtasidagi doimiy kurash xakidagi ta'limot – borliqni ikkiga bo'lib qarash - dualistik qarashga sodiq qolishlikni olg'a suradi.

Zardo'sht ta'limoti tobora xalqqa ta'sir o'tkazayotganini sezgan muxoliflari unga qarshi kurashga o'tlanadilar. Hayoti xavf ostida qolgan Zardo'sht bir gurux do'stlari xamda tarafdorlari bilan Xorazmdan Eronga qochib o'tib o'z ta'limotini erli xalqlar orasida uzil-kesil shakllantiradi.



Firdavsiy va Beruniyning ta'biricha, Zardo'sht birinchi bo'lib o'z dinini Eron shoxi Vishtasga asoslab ko'rsatib uning e'tirofini qozonadi. "Shaxristonxon Eron" kitobida Vishtas farmoniga ko'ra Zardo'sht 1200 bobdan iborat pandnoma - *"Avesto" ni oltin taxtachalarga yozib, shoxning otashkadasiga topshirgan* deb yozilgan. Shundan keyin shox payg'ambarning tarafdori sifatida yangi dinning ashadiy targibotchisiga aylandi. Zardo'shtning xoxishi va Vishtasning farmoniga muvofiq barcha shaharlarda otashkadalar -ibotadxonalar quriladi. Ana shunday otashkadalardan biri - eng o'lgan Balx shaxrida qad ko'taradi. Zardo'sht 77 yoshida o'sha oltin suvi bilan zarxallangan binoda ibodat paytida ko'pxudolik tarafdori Bratarvaxsh tomonidan chavaklab o'ldiriladi. (Bu ma'lumotlar "O'zbek pedagogikasi antologiyasi". Toshkent., "O'qituvchi", 1995 yilda chop etilgan 1 jild, 30-31-bet. Ko'chirma). Ammo uning ta'limoti, u asos solgan dini Ajam o'lkalarida Islom majburan qabul qildirilgunga qadar muqaddas e'tiqod bo'lib kelgan. Xozir xam Janubiy Xindistonda yuz mingdan ziyod, Shimoliy Eronda bir necha ming kishi zardo'shtiylik e'tiqodiga mansub bo'lib kelmoqdalar.

Barchamizga ma'lumki, Markaziy Osiyo xalqlari orasida turli marosimlarda, ba'zi udumlar yuzasidan sham yoqib qo'yish, to'ylarda o't-gulxan yoqib, uning atrofida bazm uyushtirish, kelinni eshik oldidagi yoqilgan gulxan atrofida bir aylantirgach, uyga olib kirish; chavandozlarning katta gulxan ustidan u yoki bu yoqqa sakrab o'tishlari, yo'rgaklangan go'dak - chaqaloqni gulxan ustidan otib olish va boshqa an'analar xam otashparastlikning xamon saqlanib kelayotgan udumlaridan ekanligini eslashimiz xam mumkun.

Qo'yida e'tiborimizni zardo'shtiylikning muqaddas sanalgan kitobi *"Avesto"*ning yaratilish davriga qaratamiz. Bu muqaddas kitob Zardo'sht tomonidan Amudaryo soxillarida eramizdan avvalgi milodning 548-529 yillari orasida yaratilgan ekan. *12 ming xo'kiz terisiga* bitilgan bu kitob davrlar utishi bilan Janubiy Eronda otashparastlik dinining ulamo-koxinlari tomonidan to'ldirilib yanada takomillashtirilgan. Makedoniyalik Aleksandr, uning nomini yuqorida xam tilga olgan edik (rus olimlari esa Aleksandr Makedonskiy deb atashadi) Sharqni zabt etganda bu kitobning nodir nusxasini Elladaga olib ketgan, o'zi uchun kerakli bo'lgan joylarini tarjima qildirib qolgan qismlarini yo'qotib yuborgan. Tarixchilarning ma'lumotlariga qaraganda, eramizning birinchi asrida Ashkoniylar podshosi Valages Ariakid, III-asrga kelib Xusrav Parviz, Shouri Xurmuzd davrida bu muqaddas kitob bir necha bor ko'chirilgan. Shu sabablarga ko'ra, keyingi vaqtlarga qadar *"Avesto"ning vatani*, ya'ni *qaysi davlatga, xalqqa mansubligi* haqida biror to'la ma'lumotlar berilmagan edi. Keyingi vaqtlarda chop etilgan ilmiy-tarixiy maqolalarda *"Avesto"ning Vatani Xorazm. Xorazm "Avesto"ning ilk markazi* kabi ma'lumotlarni uchratamiz ("Ziyokor" gazetasining 2000 yil mart, aprel, may sonlaridagi maqolalarga qarang. Tilab Maxmudov. "Avesto haqida". Toshkent 2000 y.)

Muqaddas *"Avesto"*ning 2700 yillik yubileyi shodiyonalari 3 noyabr 2001 yili ko'xna Urganch shaxrida-*"Avesto"ning vatanida* bo'lib o'tdi. Bu tantanalarda O'zbekiston Resublikasi Prezidenti I.A.Karimov qatnashib o'zining sermazmun nutqida: *"Avesto"* birgina o'zbek xalqining tarixiy ilmiy-madaniy yodgorligigina emas, balki u butun umumbashariyatning bebaxo durdonasidir" - deb ta'kidladi. Yurtboshimizning tarixchi olimlar bilan qilgan suxbatidan quyidagi fikrlarni bayon etamiz: "Eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz *"Avesto"*ning yaratilganiga 3000 yil bo'lyapti. Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oraliq'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir. *"Avesto"* ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk

ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy xujjatdirki, uni xech kim inkor etolmaydi"- deb faxr va iftixor bilan so'z yuritadilar.

"Avesto"ning qancha qismdan iboratligi, umumiy mundarijasi haqida zardo'shtiylik diniy-falsafiy tizim to'g'risidagi asar ekanligi "Denart"da (IX asrga mansub) keltirilgan ma'lumotlarga mavjud.Bu asarda "Avesto"ning 21nasok qismdan iboratligi qayd qilinib, ularning mazmuni qisqacha bayon etiladi."Avesto" sosoniylar davrida muqaddas xisoblangan va xalq orasida ishlatilmaydigan tilda yozib olingan. Bu tilni xatto ruxoniylar xam tushunaolmaganliklari sababli o'sha davrning adabiy tili xisoblangan paxlaviga tarjima qilingan va uning asosiy mazmuniga keng sharxlar berilgan. Bu tarjima va sharxlar "Zend" nomi bilan ma'lum. Shu tufayli o'tgan asrda Ovroqada "Avesto" kitobi "Zend Avesto" deb noto'g'ri nomlangan. "Avesto" katta xajmda bo'lganligi sababli dindorlarning kundalik faoliyatida foydalanish uchun "Kichik Avesto" yaratilgan. "Kichik Avesto", "Katta Avesto" dan tanlab olingan duolar to'plamidan iborat bo'lgan va bizgacha "Avesto"ning juda oz qismi etib kelgan.

VII asrda sosoniylar davlati mag'lubiyatga uchrab, Eron va O'rta Osiyo arablar tomonidan bosib olingandan so'ng zardo'shtiylik diniga sig'inuvchilar quvg'inga uchradilar va ta'qib ostiga olindilar. Shu sababli "Avesto"ning ko'pgina qismi asta-sekin unitila boshlangan. Bizgacha "Avesto"ning Yasna, Videvdat, Visparat, Yashta nomlari bilan ma'lum bo'lgan qismlari etib kelgan. "Avesto"ning mazmuniy tomonlariga e'tiborni qaratsak, bu muqaddas kitob zardo'shtiylik diniy-falsafiy tizimining printsip va qoidalaridagi mazmuni o'z ichiga olsa-da, bu tizim xozirgacha mukammal ma'lumot berolmaydi. "Avesto"ni o'rganish xamda tadqiq etish jarayoni xozirda butun jaxon ilmiy mansablarining e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda."Avesto" da bayon etilgan naturfilosofiya, komogoniya, afsonaviy tarix, etika, meditsinaga oid barcha ma'lumotlar ana shunday dualizmga asoslanadi. Bu ma'lumotlarda materialistik qarashlar, eng sodda dialektik elementlar mavjudligini ko'ramiz. "Avesto" da podsho, oliy tabaka, dindorlar va diniy urf-odatlariga katta o'rin ajratilgan, shu bilan birga ularning jamiyat hayotida yuqori o'rin egallaganliklarini alohida ta'kidlanadi, ruxoniylar muqaddas deb tasvirlanib, ularning xoxish-istaklarini qanoatlantirish uchun qurbonlik bajo keltirilishi zarur deyiladi.Shunday qilib, "Avesto" sosoniylar quldorlik davlatining rasmiy diniga aylantirilgan va zardo'shtiylikning muqaddas kitobi xisoblanib xukmron tabaqa, jumladan ruxoniylarning sinfiy manfaatini ximoya qilib kelgan.

O'tmish madaniyatimizning taraqqiyot bosqichlarini o'rganish borasida xali oldimizda ancha masuliyatli xamda olijanob ishlarni amalda bajarish vazifalari turibdi. Tarix bayonnomasiga asoslanib shunga e'tibor beramizki, ma'naviy, madaniy-ruxiy tiklanish insonning erga va uning boyliklariga bo'lgan munosabatlarini shakllantirib kelgan. Xalqimiz er, xavo, suv va olov, quyoshni Markaziy Osiyoda qadimdan ezozlab kelgan. Shu bilan birga Yurtboshimizning ta'biricha "...ajdodlarimizning zardo'shtiylikdan tortib to islomgacha bo'lgan barcha dinlari munosib qadrlab kelingan".

Shunday qilib,Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviy-madaniy hayotida zardo'shtiylik dini va uning progressiv g'oyalariga tayanish keskin shakllandi. Keyingi davrlarga kelib boshqa diniy oqimlarning tiklanishi va mumkin qadar rivojlanishiga muxit yaratildi. Zamonaviy qadriyatlarning vujudga kelishini ta'minladi va nixoyat, Markaziy Osiyodagi islom dinining ruxan o'ziga xosligini anglab etishni, madaniy boyligimizning ajralmas qismi bo'lmish islomdan oldingi madaniyatni chuqur o'rganishni taqozo etib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat .T.: O'zbekiston. 1994 y.
- Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: Ma'naviyat. 1998 y.
- Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. -T.: Ma'naviyat, 1998 y.
- Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008 y.
- Abdullaev M. Abdullaev A. Ma'naviyat va madaniyat tarixi. Farg'ona. 1998 y.
- Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. T. 1996 y.
- Ashirov A. Atadjanov SH. etnologiya. T. 2007 y.
- Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. T. 2007 y.

3-Mavzu: O`RTA OSIYO ETNOMADANIYATINING O`RGANISHDA YOZMA MANBALARNING TUTGAN O`RNI.

R E J A:

1. Tarixiy manbalarning umumiy tavsifi.
2. O`rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi tarixiga oid manbalar.

Tarixiy manbalarning umumiy tavsifi. Tarixiy manba-deganda biz o`tmishdan qolgan xamda jamiyat xayotining ayrim bosqichi yoki tomonlarini o`zida mujassamlashtirgan moddiy va ma`naviy yodgorliklarni tushunamiz. Tarixiy manbalar qatoriga qadimgi odamlarning manzilgoxlari, qadimgi shaharlar, qal`alar va ularning xarobalari, sug`orish inshootlari qoldiqlari, ajdodlarimizning mehnat qurollari, uy-ro`zg`or buyumlari, zeb-ziynatlar, tangalar, qoyatosh sur`atlari, petrogliflar, yozma xujjatlar va boshqalar kiradi.

Tarixiy manbalar insonlarning ijtimoiy faoliyati davomida yaratiladi va o`tish xodisalarini o`zida aks ettiradi. Tarixiy manbalarning mavjudligi tarix fani rivojlanishining asosiy shartidir. Tarixiy manbalarsiz tarixni o`rganish mumkin emas.

Xozirgi zamon tarix fanida tarixiy manbalarni shartli ravishda quyidagi 7 asosiy guruhga bo`linadi.

1. **ASHYOVIIY MANBALAR.** Ashyoviy manbalarga qadimgi odamlarning manzilgoxlari, binolar, turli inshootlar, mehnat qurollari va turli buyumlar kiradi. Ashyoviy manbalarni qidirib topish va o`rganish bilan asosan arxeologiya fani shug`ullanadi.

2. **ETNOGRAFIK MANBALAR.** Xalqlarning kelib chiqishi, turmush tarzi, ma`naviy xayotini, sodir bo`lgan va bo`layotgan etnik jarayonlarni o`zida aks ettirgan materiallar etnografik manbalar guruhiga kiradi. Bu manbalarni ko`makchi tarix fanlari - etnologiya fani o`rganadi. Etnografik manbalar ayrim xollarda uzoq o`tmishini qayta tiklashda g`oyat muhim rol` o`ynaydi. Masalan, XIX asrda amerikalik etnograf olim L. Morgan SHimoliy Amerikada yashagan xindularning irokezlar qabilasi xayotini o`rganib, o`zining "Qadimgi jamiyat" nomli asarini yozdi. Uning bu asarini insoniyat tarixining ilk davri - ibtidoiy jamiyat tarixini tadqiq etishda yaqindan yordam berdi. Xozirgi kunda turli o`zbek urug`lariga mansub bo`lgan axoli guruhlarining jamlovi. Ularning etnik xususiyatlarini o`rganish tariximizning etnik saxifalarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3. **FOL`KLOR MANBALAR.** Xalq uzoq asrlar davomida o`zi ortirgan tarixiy bilimlarni og`zaki ijod orqali avlodlardan-avlodga etkazib keldi. Turli rivoyatlar, asotirlar, xalq dostonlari va maqollarda tarixning u yoki bu tomonlari o`z aksini topdi. Taniqli rus tarixchisi B. D. Grekov yozganidek, rivoyat va asotirlar - "Bu xalqning o`zi so`zlab bergan tarixidir". O`rta Osiyo eng qadimgi xalqlarining ogzaki ijodiyoti namunalarini bizgacha "Avesto" kitobi orqali, shuningdek antik tarixchilar xamda Tabariy, Narshaxiy, Beruniy va boshqalar asarlari orqali etib keldi. O`rta Osiyoda istiqomat qilgan qadimgi qabila va elatlarning rivoyatu asotirlarlari ularning turmush tarzi va ma`naviy dunyosi xaqida ma`lumot beradi. Qadimgi ajdodlarimizning ajnabiy bosqinchilarga qarshi olib borgan kurashlari to`grisida hikoya qiladi. Bu rivoyat va ertaklarda malika To`maris, cho`pon SHiroq, baxodirlar Rustam va Siyovushlar obrazini yaratdi. Ularning Vatan ozodligi yo`lidagi fidokorona kurashlarini tarannum etdi. Xalq afsonalari Abulqosim Firdavsiyning mashhur "SHoxnoma" asarining syujetini tashkil etdi.

O`rta asrlarda o`zbek xalqi ijod qilgan epik dostonlar, ertaklar va qo`shiqlar, maqol va topishmoqlar xalq tarixini, uning ruhiyati va ma`naviyati tadqiq etishda muhim ahamiyatga egadir. Lekin shuni ham ta`kidlab o`tish lozimki, fol`klor manbalari aniq tarixiy manba sifatida qabul qilinishi mumkin emas. Buning asosiy sababi shuki, rivoyatlarda ko`p xronologik chalkashliklar mavjud xamda tarixiy shaxslarning faoliyat ko`rsatgan davri o`zgarib turadi. Fol`klor shunday janrki, unda so`zlovchi voqealar syujetini o`zi hohlagan tarzda o`zgartirishi mumkin. Shuning uchun fol`klor materiallaridan faqat qo`shimcha tarixiy manba sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

4. LINGVISTIK MANBA. O'zbek tili va boshqa tillarning leksik tarkibida mavjud bo'lgan va hozir ham mavjud atamalar va toponimlar (joy nomlari)ni tadqiq etish jarayonida qimmatli tarixiy materiallar qo'lga kiritilishi mumkin. Atamalar va topilmalarning kelib chiqishi va mazmunini aniqlash bilan lingvistika (tilshunoslik) fani shug'ullanadi. Bunday ma'lumotlar lingvistik manbalar deb ataladi. Masalan, "Buxoro" toponimi sanskrit tilidagi "vixara" so'zining o'zgargan varianti bo'lib, "ibodatgoh" degan ma'noni bildirilishi aniqlangan. Qadimda Buxoro shahrida buddaviylarning ibodatxonasi mavjud bo'lganligi sababli keyinchalik bu so'z mazkur shaharga nisbatan ishlatila boshlagan. Shunga o'xshab "vag'nze", "dax'yu", "suyurg'ol", "tanxo" singari yuzlab atamalarning kelib chiqishini o'rganish qiziqarli tarixiy ma'lumotlar beradi.

5. FOTOKINOXUJJATLAR. Fotograf hamda kino san'ati paydo bo'lgandan so'ng tarixiy manbalarning yangi bir guruhi vujudga keldi. Bunday manbalar fotoxujjatlar deb ataladi. Toshkentdagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy kinofotofonoxujjatlar Davlat arxivida XIX asrning oxiridan hozirgi kunga qadar bo'lgan muddatda o'lkamizda sodir bo'lgan voqealarni aks ettiruvchi boy fotoxujjatlar kolleksiyasi saqlanadi. Kinoxujjatlar esa asosan Oktyabr to'ntarishidan keyingi davrni aks ettiradi. Fotokinoxujjatlarning muhim tomoni shundan iboratki, ular tariximizning turli laxzalarini jonli tarzda gavdalantiradi. Xujjatlarning bu guruhini o'rganish va ulardan foydalanish bizning tarixiy tasavvurimizni yana kengaytiradi va chuqurlashtiradi.

6. FONOXUJJATLAR. Fonoxujjatlar deganda biz grammafona plastinkalari hamda magnit tasmalarga yozib olingan nutqlar, suxbatlar, adabiyot va san'at asarlarini tushunamiz. O'zbekiston Markaziy kinofotofonoxujjatlar Davlat arxivida qator shunday xujjatlar saqlanmoqda. SSSR va O'zbekiston SSR davlat va jamoat arboblari, fan adabiyot va san'at namoyondalari, ishlab chiqarish ijodkorlarining nutq va interv'yulari, eski bol'sheviklar, grajdanlar urushi va ikkinchi jahon urushi faxriylarining esdaliklari alohida o'rin tutadi. Lekin bu xujjatlarning ko'pchiligi o'sha davrda hukmron bo'lgan kommunistik mafkura ruxi bilan yo'g'irilganligini ta'kidlab o'tish zarur. Arxivda shoir va yozuvchilarning o'z asarlaridan o'qigan parchalari matni, san'at ustalarining kontsertlari ham yozib olingan. Fonoxujjatlar ham tarixning jonli manzaralarini yaratishga, adabiyot va san'at tarixini teran o'rganishda muhim o'rin tutadi.

7. YOZMA MANBALAR. Yozma manbalar tarixiy manbalarning muhim va asosiy qismi hisoblanadi. O'rta Osiyoda miloddan avvalgi 1 mingyillikda dastlab oromiy yozuvlari, so'ngra asoslangan so'g'd, xorazm va baqtriya yozuvlari tarq'aldi. Keyinchalik bu mintaqada yunon, kushon, turk va arab yozuvlari yoyildi. Qadimgi Fors, So'g'd, Xorazm, Qadimgi turk, fors-tojik, eski o'zbek, rus va boshqa tillarda bitilgan yozma manbalar ko'p asrlik tariximizni o'rganishda ulkan rol o'ynaydi. Yozma manbalar q'oyalarga, taxta va matolarga, pergament qog'ozlarga yozilgan bitiklardan iborat. Yozma manbalar davrlar bo'yicha nixoyatda notekis bo'lingandir. Eng qadimgi davrlar bo'yicha yozma manbalar nixoyatda oz bo'lib, keyingi asrlarga oid manbalar esa tobora ko'payib boradi. Yozma manbalarning katta qismi son-sanoq'siz jangu jadallar va tabiiy ofatlar natijasida nobud bo'ldi.

Bizgacha etib kelgan tarixiy manbalarning asosiy qismi milodiy X-XX asrlarga mansubdir. XIX asrning oxiri - XX asrning boshlaridan yozma manbalarning miqdori keskin oshib bordi. Hozirgi kunga kelib yozma xujjatlar shu darajada ko'payib ketdiki, ularni unifikatsiya qilish, axborotni kodlashtirish, xujjatlarni saralash va saqlash yo'llarini takomillashtirish extiyoji tug'ildi.

Tarixiy manbalarni 7 ta guruhga bo'lish shartli xarakterga egadir. Masalan, etnografik, fol'klor va lingvistik manbalar yozma shaklda yoki fotoxujjat shaklida bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, yuqorida ko'rsatib o'tilgan tarixiy manbalar guruhi o'z navbatida yana kichikroq guruhlariga bo'linishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat .T.: O'zbekiston. 1994 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: Ma'naviyat. 1998 y.
3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. -T.: Ma'naviyat, 1998 y.

4. Karimov I.A. YUksak ma`naviyat – engilmas kuch. -T.: Ma`naviyat, 2008 y.
5. Abdullaev M. Abdullaev A. Ma`naviyat va madaniyat tarixi. Farg'ona. 1998 y.
6. Imomnazarov M. Milliy ma`naviyatimizning takomil bosqichlari. T. 1996 y.
7. Ashirov A. Atadjanov SH. etnologiya. T. 2007 y.
8. Ashirov A. O`zbek xalqining qadimiy e`tiqod va marosimlari. T. 2007 y.
9. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik. Farg'ona. 1998 y.
10. Murodov. M. Qorabaev U. Rustamova R . etnomadaniyat.. T.: Adolat. 2003 y.
11. SHoniyozev K. O`zbek xalqining shakllanish jarayoni. T.: SHarq. 2001y.

3-MAVZU: O`ZBEK MAROSIM FOLKLORI

REJA:

1. O`zbek folklori tarixini davrlashtirish.
2. Qadimgi davr folklori.
3. Qadimgi mif va afsonalar.
4. Turkiy xalqlarning qadimgi ishonchlari.
5. Qadimgi davr folklorining ahamiyati.

Folklor taraqqiyotining bunday bo`linishi, albatta, shartlidir, chunki folklor asarlari o`z xususiyatidan kelib chiqib barcha davrlar uchun umumiylik kasb etadi. SHuningdek, ma`lum folklor asarining yaratilgan davri aniq bo`lmaydi. Ammo davrlashtirilganda ko`proq umumiylik nazarda tutiladi, ya`ni ayrim yozma manbalar, tarixiy voqealar hisobga olinadi.

Qadimgi davr folklori deganda qadim zamonlardan to X asrga qadar yaratilgan va ijro etilgan folklor asarlarini nazarda tutamiz. Tabiiyki, bu davrda yaratilgan folklor asarlarini qaysi manba orqali o`rganamiz yoki boshqalardan qanday ajratamiz degan savol tug`iladi. Qadimgi davr folklori haqidagi ma`lumotlarni bizga qadar etib kelgan ayrim yozma manbalardan, arxeologik topilmalardan o`rganamiz.

Qadim zamonlarda bugungi kunda qozoq, qirg`iz, turkman, tatar, boshqird, ozarbayjon, o`zbek, turk va h.k. deb atalayotgan turkiy xalqlar bir qavm hisoblanganlar. SHuning uchun XVII asrgacha «turkiy» deb nomlangan atama ilmiy adabiyotlarda ko`p uchraydi. «Avesto», «O`g`uznoma», «Kitobi Dadam Qurqut» kabi asarlar qadimgi turkiy xalqlar og`zaki ijodining yodgorliklaridir. To`g`ri, «Avesto»da forsiy xalqlar hayoti ham o`z ifodasini topgan. Ammo bu kitobda qadimga ajdodlarimiz ijodi ham aks etgan. «Avesto»ning muallifi esa Xorazmlik yurtdoshimiz Zardusht bo`lganligi diqqatga sazovordir. «Avesto» yubileyining YUNESKO miqyosida nishonlanishi munosabati bilan bu haqdagi bilimlarimizga yanada aniqlik kiritildi va uning o`zbekchaga o`girilishi katta yutuq bo`ladi.

XI asrdan boshlab «Qutadg`u bilig», «Hibat - ul haqoyiq», «Devonu lug`atit-turk» kabi yozma yodgorliklar ham vujudga kela boshladi. Bu asarlarga o`sha davr folklori ta`siri juda kuchli bo`lganligi yaqqol bilinib turadi. Ayniqsa, Mahmud Koshg`ariyning «Devonu lug`atit-turk» asari, qadimgi davr turkiy xalqlar folklorini o`rganishda katta ahamiyatga ega.

Yuqorida ta`kidlab o`tilgan manbalar asosida qadimgi davr folklorida quyidagi janrlar mavjudligi aniqlanadi: mif, afsona, rivoyat, qo`shiq, maqol va marosim qo`shiqlari.

Mif - ibtidoiy jamoa a`zolari tomonidan olam va odamning paydo bo`lishi haqida to`qilgan eng qadimgi hikoyalar hisoblanadi. Islom dinidan avval ajdodlarimiz tasavvurida ezgulik va yovuzlik ruhlari, shuningdek, quyosh, hosil, urush va boshqa narsalarning ma`bud hamda ma`budalari bo`lgan. Natijada miflarda insonning inson sifatida shakllanish jarayoni o`z ifodasini topadi. SHarq ilmiy adabiyotlarida miflar arabcha asotir, forsha afsona, turkiy tilda sav atamalar bilan ham yuritiladi. Ammo jahon folklorshunosligida «mif» atamasini qo`llash an`ana bo`lganligi uchun ham biz qadimgi hikoyalarni ana shu nom bilan ataymiz.

Miflar qadimgi ajdodlarimizning quyidagi qarashlari natijasida paydo bo`lgan:

1. Totem.
2. Fetish.
3. Anim.

1. Totem - ajdodlarimiz qadim zamonlardan topinib kelgan hayvonlar, qushlar, o`simliklar.

Totemizim - ibtidoiy jamiyatda paydo bo`lgan dinning alohida shakli bo`lib, odamning ko`pincha bir hayvon yoki o`simlik bilan aloqasi borligi haqidagi ishonch - e`tiqodini anglatadi. Turkiy xalqlar, jumladan, o`zbek urug`larining ota-bobolari burgut, ilon, ot, tuya, ayiq, bo`ri, yo`lbars, arhar, qaldirg`och, g`oz, chinor, tut kabi jonli va jonsiz predmetlarga e`tiqod qo`yganlar. Ular bo`rini balo-ofatlardan saqlovchi, himoya qiluvchi va ezgulik yaratuvchi jonzod deb bilganlar.

Qadimgi manbalarda keltirilgan turk afsonalarida bo`ri turk urug`ining ajdodi sifatida namoyon bo`ladi. Afsonada tasvirlanishicha, qadimgi turklar ona bo`ridan va dushman tomonidan qirilgan urug` ichida tirik qolgan 10 yoshli o`g`il boladan tarqalgan. Hatto Ashina ismli turk urug`larining birida bo`ri kallasini tasvirlangan bayroq ham bo`lgan.

Bo`ri bilan bog`liq bo`lgan e`tiqodning asosida yangi tug`ilgan bolani salomat saqlash, yaxshi hayot kechirish, chorvani ehtiyotlash, ekinlarni yovuz kuchlar ta`siridan saqlash kabi ishonchlardan iborat bo`lgan. Bo`ri totemiga aloqador «Bo`ri qiz», «CHO`loq bo`ri» kabi ba`zi ertaklar hozirgi kunga qadar xalq orasida aytib kelinadi.

Ot totemi ham qadimgi kishilarning turmushi - tirikchiligi bilan bevosita bog`liq bo`lib, otlarni xonakilashtirish, ulardan ish hayvoni sifatida foydalanish davomida yuzaga kelgan. Arxeologik qazishmalarda topilgan yarim ot, yarim odam ko`rinishidagi maxluqlar rasmi, hozirgacha ekin maydonlarining chetida otning kalla suyagini qo`riqchi sifatida qo`yilishi va boshqalar ibtidoiy kishilar ongida saqlanib qolgan ot totemi haqidagi e`tiqodning timsolidir. O`zbek xalq dostonlarida G`irot, Boychibor, Jiyronqush, Majnunko`k, Ko`kdo`nan kabi epik ot timsollarining g`oyat katta o`rin tutishi ham shundan.

2. Fetish - qadimgi ajdodlarimiz topingan jonsiz narsa - predmetlardan iborat bo`lib, quyosh, oy, tog`, suv, non, tandir, supra, o`t (olov), yoy, qilich, raqam, rang-tus, so`z, kitob kabilar turkiy xalqlarda fetish hisoblangan. Binobarin, xalq doston va ertaklarida bu narsalarni uchrashi bejiz emas.

Xalqimiz qadimdan o`t, suv, tuproqni muqaddas deb bilgan: o`t va suvga axlat, umuman, iflos narsalarni tashlamaslik, erni urmaslik, tepmaslik, maboda bu narsalarni qilsa yomon bo`lishi haqidagi o`gitlar fikrimizning dalilidir. insonning tabiatdagi g`ayri tabiiy voqea-hodisalarga ishonch bildirish xususiyati bilan bog`liq e`tiqoddur. Masalan, qadimgi paytlarda safarga chiqqan yo`lovchi oq tuyali karvonga duch kelsa, o`z safarining muvaffaqiyatli tugashiga ishongan bo`lsa, tushida egarlangan oq ot minib sayr qilib yurganini ko`rgan kishi hayot tashvishlaridan ozod bo`lishiga ishongan.

«Oq bilakxon» ertagida yigitning toshga aylanib qolishi, «Ochil, ochil, qamishlar»da qizning qamish orasiga kirib ketishi, «YOriltosh»da toshning yorilishi va qizning bag`riga olib yana yopilishi, «YAlmog`iz kampir» ertagida odamlarning toshga aylanib yotishi, «Qilich botir»da qahramonning joni qilichida ekanligi kabilar bevosita animistik tushunchalardir.

«YOriltosh», «Ochil, ochil qamishlar», «Sim-sim, och eshigingni» kabi iltijoli yolvorishlar o`sha narsada jon bor degan tushunchaning obrazli ifodasidir. Bunday tushunchalar va qarashlar qadimgi dunyodaning boshqa xalqlarida ham mavjud bo`lgan. Masalan, hindlarda va SHarqning boshqa xalqlarida hozir ham sigir, ilon, ot kabi hayvonlarga, olov, tog`, o`rmon va suvga sig`inish mavjud.

Mifologiyada totem, fetish, anem tushunchalar ko`pincha bir-birini to`ldirgan holda uyg`un ifodalanadi.

Qadimgi kishilar dunyoni ikki qismga: yaxshilik va yomonlik kuchlariga ajratib tasavvur qilganlar.

«Avesto»da ikki yaratuvchi kuch - yaxshilik va yomonlik Axuramazda (Xurmuzd) va Ahriman (Angra Manyu) qiyofasida namoyon bo`ladi. Mazkur kitob g`oyasiga ko`ra, tabiat va jamiyatdagi hodisalar ikki yaratuvchining o`zaro kurashidan kelib chiqqan.

Axuramazda yaxshilik, yorug`lik, obodonchilik va ezgulik kuchlarining ma`budidir. Unga qarashli narsalar inson turmushini yaxshilashga xizmat qiladi. U o`z yordamchilari orqali olov, chorva, metall, er - suv va o`simliklar dunyosini boshqaradi.

Ahriman (Angra Manyu) barcha yozuvlik va yomonlikning rahnamosidir. U Axuramazdaga qarshi kurashadi va o`ziga qarashli devlar yordamida odamlarga azob-uqubat mashaqqat, kulfat keltiradi. Ahriman zo`r kuch va qudratga ega bo`lsa-da, biroq Axuramazda kabi har narsaga qodir va qobil emas, shu sababli yomonlik kuchlari yaxshilik oldida doim mag`lubiyatga uchraydi.

«Avesto»da yorug`lik manbai quyosh deb ko`rsatiladi. Quyosh nuri insonga hayot bag`ishlaydi. Olov quyoshning bir parchasi bo`lganligi uchun ham inson olovni muqaddas hisoblaydi.

Mitra - quyosh va yorug`lik ma`budi, Noxit (Noxid) obodonchilik va farovonlik ma`budi, Humo - baxt, to`le va davlat ma`budi, Anaxita va Xubbi (Er Xubbi) - suv ma`budi, Mirrix-urush va g`alaba ma`budi, ezgulik esa Qayumars (Gavomard), Yima (Jamshid), Gershasp kabi mirfologik obrazlarda mujassmalashgan.

«Avesto»da Anaxita zabardast, xushqomat, kamarini mahkam bog`lagan, to`g`ri so`z, marhamatli go`zal qiz sifatida tasvirlangan. U - kishilarga kuch-qudrat baxsh etuvchi, suvning mo`l bo`lishini ta`minlovchi ma`buda. Anaxita haqidagi ma`lumotlarni ko`zdan kechirish shuni ko`rsatadiki, u suv va hosildorlik homiysi bo`lib, o`zbeklar orasida Anbar otin shaklida saqlanib qolgan. Farg`ona vodiysidagi xushmanzara joylardan biri SHohimardondagi Qubbon ko`li (ko`li Qubbon)bo`lib, u aslida «Xubbilar ko`li» degan ma`noni anglatadi. Xubbi yoki erxubbi qadimgi adodlarimizning tushunchalariga ko`ra suv va suv havzalari bilan bog`liq narsalarning homiysi bo`lgan.

Xalqimiz orasida mavjud bo`lgan Kayumars (Gayya Martan, Gavomard), Yima (Jamshid) haqidagi afsonalar ham «Avesto» orqali bizga qadar etib kelgan.

Turkiy xalqlar folklorida afsona va rivoyatlar juda ko`p. Olimlarning ta`kidlashicha, real hayotda ro`y berishi mumkin bo`lmagan voqealar haqidagi hikoyalar afsonalar deb yuritiladi, lekin hamisha ham bu mezunga amal qilingan emas. Hayotda ro`y berishi mumkin bo`lgan hayratli voqealar rivoyat nomi bilan yuritilgan. Ma`lum bo`ladiki, afsona va rivoyatlar o`rtasida aniq chegarani belgilash mushkuldir.

Qadimgi yunon faylasufi Aristotelning ta`biri bilan aytganda, «Afsonalar haqiqatdan xabar beruvchi yolg`on hikoyalardir».

Xalqimiz orasida bugungi kunda ham fazoviy jismlar, hudud nomlari, rasm - rusumlar, tarixiy voqea - hodisalar bilan bog`liq afsona, rivoyatlar yashab kelmoqda. Hatto ular orasida hajviy ruhdagilari ham uchraydi.

Tariximizda avloddan-avlodga meros bo`lib kelayotgan To`maris, SHiroq, Rustam, Zariadr va Odatida, Guldursun, Dalvarzin, Qonqus, Kuyganyor, CHuli-chuli kabi afsona va rivoyatlar madaniy merosimizning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so`ng xalqimiz tarixi bilan bog`liq qadriyatlarining qayta tiklanishi yo`lida bir qator ezgu ishlar amalga oshirildi.

Navro'z bayramining ommaviy nishonlanishi, O'zbekiston televideniya'sida xalqimiz qadimdan afsona va rivoyatlar to'qib kelayotgan Burgut, Ot, Tuya, Ilon, Qaldirg'och, G'oz, Laylak kabi jonivorlar hamda parrandalar haqida uyushtirilgan bir qator ko'rsatuvlar, vaqtli matbuotda e'lon qilingan maqolalar fikrimizning dalilidir. Mif va afsonalar mohiyatini his qilish ularda ifodalangan voqea - hodisalarning asosini belgilash imkonini yaratadi.

Qadimgi adabiy merosimiz juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega, chunki har bir mif va afsona xalqimiz orzu-armonlarini ifodalash bilan birga biror bir tarbiyaviy g'oyani ham ilgari suradi.

Masalan, «SHiroq», «To'maris», «Rustami Doston» afsonlarida vatanparvarlik, chet ellik bosqinchilarga nisbatan nafrat ruhi bo'rtib turadi. «Avesto»dagi miflarda esa ezgulikning jaholat, zulm va zo'rlik ustidan g'alabasi muqarrar ekanligi ta'kidlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. –T., 2008.
2. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. "Muloqot" 11. 5-son. 1998y.
3. Karimov.I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid.barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.1997.
4. Aminjonova I E. Qadimiy yodgorliklar qissasi. T. 1968.
5. Ashirov A. Atadjanov SH. Etnologiya. T. 2007 y.
6. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. T. 2007 y.
7. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik. Farg'ona. 1998 y.

4-Mavzu: O'zbek xalq og'zaki ijodida latifa, lof va askiyaning tutgan o'rni.

REJA:

1. Latifa haqida ma'lumot.
2. O'zbek latifalarining mavzulari.
3. Loflarning badiiy xususiyatlari.
4. Latifa va loflarning tarbiyaviy ahamiyati.
5. Askiyaning maydonga kelishi.
6. Askiya turlari.
7. Mashhur askiyachilar.

Latifa - og'zaki janrning ma'lum va mashhur janrlaridan biri. U hajman kichik, mazmunni lo'nda ifodalovchi bir yoki ikki epizoddan tashkil topgan bo'lib, asosida o'tkir hajv yoxud engil yumor yotadi. Tanqid yoki yumor esa so'z o'yini yoki turli xildagi qochirimlar vositasida yuzaga keladi.

Latifa atamasi arabcha «lutf» so'zidan olingan bo'lib, muloyimlik, yaxshi muomala, yaxshilik qilmoq, marhamat ko'rsatmoq, sharaflamoq ma'nolarini anglatadi. Ammo latifa janrining mohiyatida o'rtaga tashlangan biron fikrning tinglovchi o'ylamagan, o'ziga xos echimini topish ma'nosi kuchliroqdir. SHu o'rinda «Sizni lutfan taklif qilamiz» iborasi noo'rin ekanligini ta'kidlash lozim. Aksincha lutfan tashrif buyurishingizni so'raymiz bo'lishi kerak. Latifa janrning yuzaga kelgan davri qadim zamonlarga borib taqaladi. Uning alohida janr sifatida shakllanib, gullagan davri taxminan IX-XI asrlarga to'g'ri keladi deb ta'kidlashadi folklorshunos olimlar.

Latifalar satira va yumorga asoslanadi. Bu uning o'ziga xos belgilaridan biri. Darhaqiqat, voqea va hodisalar echimida satira va yumor hal qiluvchi rol' o'ynaydi - qahramonning g'alabasini, ayni paytda qarshi tomondagi kulgili holatning mag'lubiyatini ta'minlaydi.

Latifalar asosan kichik maishiy mavzularga bag'ishlangan bo'ladi. Ular ko'pincha maishiy hayotdagi kamchiliklarni bo'rttirib ko'rsatish maqsadida yaratiladi. Ularda nutqiy

dialog ko'inishi etakchilik qiladi. SHarq xalqlari og'zaki ijodidagi latifalarning o'z qahramonlari mavjuddir. O'zbeklarda Nasriddin Afandi yoki Xo'ja Nasriddin, qozoqlarda Aldarko'sa, tojiklarda Nasriddin Afandi va Jo'xi, turkmanlarda, Mirali ismlari mashhur. SHuni ta'kidlash lozimki, SHarq xalqlari yaratgan latifalar mohiyati jihatidan bir-biriga o'xshaydi. Bir latifaning o'zi o'zbeklarda Nasriddin, hindlarda Birbol, qozoqlarda Aldarko'sa nomi bilan yuritiladi. Bunday vaziyatning vujudga kelishi sharq xalqlarining tarixan bir-biriga yaqin yashaganliklari izohlanadi. O'zbek xalq og'zaki ijodida Nasriddin obrazining vujudga kelishi asosan XIX asrning ikkinchi yarmida matbaaning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Qrimda nashr etilgan «Tarjumon» gazetasida kichik-kichik latifalarning asosiy qahramoni Xo'ja Nasriddin Afandi edi. Turkistonda litografiyaning paydo bo'lishi natijasida xalq kitoblarini nashr etish ham ommaviy tus oladi. Bundan yuz yil muqaddam o'zbek latifalari «Nasriddin Afandi latifalari» nomi ostida kitob holida nashr etiladi. SHundan so'ng bu nom qadimgi latifalardagi qahramonlar ismi -Mashrab, Kal, Aldarko'salarni siqib chiqardi.

O'zbek latifalaridagi Nasriddin obrazini ikki tomonlama talqin qilish mumkin: birinchidan, Nasriddin Afandi har qanday og'ir hayotiy vaziyatlarda aqli, tadbirkorligi, tez fikrlashi natijasida echim topa oladigan dono faylasufdir. U shoh saroyidagi kamchiliklarni tanqid qila oladi, boylarni, amaldorlarni, yomon xulqli odamlarni keskin kulgi ostiga oladi, o'zining xaq ekanligini isbotlaydi.

Ikkinchidan, Nasriddin Afandi - o'ta sodda, hayot tajribasiga ega bo'lmagan, landavur inson. Bu Nasriddin o'zining go'lligi bilan tinglovchini lol qoldiradi. Echimini topish talab qilingan vaziyatlarda noo'rin harakat qiladi. O'zining mazkur harakatini beo'xshov mulohazalari bilan asoslaydi. Agar talabchan podsho oldida mantiqiy fikr yuritish bilan uni mot qilgan Afandi birinchi talqinga mos kelsa, ko'cha bolalarini aldamoqchi bo'lib, keyin ularning ketidan o'zi ham chopib, o'zining gapiga o'zi aldangan Afandi ikkinchi talqinni esga soladi.

Latifalar turmushdagi hamma sohalar haqida yaratilishi mumkin. Latifalarning mazmuniga qarab qadimgi latifalar va zamonaviy latifalarga ajratamiz. SHuni ham ta'kidlash joizki, hozirga qadar nashr etilgan «Afandi latifalari», «Latifalar» kitoblariga kiritilgan aksariyat namunalarda zamonasozlik ko'zga tashlanadi, ya'ni Afandi boylarga, qozilarga, domla-imomlarga, podsho-vazirlarga qarshi qo'yiladi.

Latifalar ba'zan anekdot tarzida ham qo'llanadi, bu atama ko'proq so'zlashuv nutqida, asosan, Evropa hayotiga oid latifalarga nisbatan ishlatiladi.

Latifalar ayni kunlarimizda eng ko'p yaratiladigan folklor janri xisoblanadi. CHunki zamonning kamchiliklarini oshkora aytish, yozish mumkin bo'lmagan bir paytda latifa tarzida tanqid qilish mumkin. Keyingi kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, eng mushkil davrlarda, hatto, repressiya, qatli om davrida ham latifalar to'qish va aytish davom etgan:

37-yilda qamalgan bir kishidan so'rashdi:

- Senga necha yil berishdi?
- Yigirma yil.
- Nima qiluvding?
- Hech narsa.
- Bekor aytibsan, hech narsa qilmaganlarga 15 yil berishadi.

Lof - o'zbek xalq nasrining mustaqil janrlaridan biri bo'lib, o'zining tuzilishi, hajv va yumorga asoslanishi bilan latifa va askiya janrlariga yaqin turadi. SHuning uchun ham u yoki bu lofbozning so'zga chechanligi, zukkoligi va hozirjavoblik fazilati mazkur janrning tashkil topishida hal qiluvchi rol' o'ynaydi. Loflar syujeti dialog asosiga qurilgan bo'lib, hajv va engil yumorga moyilligi, voqea va hodisalar o'ta mubolag'ali tasvirlanishi bilan ajralib turadi.

Lof janri, asosan, qiziqchi va askiyabozlar orasida shakllangan va ijro etilgan. Binobarin, har bir lofda notabiiy voqealar, salbiy belgilar kulgu ostiga olinadi. Lof aytish mubolag'ali

epizodga mantiqiy javob qaytarish, soʻzga chechanlik musobaqasi shaklida oʻtadi. Masalan:

Paxsakash lofchi narvonchi lofchiga:

- Bir joyda shunday paxsa urayapmanki, balandligi ettinchi qavat osmon bilan barobar keladi, - deb maqtanibdi.
- Men ham shunday bir narvon yasayapmanki, u oʻn toʻrtinchi qavat osmonga etadi, - debdi narvonchi lofchi.
- Qoʻying-e, - debdi paxsakash lofchi.
- Rost, rost, boʻlmasa siz urayotgan paxsa uyning devoriga narvonlarsiz chiqib boʻladimi, - debdi narvonchi lofchi.

Bu lofda lofboz raqiblar oʻzaro bir-birlarini noshudlikda aylab, kamsitish orqali engil yumor hosil qiladi. Lof kompozitsiyasi nihoyatda sodda boʻlib, bahslashuvchi tomonlarning soʻzamollik bobida tortishuvi bevosita asarni yuzaga keltiradi. Syujet ixcham, savol-javob tarzida kechgan, ikki qismning mantiqiy birikuvidan tashkil topadi va hech qanday kirishsiz boshlanadi. Syujet echimi latifalarda boʻlganidek favqulodda yuz beradi.

Syujetning birinchi qismida voqea yoki hodisa boshlovchi lofchi tomonidan boʻrttirilgan holda bayon qilinadi. Ikkinchi qismida esa zukko lofchi oʻz javobida aytmoqchi boʻlgan voqea va hodisalarni yanada oshirib-toshiradi. Demak, savol tarzida aytilgan lofga javob soʻzga chechanlik, hozirjavoblikni talab etadi. Lof syujetining ikkinchi qismi birinchi qism voqealari bilan birikkan holda oʻziga xos yaxlit kompozitsiya yaratadi. Koʻrinadiki, syujet voqealari savol-javob shaklida kechadi va asarda ilgari surilgan gʻoya zukko lofchi javobida oydinlashadi.

Loflarning mavzu doirasi ham rang-barang boʻlib, ijtimoiy hayotning barcha tomonlarini qamrab oladi. Bu oʻrinda ijobiy fazilat ulugʻlansa, ikkinchi oʻrinda salbiy belgilar fosh etiladi.

Voqealikni mubolagʻalash asosida bayon etish lof janriga xos badiiy -tasviriy usul hisoblanadi. Chunki mubolagʻa u yoki bu narsa yoki hodisani oshirib, boʻrttirib tasvirlashning oʻziga xos usulidir.

Loflar tuzilishi yumorga asoslanishi, voqea va hodisalarning favqulodda echilishiga koʻra latifalarga oʻxshab ketadi. Bu oʻxshashlik har ikki janrning oʻzaro taʼsiri natijasida yuzaga kelgan. Lofning belgilari, xususan, mubolagʻalash usuli ertak va dostonlarda ham uchraydi.

Xulosa qilib aytganimizda, oʻzbek latifalari va loflari oʻzining uzoq yillik tarixi davomida xalqimiz maʼnaviyatining oʻsishiga barakali taʼsir qilib keladi. Hayotda uchraydigan ayrim nuqson va kamchiliklarni, yomon odatlarni tuzatishda, yosh avlodni umumbashariy qadriyatlar, insoniylik ruhida tarbiyalashda latifa va loflarning, shubhasiz, oʻrni beqiyosdir.

Askiya oʻzbek xalq ogʻzaki ijodidagi milliy oʻziga xos janrdir. Janrning atamasi arabcha «zakiy» soʻzidan olingan. Koʻplikdagi «azkiyo» soʻzi keyinchalik «askiya» shakliga oʻtgan. Bu soʻz soʻzamol, zakovatli, oʻtkir zehnli degan maʼnolarni anglatadi. Askiya ijrochilari askiyaboz, askiyachi deb yuritiladi.

Askiya - soʻz oʻyini, koʻchma maʼnoli soʻz va jummalarni ilgʻab olish, unga javob topa bilish, shama qilish sanʼatidir. Askiyabozlar tarafma-taraf boʻlib olib, qochirma soʻzlar bilan askiya boshlaydilar, tinglovchilar u yoki bu tomonning soʻzga chechanligi, hozirjavobligidan mamnun boʻlib kuzatadilar. Tomonlardan biri ustun kelganda, kulgi qahqahaga aylanadi. Tinglovchi ishqibozlar oʻsha tomonni maʼqullab, qarsak chalib olqishlaydilar.

Askiya hozirjavoblar musobaqasi ekan, soʻzga chechanlik uning mahorat mezonini hisoblanadi. Askiya davomida askiyabozlarning zukkoligi, chandish, badihagoʻylik sanʼatiga moyilligi hal qiluvchi vazifani ado etadi. Askiyabozning mana shu xususiyati tortishuvda zarur va kerakli soʻzlarni topa bilish, oʻz oʻrnida ishlatish mahoratini namoyon qiladi. Demak,

askiyachi soʻzga chechan, zukko va dunyoqarashi keng, bilimdon boʻlishi shart.

Askiya kompozitsiyasi tugallangan ikki fikrning bir-biriga qarshi qoʻshilishdan tashkil topadi. Har bir fikr oʻziga xos tugun va echimga ega. Qarshi qoʻyilgan fikrlar oʻzaro bir-birini inkor etishi yoki tasdiqlashi, kuchaytirishi lozim. Ana shu fikrlar asosida satira va yumor mavjud. Demak, har bir askiyada ikki xil kulgi ramziy yoki koʻchma maʼnoda aytilgan soʻz yoki ibora asosida yuzaga keladi. Chunki askiyachilarning biri tomonidan yaramas illatlar ochiladi va zaharxanda kulgi koʻtariladi. Kulgining ikkinchi xilida askiyachilardan biri noqulay holatga tushib qoladi. Bu kulgi-engil, begʻubor yumoristik ruhdagi kulgini tashkil etadi.

«Askiyaning paydo boʻlishi va shakllanishida hunarmandchilikning ahamiyati katta». Asosan, toʻquvchi-kosiblar oʻrtasida (atlas, boʻz va boshqa matolarni toʻqish nazarda tutiladi) askiyaga muhabbat tarixan koʻzga tashlanadi. Doimiy ravishda bir xil zerikarli harakat qilish holatini engillatish uchun bu janrga murojaat qilingan», - deb yozadi folklorshunos olim Omonilla Madayev.

Askiya Toshkent, Fargʻona, Andijon, Namangan viloyatlarida keng tarqalgan. Qoʻshni Qirgʻizistonning Oʻsh, Jalolobod viloyatlarida ham askiya koʻplab aytiladi. Dastlab hunarmandlar orasida paydo boʻlgan askiya keyinchalik xalqning maishiy hayoti tarkibidan oʻrin olib, gap -gashtaklarda aytib kelingan. Asta-sekin turli sayillarda, toʻylarda askiya aytilish odat tusiga kirgan va oʻziga xos musobaqa tusini olgan. Katta toʻylarga, bayramlarga mashhur askiyachilar maxsus taklif qilingan.

Askiyaning turlari juda koʻp boʻlib, folklorshunos olimlarimiz «Payrov», «Boʻlasizmi?», «Oʻxshatdim», «Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz?», «Tutal», «Rabbiya», «Safsata», «Qofiya», «Radif» kabi turlarini aniqlaganlar.

Askiyaning payrov turi muayyan mavzu atrofida ijro etiladi. Payrovda askiyabozning «raqibi»ga aytgan soʻz va jumlasini koʻchma maʼno kasb etishi shart. Bundan tashqari, u istiora, oʻxshatish, sifatlash kabi badiiy tasvir vositalari, tanosub, tajnis, mubolagʻa, singari ifoda vositalaridan keng foydalangan boʻlishi kerak. Payrovlarda askiyabozdan raqibining koʻrinishi, xarakterli qiliqlariga mos laqabni topa bilish talab etiladi. Payrov davomida soʻz yoki jumla orasiga qistirib yuboriladigan laqab, soʻz oʻyini, lutf, ihom orqali qarshi taraf-askiyabozning portretiga, kasbiga va laqabiga shama qilinadi. Bunga javob qaytaruvchi undan kuchliroq hajv qilishga urinadi. Hazil-mutoyiba nafosat doirasidan chetga chiqmasligi lozim. Chunki folklorshunoslarning taʼkidlashlaricha, bu janrning pornografiya (uyat soʻzlar) bilan bogʻliqligi bor. Shuning uchun hamma askiyalarni yozib olishni yoki radio va televideniya namoyish qilishning imkoniyati yoʻq.

Odatda, meva, parranda, dehqonchilik, paxta, qoʻshiq, kitoblar, kino, dramatik asarlarning nomlari, musiqa asboblari mavzularida payrovlar aytilish anʼanaga aylangan. SHulardan ashula payrovi shunday boshlanadi:

Mahmudjon:-Dadajon, otarchiligingiz hech qolmadi-da! Xaridor topilmasa, «Ostonangga nochor oʻldimda-keldim», deb yopishib olasiz. YO «Gadolardan biri»misiz?

Dadajon:-Sizning ham oʻyinchiligingiz hech qolmadi-da! «Noz etma» desa boʻldi-yoʻrgʻalab ketaverasiz. Har narsa evi bilan-da, «Kam-kam» boʻlsin.

Mahmudjon: - Sizdaqa bekorchi - «Eshvoy»lardan oʻrgildim, yana otingizni «Abdurahmonbegi» qoʻyvopsiz-a!

Dadajon:-Sizga birov «Assalom» desa boʻldi, toʻyga borib «Tong otguncha» yalla qilasiz.

Mahmudjon: - Keling endi, Dadajon, «Qachongacha», «Daromadi ushshoq» qilib yurasiz. Tegishli tashkilotlar ham bizga «Nazzora qil»ar!

Dadajon:- «Koshki» edi. Bizga ham gʻamxoʻrlik qiladiganlar «Bormikin»?!

Mahmudjon: - «Bu oqshom» filarmoniyaga keling, gaplashdim, «YAxshi-yaxshi» deyishdi.

Dadajon:-Ana endi biz ham «Obod oʻlkamdagi» «Mehnat ahli» ning «Rohat»ini koʻrar ekanmiz -da.

Mahmudjon: - endi bundan keyin «Oydin koʻchalar»da «Qichqir xoʻrozim»ni aytilishni bas qilarsiz.

Dadajon:-Siz ham bundan keyin sharmanda bo'ldim «Naylayin» deb yurmassiz!

Ijro etilgan payrovdagi ashula nomlari tanqid qilingan belgi-sayoqlikni fosh etadi. Aniqrog'i, to'yma-to'y yuradigan taqlidchi hofizlarni hajviy kulgi ostiga oladi.

Askiyaning «Safsata», «O'xshatdim», «Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz?», «Bo'lasizmi?», «Qofiya» «Radif» kabi namunalarini, asosan, dialog shaklida davom etadi. Savol-javoblarning har biri kichik hajmdagi epizodlardan iborat bo'ladi.

Askiyaning «O'xshatdim» turida tanqidga mo'ljallangan askiyaboz kulgili narsa yoki jonivorga o'xshatiladi. Unga qarshi tomon ham shu xilda javob qaytaradi.

Askiyaning «Safsata» turi tarafkashlarning piching yo'lida aytgan hazili shaklida kechadi. Askiyaning «Bo'lasizmi?», «Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz?» turlari shaklan «O'xshatdim»ga yaqin turadi. «O'xshatdim» turida tortishuv-o'xshatish mantiqiy xulosaga etgunga qadar cho'ziladi, keyin o'xshatilgan askiyaboz o'z raqibini o'xshatadi. O'xshatishdan maqsad maishiy-ijtimoiy hayotda g'ov bo'lib kelayotgan kamchiliklarni fosh etishdan iboratdir.

«Tutal», «Rabbiya», «Afsona» kabi askiya turlari ba'zi bir xususiyatlari bilan birinchi va ikkinchi turlarga yaqin. Tutal ko'pincha she'riy usulda aytilishi bilan ajralib turadi.

- Mana shunaqa gaplarni aytib meni dog' qoldirasiz?

- Mo'ylovni olasizu, qulog'ini sog' qoldirasiz.

- Pulini bermay yuravering, bir kuni bog' qoldirasiz.

- Osh eganda go'shtini tamomlab, tovoq tagida bizga yog' qoldirasiz.

- Bahona bilan kaklik eb bizga zog' qoldirasiz.

Askiya san'atini o'rganish va namunalarini to'plash natijasida bir qancha mashhur askiyachilarning nomlari aniqlangan. Marg'ilonlik YUsufjon qiziq SHakarjonov (1869-1959), Bachqir qishlog'idan Dehqon yuzboshi SHernazarov, qo'qonlik erka qori Karimov (1880-1956), Mamayunus Tillaboev (1885 yilda tug'ilgan), Mamatxoliq Mamasodiqov, Tursun buva Aminov (Ijroqo'm buva), andijonlik Abdulhay maxsum Qozoqov, Mulla Mamat buva, Jo'raxon Sultonov, G'oyib aka Toshmatov, Akbar Usmonov, Usmon qori Rahimbekov, Toshkentlik G'anijon Toshmatov va boshqalar tajribali, chiniqqan, mohir askiyachilar hisoblanganlar.

Askiya kishilar qalbidagi g'uborlarni quvadi, kishida beg'ubor qahqaha uyg'otadi. Hatto ayrim davlat arboblari ham usta askiyachi bo'lganliklari uchun xalq orasida katta obro'-e'tibor topganlar. Masalan, Yo'ldosh Oxunboboev, Usmon YUsupov ana shunday rahbarlardan bo'lishgan.

Xalqimiz orasida askiyaning vatani Farg'ona vodiysi degan ibora mavjud. Darhaqiqat, «Agar to'rtta vodiqlik askiya aytishayotgan bo'lsa, bilingki, askiyachilarning O'zbekiston bo'yicha birinchiligi bo'lyapti, agar to'rtta qo'qonlik askiyachi askiya aytishayotgan bo'lsa, bilingki, askiya bo'yicha jahon birinchiligi bo'lyapti» degan fikrlar bejiz aytilgan emas. O'zbek xalq askiyalari adabiyotshunos olim Rasul Muhammadiyev tomonidan o'rganilgan. Iste'dodli adib Olim Qo'chqorbekov askiyachi va qiziqchilar haqidagi hikoyatlarni yig'ib. «Kulgi darg'alari» kitobini nashr ettirdi. Bu kitobga qirqqa yaqin mashhur askiyachi va qiziqchilar haqidagi ma'lumotlar kiritilgan.

Askiyaning yozma adabiyotga ta'siri kuchli. Bu narsa Hamza, Abdulla Qodiriy, Komil YAshin, Sobir Abdulla, G'afur G'ulom asarlarida ko'proq seziladi. Sobir Abdullaning «Muqimiy» romanida xarakterli payrovlar keltirilgan. Bu payrovda boyqush orqali zulm va zo'rlik fosh qilinadi.

Askiya qadimdan xalqimiz hozirjavobligini, chechanligini, zukkologini sinab, takomillashtirib kelgan milliy janr sifatida yashab kelmoqda. Askiyachidan ko'p kitob o'qish, shuningdek, tinmay o'qib turish, dunyoqarashi keng, o'tkir zehnli bo'lishi talab qilinadi.

Bu janrning yana bir talabi «gap kelganda otangni ham ayama» shioriga amal qilishdir. Askiya bahsi tinglovchi va tomoshabinlarga olam-olam quvonch baxsh etadi, ulardagi horg'inlik, va charchoqni chiqarishda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. –T., 2008.
2. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. "Muloqot" 11. 5-son. 1998y.

3. Karimov.I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid.barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.1997.
4. Aminjonova I E. Qadimiy yodgorliklar qissasi. T. 1968.
5. Ashirov A. Atadjanov SH. Etnologiya. T. 2007 y.
6. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. T. 2007 y.
7. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik. Farg'ona. 1998 y.

5-MAVZU: Xalq og'zaki ijodi an'analari

REJA:

1. Xalq og'zaki badiiy ijodi.
2. Folklorning xalq pedagogikasi bilan aloqasi.
3. Folklorning boshqa fanlar bilan aloqasi.
4. O'zbekiston Respublikasi hukumatining folklor haqidagi qarorlari.
5. Folklor asarlarining og'zaki usulda yaratilishida

O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi o'zbek xalqining asrlar davomida ijodkor farzandlari tomonidan yaratilgan madaniy merosidir. Bu meros maqollar, matallar, latifalar, qo'shiqlar, ertaklar, dostonlar va boshqa janrlardagi asarlardan iborat. Xalqimiz og'zaki ijodining tarixiy ildizlari Markaziy Osiyoda yashab o'tgan turkiy xalqlarning mifik dunyoqarashiga borib taqaladi. Mazkur mifik qarashlar O'rxun - enasoy tosh bitiklari, «O'g'uznoma», «Kitobi dadam Qo'rqu», Koshg'ariy tuzgan «Devonu lug'atit-turk», Ahmad Yugnakiyning «Hibatul-haqoyiq», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» kabi adabiy asarlarida ham o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng xalq og'zaki ijodiga milliy qadriyatlarning ajralmas tarkibiy qismi sifatida munosabatda bo'la boshlandi. Mustaqillik zudlik bilan milliy mafkura asoslarini yaratish vazifasini kun tartibiga qo'ydi. Ayniqsa, Prezidentimiz I. A. Karimovning 1997 yil 31 avgust kuni Oliy majlis I-chaqiriq IX sessiyasida so'zlangan «Barkamol avlod-O'zbekiston kelajagining poydevori» mavzuidagi nutqida og'zaki ijod asarlariga milliy mafkura tamoyillari singdirilgan ma'naviy qadriyatlar sifatida munosabatda bo'lish masalasiga alohida e'tibor berildi.

1997 yil 6 oktyabr' kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi»ni qabul qildi. Mazkur dasturda ham xalq og'zaki ijodi namunalari yosh avlodni milliy mafkura asosida tarbiyalashning asosiy manbalaridan biri sifatida baholandi. «Folklor» atamasi inglizcha so'zdan olingan bo'lib, «xalq donoligi», «xalq donishmandligi» ma'nolarini anglatadi. Bu atama birinchi marotaba 1846 yilda Vil'yam Toms tomonidan qo'llangan va bugungi kunda jahon ilmi fanida xalq ijodi tushunchasini bildiradi. Masalan, biz «folklor» so'zini qo'llaganda xalq og'zaki ijodini nazarda tutamiz. SHu bilan birga «folklor» so'zi xalq amaliy san'ati, xalq me'morchiligi va boshqa sohalarni ifodalaydigan atamadir. Faqat har bir soha mutaxassisi folklor deganda o'z sohasini, masalan, biz xalq og'zaki ijodini, xoreograf xalq raqsini, musiqashunos esa xalq kuylarini nazarda tutadi.

Folklor asarlarida xalq hayoti badiiy aks etadi. SHuning uchun xalq og'zaki ijodi so'z san'atining - badiiy adabiyotning og'zaki shakli sifatida o'rganiladi. Xalq og'zaki ijodining maqol, topishmoq, ertak, doston, tez aytish, sanamachoq, qo'shiq, askiya kabi janrlari bor. Xalqimiz tomonidan ming yillar davomida yaratilgan og'zaki ijod namunalari o'zbek xalqining tarixiy va qimmatli madaniy merosidir. Ayni kunlarda o'rganish va asrab avaylash qayta-qayta ta'kidlanayotgan xalq qadriyatlari tarkibida xalq og'zaki ijodi ham mavjuddir. Xususan, «To'maris», «SHiroq» kabi afsonalar, «Alpomish», «Go'ro'g'lining tug'ilishi», «Ravshan», «Oshiq G'arib va SHohsanam» kabi dostonlar, «Bulbuligo'yo», «Malikai Husnobod», «Uch og'a-ini botirlar» kabi ertaklar, lirik qo'shiqlar, marosim va mehnat qo'shiqlari hamda boshqa og'zaki ijod namunalari xalqimiz qadriyatlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da xalq qadriyatlarining tarbiyaviy ahamiyati alohida qayd etilgan. Xususan,

«Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo`nalishlari» bobining «Ma`naviy-axloqiy tarbiya va ma`rifiy ishlar» moddasida: «YOsh avlodni ma`naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy an`analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi», - deyilgan. Ushbu muhim davlat hujjatida xalq og`zaki ijodining asrlar bo`yi yosh avlodni tarbiyalash vositasi bo`lib kelganligi alohida ta`kidlangan.

Bugungi kunda ma`lum bo`lyaptiki, shaxsni tarbiyalashda uning ruhiy holatiga ta`sir kilmasdan samaraga erishib bo`lmaydi. Xalq og`zaki ijodida avlod tarbiyasi aynan ana shu usuldan foydalangan holda amalga oshiriladi. Jumladan, «Alpomish» dostonida Alpomishning soddaligi va ishonuvchanligidan foydalangan dushman uni va sheriklarini tuzoqqa tushiradi. Qahramonning bir kun may ichib hushyorligining yo`qotishi 7 yil zindonda yotishiga sabab bo`ladi. YOki dostonida aka-uka Boybo`ri va Boysarining murossasizligi tufayli o`n minglab qo`ng`irotlarning boshiga misilsiz ko`rgiliklar tushadi.

Bundan ma`lum bo`ladiki, dono xalqimiz psixologiya fanining zamonaviy yutuqlaridan bexabar holda yoshlarni tarbiyalashda eng ma`qul yo`lni tanlagan ekan.

Pedagogikada yosh avlodni vatanparvarlik, xalqparvarlik, mehnatsevarlik, rostgo`ylik ruhida tarbiyalash masalasiga alohida e`tibor beriladi. Bundan tashqari, xalq o`z farzandlarining ziyrak, irodali, insonparvar bo`lib etishishini orzu qilgan. Xalq og`zaki badiiy ijodidagi asarlarda tanqid ostiga olingan qahramon o`z fe`lidagi kamchiliklarni tuzatadi va murod-maqsadiga etadi. Bu misollar ham xalqimiz og`zaki ijodining muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Xalq og`zaki ijodi bilan yaqindan tanishish bu asarlarda inson tarbiyasiga oid hech qanday bo`sh o`rin qolmaganligini ko`rsatadi. Xususan, ba`zi ertaklarda asar qahramonining ziyrakligini tekshiruvchi topishmoqlar mavjud. Bir qator epik asarlarda esa hayotda yomonlik qilgan shaxsning jazosiz qolmasligi ta`kidlanadi. Bevosita yosh bolalarning tarbiyasiga oid masalalar ham xalq og`zaki ijodi namunalariidan sezilarli o`rin olgan. Bu o`rinda topishmoqlarda majoziy fikr yuritilishini, tez aytishlarda nutq organlari shakllanishiga e`tibor berilganini, bolalar qo`shiqlarida estetik tarbiya bilan jismoniy tarbiyaning uyg`un ekanligini nazarda tutamiz.

Xalq og`zaki ijodi va xalq pedagogikasining aloqasi haqida maxsus fikr yuritilar ekan, o`rganilayotgan asarning ma`rifiy ahamiyatini ham e`tiborga olmoq maqsadga muvofiqdir. CHunki xalq og`zaki ijodida katta o`rin tutuvchi doston va ertaklar orqali yosh avlodga qadim zamonlarda quyosh, er, suv, ot, tuya, yo`lbars, baliq, qaldirg`och, behi, chinor kabi tushunchalarning muqaddasligi uqtirilgan. SHuningdek, bunday asarlarda to`y, aza kabi marosimlar qanday o`tkazilishi haqida aniq ma`lumotlar berilgan. Natijada doston va ertaklarni tinglovchilar bir tomondan, hayot, ikkinchi tomondan, badiiy ijod namunalari orqali milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalanganlar. Bu esa bugungi kunda davlatimiz tomonidan alohida e`tibor berilayotgan umuminsoniylikni va milliylikni, mustaqillik mafkurasi asoslarini o`zlashtirish omili hisoblangan.

Akademik litsey talabalar yaqin kelajakda oliy o`quv yurtlariga o`qishga kirishlarini va ko`plari maorif xodimlari bo`lib etishishini nazarda tutsak, og`zaki ijod asarlarini o`rganishlari zarurligi aniq seziladi. Talabalar og`zaki ijod asarlarini o`qish jarayonida faqat asar mazmuniga emas, balki asar matnidagi mifik dunyoqarash elementlariga, rasm-rusum o`tkazish tartiblariga ham e`tibor bermoqlari lozimdir. O`zbek xalq og`zaki ijodi namunalariida ilgari surilgan ezgu g`oyalar xalq pedagogikasi bilan chambarchas bog`liqligi katta ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari o`zbek folklori elshunoslik (etnografiya), shevashunoslik (dialektologiya), til va adabiyot tarixi, madaniyatshunoslik, musiqa, adabiyot nazariyasi, tilshunoslik, tarix, arxeologiya kabi yana bir qator fanlar bilan ham uzviy aloqada bo`ladi.

Qadimgi davr folklori manbai bo`lmish «Avesto», «O`g`uznoma», O`rxun-Enasoy toshbitiklari, Mahmud Koshg`ariyning «Devoni lug`atit - turk» asari kabi yodgorliklar ayni paytda o`zbek adabiyoti tarixining ham o`rganish manbaidir. SHuni ham ta`kidlash zarurki, folklor namunalari tilshunoslikning ham o`rganish manbai hisoblanadi. Folklor asarlarida tilga

olingan ko'plab ma'lumotlar arxeologik topilmalar orqali isbotlanmoqda. Xalqimizning uzoq yillik boy tarixi, urf – odatlari, ezgu fazilatlar folklor asarlarida badiiy in'ikosini topganligi vatanimiz tarixini o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi. Vatanimizda Istiqlol yillarida folklor bilan bog'liq bir qancha qarorlar qabul qilindi va xayrli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1991 yildan buyon Navro'z bayrami umumxalq bayrami sifatida nishonlanmoqda. Keyingi yillarda o'zbek folklori namunalarining ko'plab nashr etilayotgani ham og'zaki ijodimizga Davlat siyosati darajasida baho berilayotganini ko'rsatuvchi dalildir. 1998 yilning 13 yanvar' kuni Prezidentimiz I.A.Karimov «Alpomish» dostonining 1000 yilligini nishonlash haqidagi farmonga imzo chekdi. YUbley tantanalari 1999 yil noyabr oyida Surxondaryoda keng nishonlandi.

YUNESKOning 1999 yil noyabrdagi 30-sessiyasida «Avesto» kitobining 2700 yillik yubileyini nishonlash haqidagi qarori qabul qilingan edi. 2000 yil 23 martda esa bu ezgu tashabbusni qo'llab - quvvatlovchi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Avesto»ning 2700 yilligini nishonlash to'g'risidagi qarori qabul qilindi. SHundan so'ng bu qadimiy kitob haqida o'nlab maqolalar, tadqiqotlar e'lon qilindi. SHoir Asqar Mahkam asarning kattagina qismini o'zbek tiliga she'iy usulda, atoqli olim Mirsodiq Ishoqov esa nasriy yo'lda tarjima qilib nashr ettirdilar.

«Avesto» yubileyi tantanalari 2000 yil 3 noyabrda Zardusht va uning ulug' kitobi vatani hisoblanmish Xorazmda bo'lib o'tdi. «Avesto» eng qadimgi folklor namunalarini o'zida mujassamlashtirgan va keyingi davrda yaratilgan folklor hamda yozma adabiyotga juda ko'plab mavzular bergan tarixiy va o'lmas kitobdir. Prezidentimiz I. Karimov deyarli har bir asarida milliy va ma'naviy qadriyatlarimizga, jumladan, xalq og'zaki ijodi namunalarigi o'rganishga alohida e'tibor berib kelmoqda. Fikrimizga I. Karimovning «YUksak ma'naviyat – engilmas kuch» nomli kitobidagi quyidagi so'zlari dalil bo'ladi: «O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q». Zero, xalq og'zaki ijodi namunalari ham ulug' va boy tariximizning bir qismidir. 1999 yildan O'zR Vazirlar Mahkamasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarini ochish haqida qaror qabul qildi. Mazkur qarorning hayotga tatbiq etilishi natijasida xalq og'zaki ijodi fanini Akademik litseylarda alohida nazariy va amaliy kurs sifatida o'rganishga soatlar ajratilgan. Bu esa talabalar oldiga o'zbek folklori namunalarini mukammal o'rganish hamda ularda ilgari surilgan ezgu g'oyalarni o'zlashtirib olish talabini qo'yadi. Xalq og'zaki ijodi badiiy adabiyotning eng qadimiy turi hisoblanadi. O'zbek folklori jahondagi hamma xalqlar og'zaki ijodida bo'lgani kabi bir qator o'ziga xos belgilariga ega. Bu belgi-xususiyatlar asosan og'zaki shakldagi so'z san'ati namunalarining yozma adabiyot asarlaridan farqlovchi xususiyatlar hisoblanadi. Ularning tartibi haqida folklorshunos olimlarning fikrlari turlicha. Masalan, O. Madev an'anaviylikni folklorning birinchi xususiyati deb hisoblaydi. Biz quyidagi tartib tarafdorlarining fikriga qo'shilamiz:

1. Og'zakilik va badihago'ylik.
2. Jamoaviylik va ommaviylik.
3. An'anaviylik.
4. Ko'p nusxalilik va tarmoqlilik.
5. Anonimlik.

Og'zakilik va badihago'ylik og'zaki ijod asarlarining shakliy ko'rinishi bilan bog'liqdir. Asrlar davomida bizgacha etib kelgan doston, ertak, qo'shiq, maqol va boshqa asarlar og'zaki tarzda yaratilgan, og'zaki tarzda avloddan-avlodga o'tgan va xalq madaniyatining og'zaki merosiga aylangan. Ko'p yillardan buyon og'zaki ijod namunalarini o'rganish bo'yicha olib borilgan kuzatuvlar og'zakilikning ijobiy va salbiy jihatlari borligini tasdiqlamoqda. Bizningcha, og'zakilik xalq ijodining omma orasiga tarqalishida va keng tus olishida ijobiy ahamiyatga ega. CHunki asarlarning bu shaklda ijro etilishi ijrochi zimmasiga ortiqcha mas'uliyat yuklamaydi. Ammo masalaning ikkinchi tomonini ham qayd etmoq lozim, xususan, ayrim ijod namunalari

aynan og`zaki tarzda ijro etilganligi uchun ijrochining vafoti bilan asarning hayoti ham to`xtaydi, unutiladi. Ayrim ijod namunalarining shogirdlar tomonidan o`zlashtirilmaganligi yoki olimlar tomonidan yozib olinmaganligi oqibatida vaqt o`tish bilan esdan chiqadi, asar yo`qolib ketadi. Badihago`ylik xalq og`zaki ijodidagi bevosita og`zakilik xususiyatidan kelib chiqadigan belgidir. Badihago`ylik yozma ijodda yo`q, chunki yozma jarayon individual ijod bilan bog`langandir. Badihago`ylik esa tinglovchi auditoriyasi bilan bog`langan holda namoyon bo`ladi. Xalq og`zaki ijodidagi askiya janrini badihago`yliksiz tasavvur qilib bo`lmaydi.

SHuningdek, doston, ertak va boshqa folklor namunalarining ijrosi jarayonida ijrochi asar matniga yo`l-yo`lakay o`zgarish kiritishi, ba`zan yangi lavhalarni o`ylab topishi, ayrimlaridan voz kechishi mumkin.

Jamoaviylik va ommaviylik tushunchasi ham xalq og`zaki ijodida muhim belgi hisoblanadi. Bu o`rinda asarning yaratilishi jamoa bilan, uning tarqalishi xalq orasida yashashi ommaviylik bilan bog`liqligini ta`kidlab o`tish zarur. Xalq og`zaki ijodidagi har bir asarning vujudga kelishi, janr sifatida takomillashuvi, so`z san`atining namunasi sifatida xalqqa ta`sir etishi unda jamoaviyning ishtiroki bilan belgilanadi. Folkloridagi jamoaviylik tushunchasi bilan biron jismoniy mehnatni amalga oshirishdagi jamoaviylik tushunchasi o`rtasida farq bor. Folklorshunos olimlarning ta`kidlashlariga ko`ra jamoa bo`lib paxta terish mumkin, imorat qurish mumkin, lekin bevosita jamoa bo`lib asar yaratish mumkin emas. Doston, ertaklarning, shakllanishida jamoaviylik tushunchasi nisbiy ma`noga ega bo`ladi. CHunki folklor asarining yaratilishida birinchi vazifani ijod qilish iqtidoriga ega bo`lgan shaxs bajaradi. Ammo shaxs yaratgan dastlabki asar ko`rinishi yillar davomida og`zaki usulda ijro etilishi natijasida, xalqning boshqa iqtidorli farzandlari tomonidan unga qayta-qayta o`zgarishlar kiritiladi, natijada jamoa ijodi sifatida shakllanadi. Olimlarning kuzatishlari shuni tasdiqlayaptiki, hatto tinglovchilar ijro davomida asardagi tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan o`zlarining qiziqishlarini bildirishlari orqali ham mazkur asar nusxasiga o`zgarishlar kiritar ekanlar. O`ylaymizki, ana shu jarayonni ham folkloridagi jamoaviylik belgisi bilan bog`lash mumkin bo`ladi. Binobarin, xalq og`zaki ijodida jamoaviylik va individual ijod tushunchasi bir-birini inkor etmaydi. Ommaviylik esa yaratilgan folklor namunasining xalq vakillari istiqomat qiluvchi hamma hududlarda tarqalishi bilan bog`liqdir. To`g`ri, bu hududlar ba`zan tarixiy - etnografik jihatdan chegaralangan bo`lishi mumkin. Masalan, doston, ertak, askiya va boshqa janrlardagi asarlar O`zbekistonning hamma viloyatlarida bir xil ijro etilmaydi. Ammo shunga qaramay, asarlar tarqalishidagi ommaviylik har bir namunaning o`zbek xalqi madaniy merosiga taalluqli ekanini tasdiqlayveradi.

An`anaviylik xalq og`zaki badiiy ijodining asrlar davomida hayot tajribasida sinalgan asosiy xususiyatlaridan biridir. YUqorida ta`kidlaganimizdek, folklorshunos olim Omonilla Madayev an`anaviylikni folklorning asosiy va birinchi xususiyati, deb hisoblaydi. Gap shundaki, xalqning hordiq chiqarishida, madaniy dam olishida asosiy vosita hisoblangan doston, ertak, qo`shiq, askiya, topishmoq ijrolari qadim zamonlardan buyon ma`lum an`anaga bo`ysunadi. Bu holatni bir necha yo`nalishda qayd etish mumkin:

1. Folklor asarlarining og`zaki usulda yaratilishida.
2. Og`zaki ijod asarlarining matnida.
3. Ijroning shaklida.

Folklorshunos olimlar B. Karimov, H. Zarifov, M. Afzalov, M. Alaviya, Z. Husainovalarning ma`lumot berishicha, og`zaki ijod asarlarini ijro etishda ijrochilar qat`iy odatlarga amal qilganlar. Xususan, ertak aytuvchilar tinglovchilari yig`ilganidan so`ng o`z oldiga suv, kul, tuproq, isiriq, supurgi, taroq, cho`p va boshqalarni ma`lum tartibda qo`yib ertak aytishni boshlaganlar. Topishmoq aytishda esa g`olib va mag`lub taraflarni belgilovchi shartlar e`lon qilingan. Doston ijrosida Samarqand, Xorazm, Farg`ona, (Namangan) an`analari mashhur bo`lgan. Demak, turli janrlarga oid asarlar ijrosi davomida doimiy ravishda takrorlanuvchi an`analar muhim rol` uynagan. SHubhasiz, folklorshunoslikda matniy an`analarga e`tibor berish muhimroq hisoblanadi. Biz bu o`rinda doston, ertak janrlariga mansub asarlarning nasriy va nazmiy shakllarini, asar boshlanmasidagi an`anaviy o`rinlarni nazarda tutamiz. Adabiyotshunoslikda

obraz yaratish, konflikt badiiy tasvir vositalari kabi tushunchalar etakchi xususiyatlar sanaladi. Xalq qo'shiqlaridan tortib dostonlarigacha, maqollardan tortib ertaklargacha obraz yaratish, voqeani bayon qilish, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish kabilar o'ziga xos ko'rinishlarga egadir. SHuning uchun xalq orasidan etishib chiqqan va alohida iqtidorga ega bo'lgan ijodkor - ijrochilar o'zlari yaratgan asarlarini har bir janr an'anasini hisobga olgan holda ijod qilganlar. Natijada, ular yaratgan yangi asar an'ana jihatdan original bo'lmagan. SHuninig uchun ham yangi ertak yoki doston yaratuvchi shaxs o'z nomini muallif sifatida eslashga jur'at etmagan. SHunday qilib, an'anaviylikni xalq og'zaki ijodning o'ziga xos muhim belgilaridan biri sifatida ko'rsatish mumkin bo'ladi.

Variantlilik (ko'p nusxalilik) va versiyalilik (tarmoqlilik) yozma ijodda deyarli ko'zga tashlanmaydi. CHunki bir asarning bir muallif tomonidan turli o'zgarishlar bilan o'quvchiga taqdim etilishi son va sifat jihatidan variantlilikning vujudga kelishiga imkon bermaydi. Ba'zi hollardagina yozma adabiyotdagi variantlilik haqida fikr yuritish mumkin. Jumladan, adabiyotshunoslarning ma'lumot berishicha, Said Ahmadning «Ufq» romani «SHarq YUlduzi» jurnali va alohida nashr variantiga ega. Vaholanki, og'zaki ijodda bir asarning baxshilar tomonidan ijro etilishi o'nlab variantlarni vujudga keltiradi. Folklorshunoslikka «Alpomish» dostonining 100 ga yaqin varianti ma'lum bo'lib, shulardan 30 dan ortig'i yozib olingan.

Shunday qilib, variantlilik deganda, bir asarning bir xalq doirasida syujet va kompozitsion o'zgarishlar bilan ijro etilishi tushuniladi. Har bir ijrochi o'zi ijro etayotgan asarga mahalliy sharoitdagi o'zgarishlarni, o'z dunyoqarashini, aholi o'rtasida alohida esda qoladigan voqealarni singdirib borishi oqibatida o'z nusxasini yaratadi. Bu nusxa boshqa ijrochilarnikidan voqealarni ifodalash, obrazlarni yaratish, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish jihatlariga ko'ra o'ziga xoslikka ega bo'ladi. Olimlarning eslashicha, «Alpomish» dostonini ergash Jumanbulbul sevgi dostoni qilib, Fozil Yo'ldosh og'li qahramonlik dostoni sifatida kuylaganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

8. Karimov I. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. –T., 2008.
9. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. "Muloqot" 11. 5-son. 1998y.
10. Karimov.I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid.barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.1997.
11. Aminjonova I E. Qadimiy yodgorliklar qissasi. T. 1968.
12. Ashirov A. Atadjanov SH. Etnologiya. T. 2007 y.
13. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. T. 2007 y.
14. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik. Farg'ona. 1998 y.

6-Mavzu: Xalq teatri va milliy raqslar.

REJA:

1. Teatr san'atining boshqa ijod turlaridan farqi.
2. Teatr san'ati janrlari.
3. Teatr san'atining ko'p shaklligi, uning turlari va janrlari.
4. O'zbek teatri san'atini tarixiy davrlari.
5. H.H.Niyoziy va o'zbek teatri
6. O'zbek sahna san'ati

Insoniyatning madaniy taraqqiyoti tarixini antik teatrsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ma'lumki, antik teatr mazmunan xalq hayoti, uning taqdiri bilan bog'liq ulug'vor g'oyalar teatri sifatida dunyoga kelgan edi. Qadimgi YUnonistonda esxil, Sofokl Evripid, Aristofan, Rimda Plavt va Senekalar yangi sahnaviy shakllar, umumlashgan falsafiy, teran badiiy obrazlar orqali el-yurti jo'shqin sevis, qadrlash e'tiqodlarini tarannum etdilar. Antik dunyodan bizga badiiy ijodning tragediya, komeiya janrlariga oid benihoya go'zal, badiiy yuksak adabiy namunalari etib keldi.

XX asr o'zbek teatri madaniyatimiz tarixida ro'y bergan noyob hodisadir. 1914-yili Mahmudxo'ja Behbudiyning «Padarkush» p'esasi bilan o'z pardasini ochgan o'zbek teatri ikki-

uch o'n yillik ichida har bir xalq g'ururlansa arzigulik teatr sifatida maydonga chiqdi.

O'zbek teatri jadidchilik harakatining mevasi — ma'rifiy teatr sifatida tug'ilgan edi.

Birinchi o'zbek ijodiy jamoasi bo'lmish «Turon» gruppasining «Nizom»ida teatrnin bosh maqsadi a) aholi o'rtasida sahna ishlari va hayriyaga jiddiy munosabatni rivojlantirish, b) xalq uchun spektakl ko'rsatish, unga sog'lom tomosha berish...» deb uqtirilgan edi. Sahna ishini tashkil etgan va uni xalq orasida keng yoygan Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy singari atoqli ma'rifatparvarning sa'y-harakati bilan bu teatr tez orada xalq madaniy hayotining tarkibiy qismiga aylandi. Sanoqli bir necha yil davomida o'ttizga yaqin pe'sa yaratildi, aktyorlik va rejissorlik san'atining tub tamoyillariga asos solindi.

Jadid teatri va dramaturgiyasining muhim xususiyati — uning oila hayotini tasvirlash bilan inson qalbiga kirib borish, uni ma'rifiy tarbiyalash va shu orqali jamiyat hayotida avj olib borayotgan milliy uyg'onish g'oyalarini tarannum etishda ko'ringan edi.

Jadid ma'rifatparvarlari yoqqan ma'rifat mash'ali qariyb 1930-yillarga qadar yangi g'oya va intilishlar bilan teatr hamda dramaturgiyaga kirib kelgan ahli san'at yo'llarini yoritib turdi.

SHuni ta'kidlash joizki, o'zbek teatri milliy mahdudlik qobig'ida o'ralashib qolmay, balki o'z taraqqiyoti yo'lida jahon teatri tajribasini o'zlashtirib bordi. «Turon» gruppasida boshlangan o'zga xalqlar dramaturgiyasini sahnalashtirish tajribasi keyinroq, o'zbek sahnasiga SHiller, Gogol, SEkspir singari dramaturglar asarlarining kirib kelishi bilan davom ettirildi. O'zbek aktyorlarini 1924-1927-yillari Boku teatr texnikumi va M.Uyg'ur, CHo'lpon rahbarligida Moskva teatr studiyasida tahsil ko'rganliklari ularning kasbiy darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Moskvadagi ta'lim davri rus teatrida turlicha uslubiy yo'nalishlar, izlanishlar avj olgan davrga to'g'ri kelgan edi. O'zbek aktyorlari bu shov-shuvli teatr hayotini astoydil kuzatadilar, o'rganadilar. Lekin shunisi e'tiborliki, ularga taqlid qilish, uslublarini ko'r-ko'rona qabul qilish yo'lidan bormaydilar. CHo'lpon «Me'rxold teatri» degan maqolasida, masalan, 1920-yillarda Moskva teatri hayotining yalovbardoriga aylangan bu rejissorning shon-shuhrati haqida ilhom bilan qalam tebratgan bo'lsa-da, lekin biron joyda unga ergashish, undan andoza olish fikrini olg'a surmaydi. «Bu teatrnin soddaligi biz uchun kerak. Ko'pchilikka yaqin kelishi biz uchun lozim. Bizning xalq teatri unsurlaridan ba'zilar bu teatrdan bor». YA'ni ulug' shoir chet ta'sirlarga nisbatan sezgir, hushyor turishga da'vat etib, faqat o'zbek xalq teatriga xos «ba'zi unsurlar», «soddalik», «ko'pchilikka yaqinlik» jihatlarini olish mumkinligi g'oyasini olg'a surgan.

Bu o'zbek teatrnin dastlabki davrdanoq o'z milliyligini asrash yo'lida qat'iy turganligidan guvohlik beradi. Bir jihatdan, bu ajablanarli emas. Sababi, taqdirilarini teatr va dramaturgiya bilan bog'lashga ahd qilgan kishilar eski maktab, madrasa ko'rgan, mumtoz adabiyot, musiqa, xalq teatri ta'sirida bu nafosat olamiga chinakam milliy teatr san'atini barpo etish ezgu istagi bilan kirib kelgan zotlar edi. O'zbek teatrnin asoschilari, xususan, atoqli rejissor va teatr arbobi Mannon Uyg'ur o'z atrofiga eng iste'dodli dramaturg va san'atkorlarni uyushtirib, ular bilan ilhombaxsh izlanishlar olib borar ekan, xalqimizning boy ma'naviyatiga mushtarak keladigan zamonaviy teatr barpo etish yo'lidan borgan edi.

O'zbek teatrnin tug'ilganiga o'n yil bo'lmayoq Abdurauf Fitratning «CHin sevish», «Abulfayzxon», CHo'lponning «YOrqinoy», Hamza Hakimzodaning komediya va dramalarining yaratilishi, eng qimmatlisi, bu asarlarni ovropacha drama estetikasi talablari darajasida bo'lishi shu izlanishlarning mantiqiy natijalari edi.

Musiqali dramadek murakkab sintetik san'at janrnin paydo bo'lishi ham o'zbek xalqning benihoya boy badiiy merosga egaligi va shu merosni zamonaviy teatr tiliga ko'chira oluvchi sohibi talantlar borligi bilan bog'liq edi. Dastlab kichik musiqali sahnalar tarzida ko'ringan bu janr G'ulom Zafariyning «Halima», Xurshidning «Farhod va SHirin», «Layli va Majnun» asarlarining yaratilishi bilan o'zbek teatrida alohida san'at yo'nalishi tarzida taraqqiy topdi. Ta'kidlash lozimki, o'tmishda bu «folklor janr, o'tkinchi, opera san'atiga o'tishda ko'prik vositasi xolos» degan fikr-mulohazalar musiqali drama yo'lga qanchalik to'siq bo'lmasin, u rivojlanishda davom etaverdi. Ham sof drama, ham musiqali drama asarlarini sahnalashtirishga qaratilgan «Musiqali drama va komediya teatri» deb atalgan viloyat teatrlari drama borasida hozirgi Milliy akademik drama teatridan, musiqali drama sohasida 1930-yillarda Respublika

musiqa teatri, keyin Muqimiy nomidagi musiqa teatri tajribalariga suyandi va har biri san'atimiz xazinasiga ulush bo'lib qo'shilgan badiiy-estetik qadriyatlarni yaratdi.

CHet elliklar SHekspirning «Hamlet», «Otello» kabi asarlarining o'zbek aktyorlari tomonidan yuqori darajada mujassam etilishidan hayratga tushib so'z ochar ekanlar, buning asosiy sabablaridan biri, bu spektakllarning bilan bir boshqa teatrlar postanovkasiga o'xshamasligi, ya'ni ularda SHekspir tt'oyalariga mushtarak tarzda o'zbekona dunyoqarash va badiiy qadriyatlarning ifoda etilishida deb bilish mumkin. Keng ko'lamda avj olgan shunday ijodiy jarayonlardan so'ng Abror Hidoyatov, SHukur Burhonov, Olim Xo'jayev. Sora eshonto'raeva kabi o'nlab yuqori iqtidorli drama ustalari va Lutfixonim Sarimsoqova, Razzoq Hamroyev, Mahmudjon G'ofurov singari ko'plab musiqali drama ustalarining etishib chiqishi o'zbek teatrining boshdanoq mustahkam zaminga evrilib, so'ng jahon teatri tajribalirini ijodiy o'zlashtirgan holda jadal taraqqiy topishining tabiiy mahsuli ekani o'z-o'zidan ayon bo'ladi.

Prezidentimiz Islom Karimov O'zbek Davlat akademik drama teatrining ochilishi marosimida (2002-yilning 30-avgustida) so'zlagan nutqida: Necha yillar davomida o'zining beqiyos san'ati va mahorati, klassik asarlarning betakror ijrosi bilan bu teatr nafaqat milliy san'atimiz muxlislarini, balki dunyodagi manaman degan teatrlarning mashhur rejissor va aktyorlarini, ularning eng nozikta'b teatrshunos va mutaxassislarini ham hayratda qoldirgani ma'lum», — der ekan, mutlaqo haq edi. Prezidentimizning bu nutqi o'zbek teatri tarixni anglash va uning keyingi rivojida katta ahamiyatga egadir. «Bugun, Vatanimiz, yurtimiz XXI asrga qadam qo'yib, o'zining buyuk kelajagi sari intilayotgan, bu yo'dagi barcha harakatlarimiz imon-e'tiqod tuyg'usi bilan yo'g'rilib, kuchayib borayotgan bir paytda, — deb uqtirdi Prezident, — o'z tarixiy ildizlarimizni, shu jumladan, san'atimiz, milliy teatrimiz tarixini chuqur anglash, undan saboq olish haqida gapirishimiz har jihatdan o'rinli bo'ladi, deb o'ylayman». Bu da'vatkorona so'zlar teatr haqidagi ilm-fanni rivojlantirishda ham alohida qimmatga ega.

O'zbek teatrining rivojlanishi davomida uni o'rganish, tadqiq etishga qaratilgan alohida ilm sohasi — teatr tanqidchiligi va teatrshunoslik fani tarkib topdi. M.Uyg'ur nomidagi San'at institutidan oliy malakali teatrshunos kadrlarning etishib chiqishi bilan, 1950-yillardan e'tiboran o'zbek teatrining o'tmishi va zamonaviy jarayonini ilmiy o'rganishda yangi davr boshlandi. O'zbek teatrining alohida davrlari, aktyorlik, rejissorlik san'ati muammolari, aktyor va rejissorlarning ijodiy yo'llari haqida o'nlab monografiyalar, kitoblar chop etildi. Akademik M. Rahmonovning ikki jilddan iborat «Hamza nomli O'zbek Davlat akademik drama teatri tarixi» (2001-y.), «Istiqlol va milliy teatr» (2001-y.) maqolalar to'plami, M. Qodirovning «Tomosha san'ati o'tmishidan lavhalar» (1993-y.), SH. Rizayevning «Jadid dramasi» (1997-y.), T. Islomovning «Tarix va sahna» (1998-y.), T. Tursunovning «O'zbek teatri tarixi» (2002-y.) dasturiy qo'llanmasi teatrshunoslik ilmining keyingi yillar mahsuli hisoblanadi.

«Milliy teatrimiz tarixini chuqur anglash» haqida so'z borayotgan ekan, teatrshunoslik fani oldida uning ayrim muammolari bo'yicha ilmiy monografiyalar qatori darslik va o'quv qo'llanmalari yaratish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Taassufki, hozirga qadar oliy o'quv yurtlari, litsey va kollejlarda talabalari uchun mo'ljallangan qo'llanmalar yaratilganicha yo'q. Qo'lingizdagi qo'llanma shu yo'nalishdagi ilk izlanish hisoblanadi.

O'zbek milliy teatr san'atining yaratilishi va rivojlanishi uzoq asrlarga kelib taqaladi. Akademik Mamajon Rahmonov o'zining ilmiy izlanishlarida O'rta Osiyoda aynan, yurtimizda teatr elementlari eramizdan oldin III-I asrlarda dunyoga kelganligini isbotlab bergan. Topilgan arxeologik ashyolar, xususan, sopol parchalari, ayollarning turli bezaklariga chizib qoldirilgan suratlarda hatto, Evripid tragediyalarining qahramonlari va voqealari ham tasvirlanganligi isbotlangan. Lekin bu dramaturgning tragik asarlari qaerda o'ynalgan va sahnalashtirilgan? Respublikamizda YUNO amfiteatriga o'xshagan binolar mavjud edimi? Surxondaryo vohasida, Termiz shahri yonida (avvalgi Oy-xonim shahri) eramizdan avvalgi III-I asrlarda bunyod etilgan amfiteatr qoldiqlari topilgach, bu savoolar oydinlashdi. SHu bilan birga, qiziqchi — masxaraboz aktyorlarining niqoblari va ularning kichkina-kichkina xaykalchalari (statuetka)ning Samarqandning Afrosiyob tumanida topilganligi mamlakatimiz xududida an'anaviy xalq tomosha san'atiga asoslangan maydon tomoshalari ham mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Bu san'at turi tobora rivojlana borib, asrlar davomida asta sekin o'zbek xalqining urf-odatlarini, rasm-

rusumlari bilan bog'lanib ketdi.

Teatr san'atining masxarabozlik va qiziqchilik hamda qo'g'irchoq o'yinlaridan iborat turlari Evropa uslubidagi teatr rivojlanishiga ham katta turtki bergan. XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida Turkiston hududiga Evropa shaklidagi teatr kirib kela boshlagan. Ma'rifatchilar Zokirjon Furqat, Ahmad Donish, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Mannon Uyg'ur, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon va Hamza Hakimzoda Niyoziyalar yangi shakldagi teatrning asoschilaridan bo'ldilar.

1911 yili Mahmudxo'ja Behbudiyning (1875-1919) "Padarkush" nomli dramasi dunyoga keldi. 1914 yilning 15 yanvarida Samarqand shahrining «Xalq uyi»da sahna yuzini ko'rdi, so'ngra fevral oyida Toshkentda Abdulla Avloniyning "Turon" truppasida sahnalashtiriladi. Hozirgi O'zbek Milliy akademik drama teatri aynan shu kuni dunyoga keladi.

Ushbu teatr faoliyatini rivojlantirishda va mustahkamlashda Mannon Uyg'ur bilan bir qatorda taniqli aktyorlar Abror Hidoyatov, Ma'suma qorieva, Sora eshonto'raeva, Etim Bobojonov, Zamira Hidoyatova, Mariya Kuznetsova, Sa'dixon Tabibullaev, Sharif qayumov, Olim Xo'jaev, Shukur Burhonov, Nabi Rahimov va boshqa zabardast san'atkorlarning xizmatlari katta. Ular zamonaviy o'zbek teatr san'atining poydevorini yaratdilar.

Bugungi kunda Toshkent shahri, qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarda jammi 37 ta davlat teatri mavjud bo'lib, ularda har yili 120-150 tagacha yangi original sahna asarlari yaratiladi. SHu jumladan, Toshkent shahrida 10 ta teatr va 1 ta "Diydor" teatr-studiyasi mavjud. SHuningdek, Respublikamizda "Ilhom", "Aladin", "Turon", "Muloqot", "Eski machit" singari ko'plab nodavlat teatr-studiyalari hamda havaskorlik jamoalari mavjud bo'lib, ularda teatr san'atining barcha janr va yo'nalishlarida qizg'in ijodiy jarayon davom etmoqda.

Qadimgi o'zbek teatrining repertuari va xarakteri. Tarixiy sharoit va madaniy muhit. Qadimgi o'zbek teatrining repertuari va xarakteri. O'zbek aktyorlik san'atini o'ziga xos xususiyatlari va uning badiiy mahorat darajasi. O'zbek teatrining g'oyaviy estetik asoslari.

O'zbek teatr san'atida o'zbek aktyorlik san'atining o'ziga xos xususiyatlari. O'zbek qo'shiqchilari, yallachilari, sozandalari va o'yinchilari hamda aktyorlari haqida.

Temuriylar davrida o'zbek milliy san'ati. Amir Temur va Temuriy shoxlar davrida Markaziy Osiyoda madaniyat, ilm-fan, ma'rifat gullab yashnagan. O'zbek milliy teatrining negizi qadimiy bayramlar, qiziqchilik, qo'g'irchoqbozlik, teatrlashgan tomoshalar, marosimlar, maydon namoyishlari, an'anaviy teatr raqs san'ati hamda tsirk o'yinlari haqida.

O'zbek milliy an'anaviy tomoshalar, namoyishlari, milliy madaniy merosning muhim bir turi sifatida qarab, kelajakda undan unumli foydalanganliklari haqida.

XVII-XIX asr boshlarida o'zbek teatri. Buxoro xonligi teatr san'ati, Xorazm xonligi teatr san'ati, Qo'qon xonligi teatr san'ati, hamda o'sha davrning va xonliklardagi aktyorlik san'ati haqida.

Turkistonda rus teatri faoliyati. Rossiya tomonidan O'rta Osiyoni bosib olinishi, rus va yangi ozarbayjon, yangi tatar teatrlarini Turkistonga kirib kelishi va o'sha erli ziyolilar orasida ushbu san'atga qiziqishning kuchayishi.

Ovro'pa usulidagi teatrning Turkistonga kirib kelishi va uning hozirgi zamon o'zbek milliy teatr shakllanishiga ta'siri. Turkistonda rus, ozarbayjon, tatar, arman teatr aloqalarini boshlanishi va uning yangi o'zbek teatri barpo topishidagi o'zni.

O'zbek teatr va dramaturgiyasining dastlabki qadami. O'zbek teatr sahnasida o'zbek yozma dramaturgiyasining vujudga kelishi va sahna yuzini ko'rishi, hamda dastlabki qadamlari.

Toshkentda «Turon» truppasining ochilishi va uning yangi o'zbek teatrining shakllanishi. Birinchi o'zbek milliy teatr truppasi Turon teatrining tashkil topishi 1913 yilning oxirida. Truppa rahbari Abdulla Avloniy va uning faoliyati. Turon truppasining nizomi va uning davlat adliya idoralari tomonidan tasdiqlanishi hamda uning o'lka teatrchilik harakatlaridagi o'zni. 1914-18 yillarda turon teatrining faoliyati va repertuari. 1916 yildan e'tiboran truppaga Mannon Uyg'ur kirib kelishi.

O'zbek teatr tanqidchiligini boshlanishi va yangi o'zbek teatrining shakllanishi. YAngi o'zbek teatri sahnasida 1914 yilning 27 fevralida M.Behbudiyning «Padarkush» asari «Kolizey» teatri binosida qo'yiladi. Spektaklni Ali Asqar Asqarov sahnalashtiradi. 1914 yil Nusratilla

Qudratilloning «To'y» p'esasini ko'rsatilishi «Istanbul», «Badbaxt kelin», «Baxtsiz kuyov», «Zaxarli hayot» va boshqa p'esalarning sahnalashtirilishi. Spektakl' rejissyorlari va aktyorlari.

O'zbekistonda jadidlar harakati va o'zbek milliy teatri. Jadidlarning Turkiston matbuoti sahifasida yangi o'zbek teatrini targ'ib etishlari, M.Behbudiy «Padarkush» (1911), Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy «Advokatlik osonmi?» (1914), Nusratilla Qudratillo «To'y» (1914), Xoji Mu'in SHukrullo «Eski maktab yangi maktab», «Mazluma xotin», «Ko'knori» (1916), Abdullo Qodiriy «Baxtsiz kuyov» (1914), Hamza «Zaxarli hayot» (1915) p'esalari.

Mahmudxo'ja Behbudiy Samarqand yaqinidagi Baxshiyona qishlog'ida ruhoniylar oilasida tug'ilgan. Avval u eski maktabda, so'ng madrasada tahsil ko'radi va XX asrning boshlaridan jo'shqin ma'rifatparvar sifatida ko'rini boshlaydi. Yangi usuldagi maktablar ochadi, darsliklar yaratadi, gazeta va jurnallar chop ettirib, o'zga xalqlar ilg'or tajribalarini o'zlashtirish, zamonaviy bilimni egallash haqida ko'plab maqolalar e'lon qiladi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning milliy g'oya, erkinlik ideallarini targ'ib etishda eng ommabop hisoblanmish milliy teatr san'atini barpo etish dasturi bilan maydonga chiqishi ayniqsa katta ahamiyatga ega bo'ldi. U o'zi noshir va muharrir bo'lgan «Oyna» jurnali orqali teatr san'atini uzluksiz ravishda targ'ib etadi. «Teatr nadur?», «Turkistonda birinchi milliy teatr», «Teatr, musiqa, she'r» kabi maqolalari bilan O'zbekistonda teatr tanqidchiligini boshlab berganlardan biri bo'ldi. Uning tashabbusi va da'vati bilan Nusratilla Qudratullo, Hoji Mu'in SHukrullo, Abdulla Badriy kabi yosh adiblar dramaturgiyaga kirib keladilar. Mahmudxo'ja Behbudiyning o'zi esa «Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi» (1911) p'esasini yaratish bilan ko'plab yosh ziyolilarga namuna ko'rsatdi.

U zulm va jaholatga qarshi ayovsiz kurash olib bordi. 1919-yili erkinlik dushmanlari qo'lida vahshiylarcha o'ldirildi.

Mahmudxo'ja Behbudiy teatr haqida

Teatr — ibratnomadur... Hech kimni rioya qilmasdan to'g'ri so'zlaguvchi va ochiq haqiqatni bildiruvchidir... Umumiy odatlarni nafi va zararidan paydo bo'laturg'on natijalarni teatrxonada aynan ko'rsaturlarki, har kim mundan ta'sirlanib, yomon odatlarni tark etib, yaxshilikni ziyoda ishlamoqqa sabab bo'lur... teyotr xonalari masxarabozxona bo'lmay, balki ibratxonadur, mushaxxis-aktyor muallimi axloqdurlar.

M.Behbudiyning «Padarkush» birinchi o'zbek yozma asari va uni sahnalashtirish. Birinchi Samarqandda so'ng Toshkentda, Qo'qon, Kattaqo'rg'on, Buxoro, Andijon, Namangan shaharlarida sahnalashtirilgan. «Padarkush» p'esasi avvalo milliy dramaturgiya va yangi teatr san'atining ilk namunasi bo'lsa, ikkinchidan o'sha shaharlarda nisbatan muntazam va muvafaqqat teatr tashkil topishi. O'zbek yozma milliy dramaturgiyaning shitoblanishi. «Padarkush» asari Turkiston voqeligining XX asr 10-yillaridagi buyuk madaniy va ijtimoiy voqealaridan bo'lib qolishi.

O'zbek teatri san'atini ilk davri. Teatr haqida umumiy tushuncha. Teatr san'atining boshqa san'at turlaridan farqi. Teatr janrlari. Teatr san'atining ko'p shaklliligi, uning turlari va janrlarining farq qilishi o'zbek milliy teatri misolida.

Respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning 2001-yil 30-avgustda Toshkent shahrida O'zbek davlat akademik drama teatri yangi binosining ochilishi marosimida so'zlagan nutqi.

Assalomu alaykum, aziz do'stlar!

Muhtaram san'atkorlar!

Qadrli mehmonlar!

Avvalo, barchangizni bugungi unutilmas kun — azim poytaxtimiz Toshkent shahrida ushbu ajoyib san'at saroyi — O'zbek davlat akademik drama teatrimizning yangi binosi ochilishi munosabati bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Hurmatli birodarlar!

Bugun yurtimizdagi eng ulug' va eng aziz bayram arafasida mana shu betakror, muhtasham, zamonaviy teatr koshonasi san'at muxlislari uchun o'z eshiklarini ochayotgani g'oyat quvonchlidir.

Bunday go`zal saroyning taqdimot marosimida ishtirok etishning o`zi har qanday odamni ham quvontirib, uning ko`nliga xush kayfiyat, yorug`lik bag`ishlaydi, desam, o`ylaymanki, barchangiz bu fikrga qo`shilasiz. O`zingiz bilasiz, o`zbekiston rahbari sifatida mening ko`p-ko`p xalqaro miqyosdagi katta anjumanlarda, mahobati bilan ko`zni qamashtiradigan saroylarda, imperatorlar, qirol va podshohlarning qasrlarida, bugungi zamonning eng chiroyli, boy va hashamatli binolarida bo`lishimga, u joylarda nutq so`zlashimga, muloqotlarda ishtirok etishimga to`g`ri keladi.

Lekin men mana shu daqiqalarda qalbidan bir hayajon kechirayotganimni sizlarga ochiq aytishim kerak.

Bu hayajonning sababi shundaki, o`zbek madaniyatining ko`zgusi bo`lgan mana shu akademik teatrimiz sahnasida Mannon Uyg`ur, Etim Bobojonov, Abror Hidoyatov, SHukur Burhonov, Olim Xo`jaev, Sora eshonto`raeva, Nabi Rahimov, Obid Jalilov, Zaynab Sadrieva, Toshxo`ja Xo`jaev, Aleksandr Ginzburg, G`ani A`zamov singari ne-ne buyuk san`at namoyondalarining qutlug` izlari qolgan, ovozlari yangragan, ularning o`lmas ruhi bugun ham shu dargohda kezib yuribdi.

Necha yillar davomida o`zining beqiyos san`ati va mahorati, klassik asarlarning betakror ijrosi bilan bu teatr nafaqat milliy san`atimiz muxlislarini, balki dunyodagi manaman degan teatrlarning mashhur rejissor va aktyorlarini, insonni o`ylantiradigan murakkab savollarga teatr ibрати orqali javob topishini istayman.

Sizlar o`zbek teatr san`atimizning eng yaxshi an`analarini asrab-avaylab, rivojlantirib, kelajak avlodlarga etkazasiz, milliy va umumbashariy qadriyatlarni tarannum etuvchi etuk asarlaringiz bilan xalqimiz madaniyatini yanada yuksaltirishga munosib hissa qo`shasiz, deb ishonaman.

Barchangizga tilagim shuki, sizlar sahnada betakror obrazlar yaratib, xalqimiz mehriga sazovor bo`lishdan charchamang, bizga esa ajoyib mahoratingizga qoyil qolib, san`atingizni olqishlab, sizlarga mana shunday hurmat-ehtirom, izzat-ikrom ko`rsatib yurish nasib etaversin.

Hayot haqida, inson umrining ma`no-mazmuni haqida teatr ixlosmandlari bilan qizg`in va jonli muloqotingiz davom etadigan, yurtimiz, millatimiz dovrug`ini tarannum qiladigan bu muazzam ijod maskani avvalo sizlarga, barcha san`atkorlarimizga buyursin, ezgulik va go`zallikni yuksak qadrlaydigan tomoshabinlarga, butun xalqimizga muborak bo`lsin.

Fursatdan foydalanib, ushbu madaniyat qasrini bunyod etgan qo`li gul quruvchilarimizga, me`moru muxandislarimizga, bu oliyjanob ishda qatnashgan barcha yurtdoshlarimizgi o`z nomidan, butun san`at muxlislari nomidan samimiy minnatdorlik izhor etaman.

Mana shu unutilmas daqiqalarda barchangizni Vatanimiz istiqlolining 10 yillik qutlug` to`yi bilan yana bir bor tabriklayman.

Sizlarga yangi-yangi ijodiy yutuqlar, sihat-salomatlik, xonadonlaringizga baxtu saodat tilayman. Ilhomiflgiz, iste`dodingiz yanada ziyoda bo`lsin, hamisha muxlislaringiz, xalqimiz ardog`ida bo`ling.

«Turon» teatr truppasi – birinchi o`zbek professional teatr jamoyasi va uning nizomi. Birinchi o`zbek milliy teatr truppasi – «Turon» teatri 1913 yilning oxirida Toshkentda Turon oqartuv jamiyati qoshida havaskorlar truppasi tashkil topishi. Truppa rahbari Abdulla Avloniy va uning faoliyati. «Turon» truppasining nizomi va uning davlat adliya idoralari tomonidan tasdiqlanishi, hamda uning o`lka teatrchilik harakatlaridagi o`rni. 1914-1918 yillar orasida Turon teatri faoliyati va repertuari. Spektakl` rejissyorlari va aktyorlar. Turon truppasi 1918 yil 3 noyabrda Davlat teatri sifatida ochilishi. 1918-1920 yillar orasida teatr repertuari. Turon teatr truppasining 1918-1924 yillar orasida havaskorlikdan milliy professional Davlat teatri darajasiga ko`tarilishi, hamda Turkistonda teatr san`atining etakchi kuchiga aylanishi.

Ozarbayjon va tatar teatrlarining Turkistondagi ijodiy safarlari va ularning o`zbek milliy teatrlari shakllanishidagi o`rni. Ozarbayjon, turk, tatar, hamda rus teatri dramaturgiyasi, ijodiy safarlari o`zbek teatrining shakllanishida bosh omil bo`lib xizmat qiladi. O`zbek teatrining rivojida 1915-1916 yillar sahnalashtirilgan qator tarjima asarlari katta ijobiy ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, bu masalada ozarbayjon dramaturgiyasi muhim rol` o`ynaydi.

H.H.Niyoziy va o`zbek teatri. H.H.Niyoziy va o`zbek milliy teatri. H.H.Niyoziyning

ma'rifatchilik borasidagi faoliyati, uning dramaturgiyadagi ijodiy faoliyati va teatr sohasidagi harakatlari. «Boy ila xizmatchi», «Zaxarli hayot», «Maysaraning ishi» asarlari.

Mannon Uyg'ur birinchi o'zbek professional rejissyori. Mannon Uyg'ur o'zbek sahna san'atini kamol topishi yo'lida serqirra faoliyati. Mannon Uyg'ur va Turon truppasida professional jarayonining shakllanishi a) milliy repertuarni yaratish uchun kurash yo'lida teatrning ijodiy laboratoriyaga aylanishi; Mannon Uyg'ur 20 yildan e'tiboran teatr repertuarida katta hajmdagi tomoshabinni jalb etuvchi spektakllarining ko'payishi; b) Mannon Uyg'ur va truppada zamonaviy rejissurani vujudga kelishi; v) aktyor talqin san'ati; truppada Mannon Uyg'ur boshliq barcha aktyorlarning truppani etakchi ijrochilariga aylanishi.

1917-20 yillar teatr o'lka musiqali drammatik truppasi Farg'ona vodiysi, Buxoro, Xorazm teatri. Karl Marks nomli teatr. O'lka «Namuna» teatri. O'zbek I-II teatr studiyalari Moskvada, Bakuda. Turon, Namuna 1924 yildan O'zbek Davlat sayyor truppasi nomi bilan ish yuritgan respublika teatri. Uning sahna ustalari Moskva, Bakudan qaytgan O'zbek Davlat drammatik truppasi nomi bilan qayta tashkil topishi. Qayta tashkil topgan teatr repertuarini Revizor, Xasis, Malikai Turandot, YOrqinoy singari spektakllar bilan boyishi.

O'zbek milliy teatri XX asrning 20-30 yillarida. 20 yillarning oxiri va 30 yillarning boshlaridan e'tiboran adabiyot va san'atda sho'ro voqealigini sinfiy kurash, sinfiy va partiyaviy xushyorlik, mamlakatni sanoatlashtirish va qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish nuqtai nazaridan yoritishni asosiy talab qilib qo'yilishini o'tkirlashuvi. P'esalarda o'tmish va bugungi hayot muammolarining baxsi.

Hamza nomidagi O'zbek Davlat drama teatri, hozirgi O'zbek milliy akademik drama teatri. Hamza nomidagi teatni o'zbek dramaturgiyasi o'zbek jonli adabiy tilining markaziga aylanganligi xususida.

30 yillarning boshlaridan e'tiboran davlat teatr tizimlarining qayta tashkil etilishi. Markaziy davlat teatrlari: Hamza nomidagi o'zbek davlat drama teatri (1933 yildan e'tiboran akademik drama teatri), O'zbek davlat musiqali teatri (1939 yildan e'tiboran o'zbek davlat opera va balet teatri), M.Gor'kiy nomidagi rus davlat drama teatri, respublika yosh tomoshabinlar teatri, respublika o'zbek davlat qo'g'irchoq teatri (1939). Muqimiy nomidagi o'zbek davlat musiqali drama va komediya teatri (1939-40 yillar).

O'zbekistonda opera va balet teatrlarini shakllanishi va rivojlanishi. Ushbu murakkab san'at turlarini asoslari, ularning ijodiy faoliyatlari, madaniy hayotimizdagi o'rni haqida o'zbek operasi va baleti rivojlanishi haqida. M.Qori YOqubov, H.Nosirova, S.YArashov, K.Zokirov, M.Razzoqova, G.Izmailova, B.Qorieva, G.Hamraeva – o'zbek milliy opera va balet san'ati darg'alari.

O'zbekistonda bolalar va yoshlar teatri va boshqa millat teatrlari. Asosan 1 - Turon teatri sahnasida drama, musiqali teatr, bolalar teatri shakllarining shakllanishi va 1928-1930 yillar oralig'ida davlat drama, o'zbek davlat musiqali teatr va o'zbek davlat bolalar teatrga ajralib rivojlanishiga yuz tutishi.

Viloyat teatrlari o'zbek milliy teatrlarining ajralmas qismi. 20 yillarda O'zbekistonda teatr san'atining faol shakllanishi munosabati bilan 30 yillarning boshlaridan e'tiboran viloyat teatrlarini qayta tashkil etish, tur va janrlarini aniqlash jarayoni, Farg'ona vodiysi, Andijon, Farg'ona, Namangan, Qo'qon, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxandaryo, Xorazm, Qoraqalpog'iston teatri.

O'zbek teatri ikkinchi jahon urushi yillarida (1945-41 yillar). Ikkinchi jahon urushining boshlanishi, hamma narsa front uchun shiori va Vatan himoyasi muammolarini adabiyot va san'atning bosh mavzusiga aylanishi. Mavzuning ikki jihati: front, front orti hayoti. Har bir xalq tarixining yorqin sahifalari – bosqinchilarga qarshi, yurt mustaqilligi, ozodligi kurashda jon fido etgan yorqin tarixiy siymolarni namunali badiiy obrazini yaratish san'atni, jumladan teatrning etakchi vazifasi qilib belgilanishi.

Hozirgi o'zbek dramaturglari.

Mustaqillikning ilk davridan e'tiboran O'zbekiston dramaturglari va teatrlarini o'tmish qadriyatlarini xususan, o'zbek milliy davlatchiligi va uning buyuk namoyondalari obrazlarini adolat nazari bilan gavdalantirishiga qiziqishlarining kuchayishi. Zamonaviy mavzuni

dramaturgiya va sahnada aks ettirishda muxim muammolar, davr qahramonlari qiyofalarini ta'riflash mezonlarini aniqlab olishdagi qiyinchiliklar. Respublika teatrlarida tarixiy va zamonaviy mavzudagi asarlarni istiqbol sharofati bilan qaytadan ijro etish jarayoni. Barcha o'zbek etuk dramaturglar asarlari bilan tanishish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. –T., 2008.
2. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. "Muloqot" 11. 5-son. 1998y.
3. Karimov.I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid.barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.1997.
4. Aminjonova I E. Qadimiy yodgorliklar qissasi. T. 1968.
5. Ashirov A. Atadjanov SH. etnologiya. T. 2007 y.
6. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. T. 2007 y.
7. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik. Farg'ona. 1998 y.

7-Mavzu: Ilk orta asrlar davrida tarbiya va pedagogik qarashlar

R E J A :

1. Movarounnaxrni arablar tomonidan bosib olinishi va ta'lim-tarbiya muxiti.
2. Vatanimizda duneviy pedagogika goyalari va uning nomaendalari.
3. Vatanimizda diniy pedagogik goyalar va ularning nomaendalari.
4. Uygonish davri ta'lim tizimi.

Movarounnaxr (ikki daryo oraligi eki daryo orkasidagi joy) VIII asrda arablar tomonidan bosib olingan, xalkimiz ma'naviy xayotida jiddiy uzgarishlar sodir buldi. Islom dini ulkamiz ijtimoiy ma'naviy xayotida xukmron mafkura rolini uynay boshladi.

Islom dinini xalkimiz ijtimoiy-ma'naviy takomilidagi rolga turli karashlar majud:

1. Islom dini va arablar istilosini xalkimiz ma'naviy xayotidagi ta'sirni ideallashtirish. Bunday qarash "Avesto" va "Avesto" gacha davr tarixini yaxshi bilmagan va islom ruxoniylarining ayrim vakillari tomonidan e'tirof etiladi. Ularning fikricha: xalkimiz islomgacha yovvoyillarcha turmush tarziga ega edi, arablar bizga madaniyat, ma'rifat olib kirgan.

2. Tanqidiy asosda endashuv. Ovro'pa, Rossiya olimlari ateistik (xudosizlik) nuqtai nazaridan andashadi. Ularning fikricha arablar ulkamizga jaxolat, madaniyatsizlik, xurofatni olib kelganlar, boyliklarni talagan, tinch axoliga tajavvus kilganlar.

3. Islom dini va arablar istelosini ta'sirini xolisona baxolash, bunday qarash O'zbekiston mustakillikka erishganidan so'ng shakllanadi.

Islom dini va arablar istelosi o'lkamiz ta'lim va pedagogik fikrlarni tarakkiyotiga qanday ta'sir etdi?

1. Islom dini Vatanimizga chetdan kirib kelganligi tufayli xalk o'z ixtiyori bilan uni qabul qilmagan. Natijada xalq manaviyatining barcha soxalarida birdan xukmronlikka erisha olmagan.

2. O'lkamizda fan va madaniyatning o'sha davrda ilg'or darajada rivojlanganligi islom goyalarini singdisha to'sqinlik qilgan.

3. Vatanimizda o'ziga xos ta'lim tizimi vujudga keldi.

Masalan: ta'lim- o'rganish maktab- ta'lim beradigan odam madrasa-muddaris kabilar yuzaga keldi.

Vatanimizda pedagogik g'oyalar ikki yunalishda shakllandi va rivojlandi.

1. Dunyoviy pedagogika - uni asosida yunon olimlari asos solgan g'oyalar, xind eposlari g'oyalari, o'lkamizning o'ziga xos madaniyati, tajribalar, yutuklar turardi. Dunyoviy pedagogika insonni tarbiyatning bir qismi sifatida, ta'lim tarbiya bilan kamolatga erishadi deb xisoblanadi. U yashayotgan muxit, o'z xatti-xarakati bilan bog'lik bo'ladi deb asoslanadi. Bolani yoshligidan kasb-xunarga urgatisht lozim deb, odob-axloqni foydasi to'g'risida g'oyalar olg'a suriladi. Muxammad Muso al Xorazmiy (780-850) Arab xalifaligining markazi Bog'dodda ilmlar uyi "Akademiya" boshqargan. Akademiya qoshidagi madrasada mudarrislik qilgan. Uning

"Astronomiyaga kirish ", "O'ttiz fasldan iborat astronomiya kirish" va boshqa ko'plab asarlari mavjud.

Abu Nasr Al Farobiy (873-950)

Abu Rayxon Beruniy (974-1041)

Abu Ali Ibn Sino (978-1060)

Vatanimizda XI asrga kelib yosh avlod ta'lim-tarbiyasi oid juda ko'p asarlar paydo bo'ldi: Nizomul Mulkning "Siyosatnoma", Nosir Xisravning "Saodatnoma", Kaykovusning "Qobusnoma", Yusuf Xos Xojibning "Qutagu-bilig", Axmad Yugnakiyning "Xaqqatlar armug'oni" kabilar.

Burxoniddin Zarunjiy (1150-?) Marg'ilon madrasasida katta mudarris bo'lib, uning "O'quvchilarni ta'limga yollashga doir nasixatlar" asarida: fanning mohiyati va uni takomillashtirish; ta'lim jarayonida ongli bilim olish; ta'limda fanni, o'qituvchi sherik va vaziyatni tanlash; fan va olimlarni xurmatlash; ta'limda o'quvchi intilishi, tirishqoqlik, ularni ustirish; darsni boshlash va uni xajmi, darsni o'tkazish tartibi xaqida, mashg'ulot vaqti, ta'limda o'quvchini o'qitirish va unga nasixat qilish, bilimlarni egallash xaqida; ta'limda o'qituvchi va o'quvchining muvofiqiyatini umid qilish xaqida; ta'limda Xudodan qo'rqish xaqida; ta'limda o'quvchi xotirasini tarbiyalash xaqida kabi masalalar uziga xos usulda xal etiladi.

Olimning fikricha, ilm egallash avvalo o'qituvchiga, o'qiyotgan kitobiga, bilimga nisbatan tirishqoq va chidamli bulishni talab etadi. Bir darsni puxta o'zlashtirmay, bir kitobni tugatmay, bir o'qituvchida saboqni tashlab boshqasiga o'tma. Bilimni faq'at oltita shartiga rioya qilsa puxta egallab olasan: ziyraklik, kuchli istak, jidam, o'qituvchi nasixati va etarli vaqt,- deb ta'kidlaydi.

Maxmud Zamaxshariy (1074-1144). Uning ilm olamidagi mavqeyini olimlar "Xorazm osmonidagi kuyosh" deb nisbat berganlar. Arab olimlaridan biri "Agar Xorazmning Zamaxshar kishlog'idan chiqqan olim bulmaganida biz arablar uz ona tilimizni mutloqo bilmasdan o'tib ketar edik"-deb yozgan ekan. Zamaxshariy: tilshunoslik, adabyotshunoslik, tarix, geografiya, xadis ilmlari sohasida asarlar yozgan: "Gramatika xikmatlari ", "Arab tili gramatikasi", "Eng yangi lug'at", "Vatan va tog'larning nomlari" asarlarini yozgan. Bu asarlar boshqa tillarga tarjima qilingan. Zamaxshariyning "Nozik xikmatlar"asari yoshlar tarbiyasi, ustoz-shogirt munosabatlari, oila muammolari tugrisida.

Demak, uyg'onish davrida dunyoviy pedagogika gullab yashnagan, ta'lim-tarbiya o'ziga xos yunalishda amalga oshirilgan

Uygonish davri diniy pedagogikasi

Islom dini asosidagi pedagogika:

1. Islom dini g'oyalari, (xalifalik) siyosati, ma'daniyati va ma'naviyati ta'lim-tarbiyaning mazmunini belgilab beradi.

2. Arab tili davlat, fan, ta'lim tili edi.

3. Arablar tarixi, adabiyoti, urf-odatlari muqaddas edi. Uni bilish va unga rioya etish xar bir musulmonning burchi edi.

Nomoyondalar:

Burxoniddin Marg'iloniy ar- Rishtoniy (1121-1195) Mashhur fiqh ilmi olimi, mudarris bo'lgan. Uning "Ilmga kiruvchilar uchun birinchi asos", "Ilmni nixoyasiga etkazuvchining qanoatlanishi", "Xaj marosimi","Farzlar xaqida risola" asarlarida didaktik masalalar talqin etilgan. Uning mashhur asari "Al- Xidoya" bo'lib maktab va madrasalarda iymon, urf-odatlar va marosimlarni o'rgatish to'grisida fikr yuritiladi. Bu asar butun islom dunyosi madrasalarida darslik bo'lgan. Fors, Ingliz, Turk, Rus tillariga tarjima kilingan. Uning "Fiqh soxalari bo'yicha q'ullanma" risolasida xuquq, axloq, onglik, Nikoh masalalari yoritilgan.

SHayx Aziziddin Nasafiy (XIIasr) "Xaqiqatlar gulshani", "So'ngi maqsad", "Komil inson", "Usullar va shoxlar" asarlarida inson ma'naviyat bilan bog'lik masalalar yoritilgan. Uning mashhur asari "Komil inson"da sharoit, tariqat, ma'rifat va xaqiqatga erishish yullari bayon etilgan.

U "Komil inson-yaxshi suz, yaxshi amal, yaxshi xulq va ma'rifat egasidir. Uning tili, dili pok, ilm va niyati xam pok buladi"- deb ezadi.

Demak, uyg'onish davrida o'ziga xos diniy pedagogika shakillangan va rivojlangan.

Uygonish davri ta'lim tizimi: Bu davrda uziga xos ta'lim muassasalari yuzaga kelgan. Uning bosqichlari:

1. Boshlangich maktablar. Bunday maktablar qishloq masjidлари qoshida bo'lgan. Uning vazifasi - bolalarga savod o'rgatish, Q'ur'on oyadlarini yod oldirish bo'lgan.

2. Madrasalar. Katta- katta majidlar qoshida bo'lgan. Unda o'qiydigan talabalar: Katta talabalar, o'rta talabalar, kichik talabalarga bo'lingan. Madrasalarda dars tinglash ixtiyoriy bo'lib, mudarrisni talaba tanlagan soboq talabani qoniktirmasa talaba bu mudarris olidiga bormay quya qolgan. Mustaqil bilim olish, bilimni muddaris oldida namoyish etish ta'limning asosiy usuli hisoblangan.

U yoki bu muammoni sharhlash mudarrisning vazifasi hisoblangan.

3. Qori xonalar.

4. Qizlar (otin bibilar) maktabi.

O'rta asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkir Abu Nasr Forobiy nomi bilan bo'lgan. Mashhur yunon faylasufi Arastudan keyin Sharqda o'z bilim, fikr doirasining kengligi bilan nom chiqargan Forobiyni yirik mutafakkir - "Muallimi soniy" - "Ikkinchi muallim" deb ataydilar.

Forobiy ta'lim-tarbiyaga bag'ishlagan asarlarida ta'lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim-tarbiya usullari va uslubi hashida fikr yuritadi. "Fozil odamlar shahri", "Baxt-saodatga erishuv to'g'risida" kabi asarlarida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan. Forobiy o'z ishlarida ta'lim-tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta'lim bergan bo'lsa ham, ammo har birining insonni kamolga etkazishda o'z o'rni va xususiyati bor ekanligini alohida ta'kidlaydi. Forobiy "Baxt-saodatga erishish to'g'risida" asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning ta'kidlashicha, avval bilish zarur bo'lgan ilm o'rganiladi, bu olam asoslari haqidagi ilmlar. Uni o'rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklning osmon haqidagi bilimlarni o'rganish lozim. Undan so'ng, umuman jonli tabiat o'simlik va hayvonlar haqidagi ilm o'rganiladi, deydi. Forobiy "Inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo'lish, ularning ko'maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi", deb hisoblaydi. Bunga Forobiy ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish orqali erishish mumkin, deydi. Chunki, maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya insonni xam aqliy, xam axloqiy- jihatdan kamolga etkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun qoidalarining to'g'ri bo'lib oladi va hayotda to'g'ri yo'l tutadi, boshqalar bilan to'g'ri munosabatda bo'ladi, jamiyat tartib-qoidalariga rioya etadi.

Demak, Forobiy ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan etuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi. Forobiy ta'lim tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan olim sanaladi. Ta'lim - degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya - nazariy fazilatlarini ma'lum hunarni egallash uchun zarur bo'lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o'rgatishdir, deydi olim. Abu Nasr Forobiy yana aytadiki: "Ta'lim - degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasida tug'ma fazilat va amaliy kasb hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir.

Ta'lim faqat so'z va o'rganish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo'lgan ish harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishi, o'rganishdir, - deydi. Forobiyning ta'lim-tarbiya yo'llari, usullari, vositalari haqidagi sharhlari ham qimmatlidir. U insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l - ta'lim tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim nazariy fazilatlarini birlashtirsa, tarbiya esa tug'ma fazilat - nazariy bilimlar va amaliy kasb-hunar, xulq-odob fazilatlarini birlashtiradi, ta'lim so'z va o'rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi deydi. Har ikkalasi birlashsa, etuklik bilim va amaliy ko'nikmalarni qay darajada o'rganganligiga qarab paydo bo'ladi, deb ko'rsatadi.

Demak, Forobiy ta'lim-tarbiyada rag'batlantirish Odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surgan. har ikkala usul ham pirovardida insonni har tomonlama kamolga etkazish maqsadini ko'zlaydi.

Sharqda "Shayx ur-Rais" nomi bilan mashhur bo'lgan allomalardan biri o'rta asr buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sinodir. Ibn Sino ham boshqa zamondosh qomusiy olimlar qatori

matematika, astronomiya, fizika, kimyo, biologiya, tibbiyot, dorishunoslik, ruhshunoslik, fiziologiya, falsafa, filologiya, ta'lim-tarbiya sohalarida ijod etgan va dunyoga mashhur yirik asarlar meros qoldirgan olim. Allomadan biz avlodlarga 250 dan ortiq ilmiy asar boy meros bo'lib qoldi. Abu Ali ibn Sinoning "Al-Q'onun", "Donishnoma", "Ash-Shifo", "An-Najot" kabi asarlari shular jumlasidandir. Ma'lumki, Ibn Sino ham boshqa mutafakkirlar kabi o'zining ta'lim-tarbiyaga oid sharahlarini ijtimoiy-falsafiy sharahlari bilan bog'liq holda ifodalagani, maxsus risolalar talqin etgan. Shuningdek fanlarni tasnif etadi. Bunda u birinchi o'ringa tibbiyot fanlarini qo'yadi. Falsafani esa ikki guruhga, ya'ni nazariy va amaliy guruhlariga bo'ladi. Nazariy guruh kishilarni o'zidan tashsharidagi borliq holati haqidagi bilimlarni egallashga yo'llasa, amaliy qism bizga bu dunyoda nimalar qilish kerakligini o'rgatadi, deydi. U birinchi guruhga etika, iqtisod, siyosatni kiritadi. Ikkinchi guruhga fizika, matematika, metafizika, dunyo qonuniyatlarini o'rgatuvchi barcha fanlarni kiritadi. Ibn Sino aqliy tarbiya turli bilimlarni o'rganish natijasida amalga oshsa, axloqiy tarbiya ko'proq yaxshi axloqiy xislatlarini mashq qildirish, odatlantirish, suhbat orqali amalga oshadi deb ta'kidlaydi.

Inson hissiy va ma'naviy talablarni ajratib olish imkoniyatiga ega ekan, bu imkoniyat asta-sekin inson fe'l-atvoriga xos xislatga aylana boradi. Ibn Sino insonni shakllantirishda uning atrofini o'rab olgan tashshi muhit va odamlar alohida muhim rol o'ynaydi, ana shu tashqi muhit va odamlar insonning atrof dunyoni bilishigagina emas, balki uning xulqida yaxshi yoki yomon jihatlarning tarkib topishida ham ta'sir etadi. Shuning uchun ham bolalarni tarbiyalashda ehtiyotkor bo'lish kerakligini, bola yomon odatlarga o'rganmasligi uchun, uni yomon odamlardan, yomon muhitdan uzoqrosh saqlash zarurligini uqtiradi. Ibn Sinoning tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy tarbiya masalalariga keng o'rin berilgan. Chunki inson avvalo oilada kamolga etadi. Olimning buyuk xizmatlaridan biri shundaki u insonning mehnati, qobiliyati, aql-zakovotini ulug'laydi, undagi qudratga ishonadi, inson tafakkurining tantana qilishi kerakligini tinmay targ'ib qildi. Ibn Sinoning inson kamolotida ta'lim-tarbiyaning ahamiyatiga oid sharaqlarini ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarkibidagina, emas, balki mustaqil risolalarida axloqiy masalalarni chuqur ilmiy-amaliy jihatdan ifodalagan, ilm-fan sohasida tarbiyashunos olim sifatida ham tadqiq etish, o'rganish navbatdagi vazifalardan hisoblanadi.

Xulosa qldigan bo'lsak, ushbu mavzuda Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sinolarning ijtimoiy-pedagogik qarashlari, ahloq-odob haqidagi fikrlari, g'oyalari, pedagogika sohasidagi, ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari. O'zbek xalq pedagogikasining yirik namoyandalari bo'lgan buyuk allomalarning asarlari, yangi usul maktablari jadidlar oqimi, ta'lim sohasidagi qo'shilgan xissalari haqida mulohazalar keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat .T.: O'zbekiston. 1994 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: Ma'naviyat. 1998 y.
3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. -T.: Ma'naviyat, 1998 y.
4. Abdullaev M. Abdullaev A. Ma'naviyat va madaniyat tarixi. Farg'ona. 1998 y.
5. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. T. 1996 y.
6. Ashirov A. Atadjanov SH. etnologiya. T. 2007 y.
7. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. T. 2007 y.
8. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik. Farg'ona. 1998 y.
9. Murodov. M. Qorabaev U. Rustamova R . Etnomadaniyat.. T.: Adolat. 2003
10. Etnomadaniyat fanidan ma'ruzalar matni. 1-qism. Farg'ona. 2001 y.

9-Mavzu: MA'RIFAT DARG'ALARI.

REJA:

1. XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy va madaniy hayot.
2. Jadidchilik harakatini yuzaga kelishi.
3. Turkistondagi jadidchilik namoyondalari.

Rossiya hukumati tomonidan zabt etilgan Turkiston mustamlakachilik zulmining yorqin

namunasiga aylandi. Mahalliy xalq turmush sharoitining yomonlashib borishi, milliy-diniy qadriyatlarning oyoq osti qilinishi, chet el sarmoyasining o'lkaga shiddat bilan kirib kelishi, o'lka boyliklarining bosqinchilar tomonidan shafqatsizlarcha talanishi ilg'or fikrli ziyolilarni befarq qoldirmadi. Shu bois milliy vatanparvar ziyolilar tomonidan mustamlaka asoratidan qutilish va taraqqiyot uchun kurashning turli yo'llari izlandi. Ushbu harakatlar natijasida vodiya ham XIX asr oxirlariga kelib jadidchilik harakati kelib chiqdi. Turkistondagi bu harakat XIX asr oxirlaridan 1938 yillargacha ma'rifatparvarlik harakatidan keng ko'lamli ijtimoiy-siyosiy harakat darajasiga ko'tarildi. Ushbu vaqt oralig'ida butun Turkistonda bo'lgani kabi, vodiydagi ziyolilar qatlami orasida ham turli guruhlariga ajralish jarayonlari tezlashdi. Fikr va qarashlarning turlicha bo'lishiga qaramay, o'lka ziyolilarini yagona Turkiston mustaqilligi g'oyasi birlashtirib turar edi.

Podsho hukumati aholi faolligining oshib borayotganligidan cho'chib, Turkiston xalqlarini jahon taraqqiyotidan uzib qo'yish maqsadida musulmon davlatlaridan o'lkaga kirib kelayotgan ilg'or nashrlarni ta'qiqlash choralarini ko'rdi. Shunday bo'lishiga qaramay, birmuncha taraqqiyotga erishgan musulmon mamlakatlaridagi inqilobiy voqealar tafsilotlariga bag'ishlangan adabiyotlarning bu yerga kirib kelishi to'xtamadi. Bunday adabiyotlarning o'lkaga kirib kelishi aholi turli tabaqalarining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshishi va milliy ozodlik g'oyalarining shakllanishiga o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatdi.

Masalan, 1911-1912 yillarda Turk publisisti Rafiqbek Al-A'zam tomonidan yozilgan risola o'zbek tiliga o'girilib, jadidlar tomonidan omma orasida tarqatilgan edi. Unda musulmon dinining g'arbda paydo bo'lgan sosializm, anarxizm va boshqa ta'limotlarga, umuman, ijtimoiy hayotga munosabati haqida fikr yuritilgan edi.

O'lkada milliy matbuot yuzaga kelgunga qadar Bog'chasaroyda chiquvchi «Tarjumon», Qozondan chiqadigan «Vaqt», «Yulduz» va boshqa gazeta va jurnallar Turkiston jadidlari faoliyatida o'zining sezilarli ta'siriga ega edi. Ushbu nashrlar orqali taraqqiyparvarlar dunyo xalqlarining milliy uyg'onish g'oyalari bilan tanishib borganlar. Masalan, Farg'onaning peshqadam taraqqiyparvarlaridan Ishoqxon Ibrat ham 1883-1885 yillarda Qo'qonning Tunqator madrasasida ta'lim olib yurgan paytlarida «Tarjumon» gazetasi bilan muntazam ravishda tanishib borgan. Adabiyotchi olim U. Dolimovning bergan ma'lumotlariga ko'ra, Ibrat tomonidan tashkil etilgan «Ishoqiya» kutubxonasida «Tarjumon» gazetasining hatto 1884 yilgi boylamlari ham bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, o'lkadagi ijtimoiy adolatsizlik, yerlilarni jaholat botqog'ida, qashshoqlikda qoldirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan chorizmning mustamlakachilik siyosati mahalliy xalq ilg'or fikrli ziyolilarining tabiiy ravishda noroziligini keltirib chiqarar edi.

Turkistonda jadidchilik harakati o'zining chuqur mahalliy ildizlariga ega. Turkiston xalqlarining ijtimoiy-siyosiy hayotda jahon xalqlaridan ortda qolayotganligini XIX asrning ikkinchi yarmida yashab o'tgan ilg'or fikrli ziyolilar o'z vaqtida anglab yetgan edilar. Ular bu qoloqlik iskanjasidan qutilishning yagona yo'li deb ilm-ma'rifatni tanladilar. Ushbu davrda ijod etgan shoir Zokirjon Furqat ilm-fanning taraqqiyot uchun nechog'lik ahamiyatli ekanligini anglagan holda quyidagi baytni bitgan edi:

Kerak har ilmdan bo'lmoq xabardor,

Bo'lur har qaysi o'z vaqtida darkor.

Shuningdek, ilg'or ma'rifatparvar Sattorxon Abdug'afforov ham o'zining bu sohadagi fikrlarini «Turkiston viloyatining gaziti» da quyidagicha ifodalagan edi: «...Bizlar, tavorix kitoblaridin ko'ramizkim, har bir xalq o'zlariga yaqin hamsoylarining har nav' ilmlarini har vaqt o'rganib va ham o'zlariga yaqin mamlakat xalqiga o'rgatib kelganlar...bizlarga uyat va aybdurkim, bizlarning burung'i olimlarimiz ilm bobida baland darajada turub, hatto boshqalarga ta'lim berib turgon bo'lsalar, bizlar hama xalqdin ul bobda pastlik maqomida qolsoq».

Ilm taraqqiyotning negizi ekanligini anglab yetgan ilg'or ziyolilar avvalo qoloqlikdan qutilishning asosiy sharti deb, ma'rifatni tanladilar. Shu maqsad yo'lida XIX asrning so'nggi choragida dastlabki yangi usul maktablari ochildi.

Farg'ona o'quv yurtlari inspektorining Turkiston o'quv yurtlari Bosh inspektoriga 1909 yil 6 dekabrda yo'llagan yangi usul maktabi haqidagi ma'lumotnomasida ko'rsatilishicha, vodiydagi dastlabki yangi usul maktabi Qo'qon uyezdida Ahmadjon qori tomonidan 1892 yilda ochildi.

Turkistondagi jadidchilik harakatining atoqli namoyandalaridan Ishoqxon Ibrat ham Qo'qonda madrasani tamomlagach, 1886 yilda To'raqo'r g'onda maktab ochadi lekin u tez orada yopiladi_. Shundan so'ng Ibrat 1887 yildan 1895 yilgacha Osiyo va Yevropaning ko'plab mamlakatlarida bo'ladi. o'ndan ortiq chet tillarini o'rganadi, g'arb ilm-fani va texnikasi yutuqlari bilan tanishadi_. Safardan qaytgach esa o'z yurti taraqqiyoti uchun izchil amaliyotga kirishib, jadidchilik harakatining faollaridan biriga aylanadi.

Jadidlarning harakati tufayli XX asr boshlariga kelib vodiya o'nlab yangi usul maktablari faoliyat ko'rsatmoqda edi. Ayniqsa, Rus-Yapon urushidagi mag'lubiyatdan so'ng boshlangan ijtimoiy siyosiy harakatlardagi jonlanish turkistonlik jadidlar faolligining oshuviga katta turtki bo'ldi va jadidchilik harakati ushbu jarayonlar ta'sirida siyosiy tus ola boshladi.

Taraqqiyparvarlar omma orasida ma'rifatni keng yoyish, millatning siyosiy ongini yuksaltirish borasida ommaviy nashrlar, bosmaxonalar ochdilar, teatr tomoshalarini tashkil etdilar. Bu borada Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Abdurauf Fitrat va boshqalarning xizmatlari beqiyos bo'ldi_.

Turkiston o'lkasidagi dastlabki taraqqiyparvar jamiyatlar, tadqiq etilgan manbalar bergan ma'lumotlarga ko'ra, 1905-1907 yilgi birinchi rus inqilobidan so'ng, Eron va Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy harakatlar ta'sirida vujudga kelgan. Osiyo mamlakatlaridagi inqilobiy harakatlar, musulmon dunyosidagi, xususan, Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy va diniy fikrlarning taraqqiyotida muhim bosqich bo'lib xizmat qildi.

1904-1905 yillardagi Rus-yapon urushida Rossiyaning mag'lubiyati imperiyadagi barcha ezilgan xalqlar oldida mustabid podsho tuzumi obro'sini keskin tushishiga olib keldi. Bu esa siyosiy fikrlar rivojiga turtki berib, milliy ozodlikka erishish orzularini ushalishiga ishonch uy g'otdi. Sharqdagi inqiloblar va o'lkaga u yerlardan kirib kelgan turli xil g'oyaviy oqimlar bu yerlardagi muxolif kuchlarning birlashishi, milliy-siyosiy tashkilotlar holiga kelishi va rivojlanishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Umumiy diniy va milliy maqsadlar yo'lidagi mushtaraklik Rossiyaning ilg'or musulmon ziyolilarini yagona g'oya tevaragida jipslashishga chorladi. Va nihoyat, 1905 yilning 15 avgustida Nijniy Novgorodda Rossiya musulmonlarining I s'yezdi chaqirildi. S'yezdga Rossiyaning turli mintaqalaridan 150 ga yaqin delegatlar tashrif buyurdilar. Birinchi musulmon s'yezdi Butunrossiya musulmonlari ittifoqi («Ittifoqi muslimin»)ni tuzilganligini e'lon qildi. Ittifoq Nizomi esa, «Kaspiy» va «Hayot» gazetalarining muharriri bo'lgan Alimardonbek To'pchiboshev tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, 1906 yil yanvar oyida Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tgan musulmonlarning II s'yezdida tasdiqlandi.

«Ittifoq» dasturi esa, 1906 yil 16-21 avgust kunlari Nijniy Novgorodda bo'lib o'tgan Butunrossiya musulmonlarining III s'yezdida qabul qilindi. «Ittifoqi muslimin»ning tuzilishi Rossiya musulmonlari ijtimoiy-siyosiy harakatlari rivojida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Birinchi jahon urushi yillarida o'lka ziyolilari ijtimoiy-siyosiy hayotga faol aralasha boshladilar. Xuddi shu davrda Turkistonda ham milliy nashrlar va jamiyatlar soni ortib borib, jadidlar tomonidan qoloqlikdan qutulish va milliy taraqqiyot sari dadil qadamlar tashlana boshladi.

1916 yil Qo'qon shahrida taraqqiyparvarlar tomonidan «G'ayrat» jamiyati tuziladi. Bu jamiyatning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari, birinchidan, yangi usul maktablarini darslik, daftar va o'quv qurollari bilan ta'minlash bo'lsa, ikkinchidan, yerli xalq orasida kitob, gazeta va jurnallarni mahalliy tilda chop etib, tarqatishdan iborat bo'lgan.

Mustamlakachilar tomonidan Toshkentda chop etiladigan jadidlarning «Sadoyi Turkiston» gazetasi yopib qo'yilgach, taniqli jadid Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev Toshkentdan Andijonga kelgan edi. Uning Andijonga kelishi ham hukmron mustabid hukumatning milliy taraqqiyparvarlarga qarshi olib borgan ta'qib va tazyiqlar o'tkazish siyosatining natijasidir. Milliy matbuotimizning qaldirg'ochlari «Taraqqiy», «Hurshid», «Shuhrat» va boshqa gazetalarining hech qancha soni chiqmasdan yopib qo'yilishi, chor ma'murlarining o'lka halqlarini har jihatdan asoratda saqlashga intilib olib borgan siyosatining bir ko'rinishi edi. Xuddi shunday ayanchli qismat «Sadoyi Turkiston» gazetasi boshiga ham tushdi. Shundan so'ng muharrir Ubaydullaxo'ja

Asadullaxo'jayev gazetani Andijonda chiqarishga harakat qildi. Biroq, Farg'ona viloyati harbiy gubernatori Asadullaxo'jayevning gazeta chiqarishiga ruxsat bermaydi_.

1916 yilga kelib jadidlar tomonidan Andijon shahrida «Taraqqiyparvar» jamiyati tuzildi. Bu davrda o'lka jadidlarining siyosiy faolligi ancha oshgan bo'lib, ular o'z yig'ilishlarida, gazeta va jurnallardagi maqolalarida ma'rifiy mavzular bilan birga ijtimoiy, iqtisodiy masalalarni ham ko'tarib chiqa boshlaganlar. Andijondagi bu jamiyat taniqli jadid Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev rahbarligida tuzilgan bo'lib, bu haqda chor ayg'oqchilari ham tez orada xabar topadilar.

Farg'ona viloyati harbiy gubernatorining farmoyishi asosida Andijon uyezdida «Taraqqiyparvar» jamiyati haqida yashirin so'rov va tekshiruvlar o'tkaziladi. Tekshiruv natijalariga ko'ra, tashkilot safida mahalliy millat vakillaridan tashqari Chaykin, Shapiro va Okun kabi shaxslarning borligi, tashkilot rahbarligi Asadullaxo'jayev qo'l ostida ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Uchastka pristavi Birshertning ta'biricha, jamiyat tashkiliy jihatdan yaxshi uyushtirilgan_.

Butun Turkiston o'lkasida bo'lgan kabi, Andijonda ham mustamlakachi ma'murlar jadidlarni o'zlarining eng xavfli dushmanlari deb bilar edilar. Taraqqiyparvarlar xalq orasida tashviqot-targ'ibot ishlarini yaxshi yo'lga qo'yganlar.

Xalq orasida o'z nufuziga ega bo'lgan mahalliy boylardan Ahmadbekhoji Temirbekov, Poshshaxo'ja Umarxo'jayev, uyezd sudyasi tarjimoni O'razaliyev Akbarali Boytursunovich va boshqalar ushbu jamiyat a'zolari edilar_.

Shunday qilib, aytish mumkinki, XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat g'oyat og'ir bo'lib, mahalliy aholining huquqsizligi, tahqirlanishi haddan oshgan, Vodiy mustamlakachilar uchun arzon ish kuchi va xom ashyo bazasiga aylanib qolgan edi. Ilg'or ziyolilar Turkiston metropoliyaning xom-ashyo bazasiga aylanishi bilan birga, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jabhalarda jahon taraqqiyotidan ortda qolayotganligini sezdilar. Vatan taqdiri haqidagi bunday o'ylar oxir-oqibatda mustaqillik uchun kurashning o'ziga xos yo'llarini izlab topishni taqozo etdi. Mavjud vaziyatda, ya'ni, kuchli siyosiy-harbiy tayanchga ega bo'lgan mustamlakachi hukumat bilan millat kelajagi yo'lida bellashishning yagona yo'li, xalqni dunyoviy ilm-fan bilan qurollantirish, xalqaro talablar doirasidagi mutaxassislar tayyorlashdan iborat edi. Bu esa o'z o'rnida jadidchilik harakatining kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Jadidchilik harakati dastlab haqli ravishda ma'rifatparvarlikdan boshlandi. Turkistonda Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li, Fayzulla Xo'jayev, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo'jayev, A. Zohiriy, O. Mahmudov, I. Ibrat, Hamza, Cho'lpon, A. Ibodiy, Dadamirza qori va boshqalar edi. Rus mustamlakachiligiga qarshi kurash turli ko'rinishlarda bo'lsa-da, davom etdi. Bu kurash boshida millatning ilg'or fikrli ziyolilari turdilar. Dastlab maktab-maorif, yosh avlod ta'lim va tarbiyasini isloh etish g'oyasidan boshlangan bu harakat, keyinchalik o'z ichiga siyosiy muammolarni ham keng ko'lamini qamrab oldi.

Avval maorifni isloh qilishdan boshlangan Turkiston o'lkasidagi jadidchilik harakati 1917 yil fevral inqilobidan keyin yangi sifat o'zgarishlarini boshidan kechira boshladi. 1908-1917 yillar ichida turkistonlik taraqqiyparvar kuchlar asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, yagona siyosiy kuch sifatida birlashib, o'z tashkilotlariga va ommaviy nashrlariga ega bo'ldilar. So'ngra o'lkada milliy-demokratik davlatchilikni tiklash ishlarida faol ishtirok etdilar. Yagona maqsad yo'lida ushbu tashkilotlar nomidan tashviqot va targ'ibot ishlarini olib bordilar.

Turkiston jadidlari ham o'lkadagi boshqa taraqqiyparvarlar qatori o'zlarining dastlabki faoliyatlarini ma'rifatparvarlikdan boshlagan edilar. Vatanni ozodlikka, milliy mustaqillikka yetaklashdek muqaddas g'oya eng ilg'or qarashli jadid ziyolilarning fikrida bo'lgani holda, mavjud sharoitda uni amalga oshirish mushkul edi. Unga faqat tinimsiz ma'rifiy-siyosiy faoliyat orqaligina erishish mumkin edi. Jadidlar yurt istiqlolini va taraqqiyotini zamonaviy bilimlar bilan qurollangan yetuk mutaxassislarsiz tasavvur eta olmaganlar. Shu maqsad yo'lida o'tgan asr oxirlarida jadidlar butun Turkistonda yangi usul maktablari ochish zarurligini angladilar va ularni tashkil etish uchun harakat boshladilar.

Shunday maktablarning tashkil topishiga bir tomondan chor ma'murlari, ikkinchi tomondan ijtimoiy voqelikka o'zining tor dunyoqarashi nuqtai-nazardan baho beruvchi kishilar

to'sqinlik qildilar.

Turkiston xalqlari turmushidagi har bir yangilik mustamlakachi ma'murlar nazaridan chetda qolmagan, albatta. XX asr bo'sag'asida o'lkamizda yangi usul maktablarining paydo bo'lishi ham ularni g'oyatda tashvishga sola boshladi.

Jadidlar halqni ilm - ma'rifatda, haq-huquqda dunyoning taraqqiy qilgan millatlari bilan teng, baqamti ko'rmoqni orzu qildilar. Butun ahli-vujudini mana shu muqaddas ishga-millatning ravnaqi va muhofazasi yo'liga sarf etdilar. Bu shunchaki mutaassibona bir orzu emas, zamonasining baland-pastidan xabardor, tarix va taqdirni teran anglagan, Sharqni ham G'arbni ham bab-baravar bilgan va ko'rgan kishilarning aniq va rejali hatti-harakati edi_.

Jadidlarning yangi sharoitlardagi faoliyatlari bir necha yo'nalishlarda kechdi. Avvalo ma'rifatparvarlik ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qoldi. Jumladan, ular chor tuzumning zulmi nisbatan yumshagan sharoitda yangi usuldagi maktablarni tashkil etish bo'yicha kuch-g'ayratlarini sezilarli darajada kuchaytirishdi. 1910 yilga kelib o'lkaning turli joylarida 50 ga yaqin bunday maktablar tashkil etildi. Toshkent va Qo'qon jadid maktablarining yirik markazi bo'lib qoldi.

1917 yil fevral inqilobi boshlariga kelib chor hukumati tomonidan Turkistonda 4 mingdan ortiq bola o'qiydigan 100 ga yaqin yangi usuldagi maktablar ro'yxatdan o'tkazilgan, shulardan 39 tasi - Sirdaryo, 30 tasi - Farg'ona, 18 tasi - Yettisuv, 5 tasi - Samarqand viloyatlarida joylashgan. Ularning hammasi xususiy mablag'lar hisobiga faoliyat yuritardi. O'qish pullik bo'lgani bilan uning miqdori oyiga 50 tiyindan 3 so'mgacha edi_.

Jadid matbuoti jadidchilik g'oyalarining jarchisi bo'lib maydonga chiqdi. «Sadoyi Turkiston», «Sadoyi Farg'ona», «Hurshid», «Oyna» va boshqa gazetalar sahifalarida ilm-ma'rifat ulug'langan, yangi usul maktablari targ'ib qilingan, bid'at-xurofotlar, xalqimiz orasidagi zararli va nohush odatlar - aroqxo'rlik, tamaki chekish, dabdabali to'ylar o'tkazish, isrofgarchiliklar keskin tanqid qilingan.

Turkiston jadidlarining birinchi milliy gazetasi 1906 yil 27 iyunda «Taraqqiy» nomi bilan chiqdi, unga taniqli jamoat arbobi Ismoil Obidov (Gabidov) muharrirlik qildi. Shunisi diqqatga sazovorki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 25 iyun qarori bilan ushbu gazeta birinchi sonining chiqqan kuni «Matbuot kuni» sifatida keng nishonlanmoqda.

«Taraqqiy» bilan bir qatorda Toshkentda turkistonlik jadidlarning 1906 yilda «Hurshid», 1907-1908 yillarda «Shuhrat», «Tujjor» gazetolari paydo bo'ldi. «Hurshid» va «Shuhrat» gazetolari Turkistonda muxtoriyatchilik harakatining bo'lg'usi yo'l boshchilaridan biri Munavvar qori, «Tujjor» gazetasi esa Toshkentlik yirik boy Saidkarimboy Saidazimboy o'g'li tomonidan nashr etilgan.

Turkistonda bundan keyin bir qator jadid gazeta-jurnallari - «Osiyo», «Samarqand», «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg'ona», «Oyna», «El bayrog'i», «Turon» va boshqalar paydo bo'ldi. Jadidlarning bu bosma nashrlari 1905 yilda Rossiya Konstitutsiyasi yumshatilgan senzura qabul qilgandan so'ng yuzaga kela boshladi. Ularning ko'pchiligi qisqa muddat chiqqan bo'lsa-da islohotchilar g'oyalarini tarqatishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Jadidlarning islohotchilik g'oyalari asosan matbuot orqali targ'ib qilinardi.

Masalan, Cho'lpon milliy qadriyatlar, milliy urf-odatlar himoya qilishga bag'ishlangan maqolalarining birida shunday deydi: «...Ey qarindoshlar... katta iltimosimiz shuldurki, Ovro'poning mo'dosidan, shishasidan, buzuq ahloqidan namuna olmasdan va bunlarga bul jihatdan taqlid qilmasdan, balki, ilm, fan, hunar, sanoatga o'hshashlik madaniyatlaridan namuna olub, bul jihatdan taqlid qilmog'imiz lozimdur. Ovro'poning mo'dosi va buzuq axloqi sizlarni xonavayron, bewatan, asir-qul qiladur. Bundan saqlaningiz!!!»_.

Cho'lpon har sohada zamon talabiga mos ish tutish tarafdori edi. Jumladan, iqtisodiyotda Yevropaning texnika yutuqlaridan foydalanish zarurligini u quyidagicha ifodalaydi: «Ovro'poning maktab, madrasa, ilm - fan, sanoat, hunarga o'xshash madaniyatlari sizlarni obod, ma'mur olim qilub, johillikdan, asorat qulligidan qutuldurodur. Birodarlar ko'zlaringizni ochub yaxshi o'ylanglar!!!...»_.

Cho'lpon dehqonlar uchun maxsus banklar ochish lozimligini va bu kabi tadbirlarning afzallik tomonlarini bayon qilib beradi: «...Amriholiklar ekin asboblari ishlatub, biz 10 kishi 10 kunda qilg'on ishimizni, onlar 2 kishi bilan 10 soatda qilmoqdadurlar!...

Shul oson asboblarni Rusiyani butun dehqonlarida bordur. Bizlar ham shul ekin asboblari olib ishlatsak og'ir mehnatlarimiz yengillanur edi...»_.

Mashhur jadid Abdulvahhab Ibodiyev o'zining maqolalarining birida ilm-fan taraqqiyoti haqida qimmatli fikrlar beradi, ilmsizlik oqibatidagi xalqning holati bayon etiladi: «Ilm-sharaf va boyliklari (qo'llarida bo'lg'on tijorat va kasblari) boshqalarga o'tub, bellari tamom bukulub, ming xo'rlik bilan umr o'tkazmoqdalar...»_. Chor mustamlakasi davrida mazlum xalq vakili sifatida bu fikrni ochiq bayon etish, albatta, jasorat edi. Turkiston ahli boshiga yoqqan bu balolardan qutilishning yo'li - maorifni isloh qilish, asosiy e'tiborni ta'lim-tarbiya ishlariga qaratish, Orenburg, Qozon, Ufa kabi shaharlariga talabalar yuborish, qimmatlik boylar yordami ila maktab binolarini zamonaviy holga keltirish lozim ekanligini ta'kidlab o'tadi: shundagina «...tez fursatda Turkistonimiz xalqining ilm va ma'rifat tobmoqlari tabiiydir», -deb, kelajakka umid bilan boqadi.

Yangi usuldagi maktab xonalarining ichki tuzilishi, eski maktablardan parta, yozuv taxtasi, geografik xarita va o'qituvchi uchun stol-stulning borligi bilan ajralib turgan. Maktablarda bolalar 2-3 yil o'qishni davom ettirganlar. Usuli savtiya maktablari eski usul maktablari ta'limning sifati bilan ham farq qilgan. Bu e'tiroflar o'sha davr matbuotida ham o'z aksini topgan. Masalan, Andijondagi Azim Qodirov maktabi 3 sinfli bo'lib, 1-sinfda bolalarga o'qish va yozish, 2-sinfda tajvid, hisob, 3-sinfda esa ibodati islomiya, sarfi turkiy o'rgatilgan. 1900 yil may oyida Otabek qozi ishtirokida ushbu maktab o'quvchilaridan imtihon olingan. o'quvchilar imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirganlar. Imtihon ishtirokchilaridan Tojiddinbek Otabekov yozganidek: «...Eski zamon maktablari birlan usuli jadid maktabini farqi nihoyat darajada ma'lum va ravshan bo'ldi. Usuli jadid maktabi birlan eski zamon maktablarini bir joyga bormoq uchun otash aroba birlan piyoda odimga misol qilsak ham to'g'ridur...»_.

Jadid maktablarining soni ortib borgan sari, ulardagi ta'lim tizimi ham takomillashib borgan. Imtihonlar keng xalq ommasini ko'z o'ngida, qishloq yoki shaharlarning ilg'or ziyolilari davrasida «Imtihon majlisi» nomi bilan o'tkazilgan. Bunday holatlarda yangi usul maktablari o'zining afzallik tomonlarini to'liq namoyish eta olgan. Jadidlar ma'rifatchilik faoliyatining yana muhim bir tarmog'i-teatr san'ati edi. Turkiston teatr san'atining to'ng'ich sahna asari Mahmudxo'ja Behbudiyning «Padarkush» dramasi edi. Bu asar Samarqand, Toshkent va boshqa shaharlarda ijro etilgach, 1914 yilning fevral oyi oxirlarida muallif boshliq Samarqandlik havaskorlar va mahalliy yoshlar hamkorligida Qo'qonda ham sahnaga qo'yiladi. Teatr orqali ma'rifat tarqatish g'oyasiga e'tibor qaratib, Andijon jadidlari ham 1914 yilning 6 iyunida «Padarkush»ni sahnaga qo'yidilar.

Taraqqiyparvarlar xalq ommasini milliy urf-odatlarini asrab-avaylashga, ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirishga chorladilar, hashamdor to'ylar, serharajat va sermashaqqat azadorlik marosimlari, to'y va azalarni riyokorlik, dabdababozlik bilan o'tkazishga jiddiy ravishda qarshi chiqdilar.

Ijtimoiy-siyosiy hayot faollashuvining muhim ko'rsatkichi sifatida nashriyot, xususan, matbuot faoliyatining keskin jonlanganligini ko'rish mumkin. Jadidlarning ma'rifatparvarlik mafkurasi ijtimoiy jihatdan ancha boy va rang-barang bo'lgan. Unda hozirgi kunimizda ham jamiyatni to'lqinlantiradigan, hayajonga soladigan tarixiy vazifa va masalalar o'z aksini topgan_.

Jadidchilik harakati tarixini o'rganish bugungi kunda shuning uchun ham dolzarbki, bu harakat vakillari istiqbolimiz uchun o'sha davridayoq kurash boshlaganlar. Avval boshda ma'rifat sohasida faoliyat ko'rsatgan jadidlar, asta-sekin ijtimoiy taraqqiyot kurashchilari sifatida maydonga chiqdilar. Jadidchilik dastlab madaniy - ma'rifiy oqim sifatida paydo bo'lganligi tabiiydir, albatta. Chunki, ilg'or musulmon ziyolilari ijtimoiy va mustamlakachilik zulmining asosiy sabablarini zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan bexabarlikdan va maorif ishlaridagi qoloqlikdan izladilar. Shu sababli, ular mavjud ijtimoiy muammolarni hal etishning yagona yo'li ta'lim islohoti deb qaradilar va ma'rifatparvarlikka asosiy e'tibor berdilar. Yangi usul maktablari, kutubxonalar ochdilar, darslik, o'quv qo'llanmalari yozdilar va nashr ettirdilar. Ayni paytda ular inson huquqlari, milliy, diniy, iqtisodiy erkinliklar kafolatlangan, huquqiy-demokratik milliy davlatchilikning nazariy asoslarini yaratishga harakat qildi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Istiqloq va ma'naviyat .T.: O'zbekiston. 1994 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: Ma'naviyat. 1998 y.
3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. -T.: Ma'naviyat, 1998 y.
4. Abdullaev M. Abdullaev A. Ma'naviyat va madaniyat tarixi. Farg'ona. 1998 y.
5. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. T. 1996 y.
6. Ashirov A. Atadjanov SH. Etnologiya. T. 2007 y.
7. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. T. 2007 y.
8. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik. Farg'ona. 1998 y.
9. Murodov. M. Qorabaev U. Rustamova R. Etnomadaniyat.. T.: Adolat. 2003 y
10. etnomadaniyat fanidan ma'ruzalar matni. 1-qism. Farg'ona. 2001 y.

**Mavzu: BAYRAMLARNING VUJUDGA KELISHI.
O'zbek xalq bayramlari tarixidan.**

Reja:

1. O'zbek xalq bayramlari tarixidan.
2. Zardushtiylilik dini bilan bog'liq marosimlar.
3. Islomgacha bo'lgan davrdagi bayramlar.

Bayramlar eng qadimiy davrlardan boshlab inson hayotining eng muhim va tarkibiy qismiga aylangan. Ularsiz insoniyat hayotini mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydi. Bayramlar xalq hayotining eng yaxshi va go'zal tomonlarini aks ettiruvchi ko'zgudir. Bayramlar insoniyat hayotida shu qadar mustahkam o'rin egallaganki, ularni nishonlamaydigan hech bir shaxs, oila, jamoa topilmaydi. Shuningdek, har bir millat va elat, xalqning o'z taraqqiyot tarixi jarayonida shakllangan bayramlari mavjud. O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqining ham eng qadimiy davrlardan shakllana boshlagan, asrlar bo'yi avlodlardan avlodga o'tib, kamol topib, bebaho merosga aylangan bayramlari ko'p. Bu bayramlarning ma'lum qismi turli sabablar tufayli yo'qotilgan, ayrim bayramlar esa qarama-qarshiliklarni yengib, ko'pgina fazilatlaridan ajralsada, butunlay yo'qolib ketmagan, yana boshqalari esa xalq hayotida mustahkam o'rin olib, bizning zamonamizgacha yetib kelgan. O'zbek xalqining bayramlari qon-qardosh xalqlarning tarixiy - madaniy aloqalari jarayonida shakllangan va rivoj topgan, boshqa xalqlar bayramlariga ta'sir etgan va o'z navbatida qarama-qarshiliklar, to'siqlarni yengib, boshqa xalqlar tajribasi bilan boyib kelgan uzoq tarixga ega.

Arxeologlar, tarixchilar, etnograflar, san'atshunoslar bergan ma'lumotlarga qaraganda, bayramlar eng qadimiy davrlardayoq mavjud bo'lgan va ibtidoiy odamlar hayotida muhim rol o'ynagan. Bayramlarning eng qadimiy davrlarda mavjud bo'lganligi umuman tan olingan. Inson o'z mehnati tufayli hayvonot dunyosidan ajralib chiqqach, yashash uchun kurash jarayonida qanchalik ongli mehnat qilsa, u shuncha muvaffaqiyatlarga erishgan. Kurash va mehnatda erishilgan muvaffaqiyatlar esa xursandchilikni vujudga keltirgan. Bu jarayon ibtidoiy odamlar ovchilik bilan kun ko'rayotgan davrlarda yaqqol sodir bo'la boshlagan. Arxeologik qazilmalar va qorlardan topilgan topilmalar qadimiy odamlarning o'z mehnati (ovi) natijasini tantana qilganliklaridan dalolat beradi. Ovdan o'lja bilan qaytish va o'z mehnatidan manfaatdor bo'lish xursandchilik, shodiyona kayfiyatni yaratgan va bu holatni ovchilar imo-ishora, maxsus harakatlar hamda o'yin shaklida ifodalashga urinishgan. Shu tarzda "o'yin - mehnat farzandi" bo'lib vujudga kelgan .

Ibtidoiy ovchilar hayotida ovchilik o'yinlari muhim o'rin tutgan. Ovchilik o'yinlari ovdan oldin ham, undan so'ng ham o'tkazilgan. Ovdan oldingi o'yinlar - o'voldi mashqi vazifasini o'tagan hamda jiddiy o'ziga xos kichik marosim shaklida uyushtirilgan. o'yinlar jarayonida yoshlarni ham ov qilishga o'rgatishgan. Shu boisdan qam u o'ziga xos maktab vazifasini o'tab, bir tomondan, ovchilar mahoratini o'stirishga yordam bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, ularda taqlid sano'atini shakllantirgan va rivojlantirgan. Ovdan so'nggi o'yinlar ov muvaffaqiyatli tugagandagina uyushtirilgan deb taxmin qilish mumkin. Chunki ovdan o'lja bilan qaytish, bu ziyofat, xursandchilik qilishga, butun jamoaning bayram qilishiga imkon yaratgan.

Ovchilar o'yinlar yordamida "...kun bo'yi ov qilib, kechqurunlari o'z ao'zoi-badanlariga dam berish, bugungi taassurotlarini, kayfiyat va tuyqularini, ovdan mamnunliklarini, to'qchilikni, sho'xliklarini ifodalashardi". Bu jarayonlar, ya'ni qar bir muvaffaqiyatli ovdan keyin o'yinning

an'ana bo'lib qolishi bayram kayfiyatida o'tadigan maxsus marosimni shakllantira boshlagan. O'rta Osiyo hududida ibtidoiy odamlar qayotida ham ovchilik o'yinlarini paleolit davri Sherobodagi Zarao't Karamsoyning toshlariga tushirilgan tasvirlarda; miloddan oldingi II-I ming yilliklarda Farqona vodiysidagi Saymalitosh qorlarida aks ettirilgan devoriy rasmlarda va boshqa arxeologik topilmalar toshidagi tasvirlarda mavjud. Ularda nafaqat totemlarga siqinish, balki ov jarayoni, ovdan keyingi shodiyonalik, hayvon niqobi va qiyofasidagi ovchi o'yinlari aks ettirilgan.

Ilk bor maxsus uyushtirila boshlangan bayramlar totemlarga baqishlangan. Bu bayramlarda turli joylarda totem hisoblangan turli hayvonlar - ayiq, yovvoyi echki, sigir, buqu, ot kabilarga siqinishgan. Totem hayvonlarga baqishlangan bayramlarda odamlar unga taqlid qilishgan, ularning terisini kiyib o'yinga tushishgan. Shuningdek, totem qisoblangan hayvonlarni faqat tantanali marosimlarda o'ldirishgan va yeyishgan.

So'ngi paleolit davrida (taxminan miloddan 40-41 ming yil avval) yer yuzining shimoliy qismida totemga oid "ayiq bayramlari" bo'lgan. O'rta Osiyoda "Ayiqlik o'yini" (pantomimik raqs sifatida) keyingi vaqtlargacha yetib kelgan. Mexnat taqsimotining vujudga kelishi munosabati bilan qadimgi odamlarning chorvachilik va dehqonchilikka o'tishi (bu jarayon O'rta Osiyoda miloddan oldingi III ming yillik oxiri - II ming yillik boshlariga to'qri keladi) ana shu yangi sohaga oid odat, marosim va bayramlarni vujudga keltira boshlagan. Dehqonlarning hayotida eng quvonchli voqea - bu hosilni yiqish va yangi nozneo'matlarni tatib ko'rish jarayoni bo'lgan yil bo'yi kutilgan bunday jarayon, tabiiyki, dehqonlarda bayram kayfiyatini vujudga keltirgan. Bundan ko'tarinki kayfiyatni harakatlarda aks ettirish maqsadida kishilar o'yinlar va marosimlarni tashkil qilgan. "Mehnat o'yinlari" yaxshi kayfiyat, bayram holatini vujudga keltirgan.

Bronza davrilaridan boshlab o'troq dehqonchilikning vujudga kelishi va uning tez rivojlanishi natijasida bahorda mehnat mavsumiga kirishish, kuzda hosilni yiqib olish yakuniga baqishlangan bayramlar shu tariqa yuzaga kelib, ular yillar o'tishi bilan an'anaga aylana boshlagan. Insonning "birinchi kasbi"-ovchilik asosida-"ovchilik o'yinlari" vujudga kelgan bo'lsa, uning dehqonchilikka o'tishi va u bilan shuqullanishi natijasida "mehnat o'yinlari" shakllanib, yangi mehnat bayramlari uchun zamin yaratgan.

Mehnat- bu bayramning bosh manbai, asl zamiri hamda ilk chashmasi sanalib, bayram (yoki "bayram holati") ibtidoiy davrdan boshlab "yashash uchun kurash"- mehnatning natijasi shaklida vujudga kela boshlagan. Bunday holat bayramning sodda shakli sifatida namoyon bo'lishiga qaramay, keyinchalik u inson madaniyati va san'atini rivojlantirish uchun zamin yaratib bergan. Bunday bayram holati jarayonida turli o'yinlar (teatr va raqs, pantomima sano'atlarining primitiv ko'rinishlari) va maxsus marosimlar rivojlanadi. Ibtidoiy jamiyatda ham jamoa va uning a'zolariga baqishlangan tantanalar asta-sekin shakllana borgan. Bu xildagi ilk shakllarga -"Orgaist bayramlari"ni misol qilib olsak bo'ladi. Bu bayram o'tkaziladigan kunda barcha erkak va ayollarga o'zlari uchun juft tanlash erkinligi berilgan.

Qadimiy davrdagi bayram kayfiyatida o'tadigan marosimlardan yana biri -"erkaklikka o'tish" ("erkakka aylanish") edi. O'spirin unga uzoq tayyorgarlik ko'rib, o'zining hayotga tayyorligi va kuchini namoyish qilishga intilgan. Bu marosimda o'spirin qiynalgan, sinalgan, xullas, imtihondan o'tkazilgan.

Ibtidoiy jamiyatda, muste paleolit davridan boshlab, odamlar atrofdagi hodisalarni anglashga intiladilar, lekin ularning tabiat sirlari oldida aqliy jiqatdan ojizligi natijasida turli ilohiy kuchlarga siqinish, jumladan totemistik, animistik, politeistik, magik vujudga kelgan. Tabiiyki, kishilar bunday tushunchalar, qarashlar, orzularni muayyan marosim va bayramlarda aks ettirishga uringanlar. Chunonchi qurqoqchilik davrida "yomqir tilash" ("Sust xotin"), shamol zarar keltirganda-"shamolni to'xtatish" ("Choy momo") va shamol kerak bo'lganda -"shamol chaqirish", bevaqt sovuq tushganda -"quyoshga siqinish", omad kelmaganda, ofat bo'lganda qurbonlik qilish va hokazo marosimlar o'tkazilgan. Biroq bunday qodisalarni qali bayram deb

bo'lmaydi, albatta, chunki ular asosan tabiat injiqliklaridan odamlarga ortiqcha tashvish kelgandagina o'tkazilgan. Biroq keyinchalik ibtidoiy odamlar bunday marosimlarni tabiiy ofatlarning go'yo oldini olish maqsadida o'tkaza boshlashadi. Bu esa ularning ba'zilarini bayramga aylanib ketishiga sabab bo'ldi, jumladan qurbonlik qilish marosimi asosida-"qurbon xayiti" vujudga keldi. Ilohiy kuchga ishonishga baqishlangan marosimlar asosida keyinchalik diniy bayramlar shakllana boshladi.

Marosimlar kishilarning mehnat va kurashda erishgan yutuqi va xursandchiligi, boshqacha qilib aytganda, bayram holati asosida vujudga kelgan. Bunga ovchilik va deqqonchilik marosim - bayramlari misol bo'la oladi. Buning ustiga mehnatga baqishlangan tantanalar faqat marosimdan tashkil topib qolmay, balki unda o'yinlar, musobaqalar uyushtirilib, hatto shu tantana uchun maxsus taomlar tayyorlangan. Shunday qilib, ibtidoiy davrda qadimiy odamlarning o'zlari kabi juda sodda bo'lgan mehnat, hayot va dinga oid turli bayramlar shakllari vujudga kela boshlagan. Ana shu oddiy shakllar keyingi tarixiy davrlardagi bayramlarga asos va zamin bo'la oldi.

Miloddan avvalgi I ming yilliklar boshida O'rta Osiyoda o'troq dehqonchilikning rivoj topishi, ibtidoiy jamiyat yemirila borib, quldorlik tuzumining vujudga kelishi, So'qd, Xorazm, Baqtriya kabi davlatlarning paydo bo'la boshlashi, yangi diniy qarashlarning shakllana borishi munosabati bilan yangi davrga xos turmush tarzini ifodalovchi an'ana, marosim va bayramlar ham yuzaga keldi. Miloddan avvalgi VII-V asrlarda zardushtiylik dini (zoroastrizm) O'rta Osiyoda keng rivojlandi. Zardushtiylarning fikricha, dunyo asosini ikki qarama-qarshi narsa - yaxshilik va yomonlik, yoruqlik va qoronqilik, issiqlik va sovuqlik, hayot va o'lim o'rtasidagi kurash tashkil qilgan. Shuning uchun dunyodagi barcha ijobiy hodisalarni yaxshilik xudosi - Axuramazda (Xurmuz) va hamma salbiy narsalarni yomonlik xudosi- Anxara-Manyu (Axriman) irodasiga boqliq deb tushunishgan. Zardushtiylar yaxshilik xudosi yaxshilik qilishini, yomonlik xudosi yomonlik qilmasligini iltimos qilib siqinishgan. Shuningdek, zardushtiylar yaxshilik xudosi Axuramazdaning yordamchilari- Mitra (yigit qiyofasidagi quyosh va yoruqlik tangrisi), Anaxita (go'zal qiz siymosidagi unumdorlik, qosildorlik, farovonlik tangrisi), Xumo (go'zal qush qiyofasidagi baxt, taqdir va boylik tangrisi), Xubbi (mard yigit qiyofasidagi suv tangrisi), Mirrix (yosh jangchi qiyofasidagi urush va qalaba tangrisi) kabilarga qam itoat qilishgan.

Zardushtiylar o'z marosimlarida koinotning to'rt unsuri - quyosh (olov), suv, yer, qavoni uluqlashgan, ularni dunyodagi eng muqaddas narsalar deb tan olishgan. Olov quyoshning yerdagi shakli (zarrachasi) deb, unga aloqida sajda qilishgan. Olov barcha gunoqdan tozalovchi seqrli kuch sanalgan va unga baqishlab maxsus otashxonalar qurishgan, unda turli bayram, marosimlar uyushtirishgan. O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston territoriyasida yashovchi xalqlarning bayramlarini o'rganishda X-XI asrlarda yashagan buyuk ensiklopedist olim Abu Rayxon Beruniyning "qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari muhim rol o'ynaydi. Beruniy o'zining bu asarida qadimiy eroniylar, xorazmiylar, so'qdiylar, rumliklar, yahudiylar, suriyaliklar, xristianlar, hindlar va boshqalarning kalendaridagi mashhur kunlar, qayitlar va odatlar haqida tarixiy-madaniy ahamiyatga ega bo'lgan bebaqo fikrlar qoldirgan. Beruniy bergan ma'lumotlarga qaraganda, so'qdiylarda Mavsard oyining birinchi kuni-Navro'z va 28-kuni - Romush odam (otashxonalarda to'planish qayiti); Nipsanj oyining 12-kuni - Moqirj; Basokanj oyining 7-kuni-Nikq oqam; 15-kuni - Amsxvora (olov tegmagan narsalarni yeyish qayiti); Ashnxdan oyining 18-kuni- Boboxvora yoki bomixvora (uzumdan siqib olingan toza, xolis shirani ichish) qayiti; Nimsarda (yil yarmi); "Bod omkom"; o'lganlarga aza tutish kuni kabi qayit (bayramlari) o'tkazilgan.

Miloddan avvalgi Eron, So'qd va Xorazmda zardushtiylik ("zoroastriy") kalendaridan foydalanilgan. Yilning har fasli qar oyining o'z bayramlari va mashqur kunlari bo'lgan. Masalan, "farvardin moq - yoz boshi, tir moq -kuz boshi, meqr moq - qish boshi, diy moq - baqor boshi. Ularning oylari ichida to'rt faslga qarab ishlatiladigan (qayit) kunlari bo'lgan.

"Navro'z"ning kelib chiqishi haqida ko'plab fikrlar, afsonalar, miflar mavjud. Masalan, zardushtiylar davridagi ba'zi bir tushunchalarga qaraganda, yaxshilik xudosi Axuramza (Xurmuz)-bahor yozda, yomonlik xudosi Anxara-maynyu (Axriman) - kuzda va qishda

hukmdorlik qiladi. Bahorning birinchi kunini yaxshilik xudosi yomonlik xudosi ustidan qolib chiqqan muqaddas sana deb uni bayram qilishgan. Bu sana "Navro'z" kuniga aynan to'qri kelgan. "Navro'z"ning yuzaga kelishi qar tomonlama ilmiy asoslangan koinot va tabiat qonuniyatlari, yao'ni quyoshning qamal burjiga kirishi, kecha va kunduzning vaqt jihatidan barobar bo'lishi, kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanishning boshlanishi, bahorning kelishi bilan boqliq bo'lgan. Bu esa qar qanday jamiyatda "yil boshi" (qachon kelishidan qato'i nazar) "Navro'z"ni tabiat bayrami sifatida nishonlash uchun asos bo'lgan. "Navro'z"ning chuqur ildizlari eng qadimiy davrlarda - ibtidoiy odamlarning dehqonchilikka o'tganidan so'ng dalalarda yangi ish mavsumi boshlanishidan oldin o'tkaziladigan bahor bayramlariga borib taqaladi. Vaqtlar o'tib, bu bayram rivojlantirilgan, unga mos kun aniqlangan, u "yil boshi" vazifasini xam o'tay boshlaganda unga "Navro'z" (yao'ni "Yangi kun") degan nom ham berilgan deb taxmin qilish mumkin.

Eron, O'rta Osiyo va Afqonistonda "Navro'z" bayramini o'tkazish Axmoniylar davrida (miloddan avval 6-asrlarda) keng tarqalgani malum. Islomgacha bo'lgan "Navro'z"dagi oddiy xalqqa tegishli bo'lgan odatlar ham diqqatga sazovordir. Bayram kuni odamlarning bir-birlariga shakar va shirinliklar hadya qilishi (hayotingiz shirin bo'lsin degan ma'noda), gullar taqdim qilishi (go'zal bo'ling ma'noda), bir-birlariga suv sepishlari (bu yil suv ko'p bo'lsin, mo'l hosil bo'lsin mao'nosida) kabi va boshqa bir qator odatlar keng tarqalgan. "Navro'z"ga tayyorgarlik ko'rish odatlari orasida buqdoy yoki arpa donini yoqoch idishda o'stirib, bahor darakchisi sifatida dasturxonning markaziga qo'yishgan. Bayram arafasida yetti xil don (buqdoy, arpa, no'xat, jo'xori, guruch, mosh, loviya)dan go'ja (bo'tqa) tayyorlanib, uni qo'ni-qo'shni, qarindoshlarga tarqatishgan. Bundan tashqari eroniylarda "S" qarfi bilan boshlanadigan yetti xil ko'k o'simlik (seb-olma, sabzi, sir-sarimsoqpiyoz, sirka, satar-toshgul, siyoqdon-qora danak, sindjid-yovvoyi zaytun kabilar uruqidan o'stirilgan ko'katlar bilan dasturxon bezatilgan. Unga turli quritilgan mevalardan qilingan sharbat, bo'yalgan tuxumlar va boshqa nozu ne'matlar qo'yilgan. Arvohlar ruqini shod etmoq uchun shamlar yoqilgan. Bayramlar dasturxoniga yana bir narsa katta idishga suv to'ldirib, unga ko'k barg (ko'kat) solib qo'yishgan. Bu odat yangi yil suvga va ekinga mo'l bo'lsin degan ma'noni bildirgan.

Qadimdan O'rta Osiyo xalqlarining suvga bo'lgan e'tiqodi baland bo'lgan. Beruniy uzining "qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" kitobida suvga baqishlangan odatlar, qayitlar haqida ko'p to'xtalgan. Bunday odatlarning biri - bahor-yoz bayramlarida odamlar bu yil suvli, hosildor bo'lsin deb, bir-birlariga suv sepishganlar. Beruniy qadimgi "Navro'z" odatlarining biri haqida shunday deb yozadi: "Odamlar shu kuni tong paytida o'rinlaridan turib kanal va qovuzlarga boradilar. Ko'pincha oqib turgan suvlarga ro'para turib, barakali bo'lish va ofatlarni daf etish uchun ustilaridan suv quyadilar". O'zbekiston territoriyasining lalmikor (faqat yomqir suvi bilan suqoriladigan) joylarida hatto suv sepish odati asosida qadimda maxsus uyushtiriladigan "Suv xotin" ("Sust xotin") marosimi ham shakllangan. Bu marosim bahor-yoz oylari yomqir yoqmay, ekinzorlar qovjirab, qurqoqchilik boshlanganda, "yomqir chaqirish" maqsadida tashkil qilingan. Oqsoqollarning ko'rsatmasiga binoan qishloq ayollari katta qo'qirchoq yasashib, unga qari kampirning ko'yagini kiydirishgan, so'ngra maxsus qo'shiqlar aytishib, qo'qirchoqni dalalardan, ko'chalardan ko'tarib o'tib, qar bir xonadonga olib kirishgan. Marosim qatnashchilari "Suv xotin" qo'shiqini aytib, uylarga kirishganda uy egalari ularni xursandchilik bilan qarshilib, albatta qo'qirchoq ustidan suv sepishgan, o'z imkonini doirasida qayr-ehson qilishgan.

Suvga baqishlangan qadimiy odatlardan yana biri esa hatto bayram darajasigacha ko'tarilgan. U yozning maxsus kunlari odamlarning daryo va suv havzalariga borib cho'milishi vaqtida vujudga kelgan. Bahor va yozda O'rta Osiyoning iqlim sharoitida suvga ehtiyoj kuchli bo'lgani uchun suvga baqishlangan turli odat, bayramlarni paydo bo'lishi tabiiydir. Bayramlar, har bir fasl tabiati xususiyatini aks ettirishdan tashqari, asosan inson faoliyatini madh etishga qaratilgan. Islomgacha bo'lgan kuzgi bayramlarning ikkitasi ayniqsa diqqatga sazovordir. Ularning biri - "Tirgon" ("yoki "ro'zi tir") dir. Beruniy "tir" so'zining ma'nosini "dahufaz-lik" va "dehqonchilik" bilan boqlaydi. Bu haqda shunday deb yozadi: "Dahufazlik"- buning mao'nosi dunyoni saqlash, uni qo'riqlash va dunyoda hukmdor bo'lish, yana "dehqonchilik"- buning

ma'nosi dunyoni obod etish, ekin ekish va dunyoni taqsim etish - ikkisi egizak bo'lib, dunyo shular bilan obod va doimo barqaror bo'ladi, uning buzuvchiligi tuzaladi". "Tirgon" katta bayram bo'lib, o'sha kuni barcha kotiblar va deqqonlar yangi kiyim kiyib yurishgan. Bu bayramda buqdoy va mevalardan maxsus taom tayyorlanib, dasturxonlarga tortilgan. Bazi joylarda esa shu kuni cho'milish odati bo'lgan. "Tirgon"ning mazmuni va odatlariga ko'ra u "kuz boshi"da yiqim-terim boshlanishidan oldin o'tkaziladigan bayramga o'xshaydi.

Kuz mavsumida nishonlanadigan katta bayramlardan yana biri "Mehrijon" (yoki "Mehrgoq", Xorazmda-"Chiri- ruj", suqdiylarda-"Nim-sarda") bo'lgan."Mehrijon" so'zining tavsifi - birinchisi "jon sevgisi", ikkinchisi -"quyosh".demakdir. "Navro'z" kuni tabiatda jonlanish boshlansa, "Mehrijon" kuni o'suvchi narsalarning (etilishi - U. q.) chegarasiga yetib, o'sish modda-larining undan uzilishi va hayvonlarni nasllanishdan to'xtalishi..." sodir bo'lgan. "Mehrijon" bayramidan so'ng odamlar qishga tayyorgarlik ko'ra boshlaganlar. "Xuroson podshoqliklarida shu kuni otliq askarlarga: kuzlik va qishlik kiyim berish rasm bo'ldi".Sugdiylar ham bunday bayramni keng nishonlashgan. Faqat bayramning birinchi kunini "yil yarmi" ma'nosida "nim sarda" deb ataganlar.. Ikkinchi kun qayit bo'lib, uni "M-n-i-d-xvo-ra" deb atalgan. Bu kun odamlar "otashxonalarga yiqilib, qo'noq uni, yoq va shakardan tayyorlangan ovqat yeydilar". Xorazmliklar esa Umri oyining 12-kuni bu bayramni "Chiri-ruj"-nomi bilan nishonlaganlar .Miloddan avvalgi davrlarda uzum-mevalar pishgan paytda O'zbekiston territoriyasida (qadimgi yunonlarda "Dionis"ga o'xshash) maqalliy bayramlar o'tkazilgan."Dionis" yoki "Vakxix" bayramlari O'rta Osiyoga Aleksandr Makedonskiy (Iskandar) istilosi bilan kirib kelgan, deb taxmin qilish mumkin. Lekin, akademik S. P. Tolstov va boshqa tadqiqotchilarning ma'lumotlari hamda Xorazm, Kattaqo'rqon va Termiz atroflarida topilgan arxeologik manbalarga qaraganda, joylarda uzumchilikka baqishlangan bayram qadimdan bo'lganligi qaqida mao'lumot bor.

Beruniy bergan ma'lumotlarga qaraganda esa, suqdiylarning Ashixida oyining 18-kuni "Bobaxvara" ("Bomixvora") nomli qayit bo'lib, uning ma'nosi, uzumdan siqib olingan xolis shirani ichishdir". Shu oyning 26-kuni "Garm-Xvara"- uzum yeyish qayiti bo'lgan. Yettinchi oyning 15-kuni yana uzumga baqishlangan ko'p kunli bayram boshlanib, u navbatdagi oyning 9-kuni yakunlangan. Bundan ko'rinib turibdiki, boqdorchilik keng tarqalgan suqdiylarda uzumga va uzum sharbatidan tayyorlangan musallasga baqishlangan butun bir sistemali qayitlar bo'lgan. Kech kuz, qish va erta baqorda uyushtiriladigan barcha bayram va marosimlarda olov yoki gulxan yoqish mavjud bo'lgan. Zardushtiyliklar qayit yoki marosimlarini o'tkazish uchun doimo o't yonib turadigan "otashxona"larga yiqilishgan. Masalan, Novsard oyining 28-kuni Buxoro majusiylarining "Romush oqom" nomli qayitida odamlar otashxonalarga to'planishgan va qayitni yonib turgan gulxan atrofida nishonlashgan. Zardushtiylikning eng yirik bayramlaridan biri Sada bo'lgan. "Sada" olovning kashf etilishiga baqishlangan bayram qisoblangan. "Sada" eron quyosh kalendarining 11-oy, baxmanning 10-kunida bayram qilingan. Firdavsiyning "Shoqnoma" kitobida "Sada" bayramiga asos solingani qaqida maxsus bob bor .

Islomgacha bo'lgan davrda diqqatga sazovor va qiziqarli bayramlar ko'p bo'lgan. Ulardan biri ayollar bayrami. Bu bayram isfandormo'z oyining 5-kuni nishonlanib "ro'zi isfandarmo'z" deb atalgan. Isfandormo'z so'zining mao'nosi "aql" va "muloqaza" demakdir ("Isfandar-mo'z" yerga qamda soliq, nomusli, yaxshi ishlar qiluvchi va eriga muqabbatli xotinga vakil qilingan farishtaning nomi qamdir).Hozirgi kun uchun qiziqarli va kerakli bayramlardan biri - bu Murod oyining 7-kuni o'tkaziladigan -"Murdodangan" qayiti bo'lib, u o'ziga xos tinchlik bayrami qisoblangan. Beruniyning fikricha, bu bayramning luqaviy mao'nosi "o'limsiz - mangu qayot" demakdir. Islomgacha bo'lgan bayramlar o'sha davrning o'ziga xos qonuniyatlari va ijtimoiy xususiyatlari asosida yuzaga kelgan bo'lib, ularni chuqurroq tushunish uchun qar biriga o'sha davr nuqtai nazaridan yondashish kerak. Islomgacha bo'lgan qadimgi rang-barang bayramlarning qimmatlari va afzalliklaridan biri shunda ediki, ularni xukmdor sinflar o'ylab topgan emas, balki tabiiy ehtiyojlar zaminida paydo bo'lgan. Shu boisdan qam ular tabiat bilan uzviy boqliq va qar biri mehnat jarayoni qamda turmushning muqim

Islomgacha bo'lgan davr O'rta Osiyo xalqlarida koinot, tabiat, yil fasllari bilan bevosita boqliq bo'lgan muayyan sistemadagi - bayram - qayitlar bo'lgan. 7-8 asrdagi o'zbek xalqi

bayramlarining rivojlanishi arablarning O'rta Osiyoga qilgan istilochilik yurishlari bilan chambarchas bo'liq. Arablarning O'rta Osiyoga harbiy yurishlarini ikki davrga bo'lish mumkin: birinchi davr 650-705 yillar, ikkinchi davr 705-715 yillar. Arablar istilochilik yurishlari birga O'rta Osiyo hududiga o'z urf odatlarini ham olib kirganlar.

Islomda asosan ikkita rasmiy diniy bayram mavjud: Katta bayram "qurbon qayit" (arabcha nomi - "iyd al kabir", "iyd al-adqo") yetti kun, qozir uch kun - qijriy zul-qijja oyining 10-13-kunlarida va kichik bayram - "ro'za qayit" (arabcha nomi "iyd as-saqir", "iyd al-fitr") qam uch kun - shavval oyining. 1-3-kunlarida nishonlangan. Bu bayramlarning asosiy diniy yo'nalishida - nomozgoqda ertalab nomoz o'qish, o'lganlarni yod etib xudoyi, duo-fotiq qilishlardan iborat. qurbon qayitida qaj va qurbonlik, qilish, ro'za qayitida esa ramazon oyi niqoyasida "oqiz ochish" marosimi, fitr-sadaqa berish kabi xususiy unsurlar bo'lgan. Islomda keyinroq yana bir bayram - mavlid (mavlid an-nabiy)-Muqammad: payqambarning tuqilgan kuni (rabi ul-avval oyining 12-kuni) nishonlana boshlangan. Mavlid kuni duolar, payqambar shao'niga madqiyalar aytiladi, diniy sheo'rlar o'qiladi, dindorlar yiqinlari uyushtiriladi, sadaqalar beriladi. Islom dini bayramiga maqalliy xalqlarning odatlari qam qo'shilib, ularni boyitgan. Masalan arafa kuni qo'shnilarga osh ulashish, "qayitlik" berish, yaxshi maxsus libos - kiyimlar kiyish, yaqinlar, qariya, kasal, nochorlardan xabar olish, o'sha kunlar ishlamasdan dam olish, sayil qilish kabi odatlar islom bayramlarining tarkibiy qismlariga aylanib ketgan.

Masjidlari o'rta Osiyo feodal shaqarlarining muqim tarkibiy qismi bo'lib, ular "qurbon qayit", "Ramazon" (iyd-al-fitr) bayramlari va musulmon ano'analarini o'tkazishda diniy markaz vazifasini o'tagan. Bu masjidning moqiyati bir xil bo'lsada, ular qar joyda turlicha nomlangan: "Nomozgoh" (nomoz o'qish joyi), "Musalla al-iyd" (bayram kuni nomoz o'qish joyi), "Iydgoh" (bayram o'tkazish joyi) va hokazo. Ularning asosiy maqsadi - xalqni musulmon dini asosida birlashtirish bo'lib, bu joylarda majlis, nomoz va qurbonlik kabi diniy anjumanlar uyushtirilgan. Lekin ba'zi vaqtlarda shohlar va hukmdorlar xalqqa o'z olijanobligini ko'rsatish uchun bu yerda katta ziyofatlar qam berishgan.

Dunyodagi barcha xalqlarning, jumladan, O'rta Osiyo xalqlarining an'ana va bayramlari ularning kundalik mehnati, turmush sharoiti, madaniyati va shuningdek, yashayotgan iqlim sharoitiga xos xususiyatlar asosida shakllanib qamda rivojlanib borgan. Deyarli barcha xalqlarda meqnat mavsumi va qar bir faslga mos, yao'ni erta baqorda - meqnat mavsumiga kirishdan oldin, yozda - hosilni yiqishtirishdan oldin, kuzda - hosil to'plangandan so'ng va qishda, ayniqsa, dalalar uyquga ketgan vaqtda uyushtiriladigan mavsumiy marosim va bayramlar mavjud bo'lgan va ular zamonga mos o'zgarib borgan. Bu qodisaning o'rta asrlarda qozirgi o'zbekiston territoriyasida yashovchi aholining yil fasllari va meqnat jarayoni bilan bo'liq bo'lgan mavsumiy ("kalendar") bayramlari misolida ham yaqqol ko'rish mumkin.

Bahor bayramlari yangi meqnat mavsumi boshlanishidan darak beruvchi bo'lib, u meqnatkash xalq qayotida muqim o'rin tutgan. Baqor kirib kelishini kutib olish bayramlari qadimdan barcha xalqlarda mavjud bo'lgan. Bahor bayramlari insoniyat vujudga kelishi bilan paydo bo'lgan bayramlardan bo'lib, odamlarning dunyo bo'ylab tarqalishi natijasida ular ham barcha yerlarga yoyilgan va keyinchalik bu ano'analar barcha xalqlarda turli nomlar va qar xil shaklda uyushtirilgan.

O'rta asrlarda "Navro'z" bayrami yanada rivojlanib, ommaviy tus olgan, bu bayram qaqida deyarli barcha o'sha davrning allomalari so'z yuritadi. o'rta asr va keyingi davrlarda "Navro'z"ning xalq turmushi va mao'naviy qayotidagi mavqei, fayzu tarovati, fazilat va xosiyati qaqida qomusiy bilim egalari Abu Rayqon Beruniy, Firdavsiy, Mahmud qoshqariy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy, Fayziy-Fayyoziy, Muhammadali Soib, Mirzo Bedil, Kalim Koshoniy, Furqat, Muqimiy, Sadriddin Ayniy va qamza kabilar ajoyib fikr-muloqazalar bildirganlar, go'zal she'rlar bitganlar. "Navro'z"ni Beruniy "Navro'z - olamning boshlanishi" desa, Firdavsiy ""Navro'z"-bayramlar shohi". deydi. Navoiy odamlarga istak bildirib: "qar tuning qadr o'lubon, qar kuning o'lsun navro'z" desa, Sadriddin Ayniy: "Navro'z"da, tabiat jonlanibgina qolmay inson tabiati qam uyqonar -edi" deydi.

Tarixda "Navro'z"ga qarshi shaxslar qam kam emas edi. Bu bayram eng avvalo bosqinchilarga qo'l kelmas edi. Bu hodisa arab istilosidan so'ng yaqqol namoyon bo'ldi. Islom

arboblari bu bayramni taqiqlashga ko'p uringanlar. "Navro'z" ularning diniga, siyosatiga, qonun-qoidalariga nomuvofiq emasligini bilsalar qam, bu bayramda odamlarning ozodlik sari ruqan birlashishlari mumkinligidan qo'rqishar edi. Shuning uchun "Navro'z" istilochilar saroylarida, amaldorlar va din aqli davralarida rasmiy bayram qisoblanmagan. Lekin bu tazyiqqa qaramay "Navro'z" xalq orasida nishonlana bergan. Bundan foydalangan ayrim podshohlar va amirlar keyingi asrlarda o'zini xalqparvar qilib ko'rsatish - maqsadida "Navro'z"ni tashkil qilishga bel boqlaganlar. S. Ayniy XIX asr Buxoroda uyushtirilgan bunday "Navro'z" qaqida quyidagilarni yozgan: "Amir Muzaffar urushda (Rossiya bilan bo'lgan) yengilgandan so'ng, xalq oldida obro'siz bo'lib qolgan, ayniqsa urushda bo'shab qolgan xazinasini to'ldirmoqchi bo'lib, har bir yerda "chavqiy" (umumiy bazm) uyushtirib, odamlarni uning tomoshasiga band qilar, shu yo'l bilan xalq ommasining diqqatini o'zining nojo'ya ishlaridan chetga tortar, yoki o'z kirdikorlarini xaspo'shlardi". O'rta asrlarda hozirgi O'zbekiston territoriyasining turli joylarida "Navro'z" o'ziga xos usullarda uyushtiriladigan bo'ldi. Uni nishonlash vaqti 3 kundan tortib, to dalalarda ekin-tekin boshlanguncha davom etgan. "Navro'z" odatda bozor qoshidagi maxsus maydonlarda va ko'proq shahar chekkalaridagi maxsus saylgoqlarda uyushtirilgan. "Navro'z" kunlari eng katta bozorda savdo-sotiqalar tashkil qilingan va o'sha kuni eng shirin taomlar tayyorlangan. hovli-joylarni tozalash, ko'kat va gullar ekish, ota-ona, yaqin yoru-do'stlarni ziyorat etish, marqumlarning qabrini ziyorat qilish kabi odatlar "Navro'z" bayramining tarkibiy qismiga aylangan. "Navro'z" ko'p joylarda dala ishlari boshlangunga qadar nishonlangan. Bayram so'nggida dehqonlar o'z ish qurollarini tayyorlab, xo'kizlarni yem bilan boqib, uning shoqi bilan bo'ynini moylab, dala tomon yo'l olishgan. Biroq ko'klam tantanalari arafasida yoki ular-dan keyin, ya'ni to meqnat mavsumi kirgunga qadar qam baqor bilan boqliq bo'lgan bkr qancha xalq ano'analari o'tkazilib turilgan.

Bahorning boshlarida bu faslning "shohona" taomi - sumalakka baqishlangan sayl o'zbek xalqining eng yaxshi ano'analaridan sanalgan. Bahorda dehqonlar qayotndagi eng muqim voqea - bu yangi meqnat mavsumiga kirishishdir. Shu boisdan dehqonlarning yerga uruq qadashlari munosabati bilan o'tkaziladigan maxsus marosimi-tantanalar mavjud bo'lgan. Ular turli joylarda turlicha "Dalaga qo'sh chiqarish", "Shox moy", "Ekin sayli", "qo'sh oshi" kabi nomlar bilan-uyushtirilgan. Bahor bayramidan so'ng dehqonlar yangi meqnat mavsumiga kirishishgan. Lekin toqli rayonlarda bahor boshqa yerlarga qaraganda birmuncha kech boshlangani sababli bu joylarda yangi meqnat mavsumini sabrsizlik bilan kutishgan. Shu sababli uruq qadash payti yetib kelganda bu daqiqa o'ziga xos bayram qolatini vujudga keltirgan.

O'rta Osiyo xalqlari orasida bahor fasli o'tkaziladigan yana bir tadbir "darvishona" deb nomlangan. Har yili bahor faslida qishloqlarda va shahar mahallalarida 2-3 kishi uyma-uy yurib, pul yoki oziq-ovqat to'plagan, so'ngra biror kishining qovlisida yoki masjidda ovqat (halim) pishirib, butun mahalla baham ko'rishgan. Bu marosim yurtida biror ofat bo'lganda undan xalos bo'lish yoki dehqonchilikda mo'l qosil tilash va boshqa niyatlarda xudoga siqinish, undan go'yo madad so'rash mazmunida o'tkazilgan. Mazkur marosim darvishlar odatiga o'xshab uyma-uy yurib, oziq-ovqat yiqish bilan boqliq bo'lgani uchun Darvishona (darvishlarga o'xshab) deb nom olgan.

O'zbekiston hududidagi bahor fasliga baqishlangan turli marosim va bayramlar orasida tabiatning eng so'lim chechagi - gulga baqishlangan sayllar alohida o'rin tutgan. Xorazm va Buxoroda "qizil gul sayli", Farqona vodiysi, qo'qon va Toshkent atroflarida "Lola sayli", ba'zi togli rayonlarda, jumladan Chust va Denov rayonlarida "Sumbula sanli", yana boshqa joylarda "Boychechak" kabi bayramlar uyushtirilgan. Nurota qir-adirlarida gullar ochilgan maqalda "qizil gul sayli", Farqona vodiysida - "Lola sayli", Samarqandda mevali daraxtlar, behi gullaganda - "Behi guli sayli" ("Sayl guli beqi"), Zarafshon vodiysida "Boychechak gul-gardoni", Buxoroda gullar ochilib, bulbullar sayragan vaqtda - "Gulgardoni bulbulxon" ("Bulbul qo'shiqi") kabi bayram - sayllar uyushtirilgan.

Etnografik va tarixiy adabiyotlarda yil davomida ochiq bemalol yurolmagan xotin-qizlarning gul sayllarida erkin qatnashishi qaqida ma'lumotlar mavjud. Q'adimgi gul sayllarini tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, qabrlarni ziyorat qilish bu bayramning tarkibiy qismi bo'lgan. Gul sayllari (lola, qizil gul bayramlari)ni q'achon o'tkazilishi tabiatga, ob-havoga boqliq bo'lib,

ular gullar qiyqos ochilganda aprel boshidan to may o'rtalarigacha o'tkazilgan. Navro'z bir oygacha nishonlanadigan joylarda esa bu ikki bayram bir-biriga qo'shilib ketgan. Shunday joylarda bahor tantanalari "Navro'z" bilan boshlanib "Gul sayllari" bilan yakunlangan. Keng va go'zal lolazorlar bor joylarda esa "Gul sayllari" yanada tantanalibroq o'tkazilgan va bu baqor bayramlari bir-birini to'ldirib, o'zaro boyitib borgan. O'zbek dehqonlarining qayoti, mehnati va hosilni yiqib olish munosabati bilan o'tkaziladigan bayramlari orasida bizning davrimizgacha kelganlaridan biri "qovun sayli"dir. Inqibodan ilgari "qovun sayli" dehqonlarning polizlarida qovun-tarvuzlarini yiqishdan boshlanib, bozor maydonlarida qam davom etgan.

Paxta yetishtiradigan dehqonlarning ham xosilni yiqib olganlaridan so'ng nishonlanadigan bayramlari bo'lib, ular "Xirmon to'yi", keyinroq esa "Paxta bayrami"-deb nomlangan. Mo'l hosil etishtirgan yillari paxtakorlar katta ziyofatlar uyushtirishgan, o'yin-kulgi qilishgan, yaxshi ishlaganlarga sovqa-salom berishgan, to'nlar kiydirishgan. Q'ish mavsumidagi bayramlar. qish faslida dehqonlarning bo'sh vaqti ko'p bo'lishiga qaramay, ammo bu mavsumga ataluvchi bayramlar ancha kam. Shunga qaramay, qish fasli bilan boqliq bo'lgan "Birinchil: kor" ("qor yoqdi", "qor xat") sayli o'zbek xalqi orasida keng tarqalgan edi. Bular birinchi qorga baqishlangan, o'ziga xos bayram shakllaridir.

Qadimdan birinchi qor yoqqan kun "qor xat" yozish ommaviy tus olgan, dalalarda qor otishlar, o'yin-kulgilar, sovqa-salomlar va mehmondorchilik ziyofatlaridan tashkil topgan qishki xalq bayrami vujudga kelgan. Ilk bor qor yoqib dalalar, qir-adirlar va daraxtlarning oppoq libosga burkanishi o'ziga xos go'zallik yaratgan. Qor yoqishi - yerni yaxshi oziqlanib, uning yaxshi hosildor bo'lishidan dalolat bergan. Shu sababli qor yoqishi kishi-larda ko'tarinki kayfiyatni yaratgan. Xalqimizda "qor yoqdi - don yoqdi", "Er to'ysa, el to'yadi" degan maqollar bejiz yaratilgan emas. O'rta asrlardan qish faslining oxiri yoki erta bahorda o'tkazib kelinayotgan "qurultoy" ham o'zbek yiqin-bayramlari qatoridan o'z o'rnini topgan. qurultoy o'rta asrda vujudga kelib, O'rta Osiyo xalqlarining chorvadorlari, dehqonlari orasida muntazam ulkan yiqilish, majlis-sifatida har yili erta bahorda uyushtirilib, eng yirik bayramlardan biriga aylanib ketgan. qurultoyda mavsum kuni, shuningdek, eng dolzarb masalalar va kelajakdagi rejalar haqida maslahatlashib olingan. o'zaro kelishuv va maslaqatlar tugagach, ommaviy xalq tomoshalari, ot o'yinlari - poyga, uloq ("Ko'pkari") xalq ommaviy sayllari uyushtirilgan.

XIX asr oxiri - XX asrning boshlanishi o'zbek xalqi hayotiga katta o'zgarishlar olib keldi. Chunonchi, O'rta Osiyo Rossiya davlati tomonidan bosib olingandan so'ng, bu yerga mustamlakachi to'ralarning kolonial siyosati bilan birga "inqilobiy qoyalar" ham yetib keldi. 1904 yil Toshkentda ilk bor revolyusionerlar boshchiligida "Mayovka" uyushtirildi. 1905 yildagi Peterburg "qonli yakshanba" voqeasidan keyin qalok bo'lganlar xotirasiga baqishlangan namoyishlarning kuchayishi natijasida, Turkistondagi Toshkent va boshqa shaqarlarda birinchi may bayrami - chorizmga qarshi ulkan siyosiy tadbir sifatida tashkil etiladigan bo'ldi. Chor samoderjavesining aqdarilishini o'zbek xalqi ham mamnuniyat bilan kutib oldi. O'zbekistonning shaharlari va ko'pgina qishloqlarida revolyusiya sodir bo'lishi munosabati bilan sayllar uyushtirilib ularga rus grajdanlari ham taklif qilindi.

XX asr boshida o'zbek madaniyati, bayramlari ham inqilobiy o'zgarishlar davrida rivojlandi, o'zgarib bordi. G'oyaviy kurash bir necha siyosiy oqimni vujudga keltirib, ularning har biri kelajakda xalq hayoti, siyosati, iqtisod, madannyat, shu jumladan odat - bayramlar qanday bo'lishini belgilash uchun o'zining afzalliklarini ko'rsatishga urinar edi. Biroq xalq hayoti, madaniyati va bayramlari taqdirini, u yoki bu qoyaviy-siyosiy oqim vakillarining istagi bilan hal qilish qiyin. Ularning qaysisi qay darajada kerakligini xalqning bayramlarga bo'lgan eqtiyoji qal qiladi. Bayramlarning qanday o'zgarishi, boyishi hayot taraqqiyotiga boqliq. "Har bir millatning urf-odatlari turli davrlarda, turli tarixiy va iqtisodiy sharoitlarda, madaniyatning turli bosqichlarida vujudga keladi. Jamiyat moddiy va ma'naviy hayotining o'sishiga qarab, ular o'zgarib boradi, ya'ni ma'lum sharoitning talabiga javob bera olguncha "saqlanadi va aks holda yo'qolib ketadi".

Asrdan-asrga, avloddan-avlodga bebaho meros bo'lib o'tib kelayotgan, turmushga singib ketggn "Navro'z", "Lola sayli", "qovun sayli", "Xirmon to'yi" kabi ano'anaviy bayramning zaminida tabiatni e'zozlash, mehnatni uluqlash bo'lgani uchun qam u yangi zamon talabiga

to'la javob bera olar edi. Shu bois ular qarama-qarshiliklar, taqiqlarga uchragan bo'lsa ham xalq orasidan bugunlay yo'qolib ketmadi. Chunki bayramlar masalasi Hamza Hakimzoda Niyoziyning turli janrlardagi asarlarida o'z aksini topgan. She'riy ijodida "Ramazon" she'rini, publisistik asarlari orasida "qurbon - bayrami kuni" nomli maqolasini, dramaturgiyasida "Bugun-8 mart" nomli pesasini va boshqalarni ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, uning amaliy faoliyatida ham, bayramlarni uyushtirish muhim o'rin egallagan.

Inqilobning dastlabki vaqtlaridanoq yangi tuzilgan davlat va partiya organlari mahalliy xalq uchun yangi bo'lgan umumproletar bayramlar: 1- May (xalqaro birdamlik kuni), 8 - Mart (xotin-qizlar ozodligi kuni), 7- noyabr (Oktyabr revolyusiyasining qalaba kuni) kabilarni tashkil qilishga katta e'tibor bera boshladi. Chunki bu bayramlar yangi tuzumning afzalliklarini ommaga tushuntirishda muhim vosita edi. Shuning uchun ham partiya va davlat organlari bu bayramlarni ommaviy va qiziqarli qilib uyushtirish maqsadida unga madaniyat, sano'at va adabiyot xodimlarini jalb etishardi hamda o'sha vaqtda markaz bo'lmish Petrograd va Moskvada paydo bo'lgan ilk tajribalardan foydalanishga intilishardi. Natijada ko'pgina joylarda, jumladan Toshkentda qam bayramlarning asosiy qismini tashkil qiladigan yangi shakllar: ommaviy insenirovkalar, teatrlashtirilgan miting - konsertlar, teatrlashtirilgan chiqishlar va karnaval - namoyishlar vujudga keldi. Bayramlarning mazmuni oddiy xalqqa tushunarli bo'lishi uchun ularda ko'plab badiiy - obrazli va ta'sirchan vositalar qo'llanila boshlandi.

Sovet hokimiyatining birinchi yillari bayramlar ko'pincha teatrlashtirilgan miting-konsertlar shaklida ham tashkil qilinardi. Bu badiiy agitasiyaning muqim turi qisoblanib, uning badiiy - obrazli syujeti notiqlar nutqi va unga ilova shaklida revolyusion qo'shiqlar, she'rlar dramatik lavqalar va hokazolar bilan yanada kuchaytirilar edi. Inqilobning borishi yillaridan yangi internasional bayramlar hisobiga boyib bordi. 20-yillar oxiri, 30-yillar boshlarida yangi bayramlar "soyasida" xalq bayramlari e'tibordan chetda qola boshladi. Eskilik sarqitlari va dinga qarshi kurashlar jarayonida xalq urf-odat - bayramlarning qaysilari ijobiy va qaysisi salbiy ekanligi to'qrisida o'ylamay, ularning chuqur moqiyatiga etishmasdan, ularga (masalan, "Navro'z"ga) ba'zida ochiqdan-ochiq, ba'zida pinqona kurash olib borildi.

Ana shu ko'rsatmalarga amal qilinib 80-yillar o'rtalarida o'zbek xalqi azaldan sevib, ardoqlab kelgan urf-odatlar va marosimlar, bayramlar cheklab qo'yildi, ba'zilarining o'rniga boshqa bayramlar va marosimlar to'qib chiqarildi. Natijada avvallari nishonlanadigan "hosil bayrami", "qovun sayli", "Gul sayli" va boshqa xalq bayramlari unutib qo'yildi. "Navro'z" bayrami esa avval ta'qiqlandi, so'ng suno'iy tarzda "Navbahor" bayramiga aylantirildi. Xalq qo'llab-quvvatlamagan bu bayram moddiy zaminga ega bo'lmaganligi sababli uzoq yashay olmadi. Xalq bayramlarini ta'qiqlab qo'yilishi 80-yillarning oxiriga kelib aholining ochiqdan-ochiq va haqqoniy noroziligini uyqotadi. Buning zaminida milliy an'analar, marosimlar va bayramlarni xalqqa qaytarish jiddiy masalaga aylandi. Natijada O'zbekiston jumhuriyatida "Xalq bayramlarini tiklash muammolari" yuzasidan ishchi gruppasini tuzilishi qamda bu grupp tomonidan qar yili 21 martdan 21 aprelgacha "Insoniylikni va tabiatni e'zozlash oyligida "Navro'z", "Xotira kuni", "Birinchn pushta", "Birinchi ekin", "Don, maysa va suv kuni", bolalar "Boychechak" bayrami, "Lola sayli" va boshqa bayram marosimlarini o'tkazish tavsiya qilinishi xayrli ishlarning debochasi bo'ldi. Xalq marosimlari va bayramlarini tiklash juda murakkab jarayon bo'ldi. Chunki xalq bayramlariga xos shakl va elementlar yo'qolib bordi. Xalq bayramlari kuni uyushtirilgan "Katta tomoshalar", masqarabozlar, qiziqchilar, qo'qirchoqbozlar, dorbozlar, polvonlar ishtirokidagi azaliy xalq tomoshalar, askiyabozliklar, mushoiralar, xalq o'yinlari kabilar noyob qodisaga aylandi. Eng ayanchli qol shu bo'ldiki, shaxsga siqinish va turqunlik yillarida o'zbek xalq bayramlariga xos yaxshi odatlar (bayram oldidan qariyalar, xastalar va nochorlardan xabar olish, savobli-xayrli ishlar qilish, kabilar) unutila bordi. Bu borada shuni qato'iy ta'kidlash kerakki, bayramlar barcha xalqlarda eng yaxshi insoniy odatlar va an'analarni saqlaydigan muhim shakl bo'lgan. Shu sababli xalq marosimlari va bayramlari bilan birga insoniylik an'analari qam yo'qola bordi.

XX asrda an'anaviy o'zbek xalq bayramlari davr sinoviga bardosh berdi, ba'zi vaqtlarda vujudga kelgan qiyinchiliklarni yengib o'tdi, ularning safiga yangi bayramlar qo'shildi, boyidi. O'zbekistonda Sovet hokimiyati yillaridagi bayramlar taraqqiyotiga nazar soladigan bo'lsak, bir-

biri bilan boqliq yaqqol ikki yo'nalishning vujudga kelganini sezish mumkin:

1. An'anaviy xalq progressiv bayramlarini (zamonga mos) taraqqiy ettirish;
2. Xalqaro bayramlarni hayotga tadbiiq etish va taraqqiy ettirish.

Birinchi yo'nalishda o'zbek xalqi uchun qadim zamonlardan munosib bo'lgan milliy marosimlar - bayramlar ("Navro'z", "Lola sayli", "qovun sayli" kabilarni)ni yangi mazmun bilan rivojlantirish nazarda tutilsa, ikkinchi yo'nalishda esa butun dunyo xalqlarining kurashi va mehnati jarayonida vujudga kelgan bayramlarni (1 May- xalqaro birdamlik kuni, 8 Mart - xalqaro xotin-qizlar kuni, 1 yanvar - yangi yil, 9 May - qalaba kuni, 7 noyabr - Oktyabr revolyusiyasi kuni kabilarni) o'zbek xalqi qayotida milliy va maqalliy xususiyatlarini qisobga olib tashkil qilish ko'zda tutildi. Undagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy soqalarning taraqqiy etishi bayramlar rivojiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada, zamon talabiga muvofiq yangi-yangi bayramlar vujudga keldi. Shuningdek, o'zbek xalqi ijtimoiy-madaniy qayotining o'zgarishi va yangi soqalar paydo bo'lishi natijasida mehnat, tabiat, madaniyat, sport, oilaviy-shaxsiy bayramlar yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Birinchidan, an'anaviy o'zbek xalq an'analari qatoriga o'lkamiz hayotiga mos, milliy va mahalliy xususiyatga ega bo'lgan yangi bayramlar qo'shilgan. Masalan, bunga "Tabiat bayrami" ("Ona yer sahovati"), "qishloq bayramlari", "Ko'cha bayramlari", "Mahalla bayramlari", "qariyalar bayrami", "Palov va obinon bayramlari", "Tabassum sayli", "Do'stlik karnavali", "Sport bayrami" kabilarni kiritish mumkin. Bu bayramlarning ko'pi O'zbekiston sharoitida vujudga kelib, zamonaviy milliy bayramlar sifatida shakllangan.

Respublika rahbarligiga kelgan I.A.Karimov kishilarning ma'naviy boyishiga, milliy madaniyatlarning bir-biri bilan yaqinlashuvi va o'zaro rivojlanishiga yordam beradigan xalq an'analari va bayramlarini tiklashga katta e'tibor berdi. Bu o'rinda xalqimizning azaliy qadriyati, sevimli bayrami hisoblanmish "Navro'z" bayramini xalqimizga qaytib berilishi mamlakat tarixida katta voqea bo'ldi. Ma'lumki, O'zbekistonda Prezident tashabbusi bilan "Navro'z" bayramini umumxalq shodiyonasiga aylantirish borasida bir qator tadbirlar ko'rildi. 1991 yildan boshlab mamlakatda Prezident Farmoniga ko'ra, 21 mart - Navro'z umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bo'ldi.

Har bir jamoa, muassasada nishonlanadigan bunday bayramlar, kishilarda xalqimizning qadimiy an'alariga hurmat, mehnatga muhabbat hissini tarbiyalaydi. Bundan tashqari ma'naviy hayotdagi yana bir talay, aniqroqi diniy bayramlar, qayit kunlarining respublikada umumxalq bayrami sifatida nishonlanishi uchun keng yo'l ochilgani ham ma'naviy poklanishning muhim ko'rinishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat .T.: O'zbekiston. 1994 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: Ma'naviyat. 1998 y.
3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. -T.: Ma'naviyat, 1998 y. .
4. Abdullaev M. Abdullaev A. Ma'naviyat va madaniyat tarixi. Farg'ona. 1998 y.
5. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. T. 1996 y.
6. Ashirov A. Atadjanov SH. Etnologiya. T. 2007 y.
7. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. T. 2007 y.
8. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik. Farg'ona. 1998 y.
9. Murodov. M. Qorabaev U. Rustamova R. Etnomadaniyat.. T.: Adolat. 2003 y.
10. Etnomadaniyat fanidan ma'ruzalar matni. 1-qism. Farg'ona. 2001 y.

Mavzu: Tabiat bayramlari. Navro'z va Xosil bayrami.

REJA:

1. Tabiat bayramlari
2. Navro'z bayrami
3. Xosil bayrami

Inson tabiatning tarkibiy qismi va farzandi sifatida vujudga kelgan va rivojlangan. Shu sababli insoniyatning eng qadimiy an'analari va bayramlari bevosita tabiat, undagi o'zgarishlar, yil fasllari va mehnat jarayoni bilan uzviy boqliq bo'lgan. Hozirgi davrda ham insonlarda tabiatga oid bayramlarga tobora qiziqish yanada oshayotganligini sezish mumkin. Tabiat qonunlariga ko'ra, unda muntazam o'zgarish, yangilanish bo'lib turadi: nimadir vujudga keladi, nimadir rivojlanadi va o'z vazifasini o'tab bo'lgan hodisalar asta-sekin yo'qola boshlaydi. Bu qonuniyat barcha xalqlar bayramlariga ham tegishlidir.

O'zbekistonda ijtimoiy-madaniy hayot taraqqiyoti asosida yangi ijtimoiy, mehnat va madaniy sohalarining vujudga kelishi, kishilarning zamonaviy ehtiyoji, davr talablari zaminida yangi zamonaviy bayramlar yuzaga keldi. Keyingi vaqtda barcha ommaviy tadbirlarga bayram tusini berish harakati kuchaymoqda. Bu hodisani ayniqsa, tabiatga baqishlangan tadbirlarda yaqqol sezish mumkin. Chunki tabiatga baqishlangan tadbirlarda kishilar, o'simliklar va hayvonot dunyosidagi ajoyib va noyob go'zalliklardan zavqlanish uchun sharoit yaratish odamlarda xursandchilik, o'ziga xos ruhiy bayram kayfiyatini vujudga keltiradi. Balki shuning uchun bo'lsa kerak, avvaliga uyushtirila boshlangan gul ko'rgazmalari asosida "Gul bayrami", qushlar ko'rgazmasi zaminida esa "qushbayrami", tabiiy mahsulotlardan tayyorlangan ko'rgazmalar asosida "Tabiat in'omi" bayramlari vujudga kela boshladi. Tabiatni himoya qilish ehtiyoji kuchayishi natijasida "Tabiatsevarlar bayrami", xalq madaniyatini takomillashtirish yo'lida "Folklor bayrami", "Til bayrami", oilaviy va shaxsiy hayotni farovonlashtirish maqsadida oltin, kumush to'ylar, qariyalar bayramlari, mahalliy joy hayotini yaxshilashga intilish zaminida ko'cha bayramlari, mahalla kunlari, qishloq va shahar bayramlari shakllanadi.

Shuningdek, yil fasllari go'zalliklarini tarannum etuvchi "qish bayrami", "Yoz o'tmoqda soz", "Oltin kuz", inson mehnati evaziga tabiat in'om etgan mahsulotlarni tarannum etadigan "Tabiat sovg'alari" kabi bayramlar shakllana boshladi. Ular kishilarda tabiatga muhabbat uyqotishda, ekologik tarbiya olib borishda, tabiatni himoya qilish va uning ajoyib namunalarini saqlash uchun yaxshi ma'naviy hamda amaliy sharoit yaratadi. Tabiat bayramlarining muhim tomonlaridan biri shundaki, ular oldindan odamlarda maxsus kayfiyatni vujudga keltiradi. Tabiatning jonlanishi, o'zgarishi, u yaratgan go'zalliklar va nozu ne'matlar so'zsiz kishilar diqqatini tortib, xursandchilik, shodlik va bayram kayfiyatini olib keladi. Masalan, kishilar bir necha oylab bahorni sabrsizlik bilan kutadilar. Bahorning kirib kelishi, tabiatning ko'm-ko'k libosga, gullarga burkanishi har bir kishi qalbiga go'zallik tuyqusi, baxtiyorlik va bayram kayfiyatini olib keladi. Dunyoning deyarli ko'pchilik xalqlarida tabiat uyqonishi bilan bahor bayramlari eng yirik bayram sifatida nishonlanib kelinganligi bejiz bo'lmasa kerak. Yana shunday bayramlar borki, ular tabiatning qonuniyatlariga bevosita boqliq bo'lib, o'zi bayram holatini yarata oladi. Bunga yilning almashishi vaqtida vujudga keladigan "Yangi yil bayrami", yangi bahorni kutib olisdagi "Navro'z", lolalar ochilganda kishilar dalalarga chiqib uyushtiradigan "Lola sayli", qushlar uchib kelganda bolalar uchun tashkil qilinadigan "qushlar bayrami", yoz faslida oromgoxlarda o'tkaziladigan "Oltin yoz - o'tmoqda soz" va kuz faslida tashkil qilinadigan "Oltin kuz" kabi bayramlar kiradi. Tarixiy rivojlanish jarayonida dunyodagi barcha xalqlarning jumladan, O'rta Osiyo xalqlarining an'ana va bayramlari, ularning hayoti, mehnati, turmushi, madaniyati hamda xalq yashayotgan joy sharoiti, iqlimi va tabiatiga xos xususiyatlari asosida shakllangan. Barcha xalqlar hayotida mehnat mavsumi va har bir faslga mos, ya'ni erta bahorda - mehnat mavsumiga kirishdan oldin, yozda - hosil yiqishtirishdan oldin, kuzda - hosil to'plangandan so'ng va qishda, ayniqsa, dalalar uyquga ketgan vaqtda uyushtiriladigan mavsumiy marosim va bayramlar mavjud bo'lgan. Aynan ular etnografik adabiyotlarda "kalendar bayrami" deb nom olgan.

Tabiat bayramlarini shartli ravishda ikki turga bo'lish mumkin:

Birinci tur bayramlar tabiatning qonuniyatlariga bevosita boqliq bo'lib, o'zi bayram holatini yarata oladi. Bahorda dalalarga chiqib uyushtiriladigan lola sayli, yoz mavsumidagi "oltin yoz" va ko'zni tarannum etuvchi "oltin kuz", qish faslidagi "kumush qish" kabi bayramlar bevosita tabiatdagi o'zgarishlar bilan boqliq.

Ikkinchi tur tabiat bayramlari inson mehnatiga asoslanadi. Ular insonning tabiatdan foydalanishi, uni o'zlashtirish uchun qilinadigan mehnati natijasida hosil bo'ladi. Dehqonlar o'z

mehnatlari samaralarini yiqib bo'lganlaridan keyin nishonlanadigan "qovun sayli", "uzum sayli", "olma sayli", "hosil bayrami" kabi an'analarda tabiat inson mehnati bilan chambarchas boqlanib ketadi. Respublikamiz hududida ayniqsa bahorni kutish, hosil yiqishga oid mehnat va tabiat bayramlari qadim zamonlardan rivoj topgan. Shuningdek, odamlar hayoti va mehnati bilan bevosita boqliq bo'lgan ovchilik, chorvachilik, va tabiatni o'zlashtirishga oid marosim va bayramlar shakllana boshlagan. Biroq ibtidoiy jamoa tuzumida odamlarning tabiat mo'jizalarini tushunmasligi va tabiat sirlarining iloxiy kuchlarga boqlashi natijasida mehnat bayramlari bilan bir qatorda "tabiatning ilohiy kuchiga siqinishi", "yomqir tilash kabi diniy marosimlar ham vujudga kela boshladi".

O'zbekiston hududidagi xalqlarning yil fasllariga baqishlangan ko'plab kalendar bayramlari bo'lganligi haqida Abu Rayhon Beruniy asarlarida ma'lumotlar bor. An'anaviy tabiat bayramlari orasida, ayniqsa, bahor bayramlari O'zbekiston hududida keng nishonlanadi. Ular o'rtasida tabiatning eng go'zal mahsuli - gulga baqishlangan sayillar alohida o'rin tutadi. Navoiy oblastining Nurota rayonida qir-adirlarda gullar ochilgan mahalda "qizil gul sayli", Farqona vodiysida "lola sayli", Samarqandda mevali daraxtlar, jumladan, beqi gullaganda "beqi guli sayli" ("sayli guli beqi"), Zarafsqon vodiysida "boychechak gulgardon", Buxoroda gullar ochilib, bulbullar sayraydigan vaqtda - "gulgardon bulbulxon" ("bul-bul qo'shiqi") kabi bayram sayillari uyushtirilgan.

O'rta Osiyo xalqlarining qadimdan to hozirgi kungacha nishonlanib kelayotgan bayramlaridan biri, bu -hosil mavsumining boshlanishi, ya'ni yangi yil kirishi, kecha va kunduzning tenglashgan vaqtida o'tkaziladigan eng yirik bayram "Navro'z"dir. Navro'z qachon, qanday vujudga kelgan va kim tomonidan joriy qilinganligini aniq aytish qiyin bo'lsada, bu bayramni buyuk va dono xalqimiz o'ylab topgani ravsqandir. Chunki Navro'z koinot va tabiat qonuniyatlarini hisobga olingan holda joriy etilgan. Chunonchi, quyoshning hamal burjiga kirishi, kecha va kunduzning vaqt jihatdan barobar bo'lishi, kunduzning uzaya bosqlashi, yoruqlikning ko'payishi, bahorning boshlanishi, tabiatning jonlanishi navro'z deb qabul qilingan Navro'z - "yangi kun" degan ma'noni bildiradi.

Navro'z eski quyosh kalendari hisobida Farvardin oyining boshlanishiga (hozirgi 22 martga) to'qri keladi. Bu kun "Kichik Navro'z" deb atalgan va shu kundan boshlab, tabiatdagi hamma narsa hamalga kiradi, deb hisoblangan. Beruniy "qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" nomli kitobida qimmatli ma'lumotlar qoldirib, unda kichik bayram farvardin oyining oltinchi kunigacha davom etganligi

ta'kidlanadi. Farvardin oyining oltinchi kunidan "Katta Navro'z" boshlangan. Ba'zi tarixiy manbalarda Navro'z bayrami Ahmoniylar davridan (mil. av. 530-330 yillar) boshlab butun O'rta Osiyo, Eron va Afqonistonga keng tarqalgan va an'anaga kirgan, degan taxminlar bor. Grek-Makedon va Arab istilosi davrlarida Navro'z nishonlansada, u podsho saroylarida, amaldorlar va din ahli davralarida rasmiy bayram hisoblanmagan.

Arablar VII asrda, mo'qullar XIII asrda O'rta Osiyo xalqlariga o'z ideologiyasini singdirish bilan bir qatorda xalq an'analari, jumladan, Navro'zni ham ta'qiqlashga harakat qilib, uni nisqonlashga qarshi qattiq kurash olib borishgan. Boy tarixi va xalqda bayramni o'tkazishning o'ziga xos tartib-qoidalariga ega bo'lganligi uchun Navro'zni ta'qiqlash mustabid hukmdorlarning qo'lidan kelmagan. qovlijoylarni tozalash, ko'kat va gullar ekish, ota-ona, yoru do'stlarni yo'qlash, marhumlarning qabrini ziyorat qilish kabi odatlar Navro'z bayramining tarkibiy qismiga kirgan.

Ma'lumki, o'rta asrlarda O'zbekiston hududining turli joylarida Navro'z har xil tarzda uyushtirilgan. U 3 kundan to 15 kungacha nishonlangan. Navro'z odatda bozorga yaqin joylarda, katta maydonlarda, shahar chekkalaridagi sayilgohlarda uyushtirilgan. Bayramning birinchi kuni quyidagicha bo'lgan: ertalab dorbozlar va polvonlarning chiqishlari, kun o'rtasida - muzikachilar, hofizlar va boshqa san'at-korlarning ijrolari, kechki payt esa sayillar, xalq o'yinlari, bazmlar uyushtirilgan. Navro'z bayrami tarixi qiziqarli o'tadigan xalq tomoshalariga bilan boqliq bo'lgan. Masxaraboz va qiziqchilar tomonidan ijro etiladigan o'zbek milliy o'yinlari orasida minglab kishilarga mo'ljallangan, maydonlarda o'tkaziladigan katta tomoshalar bo'lgan. Bunday tomoshalar Farqonada - "Katta masxarabozlik", Buxoroda - "Chavqi", Xorazm-da -

"Xatarli o'yin" nomi bilan yuritilgan. Navro'z kunlari katta bozorlarda savdo-sotiqalar tashkil qilingan va eng shirin taomlar tayyorlangan. Navro'z taomlari orasida sumalak alohida o'rin tutadi. Chunki sumalakni tayyorlash sayil sifatida shakllanib, bahor bayramining muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylanib ketgan.

Sumalak sayli kishilarda qadimdan o'zaro ahillik qissiyotini tarbiyalab kelgan. Chunki sumalak tayyorlanadigan joyga barqqa kishilar bir-bir xovuchdan don olib kelishgan, birgalikda taom pishirishgan, bir qozondan tayyorlangan ovqatdan hammalari baham ko'rishgan. Sumalak sayli asosan ikki marosimdan tarkib topadi: 1) sumalakni tayyorlash; 2) sumalakxo'rlik qilish. Sumalak sayli an'anaviy marosim bo'lib, asrlar osha nishonlanib, mazmunan boyitib kelinayotgan xalq bayramlaridan biridir. U hozirgi kunda ham kishilar o'zaro hamkorlik, do'stlik va birodarlikka chorlaydi. Navro'z dalalarda mehnat mavsumining boshlanishiga baqishlangan bayram hamdir. Uning oxirgi kuni - dehqonlarning yerga uruq qadashlari munosabati tufayli o'tkaziladigan marosim, tantanalar bilan yakunlangan. Bu marosim turli joylarda turlicha: "qamal sayli", "Ekin sayli", "qo'sh oshi" deb nomlangan. O'zbekistonda qadimdan tabiatning uyhonishi, dalalarda mehnat mavsumining boshlanishidan dalolat beruvchi va xalq tomonidan keng nishonlanuvchi Navro'z sovet hukmroligi davrida ta'qiqlarga uchradi.

80- yillar o'rtalarida Navro'z sun'iy tarzda "Navbahor" bayramiga aylantirildi. O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan "Navro'z" bayramini umumxalq shodiyonasiga aylantirish borasida bir qator tadbirlar ko'rildi. 1991 yildan boshlab mamlakatda Prezident Farmoniga ko'ra, 21 mart -Navro'z umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bo'ldi. Navro'zning yana bir ajoyib xislati bor: uning ochilish marosimini ko'rish mumkinu, ammo bayramning yopilishini sezish amri mahol, chunki u ko'chalar va uylarda uzoq davom etadi. Navro'z har bir kishining qalbida bir yilga yetadigan yorqin taassurot, tetiklik qoldiradi. Navro'z bayramidan keyin odamlar bardamlashgan va kuch-quvvatga to'lgan qolda ishga kirishadilar.

Dunyodagi barcha xalqlarda ham tabiatning mo'jizasi gul-go'zallik, do'stlik, muhabbat ramzini bildiradi. Insoniyat bayramlarining hech biri gulsiz o'tmaydi va gul bilan boqliq urf-odatlar deyarli barcha xalqlarda bor. Qadimdan respublikamizning turli xududlarida gul sayillarini -"Lola sayli", "Sumbula sayli", "qizil gul sayli" kabi nomlar bilan nishonlab keladilar.

An'anaviy gul (lola) sayillari va zamonaviy gul bayramlari kelib chiqishi jiqatidan ma'lum ma'noda bir-biridan farq qiladi. An'anaviy gul (lola) sayillari bahor faslida tabiat qo'ynida uyushtiriladi, zamonaviy gul bayramlari yozda, shahar va qishloqlar gullarga burkangan bir paytda, madaniyat va istirohat boqlarida o'tkaziladi. Gul sayillari qadimdan an'anaviy tarzda o'tkazilib kelingan.

Qizil gul sayli. Bu asosan mart oyining oxirlarida Xorazm va Buxoro oblastlarida o'ziga xos qiziqarli shakllarda uyushtiriladi. Sayil o'tkazilayotgan qishloqlar va sayilgoqlarda odamlar ko'tarinki kayfiyatda bo'lib, u yerda kuy va qo'shiqlar yangraydi, raqsga tushishadi. Keng maydonlarda masxarabozlar, dorbozlar tomosha ko'rsatishadi, ishqibozlar xo'roz, qo'chqor, tuyalar urishtirishadi, uloq o'yinlari tashkil qilishadi. Buxoro va Xorazmda o'tkaziladigan gul sayillaridan shu narsa yaqqol ma'lum bo'ladiki, ular deyarli diniy elementlardan xoli bo'lib, haqiqiy xalq sayillari sifatida uyushtirilgan. Hozirgi kunda qizil gul sayli ma'lum ma'noda zamonaviylashib, xalqning dalalarga chiqib mazmunli dam olishi va ma'naviy hordiq chiqarish shakliga aylangan.

Sumbula sayli. Bu bayram ham bahorda, toq yonbaqirlarida turli gullar, jumladan, sumbullar yashnagan vaqtda o'tkaziladi. Tabiat go'zalliklarining birlashgan joyi: bir tomoni toq, ikkinchi tomoni suv (ko'l, daryo, soy), uchinchi tomoni o'rmondan iborat sayilgoqlar dam olish, tabiat chiroyidan bahramand bo'lish uchun qulay joy hisoblanadi. O'zbekistonda bunday manzilgoqlar kam emas. Masalan, Chust rayonidagi Toshqo'rqon ana shunday tabiiy go'zalliklari tutashgan joy. Baland toqlar, oppoq qorlardan hosil bo'lgan q'ova soyi va uning atrofidagi yovvoyi mevali daraxtlar, turli qushlar va hayvonlar yashaydigan o'rmonzorlar sayil qilish uchun eng qulay joydir. Qadimdan o'tkazib kelinayotgan sumbula sayli hozirgi kunda yangi, zamonaviy tarzda may bayramlariga boqlab o'tkazilmoqda.

Lola sayli. Bu qir-adirlarda lola qiyqos ochilgan paytlarda shahar va qishloqlar aqli

dalalar va boq-roqlarga jamoa bo'lib chiqib nishonlaydigan bayram (o'ziga xos "mayovka")dir. Lola sayli gul sayllari orasida keng tarqalgan. Qadimdan mavjud bu bayramlarda progressiv fazilatlar ko'p, diniy elementlar esa kam bo'lganligi bilan xarakterlidir. Etnograflarning ma'lumotlariga qaraganda, "Lola sayli" bayramini xalq tomonidan saylangan "Lolachilar" boshqarganlar. Bu o'ziga xos marosim maxsus aytiladigan qo'shiqlar, tomoshalar, o'yinlarga boy bo'lib, butun aholini sayilgoh tomon yo'llashdan boshlangan. Xalqdan meros bo'lib kelayotgan an'anaviy gul sayllariga munosabat hozirgi kunda yangicha mazmun bilan boyidi.

80 -yillarda "Lola sayli" aprel oyining ikkinchi yarmida O'zbekistonning ko'pgina joylari, jumladan, Toshkent viloyatining Bo'stonliq, Parkent, Keles rayonlarida, shuningdek, Farqona vodiysi, Samarqand oblastining toqli rayonlarida shanba va yakshanba kunlari uyushtirilgan."Yomqir chaqirisq" marosimida odamlarning hayotiy istaklari aks etsada, kishilarning tabiat injiqliklarining tub sabablarini bilmasliklari, ularning oldini olisqh cqoralarini topishga ojizliklari tufayli paydo bo'lgan. Suv bilan boqliq xalq an'analari bilan yana biri bahor payti kunlar isib, soylar, daryolar, ariqlar suvga to'lganda ilk bor cho'milisq munosabati bilan vujudga keladigan marosim diqqatimizni tortadi. Maxsus adabiyotlarni o'rganish natijasida "suv sayli"ning ko'pgina Sharq xalqlari, jumladan, Kavkaz xalqlari (arman, adjar va boshqalar)da keng tarqalgani ma'lum bo'ldi.

Keyingi vaqtlarda O'zbekiston territoriyasining ba'zi toqli va suv havzalari bor joylarida qadimdan utkaziladigan "suv sayli" haqidagi qiziqarli ma'lumotlar topilmoqda .qishloq xo'jalik ishlari bilan mashqul barcha kasb egalari - paxtakoru boqbon, qallakor, sabzavotkoru pillakorlarning hayoti va mehnatiga baqishlangan an'analari ichida qosilniyiqisqtirib olish munosabati bilan o'tkaziladigan alohida marosim va bayramlar bo'lgan. O'zbek mirishkor dehqonlarining ma'lum qismi qadimdan poliz ekinlari bilan shuqullanganligi tufayli, ularning hayoti va mehnati bilan boqliq, o'ziga an'analari va bayramlari bo'lgan. Xususan, poliz mahsulotlari pishganda yillik hosilni yiqisqtirib olish munosabati bilan o'tkaziladigan qovun sayli bunda aloqida o'rin tutadi. Oktyabr inqilobidan keyin, qovun sayllari yirik umumxalq bayramlari sifatida nishonlandi. 60- yillarda Toshkentda madaniyat va istiroqat boqi xodimlarining tashabbusi bilan qovun saylining zamonaviy an'analari boy yangi shaklda uyushtirildi va bu tajriba respublikamizning ko'pchilik oblastlariga keng yoyildi .

Zamonaviy qovun sayli O'zbekistondagi hosil bayramlarida o'ziga xos o'rin tutib, poliz mahsulotlari pishganda (avgust oyining oxirlarida) keng nishonlana boshlandi. Shuni alohida qayd etish kerakki, agar poliz mahsulotlari - qovun, tarvuzlardan mo'l hosil etisqtiriladigan joylarda qovun sayli o'tkazisq an'ana tusini olgan bo'lsa, asosiy mahsulot sifatida uzum yetisqtiriladigan joylarda "Uzum sayli" (masalan, Urgutda), anor yetisqtiriladigan territoriyalarda "Anor sayli" (masalan, quvada), boqdorchilik, xususan olma yetishtirish bilan mashur bo'lgan rayonlarda "Olma sayli" (masalan, Namanganda) va hokazo bayramlar o'tkazish odat tusiga kirgan. Mirishkorlar hosil yiqim - terimi so'ngida yoki erta kuzda ishini tugatib, o'z bayramlarini o'tkazadilar. Dehqonlarning asosiy qismi - paxtakorlar paxtadan mo'l hosil yiqibolganlarida tantanavor ziyofatlar va o'yin-kulgilar uyushtirishgan, yaxsqi ishlaganlarga sovqa salom berisqgan va hokazo. Paxta hosili tantanalari har xil regionlarda turlicha: "xirmon to'yi", "hosil to'yi", "paxta sayli" kabi shakllarda nishonlangan. Ilgari mahalliy xarakterga ega bo'lgan bunday tantanalar hozirgi kunda respublika ahamiyatiga molik katta ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etuvchi paxta bayramiga aylangan. Sovet davriga kelib kommunistik pariya manfaatlari va qarashlariga asosida an'anaviy xalq bayramlari rivojlanib, zamon ruhiga moslashtirildi. Qish tantanalari. O'rta Osiyoda, shimoliy regionlarga qaraganda qish fasli qisqaroq bo'lib, qattiq sovuqsiz o'tadi. Yoz bo'yi qishloq xo'jalik ishlari bilan band bo'lgan o'zbek dehqonlarining qish mavsumida bo'sh vaqtlari ko'p bo'ladi. Shu sababli, mehnatkashlarning bo'sh vaqtini unumli o'tkazish an'analari ular hayotida alohida o'rin tutmoqi lozim. Qish vaqtida gap-gashtaklar avjga chiqqan, doston kechalari, ertak aytishlar, topishmoq aytish o'yinlari va boshqa qishki dam olish shakllari aholining hayotiga o'zgacha mazmun baxsh etishi aniq. Qish faslida odamlarning bo'sh vaqti ko'p bo'lsada, biroq boshqa fasllarga qaraganda, bu mavsumda bayramlar kam bo'ladi.

"Gul bayrami" davr talabiga ko'ra yangi internasional hodisa sifatida 50- yillarning oxirlarida, tabiat go'zalliklarini himoya qilish dolzarb masalalarga aylangan bir vaqtda shahar va

qishloqlarni gulzor boq-roqlarga aylantirishga ko'mak beruvchi ijtimoiy - madaniy tadbir sifatida tashkil topdi. Gul bayramlari dunyoda keng tarqalgan an'analardan biridir. Barcha joylardagi gul bayramlarini mohiyati va mazmuni bir-biri-ga yaqin bo'lsada, biroq ular o'ziga xos usul, rang-barang shaklda, milliy va mahalliy xususiyatlar bilan uyushtiriladi. An'anaviy gul sayillari va zamonaviy gul bayramlari kelib chiqishi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Ba'zi tadqiqotchilar bu ikki o'ziga xos sayil bayramlarni bir-biridan ajratolmay umumiy tarzda izoh beradilar. An'anaviy gul (lola, sunbula, boychechak) sayillari bahor fasli dala gullari ochilganda tabiat qo'yni - saylgohlarida uyushtirilgan bo'lsa, zamonaviy gul bayramlari yoz fasli shahar va qishloqlar gullarga burkangan bir paytda madaniyat va istirohat boqlarida o'tkaziladi. Gul sayllari qadimdan an'anaviy tarzda uyushtirilib kelingan bo'lsa, gul bayramlari keyingi davrlarda (50-yillarda) shakllangan yangi bayramdir. U bizga Yevropadan o'tib, mahalliy va milliy an'analarga boqlanib ketgan. U qisqa muddat ichida sobiq ittifoqdagi barcha respublikalarga keng tarqaldi. Bunday "gul bayram"larining mohiyati va mazmuni bir-biriga yaqin bo'lsada, ular har joyda o'ziga xos tartibda, rang-barang shakllarda milliy va mahalliy xususiyatlari bilan chambarchas boqliq. "Gul bayrami" boshqa zamonaviy an'analar singari asta-sekin O'zbekiston bayramlari orasida ham mustahkam o'rin egallay bosqladi. hatto, keyingi yillarda u yangi xalq bayramlariga ham aylanib ketdi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki bu yangi an'ananing rivojlanisqi uchun o'zbek xalqi hayotida uzoq tarixga ega bo'lgan va tabiat qo'ynida o'tkaziladigan "Lola sayli", "Sumbula sayli", "qizil gul sayli" kabi yuqorida tilga olingan an'analar muhim omil bo'lgan edi. Gul bayramining asosiy maqsadi, shahar, ko'cha, hovli, muassasalar, korxonalar, maktablar, boqchalar va xiyobonlarni ko'kalamzorlashtirib, manzarali va chiroyli gul navlarini ko'paytirishga yordam berish hisoblanadi.

Namanganda o'tkaziladigan gul bayrami paxta yiqim - terimiga kirishisqdan avval - shanba -yakshanba kunlari tashkil qilinadi. U an'anaviy tarzda ertalab, karnay-surnay sadolari bilan boshlanadi. Tabiat bayramlari ichida "Mehrjon" bayramining ham o'z o'rne bor. Abu Rayhon Beruniy o'zining mashqur "qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar" nomli asarida "Mehrjon" so'zini "quyosh" va "jon sevgisi" degan ma'nolar bilan boqlab talqin qilgan. O'rta Osiyoliklarda ham quyoshga siqinish elementlari mavjud bo'lgan .

Zardushtiylarning muqaddas "Avesto" kitobida Mitra (quyosh tangrisi) ga baqishlangan ajoyib so'zlar bor. Ulardan ma'lum bo'lishicha, zardushtiylar quyosh va uning tangrisi - "Mitra" ni ilohiy darajaga ko'tarishgan. Ajdodlarimiz quyosh - dunyodagi eng buyuk kuch, hayot chashmasi, yoruqlik va issiqlik bunyodkori deb tan olishgan. Ko'pgina qadimiy xalqlarda jumladan turkiy qavmlarda quyoshga siqinish politeistik qarashlarning muhim va tarkibiy qismiga aylanib ketgan . Miloddan avvagi (1 ming yilliklar boshida) kuzgi bayramlar turli joylarda, masalan, Eronda va boshqa joylarda "Mehrjon" (yoki "Mehrgon"), ko'hna Xorazmda - "Chiri-ruj", So'qdda esa "Nim-sarda" nomi bilan mashqur bo'lgan. "Navro'z" bahorgi kunu-tun tengligini qayd qilsa, "Mehrjon" kuzdagi o'sha holatdan nishona bergan. "Mehrjon" bayrami, bir tomondan, koinot va yerga jon ato etib turgan quyosqni qadrlashga, o'z nuri va qarorati bilan hosil yetkazishga bergan yordami uchun minnatdorchilik bildirishga imkon yaratgan bo'lsa, ikkinchidan barchani qish qamini yeyishga undagan. Asrlar o'tib, zardushtiylik o'rniga yangi din (islom) joriy qilingandan so'ng, go'yoki "Mehrjon" endi odamlar qalbiga ko'chib, inson mehriga aylana boradi.

Ajdodlarimiz tarixida asosiy bayramlardan biriga aylangan "Mehrjon" keyingi ming yil icqida alohida bayram sifatida nishonlanmay qo'yilgan bo'lsada, u butunlay yo'qolib ketmadi. Aniqroqi, u turli - kuz va hosil bayramlariga bo'linib ketgan edi .

Mehnat bayramlari. Dehqonlarning hayotida eng quvonchli voqea - bu hosilni yiqish va yangi noz ne'matlarni tatib ko'rish jarayoni bo'lgan yil bo'yi kutilgan bunday jarayon, tabiiyki, dehqonlarda bayram kayfiyatini vujudga keltirgan. Bundan ko'tarinki kayfiyatni harakatlarda aks ettirish maqsadida kisqilar o'yinlar va marosimlarni tashkil qilgan. "Mehnat o'yinlari" yaxshi kayfiyat, bayram holatini vujudga keltirgan. Bronza davrilaridan boshlab o'troq dehqonchilikning vujudga kelishi va uning tez rivojlanishi natijasida bahorda mehnat mavsumiga kirishish, kuzda hosilni yiqib olish yakuniga bagishlangan bayramlar shu tariqa yuzaga kelib, ular yillar o'tishi bilan an'anaga aylana boshlagan. Insonning "birinchi kasbi"-ovchilik asosida-

"ovchilik o'yinlari" vujudga kelgan bo'lsa, uning dehqonchilikka o'tishi va u bilan shuqullanishi natijasida "mehnat o'yinlari" shakllanib, yangi mehnat bayramlari uchun zamin yaratgan. Mehnat- bu bayramning bosh manbai, asl zamiri hamda ilk chashmasi sanalib, bayram (yoki "bayram holati") ibtidoiy davrdan boshlab "yashash uchun kurash"- mehnatning natijasi shaklida vujudga kela boshlagan. Bunday holat bayramning sodda shakli sifatida namoyon bo'lishiga qaramay, keyinchalik u inson madaniyati va san'atini rivojlantirish uchun zamin yaratib bergan. Chunonchi, bunday bayram holati jarayonida turli o'yinlar (teatr va raqs, pantomima san'atlarining primitiv ko'rinishlari) va maxsus marosimlar rivojlanadi.

Mehnat tufayli inson hayvonot dunyosidan ajralib chiqqan va taraqqiy etgan. Odamzod o'z taraqqiyoti jarayonida erishgan barcha yutuqlar - bu mehnat tufaylidir. Xalqimizda "Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik", "Mehnatning tagi rohat", "Mehnat qilgan dur keltirar" kabi maqollar bejiz yaratilmagan. Kishi o'z mehnatidan hursand bo'la olsa, u boshqalar uchun ham zarracha foyda bera olishni his qilsa, mehnatidan faxrlanish tuyqusini his qiladi. Aynan qadimgi avlodlarning o'z mehnatidan shodlanish, faxrlanishlari natijasida mehnat bayramlari vujudga kelgan. Mehnatni sevgan, mehnatdan yaxshi natijalarga erishgan xalqlarning aynan mehnat bayrami ko'p bo'lgan va ular yaxshi o'tgan. Azaldan mehnatkash o'zbek xalqi hayotida mehnat bilan boqliq bo'lgan turli marosimlar va bayramlarning mavjudligi tasodifiy emas. Hozirgi davrda ham O'zbekiston bayramlarining asosiy qismini mehnat bilan bevosita boqliq bayramlar tasqil qiladi. Hozirgi kunda mehnat sohalarida kasblarning ko'payisqi natijasida mehnat bayramlari va marosimlarining ham turlari ko'payib, mazmunan boyib bormoqda. Ular ichida ishchilar va qishloq xo'jaligi xodimlarining mehnat bayramlari, jumladan, mehnat jarayonining (yangi mehnat mavsumi yoki yangi mehnat boshichining) boshlanisqiga yoki mehnat jarayonining (ma'lum boshichining) yakunlanishiga, reja, majburiyatlarning bajarilisqiga baqishlangan tantanalar hamda davlat tomonidan joriy etilgan kasbkorlik kunlari alohida o'rin tutadi. Respublika aholisining 60 foiziga yaqinini qishloq mehnatkasqlari tashkil qiladi. Shu sababli, qishloq mehnatkasqlarining hayoti va mehnati bilan boqliq bo'lgan bayramlar va marosimlarni o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizning asosiy faxri bo'lmish - paxtakorlarning hayotini yanada farovon qilish, yangi mehnat zafarlari sari ruhlantirish, turmushni go'zallashtirish, madaniy dam olishini samarali tashkil qilishda bayram va marosimlarning roli katta. Hozirgi davrda paxtakorlarning hayoti, mehnati va bo'sh vaqti bilan boqliq bo'lgan ko'plab marosim va bayramlar hayot taqozosi asosida vujudga kelgan. Keyingi davrlarda mehnatkasqlarning sobiq ittifoq va milliy bayramlari taraqqiy etishi bilan birga, qar bir ijtimoiy guruqning, ma'lum kasb egalarining, mehnat kollektivlarining o'ziga xos xususiy yangi bayramlari va an'analari ham vujudga kelgan. Taraqqiyot natijasida har bir mehnat kollektivining dam olishini tashkil qilish bilan bir qatorda ularning hayoti, mehnati va bo'sh vaqtlari maroqli, mazmunli o'tishi uchun maxsus tantanalar, marosimlar va bayramlar tashkil qilish zaruriyati vujudga keldi. Sobiq ittifoq davrida muayyan kasb egalarining, mehnat kollektivlarining xususiy marosim va bayram kalendari va ularni tashkil qilish metodikasini yaratish bo'yicha tajribalar vujudga kelgan. Masalan, Rossiya Federasiyasida qallakorlar, Latviyada baliqchilar, Leningrad Kirov zavodi birlashmasida va boshqa joylarda ishchilar bayram kalendarlari tuzilgan. Respublikamiz aholisining ko'pchilik qismini tashkil qiladigan va uning faxri bo'lgan o'zbek paxtakorlari ham mehnati, dam olisqi va turmushi bilan boqliq bo'lgan, muntazam uyushtirilib turiladigan xususiy bayramlariga ega bo'lishlari tabiiydir. Ayni vaqtda paxtakorlarning bunday bayram va an'analari shakllana bosqlagan. Paxtakorlar hayotidagi birinchi katta anjuman, fevral oyining oxirida - mart oylarining boshlarida bo'lib o'tadigan, hosil yilining yakunlari va yangi mehnat mavsumining boshlanisqiga baqishlangan qishloq xo'jalik xodimlari kengashi bilan boshlanadi. Qurultoyni kalendarga kiritishimizdan maqsad, u qishloq xo'jaligi xodimlari va paxtakorlarning eng yirik va tantanali bayrami bo'lib qolmoqi kerak. Ma'lumki, paxtakorlar hayotida "Navro'z" ("Bahor - bayrami) alohida o'rin tutadi. U paxtakorlarning yangi hosil mavsumiga yaxshi niyat bilan shaylanish bayrami sifatida ham xizmat qiladi.

"Uruq (chigit) qadash", "Birinchi gul", "qizil karvon" bayramlari ham o'ziga xos muayyan mehnat jarayonlarining boshlanishi, ya'ni cqigit ekishning birinchi kuni, ilk bor qo'za

gullashi va yetishtirilgan hosilning birinchi mahsulini davlatga topshirish munosabati bilan uyushtirilgan. Yoz oylari maktabni, hunar-texnika bilim yurtlari va boshqa o'quv dargohlarini tugatgan yoshlar tanlangan kasbi bo'yicha isq bosqlaganlar. Yoshlarning paxtakorlar safiga kirib kelishi, muxim hodisa hisoblanib, paxtachilik rivojida yetakchi rol o'ynagan. Paxtakorlar bayramlari kalendari-dekabr oyining birinchi dekadasi plan va majburiyatlarni bajarilishi munosabati bilan avval xo'jaliklarda, rayonlarda, so'ng oblastlarda va oxiri respublika otchoparida uyushtiriladigan "hosil bayrami" bilan yakunlangan.

"Urug qadash" va "Birinchi gul" tantanalari. Xalqda qadimdan dalalarda ish boshlanishi, ilk bor yerga urug qadash munosabati bilan maxsus marosimlar uyushtirish odati shakllanib, davrlar o'tishi bilan keng ommalashgan edi. Bizning davrimizga kelib, bu xalq odatlari hayotdagi o'zgarishlar bilan ma'lum ma'noda o'z mavqeini, tantanavorligini yo'qotgan bo'lsada, uning zaminida paxta yetishtiriladigan regionlarning ba'zi joylarida "urug qadash" nomli zamonaviy marosim vujudga kelgan. Yerga cqigit qadash paxtakorlar hayotida eng muhim yumusq bo'lib, shu kompaniyadan keyin haqiqiy mehnat mavsumi boshlanadi. Shuning uchun ham, chigit qadash ishlarining boshlanishi paxtakorlarda ko'tarinki ruh, yaxshi kayfiyat va xursandchilikni vujudga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Istiqlool va ma'naviyat .T.: O'zbekiston. 1994 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: Ma'naviyat. 1998 y.
3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. -T.: Ma'naviyat, 1998 y.
4. Abdullaev M. Abdullaev A. Ma'naviyat va madaniyat tarixi. Farg'ona. 1998 y.
5. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. T. 1996 y.
6. Ashirov A. Atadjanov SH. Etnologiya. T. 2007 y.
7. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. T. 2007 y.
8. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik. Farg'ona. 1998 y.
9. Murodov. M. Qorabaev U. Rustamova R. Etnomadaniyat.. T.: Adolat. 2003 y.
10. Etnomadaniyat fanidan ma'ruzalar matni. 1-qism. Farg'ona. 2001 y.

Mavzu: QADIMIY DINIY E'TIQODLAR VA DINLAR.

REJA:

1. Totemizm va totemistik marosimlar.
2. Totemistik marosimlar evolyutsiyasi va o'ziga xos xususiyatlari.

Er sharida paydo bo'lgan ilk din shakllaridan biri totemizm deb yuritiladi. Din tarixiga oid maxsus ilmiy adabiyotlardan ma'lumki, totemizm ilk urug'chilik davrida yuzaga kelgan diniy e'tiqod bo'lib, unga ko'ra ma'lum bir urug', yoki qabila, uning a'zolari o'zlarini biror hayvon, o'simlik, yoki buyum bilan qandaydir aloqador hisoblashgan va bu aloqa qarindoshlik deb tushunilgan. SHunga ko'ra, bunday hayvon, o'simlik, yoki narsa muqaddaslashtirilgan va unga sig'inilgan.

Totemizm ilk din shakllaridan biri bo'lishi bilan birga dinning juda murakkab ko'rinishlaridan biri hamdir. Aynan ana shu murakkablik ko'plab tadqiqotchi olimlarning mazkur muammoga murojaat qilishiga va bu borada o'zlarining ilmiy-nazariy mulohazalarini bildirishlariga sabab bo'lgan. Biz quyida totemizm va totemistik qarashlarning tarixi hamda uning o'ziga xos xususiyatlari borasida mulohazalar bildirishdan avval totemizmining «totemizm» iborasi va uning tarixiga qisqacha to'xtalib o'tishni joiz deb bildik.

"Totemizm" so'zi Shimoliy Amerika hindularining alkongil guruhiga mansub bo'lgan "adjibva" qabilasi lahjasidagi "ot-otem" yoki "ot-otam" - so'zlaridan olingan bo'lib, "uning urug'i" degan ma'noni bildirgan. Lekin bu ibora totemizm asosiy diniy e'tiqodi bo'lgan barcha xalqlarda ham doimo bir xil tarzda qo'llanilmagan va turli xalqlarda turlicha nomlar bilan yuritilgan. Masalan, bunga nisbatan G'arbiy Avstraliyada "kobong", Janubiy Avstraliyada "ntait'yo" iborasi kullanilgan. Umuman olganda "totem" atamasini birinchi marta XVIII asrning

oxirida ingliz savdogari Jon Long insonning hayvon va o'simliklar bilan qon-qarindoshligi haqidagi ishonchini anglatuvchi so'z sig'atida ishlatgan. evolyutsionist e.B. Taylor totemizm insoniyat madaniyatining quyi bosqichida paydo bo'lib, Mak-Lennan uning insoniyat tarixidagi o'rni ahamiyatini birinchilardan bo'lib ko'rsatib berganligini e'tirof etadi. Ha, haqiqatdan ham totemizm shotlandiyalik huquqshunos Jon G'ergysusson Mak-Lennanning 1869-1870 yillari yozilgan "*O'simliklar va hayvonlarni ezoqlash*" nomli asari orqali jahon g'aniga ilmiy termin tarzda kirib kelgan.

Totemizm muammosi, jumladan, uning kelib chiqishi va o'ziga xos jihatlari XIX asr oxiri XX asr birinchi yarmida ko'plab mutaxassislar diqqat markazida bo'lgan va bu muammoning echimiga bag'ishlangan qator g'undamental tadqiqotlar e'lon qilingan. Totemizm muammosini echishda G.Sponsor, e.Taylor, Robertson Smit, Dj.G'rezer, Van Gennep, S.P.Tolstov, S.A.Tokarev, D.E.Xaytun kabi dinshunos va elshunos olimlarning xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tish joiz. O'tgan yillar davomida totemizmga oid yig'ilgan ko'plab rang-barang materiallar asosida 50 dan ortiq kontseptsiyalar hamda qator ko'p jildlik tadqiqotlar bajarilgan. Jumladan, mashhur ingliz olimi D.G'rezer 1910 yilda o'zining totemizm muammosiga bag'ishlangan 4 jildidan iborat bo'lgan "*Totemizm va ezogamiya*" nomli yirik asarini nashr qilgan. O'z navbatida ushbu asarni e'lon qilinishi dinshunos va etnograf olimlar orasida totemizm muammosiga oid bahslarni yanada qizg'in avj olishiga sabab bo'lgan va bu davrda chop qilingan qator ilmiy jurnallar sahif'alarida "*Totemizm muammosi*" degan maxsus ruknda o'n yillar mobaynida qator ilmiy munozaralar e'lon qilinib borilgan..

Totemizm qadimgi turkiy xalqlar hayotida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Totemizmda ba'zi o'simlik (daraxt) va hayvonlar insonlarning qo'riqllovchisi va tangrilari hisoblangan. Muayyan qavmning a'zolari anik bir hayvon yoki o'simlik zotidan tarqagan degan tasavvurda bo'lganlar. SHu bois uchun ham totem ular uchun ilohiy (muqaddas) xisoblangan. Ilmiy adabiyotlar turkiy xalqlarni utmishda bo'ri, ayiq, burgut, ilon, echki, qo'y, ho'kiz, daraxt va boshqa hokazo totemlarga e'tiqod qilganliklaridan guvohlik beradi. Masalan, o'zbek, qozoq, turkman, Janubiy Sibir' xalqlaridan Oltoy turklari - yoqutlar, chuvashlar, Osiyoliklar - mo'g'ullar orasida bo'ri, ot, ayiq, ho'kiz kabi hayvonlarga nisbatan totemistik e'tiqod nihoyatda kuchli bo'lgan. Abulgoziy Bohodirxonning «SHajarai tarokima» asarida qayd qilishicha, O'g'izxon davrida shunqor, burgut, ukki, qarchig'ay, turunboy, lochin, xumoy, tuyg'un, qarg'a muqaddas qush-totem hisoblangan. Mashhur sharqshunos olim V.V.Bartol'd Rashiddin bergan ma'lumotlarga asoslanib, o'gizlarda hatto islom davrida ham totemizm saqlanganligi va ular har bir qushni e'zoqlashi, urugning a'zosi deb hisoblanganligini, ularga tegmaganini va go'shtini emaganini yozgan edi. Qolaversa o'zbeklar tarkibida burgut, burqut kabi qadimiy urug'lar bo'lgan bo'lib, bu uruglarning paydo bo'lishi ham totemistik qarashlar bilan bog'liq bo'lgan.

Umuman olganda so'nggi yillarda olib borilgan tarixiy-etnografik va g'ilologik yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida tadqiqotchilar tomonidan totemik e'tiqodlar bilan bog'liq qator toponimlar aniqlanib ilmiy iste'molga olib kirildi. Jumladan, tadqiqotchilar tomonidan totemistik tasavvurlar bilan bogliq etnonimlarni o'rganish asnosida *avjin, buqa, bag'ish, bahrin, ovshin, bug'un, boybo'ri, guvalak, ilonli, kaltatoy, kojar, kerayit, kiyikchi, javli, olchin, sari, toyloq, tulki, tulga, to'pichoq, enaka, esaboy, yobi-yobu, chovgan, chuvalay, qarg'a, qiyg'ochli, qorabura, qoralochin, qoraqush, qoraqo'yli, qoraqursoq, quyin, qo'zichi, qo'zichi, qo'ng'irot, qo'chqorquloq* kabi 40 yaqin turkiy etnonimlarning totemik e'tiqodlar bilan aloqadorligi aniqlangan.

Darhaqiqat, qadimgi turkiy etnonimlarning ko'plari asosan qush, hayvon nomidan iborat bo'lib, totemni bildirgan. Jumladan, qadimgi turkiy yodnomalarda bunday totemlarni ko'plab uchratish mumkin. Qadimgi turkiy urug'lardan biri barloslarning nomlanishi ham totem bilan bogliq bo'lib, ham yo'lbars (sher), ham burgutni bildirgan. *Barloslar* Qashqadaryo viloyati Kitob, SHahrisabz, Sariosiyo tumanlarida Surxondaryo viloyatining Boysun, Denov tumanlarida yashashadi. SHuningdek, o'zbeklarda *barqut* degan urug ham bo'lgan. Qolaversa, mug'ullar orasida ham *barga, barlag* degan qabilalar borligi ma'lum.

Turkiy uruglardan yana biri *bahrin* urug'ining kelib chiqishi ham totem bilan bog'liq bo'lib, qush nomini, ya'ni lochinning bir turini anglatgan. Bahrinlar XII-XIV asrlarga qadar

Dashti qipchoqda yashaganlar va XVII-XIX asrlarda O'zbekistonning Gargona vodiysiga va Zarag'shon vohasiga ko'chib o'rtnashganlar. Qadimda bahrin urug'iga mansub kishilar uchun bahrin totem, qabilaning muqaddas jonzoti bo'lgan va unga sig'inilgan, keyinchalik esa qabila nomiga aylangan].

Totemning tasviri uylarga, ashyolarga va mozorlarga qo'yiladi. Odamlar badanlariga ham totemlarning rasmini solar edi. Bora-bora totem xisoblangan hayvonning yaratuvchi va asrovchisi haqidagi diniy e'tiqodlar zaig'lashgan va o'rtni milliy tushunchalar egallagan. SHundan keyin u hayvonning butun tanasi yoxud bir a'zosi ko'plarning yalovlarida va tamg'alarida milliy ramz, tarixiy bir yodgorlik bo'lib o'rin oladi.

Qadimgi turkiy xalqlarda har bir urugning o'zini muqaddaslashtirilgan hayvoni - o'nguni bo'lgan. O'ngun deb topinilgan hayvonning go'shti eyilmagan, unga o'q otilmagan, aslo ranjitilmagan.

Totem bilan o'ngun o'rtasida g'arq shundaki, totemizmida qavmlar o'zlariga totemlarning nomini beradilar, bu qavm ichida biri boshqasiga uylanmaydi. o'ngunlarda esa bu shartga amal qilinmaydi.

Xalqimiz hayotidagi totemizmning o'rni va salohiyatini, umuman xalqimizning totemistik qarashlarini tahlil qilar ekanmiz, shuni ham ta'kidlash lozimki, turkiy xalqlarning totemistik qarashlari asosan ikki yo'nalishda taraqqiy etgan. Birinchisi, qondosh ajdod boshi bobokalon totemlar. Ikkinchisi, insonlarga homiy do'st, hayvon va o'simliklar to'g'risidagi qarashlar majmuidan iborat. O'zbek asotir (mig'ologiya)larida keng tasvirlangan ajdod boshi totemlaridan biri bo'ridir.

Bo'ri. O'tmishda juda ko'p urug' qabilalar bo'rini o'z totemi - ilk ajdodi deb bilganlar. Jumladan, qadimiy ag'sonalarda bo'ri turkiy qabilalardan bir qismining buyuk ajdodi sig'atida ulug'langan va shu bois turkiy xalqlarda bo'ri muqaddas hayvon sanalgan. Bo'ri totem sig'atida qabul qilingach, ota-ona kabi xaloskor, yo'l ko'rsatuvchi, qahramonlarga yordam beruvchi, shavkatli, jasoratli, yaxshiliksevar yaratiq sig'atida tanilgan. Bundan tashqari, xalqimizning bo'ri bilan bog'liq ag'sona va rivoyatlarida bo'ri insonlarni barcha kulg'atlardan, kasalliklardan va yovuzliklardan saqlovchi homiy himoyachi sig'atida ham tasvirlanadi.

XI-XIII asrlarning noyob tarixiy obidasi "O'g'iznoma"da bo'riga sig'inish bilan bog'liq tasavvur va rivoyatlar talaygina. Undagi ma'lumotlarga ko'ra, O'gg'zxon kul rang bo'ridan tug'ilgan turkiylarning agsonaviy bobokoloni hisoblangani bois o'g'izlar kul rang erkak bo'riga topinishgan. Shu bois O'g'izxonning jangovar chaqirig'i-uroni sig'atida ko'k bo'ri qabul qilingan. Qolaversa aynan X-XI asrlarda o'g'iz-qipchoqlarning asosiy totemi oq bo'ri hisoblangan.

Qadimgi turkiy xalqlar ona bo'riga hurmat yuzasidan o'z yalovlarini oltin boshli bo'ri tasviri bilan bezaganlar. Bundan tashqari oltindan qilingan bo'ri boshi tamg'asi turkiylar bayrog'ida ham aks etgan. Bayroqdagi tasvirning oltin sig'atida turkiylar ilk ajdodini o'zga olam - osmon bilan bog'laganliklari ramzidir. Boyko'l atrog'i, enasoy, Irtish daryolari atrogida yashovchi turkiy xalqlar Mo'g'uliston, Manjuriya hududiga hujum qilib, u erlarni ham egallaydi. Bu tarqalish asosida keyinchalik bo'ri tasviri mog'ullar bayrogiga ham ko'chadi. Mog'ul ag'sonasiga ko'ra, Chingizxon ham kulrang bo'ridan kelib chiqqan ekan.

Bo'riga topinish izlari o'zbek halqining turli urg'-odatlarida, irimlarida bugungi kungacha ma'lum darajada etib kelgan. O'zbek xalqi orasida yangi tug'ilgan chaqaloqning hayotini bevaqt o'limdan va turli balo-qazolardan asrash bilan bog'liq o'tkaziladigan qator urg'-odatlarda bo'ri totemi bilan bogliq rasm-rusumlar qadimgi turkiy xalqlarning totemistik ko'rinishlaridagi qarashlari bilan to'la-to'kis mos keladi.

Bo'ri timsoli totemining oila va g'arzand tushunchalari bilan bog'liqligini Garg'ona vodiysida garzandsiz ayollarning bo'ri tishini taqib yurishida ko'ramiz. Andijonliklar tug'ilishni osonlashtirish maqsadida bo'lg'usi onaga quritilgan bo'ri yuragidan oz miqdorda edirilgan yoki bo'ri payini to'lg'oq tutgan ayol ko'rpasining o'ng tomoniga qo'yishgan. Garzand dunyoga kelgandan so'ng esa u etti kun davomida saqlab turilgan. So'ngra bo'ri payini olib uyga yoki chaqaloq beshigiga osib qo'yilgan. Agar oilada g'arzand turmasdan yoshligida vag'ot etaversa

bo`riga umr beruvchi sig`atida ishonilib, g`aarzandi vag`ot etgan ayolni bo`ri terisiga o`raganlar. Bundan tashqari bo`ri tanasining turli a`zolari ham himoya vositasi sig`atida bolalar beshigiga osib qo`yilgan. Surxondaryo viloyatida yashovchi qo`ng`irot o`zbeklarida bo`ri tishi, tirnog`i va etining parchasini bola boshiga himoya vositasi sig`atida osib qo`yish odati bo`lgan. Umuman olganda bo`ri tumorlaridan himoya vositasi sig`atidan g`oydalanish o`zbek xalki turmsh tarzida keng tarqalgan.

O`zbekistonda bo`ri tumorlarini nagaqat yosh bolalarga taqilgan, balki katta yoshdagilar ham taqib yurganlar. Turkiy barloslar o`zlari bilan birga bo`ri oshig`ini olib yurganlar. Garg`ona vodiysi o`zbeklarida erkaklar bo`ri tirnogi va tishlarini osib yurish bilan birga yomon ko`zdan asraydi deb bo`ri terisini taglariga solib o`tirganlar.

Vodiy axolisi orasida bo`ri tanasidan qilingan tumorlarni sotish ta`qiqlangan bo`lib, uni sovg`a qilish mumkin bo`lgan.

Bunday tumorni ayol kishiga sovg`a qilinsa, bu ayol ham sovg`a uchun sova bilan siylagan. YA`ni, u buning evaziga sovg`a qilgan odamga belbog` yoki do`ppi tikib bergan. Gikrimizcha, bu odat qadimgi egzogamik (o`z qabilasidagi, urug`idagi kishiga uylanish yoki erga tegishni man qiluvchi) nikoh bilan bog`liq bo`lsa kerak.

Andijonlik qipchoqlarda qo`rquvni, ruhiy hayajonni bo`ri oshigi solingan suvni ichish bilan davolangan. Bu erlik qirg`izlarida esa bo`ri tirnog`idan yasalgan bilaguzuk taqish orqali badandagi toshmani (qichitqini) davolashgan. Qichituvchi toshmaga bo`ri dumini surtish bilan davolash usuli qo`ng`irot o`zbeklarida, qozoqlarda va tatarlarda keng kullanilgan. Samarqandlik o`zbeklarda baxshilar kasallarni davolash jarayonida azoblangan shaytonni quvish maqsadida kasalning boshiga bo`ri panjasi yoki tirnog`i bilan chiziq chizganlar.

Bo`ri tishi tekkan jonivorlar go`shtini eyish kelin-kuyovlar, beg`arzand ayollar uchun g`oydali hisoblangan.

O`zbek xalki orasida azaldan bo`rini o`ldirish aslo yaxshilik keltirmaydi-degan qarash bo`lgan. Qolaversa islom dini ta`sirida turkiy xalqlarda o`rnashib qolgan bir e`tiqodga ko`ra, "bo`ri Hazrati Alining itidir, uni o`ldirgan zarar ko`radi"-degan tasavvur bo`lgan]. Qolaversa o`zbeklar orasida ishi yurishgan odamga nisbatan «bo`ri ko`rgan» iborasi ishlatiladi.

Alpomishning otasi Boybo`ri kabi, Bo`ri nomini tashuvchi shaxslar qadimgi Urxun yozuvlarida ham uchraydi. XI asrning mashhur tilshunosi Mahmud Qoshgariy "boy" so`ziga "urug'", "qabila", "jamo'a" deb izoh beradi. Demak, biz bundan shuni ko`ramizki "Boybo`ri" - "Bo`ri qabilasi", bo`riga topinuvchi urug` degan ma`noni anglatadi. SHu sababli Boybo`ri qadimgi turkiy urug`lardan birining nomi bo`lib, keyinchalik ismga, eponimga aylangan. Qolaversa, o`zbeklar orasida keng tarqalgan Bo`ri, Bo`rivoy, Bo`ritosh, Bo`rigul kabi ismlar ham asli bo`ri totemi bilan bog`liq bo`lsa kerak. CHunki kishi ismlari tarixi insoniyat tarixi, etnografiyasi bilan bevosita bog`liqdir.

Ot totemi — jahon xalqlari tarixida keng tarqalgan ilk diniy e`tiqod ko`rinishlaridan biri bo`lib, utmishda ko`plab marosimlar, bayramlar ana shu e`tiqod bilan bog`liq bo`lgan]. Turkiy xalqlarda, jumladan, o`zbek xalqi tarixida ham ot totemi muhim o`rin tutgan va uning izlari ma`ishiy turmushimizda bola tug`ilishidan tortib to azagacha bo`lgan marosimlarimiz tarkibida bugungi kungacha saqlanib qolgan.

Insoniyat tarixi juda qadim zamonlardan buyon ot bilan bog`liqdir. Tarixiy manbalarda qayd qilinishicha, Evroosiyo dashtlari va Osiyoning yon bag`irlari ilk bor madaniylashgan otlar vatani hisoblangan. Mutaxassislar otlarning paydo bo`lish tarixini asrimizdan olti million yil avvalgi davrlar bilan bog`laydilar.

Qadimgi turkiylar ilohiy mo`jiza bo`lmish otga gapiradigan, ucha oladigan aqlli maxluq sig`atida qaraganlar. Turmushda muhim o`rin tutgan ot muqaddaslashtirilib, topinish (kul`t) darajasigacha ko`tarilgan.

Biz ot bilan bog`liq bo`lgan dastlabki qarashlarni "Avesta"dagi quyosh ilohi bo`lgan Mitraga bag`ishlangan "YAsht" (gimn)larda uchratamiz. "Avesta" YAshtlarida ta`kidlanishicha, ot SHarqiy eron va O`rta Osiyodagi qadimgi xalqlarning, ya`ni buqa totemli Atv`ya qavmiga qarshi kurashuvchi Purushasp qavmining g`ratrisi sig`atida tasvirlanadi]. Biroq keyingi davr zardushtiylik yozuvlarida ot Axrimanni timsoli sig`atida, ya`ni qora ot ko`rinishida tasvirlanadi .

SHuningdek, Avestada ta'kidlanishicha, Ardvissura, Anaxita bir xil zotli to'rt oq ot qo'shilgan aravada Tangri huzuridan erga — bandalari huzuriga uchib tushadi .

O'zbek urug'laridan biri bo'lgan F'arg'ona vodiysi qipchoqlarida ot totemi bilan bog'liq **to'rt ayg'ir, samanotli, qorabaytal, qulon** kabi bir qator urug'lar mavjud bo'lgan. Ushbu urug'larning kelib chiqishi bevosita ot totemi bilan bog'liq bo'lib, qadimda ot qipchoqlarda yoki ularning ba'zi bir urug'larida urug' ajdodi —totemi hisoblangan. Keyinchalik esa ot totemi o'z ko'rinishini o'zgartirib, dag'n marosimlaridagi qurbonliklar bilan bog'langan. SHuningdek turkiy urug'lar orasida kaltotoy urug'ining nomi ham ot totemi bilan bog'liqdir. Kaltotoy so'z kichik jussali, kalta bo'yinli otni anglatgan va u totem hisoblangan. Ushbu urug' nomi ana shu asosda ot totemidan paydo bo'lgan.

Turkiy xalqlar dunyoqarashlarida ot totemi muhim o'rin tutganligini xitoy manbalari ham tasdiqlaydi. Manbalarda yozilishicha, turkiylarning bobokalonlari marhumning oti va ot jihozlarini yoqib, kulini marhum ortidan olib borganlar.

Ot totemiga inonch izlari o'zbeklarning yig'i yo'qlov marosimlarida ham o'z ig'odasini topgan. Axborotchilarimizning ta'kidlashlaricha, yaqin o'tmishda ham o'ziga to'q insonlar o'lganda onasi, xotini, singlisi va bir qator qarindoshlari uning otini tuzab, kiyimlarini ot ustiga tashlab, atrog'ida aylanishib, marhumning qilgan ishlarini eslab yig'laganlar. Bu marosim otga "davra solish" deb atalgan. Marosim yakunida otning dumi kesilib, o'z ixtiyoriga qo'yib yuborilgan va bu otni hech kim minmagan. Kesilgan dum ot egasining marhumligini anglatgan. V.V. Radlov qozoqlarda ham shu odat bo'lganligini ta'kidlagan.

Dafn marosimlaridagi otga davra solish marosimi qadimda marhumlarni oti, narsalari bilan birga dag'n etish marosimining transg'ormatsiyaga uchragan kurinishidir.

XIV asr arab sayohi ibn Battuta Dashti Qipchoq turkiylarida otlar juda ko'pligini va e'zozlanishini yozib ketgan.

O'rta Osiyoda qadimdan mashhur bo'lgan ot turlaridan yana biri — Farg'ona samoviy tulporlari — Davon otlaridir. Ular haqida ilk ma'lumotni Xitoy elchisi va sayyohi CHjan TSzyan' miloddan avvalgi 136-125 va 115 yillarda yozib qoldirgan. Davonliklar o'troq hayot kechiradilar, dehqonchilik bilan shug'ullanadilar, sholi va bug'doy etishtiradilar. Ularda uzum sharbati bor... Arg'umoblari ko'p. Farg'ona nasldor otlari qadimdayoq ilohiylashtirilgan. Go'yo Davondagi eng baland tog' cho'qqisida tutqich bermas muqaddas ot yashagan emish. Unga olachipor rangli biyalarni qo'shganlar. Tug'ilgan toychoqlardan terlasa "qon terlaydigan", qirmizi rangli zotdor samoviy tulporlar vujudga kelgan e emish. "Qon terlaydigan" otlar haqida olimlar o'rtasida aniq bir g'ikr yo'q. Xitoy manbalaridagi otlar haqidagi ishonarli g'aktlarni arxeologik tekshirishlar ham tasdiqlaydi. Arxeologik dalil-ashyolar guvohlik berishicha, Farg'onadagi Selung'ur g'orida (bundan 200-300 ming yil oldin) ot yashagan. Albatta u ot yovvoyi ot edi. Ot suyaklari qoldiqlari miloddan avvalgi X-XIII asrlar yodgorliklarida keng uchraydi. Qadimgi odatlarga ko'ra qavmlar o'zlariga totemlarining nomini berishgan. Binobarin, respublikamizdagi Olot (ola ot], To'rt ayg'ir, Samandarak, Qo'ng'iro't kabi joy nomlarining paydo bo'lishiga ot totemi sabab bo'lgan bo'lsa kerak..

O'zbeklar orasida muqaddas hayvon sanalgan otning boshi uyga qaratib bog'lansa, u nag'asi bilan uyga qut-baraka beradi, deyilgan. Ot nag'asi ba'zi xastaliklarga ham davodir. Keksa yoshli axborotchilarning ta'kidlashlaricha, ot bor uyga ins-jinslar kirmaydi va qolaversa xonadonlarni balo-qazolardan saqlash uchun xonadon darvozasiga, ishlatilgan ot taqasi qoqib qo'yilgan. Ba'zida esa momolar tomonidan chaqaloqqa ilk ko'ylakni—chilla ko'ylakni kiygizishdan avval ot qozig'iga kiygizib olganlar. Bundan maqsad otning kuch-qudrati, chidamliligini magik yo'l bilan chaqaloqqa o'tkazish bo'lgan.

Xalqimizda ot boshiga qamchin bilan urish gunoh sanaladi. Muchal yillaridan bo'lmish ot yili qutli, barakali bo'ladi deb hisoblangan. Qizlar tushida ot ko'rsa, sovchi kelishiga, yigit tushida ot ko'rsa martabasi ulug' bo'ladi, deb irim qiladilar. O'g'il bolalarga sunnat to'yida toy ham sovg'a qiladilarki, uni bezash va bolani kiyintirib otga mindirishlarning uzi ham o'ziga xos ag'sungarlik ahamiyati kasb kiladi.. Bundan tashqari ilgari ayollar paranjisining old qismi ot yolidan to'qilgan. CHaqaloq bo'yniga ot tolasi bog'laganlar. Homilador ayollarni asrash uchun eshik tepasiga ayg'ir yuganini ilib qo'yanlar. Bunday etnogra'ik detallarning barchasi magik

himoya vositasiga qaratilgan.

Ba`zida ot bilan bog`liq muqaddas joylar, ayniqsa musulmon olamida Hazrat Ali hamda uning Duldul oti bilan bog`liq qadamjoy va ziyoratgohlar ko`plab uchraydi. Markaziy Osiyo xalqlarida islomning dastlabki davridan boshlab beri qayerda ot tuyog`iga o`xshash o`nqir joylar bo`lsa, mahalliy aholi bu izlar Hazrat Alini Duldulining izi deb tushunganlar. Duldul bilan bog`liq joylar haqida H.Hasanov quyidagi ma`lumotlar keltiradi: «Amudaryoning Xorazmga kiraverishida, suvning ikki qirg`og`ida Duldul o`tlagan degan qoyatoshlar ko`rinib turadi. Ayni shu nomli qirg`oqlar Kog`irnihon daryosida ham, O`zbekiston bilan Tojikiston chegarasiga yaqin Xonaqo qishlog`i yonida ham bor. Bular ag`sonaviy uchar Duldul sharag`iga atalgan». Tojikistonning Hisor tumanidagi Jonbuloq qishlog`ida ham, «Poyi Duldul» deb atuluvchi mozor mavjud bo`lib, qishloq aholisining ziyoratgohi hisoblangan. Hatto Xitoyning g`arbiy qismidagi Uch Turg`onda Hazrat Alining Dulduliga atab mozor ko`targanlar.

Farg`ona vodiysida Duldul bilan bog`liq ziyoratgohlar har bir viloyatda mavjud desak, xato qilmaymiz. O`sh viloyatining Aravon qishlog`ida «Duldul ota» mozori bo`lib, bu erda Hazrat Ali chillaxonasi ham mavjuddir. Rivoyatlarga ko`ra, Hazrat Ali tulporini shu erga bog`lab o`zi Dev Sag`id bilan urushgani Aravonga yaqin joydagi CHilustun g`origa jo`nagan ekan. Farg`ona viloyatining So`x tumanida Dul ota mozori mavjud. Qo`qon shahri yaqinidagi Kishnog`ich to`ra mozorini Duldul bilan ham bog`lashadi. SHubhasiz turli joy nomlari va ziyoratgohlarni ot nomi bilan, jumladan, Duldul ot nomi bilan bog`lanishi ham ma`lum ma`noda otlarning ilohiylashtirishning bir ko`rinishidir.

Demak, biz yuqoridagilardan shunga amin bo`ldikki, qadimgi ajdodlarimiz, xalqimiz ilohiy mo`jiza bo`lmish otga ucha oladigan, kelajak balo-qazolarini sezuvchi, do`st-dushmani taniydigan, aqlli maxluq sig`atida qaraganlar va muqaddas totem sig`atida ulug`laganlar.

Biz endi ajdodlarimizning asotiriy dunyoqarashidagi ilon totemi va kul`ti bilan vobasta ayrim sahig`alar va ilon totemining xalqimizning marosim va odatlarida saqlanib qolgan ko`rinishlariga to`xtalib o`tamiz.

Ilon. Ilonlarga sig`inish insoniyat ma`naviy madaniyati muhim ahamiyat kasb etgan bo`lib, g`anda *og`iolatriya* deb yuritiladi. U dunyoning turli xalqlar orasida tarqalgan *zoolatariya* (hayvonlar kul`ti)da markaziy o`rinni egallaydi va *g`itolatariya* (o`simliklar kul`ti) bilan chambarchas bog`langan.

Qadimdan jahon xalqlari diniy tarixida ilonlar doimo ma`lum mavqeni egallab kelgan: G`inikiyaliklar o`z dumini tishlab turgan ilon tasvirini dunyo va Koinot hamda mangulik ramzi deb bilganlar. Ayrim ag`sonalarga ko`ra, Iskandar Zulqarnayn ilon va ayolning g`arzandi bo`lganligi uchun ham u butun er yuzini zabt etgan emish. Odatda misdan yasalgan ilon shakllari topinish ob`ekti bo`lib xizmat qilgan. Bobilliklar ma`budasi Marduk(yahudiycha Marduxay) esa yarim ilon, yarim qush ko`rinishida tasvirlangan. Xitoyda XX asrga qadar ilon imperator kanalining xomiysi hisoblangan. Italyan olimi A Doninining yozishicha, ilon butun G`alastinda totem va hosildorlik ilohi sig`atida birinchi o`rinda turgan. Ag`sonaga ko`ra skig`lar Gerakl bilan yarmi ayol, yarmi ilon jonzodning nikohidan paydo bo`lganlar.

O`rta Osiyo xalqlari orasida ilon qadimdan tuproq va suv kuchlarining ramzi bo`lgan va qadim-qadimdan mahalliy aholining diniy marosimlari hamda tasviriy sana`atida muhim rol` o`ynagan. Rivoyatlarda XX-asrga qadar ilon obrazi hosildorlik ramzi bo`lish bilan birga suv ilohining asosiy vazig`alaridan birini bajargan. G`arbda yunon va rimliklardan tortib SHarqda Hindiston va Xitoyga qadar bo`lgan ko`pgina qadimiy xalqlar asotirlarida ilon yoki ajdaho namlik qo`riqchisi bo`lgan. Varaxsha va Panjikentdagi devoriy suratlarda ajdaho og`izidan g`avvora otilib turgani tasvirlangan.

Zardushtiylik dinida esa ilonlar salbiy ko`rinishda tasvirlangan. Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesta"da yozilishicha, yovuzlik ilohi Axrimanning do`sti Ajdaho uch kalla, uch ko`z va olti ko`zlidir. Uning maqsadi jahonni odam zotidan tozalash. YOMonlik ilohi Axriman uni shu maqsad yo`lida yaratgan [Avesto., 2001.B.335]. SHohnomada esa ajdaho ag`sonaviy Rustanning ajdodi tarzida zikr etilgan. O`z o`rnida ta`kidlash kerakki, XIX asrning

oxirlarida Farg'ona viloyatining So'x tumanidan qora toshdan qilingan bir-biriga tirmashgan mashhur ikkita ilon tasviridagi tumor topilgan. Bu ilon obrazi zardushtiylikning yorug'lik va zulmat kuchlarining kurashi ramzi bo'lishi kerak. Qolaversa ilon tasvirining qara rangdagi tosh bilan tasvirlanganligi ham ushbu ilon obrazini zardushtiylik bilan aloqadorligini tasdiqlaydi. CHunki «Avesta»da aynan qora rang yomonlik, zulmat va o'lim ramzi tarzida talqin qilinadi.

Islom dinida ilon ijobiy talkin etiladi. Muqaddas Qur'oni Karimning o'zbekcha ma'no tarjimasida aytilishicha, Alloh Musoni payg'ambarlikka tanlaganda, uning qo'lidagi hassasini ilonga aylantirib, mo'jiza ko'rsatadi. Kog'irlar Allohning yagonaligini tan olishmaganida ham Muso hassasini ulkan ilonga aylantiradi. O'z o'rnida shuni ham aytib o'tish o'rinliki, zardushtiylikning ilonga bo'lgan salbiy munosabati va islom aqidalarining jonli mavjudotni chizishni ta'qiqlashiga qaramay, Turkmanistonning Anov shahrida XV asrda bunyod etilgan masjid peshtoqini ikki ajoyib ajdaho tasviri bilan bezatilgan. Masjid peshtoqidagi ajdar tasvirini aks etishi borasida qator mulohazalar bildirilgan bo'lib, biz uchun bu o'rinda mashhur san'atshunos olim G.A.Pugachenkovaning mulohazalari ahamiyatlidir. Akademik olim Anov shahridagi ushbu masjid tarixiga bag'ishlangan maxsus monograg'iya yozgan va uning g'ikricha, ilon ushbu masjidni ramziy homiy himoyachisi hisoblangan. Bundan tashqari uning g'ikricha, ilon-ajdaho XV asrda Anov xududiga kelgan ko'chib kelgan turkman urug'laridan birining totemi hisoblangan.

Baliq. Markaziy Osiyoda yashovchi boshqa xalqlar singari o'zbek xalqida ham baliq totemi bilan bog'liq qarashlar ko'p. Ma'lumki, baliq kul'ti qadimdan Markaziy Osiyoda keng tarqalgan.

Samoviy ummonda suzib yuruvchi ag'sonaviy baliq haqidagi mig'ologik tasavvurlar qadimgi ajdodlarimizning "Avesta" asotirlarida ham ma'lum bo'lgan. "Avesta"da bu g'aroyib baliq Kara deb ataladi. U G'arog' Kart daryosida yashaydi va kavakirna (oq havm) daraxtini Axrimanning zararidan saqlaydi.

Olam halokatining baliq bilan bog'liqligiga oid ag'sona ham diqqatga sazovordir. Ag'sonada hikoya qilinishicha, go'zal Xorazm vohasining halokatiga Orol dengizida yashovchi bir jug't nahang baliq sababchi bo'lar emish. Bu baliq hamisha dengizda yashar, hech qachon daryo havzasiga yaqin kelmas ekan. Qachonki, shu baliqlar Amudaryo bo'ylab suzib o'tsa, daryo sathi qirg' gaz pasayib ketar, izma-iz quvalashib yurgan baliqlar ortga suzib o'tganda yana qirg' gaz chuqurlashib suv juda pasayib, dalalarga chiqmay qolarmish. Oqibatda odamlari qurg'oqchilikdan qiynalib, vohani tashlab ketarmish. Bu ag'sona olamning intihosi to'g'risidagi qadimgi turk asotirlaridagi kerbaliq obrazi zaminida yuzaga kelgan bo'lsa kerak. Qadimgi turklar kerbaliq yoki kyorbaliqni er osti olamida yashovchi ag'sonaviy jonzot sig'atida tasavvur qilishgan. Go'yo zaminning osoyishtaligi ham ana shu baliqlarga bog'liq emish. Agar kerbaliqlar suv tubiga sho'ng'isa yoki boshini yuqori ko'tarishsa, er qimirlab, daryolar o'zanidan toshib ketar ekan. SHuning uchun Mangdiy SHira degan ag'sonaviy bahodir shu baliqlar dumiga bog'langan arqon vositasida ularning harakatini o'z izmida saqlab turar ekan.

Biz baliqlarni muqaddaslashtirish izlarini muqaddas joylar bilan bog'liq bo'lgan baliqlarni iste'mol qilishga bo'lgan ta'qiqlarda uchratamiz. Hozirga qadar Farg'ona vodiysining CHust shahrida Mavlono buva, CHortoq tumanidagi Baliqliko'l qadamjolaridagi baliqlar muqaddas hisoblanib, ularni tutish, eyish ma'n qilingan. Ayniqsa, muqaddas joylarning buloqlaridagi baliqlar aziz deb tasavvur qilingan va ularga qaragan kishi kasallikdan xalos bo'ladi deb tushunilgan. Mahalliy odamlarning ta'kidlashlaricha, ushbu ziyoratgohlardagi baliqlarni tutgan yoki egan odamlar pes, maxov kabi davosiz kasalliklarga chalinar yoki o'sha zahotiyoq halok bo'lar ekan.

SHuningdek, muqaddas ziyoratgohlardagi qabr toshlarini baliq shaklida ig'odalanishida marhumlar ramzini anglatib kelgan. Bu holat Samarqanddagi Ruhobod, Qussam ibn Abbos maqbaralarining eshiklaridagi tasvirlarda ham aks etgan. Baliqlarning bu tarzda tasvirlanishida ajdodlar kul'ti bilan bog'liq qarashlarga xos tushunchalar mavjud bo'lishi mumkin.

Farg'ona viloyati Farg'ona tumanidagi Sadkak ota ziyoratgohidagi buloqlardagi baliqlarni mahalliy aholi baliq qiyog'asidagi avliyolardir deb qaraydilar. SHu sababdan bu baliqlarni o'ldirish yoki ushlash og'ir oqibatlariga olib keladi deb tasavvur qilingan. Ayniqsa,

muqaddas joylarning buloqlaridagi baliqlar aziz deb hisoblangan. Masalan, Sadkak ota, So`xdagi Hazrat Ali mozoridagi baliqlarga sariq kasal bilan og`rigan kishilar qarasa kasallik baliqlarga o`tib dardan g`orig` bo`ladi degan qarash mavjud.

Totemizm e`tiqodi bilan bog`liq bo`lgan tadqiqotimiz yakunida shuni ta`kidlash lozimki, ajdodlarimiz bo`ri, baliq, ot, ilon kabi bir qator hayvonlarnigina totem sig`atida ilohiylashtirib qolmasdan, balki sigir, qo`y, echki, burgut, tuya kabi jonivor va parrandalarni ham muqaddas bilganlar. Biz bunga turli-tuman arxeologik, etnograf`ik, tarixiy manbalar orqali va qolaversa, Farg`ona vodiysi bo`ylab yiqqan dala etnograf`ik materiallarimiz orqali amin bo`ldik. To`g`ri, bugungi kunda xalqimiz orasida totemistik e`tiqodning asl ko`rinishi to`la saqlanib qolmagan. Chunki, islom dini kirib kelgandan so`ng ajdodlarimiz o`rtasida Tavhid e`tiqodi o`rnashib, bu kabi e`tiqodlar botil deyilgan. Lekin totemistik e`tiqodlar o`zbek xalqining turli tuman marosim va urg`-odatlarida saqlanib qolgan. Qolaversa, xalqimizning hayvonlar bilan bog`liq asotir va ag`sonalarida ham totemizm e`tiqodi yaqqol namoyon bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma`naviyat .T.: O`zbekiston. 1994 y.
2. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: Ma`naviyat. 1998 y.
3. Karimov I.A. Ma`naviy yuksalish yo`lida. -T.: Ma`naviyat, 1998 y.
4. Abdullaev M. Abdullaev A. Ma`naviyat va madaniyat tarixi. Farg`ona. 1998 y.
5. Imomnazarov M. Milliy ma`naviyatimizning takomil bosqichlari. T. 1996 y.
6. Ashirov A. Atadjanov SH. Etnologiya. T. 2007 y.
7. Ashirov A. O`zbek xalqining qadimiy e`tiqod va marosimlari. T. 2007 y.
8. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik. Farg`ona. 1998 y.
9. Murodov. M. Qorabaev U. Rustamova R . Etnomadaniyat.. T.: Adolat. 2003 y.
10. Etnomadaniyat fanidan ma`ruzalar matni. 1-qism. Farg`ona. 2001 y.

Mavzu: SHamanlik genezisi va lokal xususiyatlari.

REJA:

1. Shomonlik e`tiqodini yuzaga kelishi
2. Shomoniylilik bilan bog`liq marosimlar.

SHamanlik qadimda O`rta Osiyoda keng tarqalgan bo`lib, turkiy xalqlar tarixida muhim rol` o`ynagan. Tarixiy manbalarning shohidlik berishicha shamanlik animistik e`tiqodlarning ma`lum bosqichida paydo bo`lgan. Ajdodlarimiz yordamchi ruhlar, ya`ni parixonlar, otaxonlar va momolar mavjudligiga, shuningdek dev va jinlar borligiga qattiq ishonishgan. Faqat ishonibgina qolmasdan, balki, shamanlar orqali ular bilan ruhan hamkorlikda ish ko`rganlar. Odamlar ruhlar shamanlarga xizmat qiladi, uning turli topshiriqlarini bajaradi, shamanlar odamlar bilan ruhlar o`rtasida muloqot qila olish qudratiga ega, deb ishonganlar. SHamanlar turli kasalliklarni davolash va daf qilish, yo`qolgan odamlar, jonivorlar hamda narsa-buyumlarni topish, kelajakni oldindan aytib berish, turli makon va zamonda sodir bo`layotgan voqea va hodisalardan boxabar bo`lish, tabiat hodisalarini o`rganish, o`limdan so`ng marhumlar ruhini oxiratga kuzatib borish va hatto yovuz ruhlar bilan jang qilish qobiliyatiga ham qodir deyilgan.

SHamanlikning asosiy belgisi ruhlar yordamida tanlangan, o`rgatilgan odamlarning ruhlar bilan aloqada bo`lishiga, shuningdek ularning ilohiy qudratiga ishonishdan iborat. SHamanlar jazava holatida ruhlar bilan muloqotga kirgan. Bunda homiy ruh shaman bilan bir butun bo`lib birlashadi yoki shaman homiy ruh ko`rinishini oladi.

Mavjud adabiyotlarda shamanlik termini bilan birga "shamanizm" atamasi ham uchraydi. SHamanlik deganda shaman faoliyati bilan bog`liq bo`lgan marosim va asotirlar tushuniladi. SHamanizm deganda esa kundalik hayotida shamanlar muhim rol` o`ynagan xalqlarning qarashlari tizimi tushuniladi.

SHaman so`zi tungus-manjur tilidagi "saman" so`zidan olingan bo`lib telbasifat, dali-devona kishilarga nisbatan qo`llanilgan. Turk asotirlarida esa *shaman* so`zi chinch (xitoycha):

"istaklarni eng oluvchi kimsa demakdir" - deb ta'kidlanadi.

Mazkur atama fanga Sibirni o'rgangan rus sayohatchi olimlarining tadqiqotlari orqali kirib kelib, XVIII asrning ikkinchi yarmidan buyon ilmiy termin sifatida jahon fanida qo'llanila boshlangan bo'lsa-da, shamanlarni turli xalqlar o'z lahjalarida turlicha nomlaganlar. Masalan, yoqutlar "oyun" (erkak shaman) va *udagan* (ayol shaman), nenetslar "*tadebya*", turkmanlar "*parxon*", uyg'urlar va qadimgi turkiylar "*qom*", qozoqlar "*baksi*", tojiklar "*parixon*", o'zbeklar esa "*baxshi*", "*parixon*" va "*folbin*" deb ataganlar.

Qadimiy turkiy xalqlar shamanlarni *qomlar* deb ataganlar. "Qomlar" to'g'risidagi dastlabki ma'lumotni X asrda yozilgan xitoy yilnomasi "Tan-shu" da uchratamiz. Bu yilnomada xakaslar va ularning qom (shaman)lari to'g'risida fikr bildiriladi. Qomlar to'g'risidagi ma'lumotlarni Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" (XI asr), Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otut - turk" (XI asr) asarlarida ham shaman ma'nosida uchratamiz. "Qom" termini nafaqat turkiy xalqlarda, balki dunyoning ko'plab boshqa xalqlarida ham uchraydi. Masalan, bugungi vengerlar shevasida "qom" so'zi erkak folbin, sehgarga nisbatan qo'llanilsa, Koreyada XIX asrda shamanlarga nisbatan "de-gam" (teekam) - katta shaman so'zi ishlatilgan. Bu xitoycha "de" - katta va turkiy "qom" - ya'ni "katta qom" so'zidan tashkil topgan. "Qom" so'zi shaman ma'nosida hozirgi oltoyliklarda, xakaslarda, tuvaliklarda, mojarlarda, xitoy uyg'urlarida ishlatiladi.

Farg'ona vodiysida davolovchi shamanlarni *baxshi*, *parixon*, *folbin* deb atashadi. Janubiy Qozog'iston o'zbeklari shamanlarni "taub" (arabcha tabib-vrach) deb atagan, ba'zida o'zbeklar shamanlarni "qushnoch" yoki "qora qushnoch" ham deyilgan. Xorazm vohasida shamanlar asosan "parixon" deb atalgan. SHimoliy Afg'oniston o'zbeklarida ham odamlarni ruhlari yordamida davolovchi kishilarga nisbatan «*baxshi*» va «*folbin*» deyilgan bo'lsada bu mintaqada ikkinchi termin ostida keng ma'noda fol ochuvchi kishilar tushinilgan.

Baxshi so'zi o'rta Osiyoda, jumladan, Farg'ona vodiysida asosan davolovchi shamanlarga nisbatan qo'llaniladi. Baxshilar ko'pincha jin, dev, ajina kabi yovuz ruhlari ta'siriga chalinib qolgan bemorlarni davolaydilar. Ayniqsa bu so'z Farg'ona qipchoqlarida va qirg'izlarida ko'p ishlatiladi.

Vodiyda parixon atamasi ham keng tarqalgan. Parixon – fors-tojikcha "pari–ruh, "xon" – so'z yasovchi qo'shimcha bo'lib, zarar etkazgan ruhlarga qarshi duo o'quvchi ma'nosini bildiradi. Manbalarda parixon atamasini dastlab tarixchi Juvayniyning [XIII asr] Buxoroda bo'lgan Mahmud Tarobiy qo'zg'oloni haqidagi asarida uchraydi [Jarrina G., 1961.R.3-4]. Parixon atamasini mashhur mumtoz o'zbek shoiri Alisher Navoiy xam keng ma'noda qo'llagan.

"Parixon" atamasi Farg'ona vodiysidan tashqari Xorazm, Toshkent vohalarida, qoraqalpoqlarda ham keng qo'llanilgan. Toshkent vohasida parixon iborasi faqat ruhlari bilan aloqa qiluvchi kishilargagina ishlatilgan.

"Folbin" atamasi vodiyda davolovchi shamanlarga nisbatan juda kam ishlatilgan bo'lsada, biz ushbu so'z etimologiyasiga ham qisqacha to'xtalib o'tishni lozim topdik.

"Folbin" so'zi arabcha bo'lib, "fol" - taqdir, "bin" - ko'ruvchi, ya'ni insonlari taqdirini ko'ruvchi ma'nosini bildiradi. Bu so'z Samarqandda, ayniqsa shamanlarga nisbatan ko'p qo'llanilgan. Biz shu o'rinda shamanlarning shunchaki fol ochuvchilardan farqini tushunib olmog'imiz lozim. Fol ochishning maqsadi, biror voqeani yuzaga keltirish, ya'ni davolash yoki zarar etkazish emas, balki uning sabablarini aniqlash, uni bilishdan iboratdir. Haqiqiy folbin yoki baxshilar esa fol ko'rishdan tashqari davolash qobiliyatiga ham ega bo'ladilar.

Endi esa shamanlik e'tiqodini Farg'ona vodiysi o'zbeklari turmush tarzida tungan o'rni va lokal (maxalliy) xususiyatlariga biroz batafsilroq to'xtalib o'tsak. Farg'ona vodiysida ham shamanlikning aniq ko'rinishlarini maxsus "saylangan" odamlar tomonidan kasallarni davolash jarayonida kuzatamiz. SHamanlik e'tiqodiga ko'ra shamanlari o'z iqtidorini ajdodlaridan meros sifatida yohud er, suv ilohlari yoki turli ruhlardan olganlar. SHu sababli ziyon keltirgan ruhlarni aniqlash, ularni engib, bemorlarni davolash o'zbek shamanlarining asosiy belgisidir.

Vodiyda xam Respublikaning boshqa mintaqalarida bo'lgani singari *pari*, *jin*, *dev*, *lashkarlar*, *chiltonlar* kabi ruhlari bilan muloqot qila oladigan kishilar hozirda ham uchraydi. Aslida ruhlari bilan muloqot qilish bilan bog'liq tasavvurlari qadimiy shamanlik e'tiqodi bilan

bog'liqdir. o'zbeklarda ko'pincha kasalliklar sababini yomon ruhlarning makr-hiylasidan ko'rilgan bo'lib, hali ham xalqimiz orasida ruhlar hokimiyati odamlar taqdirini, tabiat ko'rinishlarini aytib berishiga ishonuvchi insonlar mavjud. CHildirma sadosi va marosim aytimlari ba'zi zamondoshlarimizni kasalliklardan forig' bo'lishiga ishonishga olib kelmoqda. SHaman-baxshilarga asosan ayollar yaqinlari kasal bo'lib yotib qolganda, oilaviy hayotlarida o'zaro kelishmovchiliklar yuz berganda, biror buyumi yoki jonivorlari yuqolganda, farzandsizlik holatida, umuman, oila turmush-tarzida og'ir vaziyatlardagina murojaat qiladilar.

Turkiy xalqlar shamanlik tizimida shaman bo'lish jarayonidagi tashabbus homiy ruhlarning o'zlaridan chiqqan bo'lib, ba'zida majburiy kuch bilan ham da'vat qilingan. Tanlangan nomzod - haqiqiy shaman odamlar va ruhlar olami o'rtasida vositachi bo'lguniga qadar uch muhim bosqichni bosib o'tadi. YA'ni:

1. Tanlanganlik (ruhlar tomonidan tanlangan).
2. SHamanlik dardiga yo'liqish.
3. Homiy ruhlar tomonidan shaman sifatida qayta yaralish.

Keksa yoshli momolarning aytishlaricha, odamlar orasidan shaman baxshilarni homiy ruhlarning o'zi tanlaydi va ularga dastlab olov, kuchli shamol, qush, ot yoki boshqa narsalar timsolida namoyon bo'lib uni shamanlik faoliyati bilan shug'ullanishga da'vat qiladi. Jumladan, Lola baxshiga homiy ruhlar dastlab 13-14 yoshli paytida oq kiyimli ayol ko'rinishida, Saodat baxshiga 40 yoshida homiladorlik vaqtida qora kiyimli odamlar ko'rinishida namoyon bo'lgan bo'lsa, o'ng'ol baxshiga 25 yoshida qo'lida emizikli chaqalog'i bor vaqtda besh chiroq tarzida ko'ringan bo'lsa, Farg'ona vodiysi hududi xududida joylashgan Xo'jand tumanida yashovchi Norboy baxshi homiy ruhlarini dastlab etti yoshli paytida otlar uyuri ko'rinishida ko'rgan va otlar uni doimo muqaddas qadamjolarga, g'aroyib joylarga boshlab borib turgan, Turdijon baxshiga esa ruhlar dastlab ilon va baliq ko'rinishida ko'ringan ekan. Bu holatlarda homiy ruhlar tomonidan bo'lg'usi baxshiga shamanlik quroli va belgilari childirma, qamchi, dutor, qo'biz, tasbeh va hokazolarni ko'rsatishgan. Ba'zida bo'lg'usi shaman tushida nafaqat shamanlik anjomlarini va belgilarni ko'rgan, balki fотиha ham olgan. O'z o'rnida shuni ham aytib o'tish kerakki vodiy o'zbeklarida shaman bo'lish boshqa turkiy xalqlar singari doimo ham nasldan-naslga o'tmagan. SHamanlar asosan xomiy ruhlar tomonidan tanlangan bo'lib, bunda qon-qarindoshlik unchalik ahamiyat kasb etmagan.

Odatda bo'lg'usi shaman (baxshi, parixon) tutinib shaman bo'lguniga qadar bir qator sinov bosqichlarini bosib o'tgan va g'ayritabiyy holat—"shaman kasali"ga chalinadi. Bu o'rinda «shaman kasali» qanday kasallik?-degan savol tug'ilishi tabiiydir. Axborotchilarimizni ta'kidlashlaricha, shaman kasaliga chalingan odamlar aql-idrokini yo'qotgan kishidek turli-tuman harakatlar qiladi. Agar tanlangan kishi ruhlar da'vatini qabul qilmasa yoki ruhlarning majburlashidan xoli bo'lish uchun baxshilikni nomigagina bajarsa yoki amallarni bajarishda beparvolik qilsa ruhlar jazosiga uchrab, ruhiy behalovat bo'lib turli kasalliklarga duchor bo'lgan va aksar hollarda bu og'ir oqibatlariga olib kelgan. Umuman olganda «shaman kasalligi» bu qator patologik holatlarning bir butun majmuidan iborat bo'lib, bu xolatni homiy ruhlar tomonidan tanlangan kishi boshidan o'tkazadi. "SHaman kasalliligi" ko'pincha uyquda bezovtalanish holatida, muttasil bosh og'rishi tarzida, eshitish va ko'rish gallyutsinatsiyalari ko'rinishida va boshqa qator patologik holatlarda namoyon bo'ladi. Kasal kishi turli-tuman ruhlar ovozi eshitadi va uni ko'ziga tur-tuman qiyofada homiy ruhlar namoyon bo'ladi. SHamanlikning chilla davrini o'tagandan va shamanlikni bo'yniga olgandan keyingina bu simptomlar yo'qoladi va u sog'ayib ketadi.

SHamanlar bajaradigan amallar juda xilma-xil va keng qamrovli bo'lib, ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishda shamanlar benihoyat ulkan g'ayritabiyy qobiliyat sohiblari bo'lmog'i lozim deyilgan. Umuman olganda Farg'ona vodiysi shamonlari xomiy ruhlar yordamida asosan quyidagi turtta muhim vazifani bajargan. Birinchidan, kasallik sababini va uni davolash yo'llarini bilish. Ikkinchidan, turli-tuman marosimlar asosida kasallarni davolash. Uchinchidan, kelajakni va inson taqdirini oldindan tadbir qilish», shu jumladan, uzoq masafada yashovchi kishilar taqdirini xam aytib bashorat qilish va nixoyat turtinchidan yo'qolgan odamlar, hayvonlar va narsa-buyumlarni qidirib topish. SHuningdek o'g'irlangan buyumlarni kim tomonidan

o'g'irlanganligini xomiy ruhlar ko'magida aniqlashtirgan holda qidirib topish kabi vazifalarni bajarganlar. SHamanlar bu vazifalarni bajarishlari uchun maxsus qobilayatga ega bo'lishlari zarur bo'lgan bo'lib, bu qobiliyatlar ko'pincha tug'ma ravishda bo'lmasdan, balki ma'lum tayyorgarlik natijasidagina egallangan. Buning uchun tanlangan nomzod qirq kun davomida o'z xonadonida tashqi dunyodan ajralgan holda chillada o'tirgan. Bu davr shamanlikning "chilla davri" deyiladi. CHust tumani SHO'raqo'rg'on qishlog'ida yashovchi Ziyoda baxshini ta'kidlashicha shamanlar tomonidan tutiladigan chilla xar-xil bo'lib, ularning ichida eng og'iri va xavfli baxshilar tomonidan tutiladigan «qora chilla» hisoblangan. «Qora chilla» da o'tiradigan kishi 40 kun mobaynida bir uyning ichidan tashqariga chiqmagan holda chimildiqning ichida o'tirishi lozim bo'lgan. U bu davrda boshqa odamlar bilan gaplashmasligi va faqat o'z uyida yaqin kishisi tomonidan pok holda pishirib bergan ovqatni eyishi lozim bo'lgan. Bu davrda bo'lg'usi baxshini qabristonga borishi, o'lik ko'rishi, ariqdan oqayotgan suvdan o'tishi qat'iy ta'qiqlangan. Ziyoda baxshi xam «qora chilla»da o'tirgan. Kosonsoylik Saodat baxshi, Meyli baxshi, Muniba baxshi, Farida baxshilar baxshilikni bo'yniga olishlaridan oldin qirq kun davomida bir uydin tashqariga chiqmagan holda chillada o'tirganlar. Ba'zida baxshilarning chilla davri qirq kundan kam yoki ko'p muddat ham bo'lib turgan. Masalan, Xo'jandlik Sora baxshi etti oy chillada o'tirgan bo'lsa, Kosonsoylik Lola baxshi uch kun, Narziya baxshi o'n uch kun chillada o'tirganlar. Ularga bu paytda begona odamlarni, ayniqsa begona erkakni ko'rish qat'iy ta'qiqlangan. Bu paytda bo'lg'usi baxshi doimiy ravishda eng yaqin kishisi yoki ustoz baxshi nazoratida bo'lgan. CHunki, bu paytda chillada o'tirgan odam o'zi bilmagan holda tashqariga chikib ketishi mumkin deyiladi. Agar bo'lg'usi baxshi bu holatda tashqariga chiqib ketsa ruhiy kasal - jinni bo'lib qolar ekan.

Farg'ona vodiysida shamanlikni bo'yniga olgan har bir baxshi yoki parixon marosimlarni o'tkazish bilan birga vaqti-vaqti bilan homiy ruhlarga atab qurbonliklar qilib turgan. Farg'ona viloyati Oxunboboev tumani SHomirza qishlog'ida yashovchi Xovoxon baxshi bir yilda to'rt marta chillada o'tirgan va xar yili to'rt martadan xomiy ruhlariga atab qo'y so'yib qurbonlik qilgan.

Parilarning yaratilishi haqida Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy uzining 1310 yilda yozib tugatgan "Qisasi Rabg'uziy" asarining "Sifat al arazini" bobida shunday ma'lumotlarni keltirib utgan: "Bilgil, Al-qavlu fim xalqi al maloikati va al-jinni va al-insi izi azza va jalla farishtalarni o'tnung yoruqligidin yaratti, parilarni o'tnung yolindin yaratti. Asllari biruk turur, ammo uch narsa birla tofovutlari bor. Biri ul tururkim, farishtalar nurdin, parilar yolindin turur. Ikkinchi, farishtalar malak atandi, parilar jin atandi. Uchunchi, farishtalar o'rni adiz ko'kda bo'ldi, parilar erda bo'ldi" [Nosiruddin Burxonuddin Rabg'uziy., 1990.B.13]. Rabg'uziy fikricha, parilar Alloh tomonidan yaratilgan bo'lib, erda yashaydi.

YUqorida Rabg'uziy parilar bilan farishtalar o'rtasidagi uch farqni ta'kidlab, "Farishta malak atandi, parilar - jin atandi" - deb jin va parilarning asli bir ekanini yozadi. Farishtalar o't (olov)ning yorug'ligidan, parilar uning yolqinidan [shu'lasidan] yaratilgan.

Tadqiqotlar davomida shu narsa ma'lum bo'ldiki, xalqimiz orasida parilarga ishonch hali ham uchrab turadi. Jumladan, CHust tumanining Dam qishlog'ida yashovchi Rustam baxshining ta'kidlashicha, parilar qachonki rozi bo'lsalar, yo'l bersalargina, ularning nomini aytish mumkin. Parilar – Musulmon parisi, Kofir parisi, Tarso parisi, Juhud parisi kabi guruhlarga bo'lingan bo'lib, har bir parining o'z vazifasi bo'lgan. Masalan, ilon pari kishini aqldan ozdirib, yovuzlikka boshlaydi. Behisht parilar ilon pari aqldan ozdirgan kishini davolaydi. Kosonsoylik Saodat baxshi, "parilar juda uzun kiyinishadi. ertalab oq rangda, tunda qora rangda, ulardagi beg'ubor ranglarni ta'riflash qiyin. Ularning chiroyiga qarab to'yamaysan" - deydi.

Parilar asli olovdan yaralganligi bois o'zbek xalqi kulni muqaddas xisoblaydi. Vodiyning Pop, CHust, YAngiqo'rg'on tumanlarida kul bilan o'ynashgan kishining og'zi qiyshayishi, kulga siygan bolaning ko'zi og'rishi kabi holatlarda Kulrang parilarning qo'li bor deyilgan.

Vodiyda ham shamanlarning asosiy faoliyati kasallarni davolash, ya'ni kasal tanasidan yovuz ruhlarni quvishdan iborat. CHunki kasallarni davolash shamanlarning qadimdan meros bo'lib kelayotgan asosiy vazifasidir. Ular ruhlar yordamida kasallik sababini va davolash yo'llarini izlaydilar. SHamanlikka doir adabiyotlarda shamanlar asosan ruhiy kasallarni

davolaydi, degan fikrlarni uchratamiz. Haqiqatdan ham shundaymi.

Vodiyda yashovchi ko'plab o'zbek va tojik shamanlari esa kasallik xuruj qilganda uqalash orqali tanani qizdirib, bemorni terlashga majbur qilishgan. Saodat baxshi ko'kyo'tal, bosh og'rig'i, bepusht ayolarni davolagan bo'lsa, Meyli baxshi, Lola baxshi, Rustam baxshilar shol bo'lib o'tirib qolgan, soqov bo'lib qolgan, turli toshmalar toshgan kishilarni, ruhiy kasal-jinni bo'lib qolgan odamlarni davolar emish. Baxshi oldiga kelgan bemorning qaysi a'zosi og'riyotganligi bemor tashrifi bilan uning o'zining ham o'sha organizmi og'rishidan bilib olar ekan.

Vodiydagi shaman baxshilarning davolash jarayoni ko'pincha bir-biriga o'xshaydi. Baxshilar dastlab fol ochib, kasalni davolash yo'lini aniqlab olgan. Fol ochishda ko'pincha kosadagi suvga paxta bo'lagini tashlab, uning uchidan aylantirishgan. SHuningdek, vodiyda fol tasbeh yoki muqaddas kitoblar orqali ham ochilgan. Vodiydagi aksariyat baxshilar tasbeh orqali fol ochgan. Jumladan, Zulfiya baxshi, Lola baxshi, O'ng'ol baxshi, Meyli baxshi, Muniba baxshi tasbeh orqali fol ochsa, Zebi baxshi kosadagi suvga paxta bo'lagini tashlab aylantirish orqali, Saodat baxshi esa qamchi orqali fol ochgan. SHomirza qishlog'ida yashovchi Xovoxon baxshi fol ochishidan avval 3 marta «Alloh, Allah, Allah» deb aytgan, lekin u «Akbar» demagan. CHunki uning aytishicha agar u «Akbar» desa fol to'silib qolar ekan. Zulfiya baxshi fol ochishda ishlatiladigan tasbexi 105 ta tasbex toshlaridan iborat bo'lgan. SHuningdek, uning tasbexida bo'ri tishi, ko'zmunchoq va do'lana xam bo'lib, bular baxshini turli-tuman balo-qazolardan, yoon ko'zlardan saqlar ekan. o'ng'ol baxshi fol ochishdan oldin xomiy ruhlari: Hulkarlarim, eshon otam, Qambar otam, buvalarim, momolarim, o'zimning otaxonlarim, o'zim bilan kelgan lashkarlarim, oq bo'ram, qorabo'ram, olchinlarim-lochinlarim, oq ilonlar, oftobda o'tganlar, barcha o'tgan momolarim Falonchini (masalan, Sobirni) ko'r-chi, deb murojaat qiladi.

Fol ochish jarayonida davolash usuli bilan birga bemorga qanday ins-jinlar, parilar ziyon etkazganligini va buning evaziga qanday qurbonlik qilish lozimligi ayon bo'lgan. Qurbonlik sifatida qo'y-qo'zi, echki, tovuq kabi jonivorlar so'yilgan. Qurbonlikdan maqsad parilarni, ya'ni xomiy ruhlarni rozi qilish va bemor vujudiga kirib olgan yomon ruhlarni haydash edi. Ba'zi xalqlarda ruhlarga atab haqiqiy ovqatlarni turli but, sanamlar oldiga qo'yib qo'yiladi yoki ularning og'ziga surkab qo'yiladi. Umuman qurbonlik qilish dinning dastlabki ko'rinishlaridan tortib to jahon dinlarigacha xos bo'lgan marosimdir. Masalan, shumerlar ho'kiz, sigir, qo'y kabi hayvonlar bilan birga ba'zan qushlarni ham so'yishgan, egulik nematlar ham Tangrilariga ehson etishgan bo'lsa zardushtiylikning qurbonlik marosimlarida qadimda ho'kiz va qo'y so'yilgan.

Qadimgi turkiy xalqlar shamanchiligida oq shaman ko'k (osmon) bilan, qora shaman er osti bilan bog'lanadi. SHu sababli oltoyliklar Ulgen (Qadimgi turkiylarning yaxshilik va ezgulik Tangrisi)ga oq qo'y, erlik(Kadimgi turkiylarning er osti olami-jahannam va yomonlik Tangrisi)ga qora qo'y so'yib qurbonlik qilishgan. O'z navbatida aytish kerakki, zardushtiylikda nafaqat qurbonlik tarzida so'yilayotgan jonivor turiga, balki so'yilayotgan jonivor ranggiga ham alohida e'tibor berilgan. Jumladan, «Avesta»ning «YAsht» qismida Tishtiriyaga bag'ishlab qurbonlik tarzida oq va qora qo'y so'yish mumkinligi lekin xech qachon qurbonlik tarzida so'yiladigan jonivor ola rangda bo'lmasligi lozimligi ta'kidlangan.

SHamanlik marosimlarida ko'pincha ziyon etkazgan ruhlarga bag'ishlab qurbonliklar qilingan. Qurbonlik qilinayotgan hayvonning rangi "ziyon etkazgan" ruhlar bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Agar kasalik sababchisi oq devlar yo oq pari bo'lsa, oq rangli qo'y yoki qora dev, qora momolar bo'lsa qora qo'y, echki, tovuq so'yilgan. Odatda qurbonlikka atalgan hayvon erkak kishi tomonidan ziyon etkazgan momolar, ins-jinslarning nomi aytilib so'yiladi. Farg'ona vodiysida ko'pincha qora va sariq rangli qo'y so'yilgan. Qolaversa qurbonlik uchun urg'ochi hayvon so'yish ham rasm bo'lmagan. Qurbonlik sifatida so'yilgan jonivorning qonidan bemorning tanasiga surtilar va bu ruhlar uchun go'yo oziqa hisoblanar ekan. SHomirza qishlog'ilik Xavoxon baxshi devlar ziyon qilib iligi qurib qolgan odamga qo'y qurbonlik qilishni buyurgan. Qora qiz momolar ziyon qilgan kasallarga esa tovuq qurbonlik qilgan.

Markaziy Osiyo shamanlari, jumladan Farg'ona vodiysi shamanlari Sibir' shamanlari kabi marosimlarni maxsus kiyimlarda o'tkazishmaydi, boshqa olamga sayohat qilmasdan faqat yordamchi ruhlar bilan muloqotga kirishadilar, xolos. Lekin tadqiqot jarayonida shu narsa

ma'lum bo'ldiki, vodiya yashovchi aksar qirg'iz baxshilar baxshilikni bo'yinlariga olishdan oldin baxshilik kasaliga chalingan paytida uzoq erlarga, bir daraxtdan ikkinchi daraxtga uchib yurgan ekanlar.

Baxshilar davolash jarayonida childirma (doira)dan foydalanganlar. CHildirma tovushlari ostida shaman ruhlarni chaqirar, childirmaning musiqiy ohangi marosim ruhiga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlar, go'yoki u sehrli xislatga ega edi. Biz shaman marosimlarida childirmaning paydo bo'lishi va yoyilishi davrini aniq bilmaymiz, lekin Sibir' shamanlari bilan SHimoliy Amerika hindularining chidirmalarining o'zaro o'xshashligi bizni Osiyodan Amerikaga yalpi ko'chishimizdan 20 ming yillar oldin ham bo'lgan degan xulosaga olib keladi. Mashhur dinshunos olim M. eliade "Markaziy Osiyo shamanlari jumladan turkiy xalqlarda chidirmadan foydalanilmaydi. Ularga bu narsa ma'lum emas" - deb yozadi. Aslida bu xato fikr bo'lib biz tadqiqot davomida turkiy xalqlarda, jumladan o'zbek xalqi shaman marosimlarida baxshining childirma chalib ruhlarni chaqirish odati juda qadimiy ekanligiga amin bo'ldik. Qolaversa, turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan afsonaga ko'ra, erlikxon teridan bir dovul yasab, ilk shamanlik marosimini o'tkazgan ekan. o'rta Osiyodan tashqarida yashovchi turkiy xalqlar - uyg'ur, oltoylik, xakas shamanlari qadimda childirma sadolari ostida fol ochadilar.

Yurtimizga islom dini kirib kelgach, shamanlik e'tiqodi tubdan o'zgargan, shaman e'tiqodlari islom aqidalari bilan singishib ketadi. Har bir marosimni boshlashdan oldin shamanlar dastlab xudoga, payg'ambarlarga va musulmon avliyolarga, so'ngra o'zlarining homiy ruhlariga:

Alvon ko'ylak kiyganlar,

Engi erga tekkanlar

Menga madad beringlar,-deb murojaat qiladigan bo'ldi. Ko'plab shamanlar an'anaviy chidirmadan voz kechib, tasbeh bilan ishlatganlar. Jumladan, Lola baxshi, o'ng'ol baxshi, Muniba baxshilar tasbeh bilan o'z amallarini bajarganlar. Homiy ruhlar musulmon ruhoniylar Bahovaddin Balogardon, Hazrati Xizr, Hazrati Sulaymon, Bibi Fotima, Bibi Zuhra qiyofasida ko'ringan. Lola baxshiga ruhlar oq ro'molli ayol qiyofasida, Rustam baxshiga esa Hazrati Xizr, ya'ni, oq soqolli nuroniy kishi qiyofasida namoyon bo'lgan. Vodiydagi aksariyat baxshilar payshanba, juma kunlari odamlarni qabul qilmaydi. Ularning asosiy ish kunlari seshanba, chorshanba va shanba kunlari bo'lgan. Namangan viloyati CHust shahrida yashovchi Zulfiya baxshi tomonidan o'ziga xos kun tarbiga amal qilingan va odamlarni qabul qiladigan xonasining kiraverishiga maxsus kun tartibi osib qo'yilgan. Bu kun tarbiga ko'ra baxshi asosiy ish kunlari tarzida keluvchilarni dushanba, seshanba, chorshanba va shanba kunlari qabul qilar ekan. Payshanba va juma kunlari xomiy ruhlar hajga ketganligi, yakshanba esa baxshining o'zining dam olish kuni bo'lganligi bois tashrif buyuradigan odamlar ko'rilmaz ekan. Mingbuloq tumani Amir Temur jamoa xo'jaligida yashovchi Sobirjon Musulmonov har payshanba kuni o'z parilarini hajga jo'natganligi bois odamlarni ko'rmaydi.

Farg'ona vodiysi shaman-baxshilari dafn marosimlariga qatnashmaydilar. Ularga murdani ko'rish ta'qiqlangan. Agar qandaydir tasodif bilan murdani ko'rib qolsalar yoki dafn marosimiga qatnashsalar, ularning homiy ruxlari ketib qolar ekan. SHuning uchun baxshilar murdani ko'rgan vaqtida marosimiy qurbonlik qilib fotihalarini yangilar ekanlar. Biz bunday qarash ildizlarini Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy mahalliy an'analari bilan bog'liq bo'lsa kerak. Zardushtiylik kontseptsiyasiga ko'ra marxum jasadi atrofni nopok qiladi deyilgan. SHu bois XX asr boshlarida marxumlar bilan aloqada bo'ladigan g'assollardan odamlar o'zlarini olib qochganlar va ular bilan doimiy aloqada bo'lishga harakat qilmaganlar. Boshqa tomondan qadimgi turk asotirlarida ta'kidlanishicha, oltoyliklar inson o'lganidan keyin, uning uyi ichida Oldoji degan yomon va nopok o'lim ruhlari ma'lum bir mahalgacha qolishiga ishonishgan. SHamanlar o'zlarini toza hisoblaganlari uchun bu nopok ruhlar tomonidan ifloslanmaylik, deya o'lik chiqqan uyga kirmaydilar. Qolaversa yoqutlar orasida xam «oq» shamanlarni dafn marosimlarida qatnashishlari ta'qiqlangan.

Endi esa vodiya yashovchi shaman baxshilar tomonidan bajariladigan marosimlarning ayrimlariga to'xtalib o'tsak. Baxshilar tomonidan o'tkaziladigan eng mas'uliyatli va eng qiziqarli marosimlardan biri - ko'chirma marosimidir. Ko'chirma marosimi Farg'ona vodiysida "ko'chirma", "ko'chirik", "ko'churuv", "ko'chru" deyiladi. Ko'chirma marosimini asosan ruhan

baquvvat, katta yoshli baxshilargina o'tkazadilar. Jumladan, Saodat, Meyli, Lola baxshilar ko'chirma qilganlar. Odatda og'ir holatdagi kasallar ko'chirma qilingan. Ko'chirmadan maqsad kasal tanasiga kirib olgan yoki ziyon etkazgan ins-jins, devlar, parilarni haydash bo'lgan. Ushbu marosim ko'p hollarda kasal kishining xonadonida o'tkaziladi. Marosim o'tkaziladigan kuni baxshi kasal xonadoniga olib kelinadi va ziyon etkazgan ruhlarga atab qurbonlik so'yiladi. Qurbonlikka asosan qo'y-qo'zi, echki, uloq ba'zan tovuq ham so'yilgan. Kosonsoylik Lola baxshi ko'chirma marosimini quyidagicha olib borgan: avval bemorni ko'chirik o'tkaziladigan xonaga o'tqazadi va uning oldiga oq, qizil va qora matolar solinib, suv, quruq choy, tuz va xamirturush singari narsalar qo'yyadi. Baxshining ta'kidlashicha, parilar kelib solingan matoning ustiga o'tirib, go'yo bu narsalarga dam solar ekan. Ba'zida momolar, otaxonlar buyrug'iga ko'ra kasal hech kimni ko'rmasligi, ya'ni chilla saqlashi lozim bo'lgan paytda chimildiqqa olingan.

Marosim boshlanishida baxshi turli ruhlarga bag'ishlab chiroq qo'yadi. CHust tumani Fova qishlog'ida yashagan Toshmat baxshi qizil, oq va qora lattalar o'ralgan chiroq qo'yan. Toshmat baxshi chiroqni yoqishdan oldin kasalga tegizib olgan. Kosonsoylik Lola baxshi esa odatda dastlab xudo yo'liga bitta, qirq chiltonlarga atab qirqta, so'ngra momolarga uchta, qorovulga bitta, o'n bir rahmatga atab o'n bitta chiroq qo'yadi. So'ngra baxshi xonadon suprasidagi undan olib ikki joyga to'plagan va unga chiroqlarni suqib qo'yan. Baxshi pilikni yoqib "supra ulug' narsa, un oqlik, peshonangiz oq bo'lsin, baxtingizga bemor tuzalib ketsin", deb aytib turgan paytda marosim qatnashchilari kasalning qarindoshlari (asosan ayollar) navbat bilan supra oldiga kelib supraga ta'zim qilib, lablari bilan un uyumini o'pganlar. SHundan keyin kasal yotgan uyda marosim qatnashchilari ishtirokida "ko'chirma" marosimining asosiy qismi bajarilgan. Bunda kasal xona o'rtasida qiblaga qarab o'tqizilgan va uning yuzi doka yoki engil mato bilan yopib qo'yilgan. Qurbonlik qilingan hayvon qonidan bir piyolaga olingan va kasalning peshonasiga, chakkasiga, ko'kragiga, qorniga, kaftiga, tovonining yuqori qismiga, ya'ni, muchcha-muchchalariga baxshi tomonidan surtilgan. Agar kasalga qora devlar ziyon etkazgan bo'lsa to'qqizta bo'g'imigina qonlangan. Axborotchilarimizning ta'kidlashlaricha, bemorning tuzalishi kasal tanasidagi surtilgan qonning yo'qolishi bilan bog'liq bo'lgan. Agar surtilgan qonni ruhlar so'rib olsa, kasal juda tez suratda tuzalar ekan. Baxshi piyoladagi qonni kasalga surtish paytida "Bismillohir rahmonir rahim, qoni-qoniga, joni-joniga davo bo'lsin", degan. SHunday qilib, qurbonlik qilina yotgan hayvonning qoni va joni bilan kasalning qoni va joni go'yoki almashtirilgan. Farg'ona viloyati Oxunboboev tumani SHomirza qishlog'ilik Farida baxshi ko'chirma marosimi uchun so'yilgan hayvon qonini kosaga olib qolgan va bemorning oldi hamda orqa ko'krak qimiga surtgan. Bemor qonlangandan so'ng uni uyiga ketgan. SHundan keyin baxshining o'zi qon quyilgan kosaga 7 kun davomida kuniga «YOsini surasi»ni o'qigan. Surani birinchi marta o'qilishida 7 marta o'qilgan xar kuniga qisqartirilib borilgan va oxirgi ettinchi kun 1 marta o'qilgan. Ettinchi kundan so'ng baxshi kosada qotib qolgan qonni va qurbonlik tarzida so'yilgan hayvonning oyoq suyagini oq matoga o'rab bemor uyiga keladi. So'ngra u suyakni olib qabristonga olib borib ko'madi va bemor qonlanganda kiygan kiyimini olib tez oqar suvga oqizadi. Bu amallarda unga ziyon etkazgan balo-qazolar va ziyon-zahmatlar ushbu suyak bilan ergan ko'milsin hamda suv bilan qo'lilib oqib ketsin degan magik niyat mujassamlashganini ko'rishimiz mumkin. O'z o'rnida shuni aytib o'tish kerakki agar ko'chirma marosimiga qurbonlik so'yishning iloji bo'lmasa, yangi so'yilgan qo'yni kalla-pochasi, yuragi, terisi sotib olingan. Bunday holatda kasalning ustiga qora mato yopilib, hayvon yuragining qoni bilan qonlangan.

Baxshi esa childirma sadolari ostida kasalni aylanib, yovuz ruhlarni quvgan. Bunda shamanlar ko'pincha "Oblo xaq" deb baqirganda qolgan marosim qatnashchilari ham qaytarib turganlar. Ushbu marosimda shaman bilan birga kasalning yonida o'tirganlarning o'zlari ham ba'zida jazava holatiga tushganlar. SHundan so'ng baxshi bemorni ettita yoki to'qqizta tol va jiyda xivchinlari bilan o'ng tarafidan boshlab urgan va jinlarni chap tarafdin haydab chiqargan. Odatda tol xivchinlari yoki mevali daraxt shoxlari kasalning holatiga qarab ishlatilgan. Agar bemor nisbatan engilroq kasal bo'lsa mevali daraxt shoxidan, og'ir kasal bo'lsa mevasiz daraxt tol xivchinlaridan foydalanilgan. Tol yoki mevali daraxt xivchinlari ishlatilishiga sabab, go'yoki yovuz ruhlarni kasal tanasidan yakuniy haydash bo'lgan. Ko'chirma yakunida baxshi bemorning

elkasi, qo'llarini silab, tanglayini ko'tarib qo'ygan.

So'yilgan hayvonning go'shtidan bir qismi baxshilarga berilib, qolgan asosiy qismidan sho'rva tayyorlangan va marosim ishtirokchilariga tarqatilgan. Terisini esa bemor yotgan uyga osib qo'yilgan. Baxshining ta'kidlashicha, yovuz ruhlar ko'chirmadan so'ng xonaga osib qo'yilgan qo'y terisiga borib o'tirgan. SHuning uchun ham marosim yakunida so'yilgan qo'yning suyaklari yig'ilib, terisiga o'ralgan va qabristonga yoki qishloqdan uzoqroq joyga ko'mib kelingan yo bo'lmasa yoqib yuborilgan. Ba'zida esa yirtqich hayvonlarga emish sifatida tashlangan. Lekin marosimda so'yilgan qurbonlikning go'shti aslo itga berilmagan.

Ko'chirma marosimida shaman va ba'zi qatnashchilarning jazava holatiga tushishi asoslari uzoq o'tmish davriga borib taqaladi. YUnon tarixchisi Gerodot Araks (Amudaryo nazarda tutilgan) bo'yi aholisining yonayotgan meva hididan jo'shishi va oxiri o'yinga tushib ashula aytishi haqida yozib qoldirgan [Gerodot., 1988.S.201-205].

Farg'ona vodiysi shaman-baxshilari «yuragi tushgan» odamlarni ham davolaydilar. Bunga ko'ra biror bir voqea yoki xodisadan qattiq qo'rqib yuragi joyidan siljib qolgan odamlarni yuragi ko'tarib qo'yiladi. Jumladan, Osh viloyati Qorasuv tumanilik Xadicha baxshi biror bir kishining yuragi tushgan yoki tushmagan ekanligini qo'rg'oshinni eritib kosadagi suvga solish orqali aniqlar ekan. Qo'rg'oshin kosadagi suvga solinganda kosa tubiga misoli yurak kabi yig'ilib to'planib qolsa u odamning yuragi tushgan hisoblanar va bu kishini xo'roz yoki tovuq so'yib qonlash orqali yuragi joyiga tushirilgan ekan. YUrak ko'tarish jarayonida so'yilgan parranda qonini bir piyolaga olib yuragi tushgan odamning yuragi atrofini qonlanar va unga toshbaqa qoni yalatilar ekan. SHundan keyin uning yuragi joyiga tushar ekan.

Baxshilar faoliyatiga issiq-sovuq qilish amali ham kirgan. Odatda issiq-sovuq ya'ni isitma-sovutma qilish ko'pincha oilada er-xotin, ona va bola, ota-o'g'il, qarindoshlar, qo'shnilar o'rtasiga sovuqchilik solish yoki aksincha solingan sovuqchilikni bartaraf etish maqsadida bajariladi. Bunda, masalan, erni xotindan yoki ayolni eridan sovutish yoki aksincha isitish uchun uning kiyadigan kiyimlari, eydigan ovqati, ichadigan choyiga, sepadigan atiriga maxsus dam-duo o'qiladi. Agar isitma amali qilingan bo'lsa, qilingan amalni echish uchun o'qilgan dam-duoni pichoq bilan go'yoki kesilgan va turli xil iplardan band va tumor qilib berilgan.

Farg'ona vodiysi shamanlarining davolash marosimida yana bir keng tarqalgan ko'rinishlardan biri, kasalga "ziyon etkazgan" ruhlarni bog'lab "band" yoki "tumor"lar qilib berishdir. Chustlik Bo'ta baxshi band qilish jarayonini quyidagicha tushuntiradi: Band qilishdan oldin tovuq so'yilib, uning qonidan piyolaga olinadi va bemorning tanasiga surtiladi. So'ngra baxshi tovuqni pishirib sho'rva tayyorlashni buyuradi va ruhlarga atab chiroq yoqadi. SHundan so'ng u childirma chalib xudoga, avliyoyu-anbiyolarga va yordamchi ruhlarga murojaat qiladi. Baxshining oldida suv to'ldirilgan piyola bir tutam paxta solingan holda turadi. Baxshi suvga qarab, childirma chalgan holda: "To'rt ko'zli jin keldi, bog'lang! Oq pari keldi, bog'lang! Oq it keldi, bog'lang!" deb aytib turgan. Bunda har gal baxshi bog'lang, deb aytganida bemorning yaqinlari yoki baxshining o'zi ipni tugun qilib bog'lagan. Odatda iplar har xil ranglarda bo'lib, ular 7, 9 yoki 11 xil rangda bo'lgan. Kosonsoylik Farida baxshi esa bandga olishda etti xil ip va ot yolidan foydalangan. Band qilishda baxshi duolar o'qib ipga "suf-suf" deb dam solib turgan. Band qilib bo'lingandan so'ng baxshi bemorga sening ins-jinslaringni bog'lab qo'ydim, deb aytgan. Band yana oilada o'zaro sovuqchilik tushib eridan nolib borgan ayollarga, turli buyumlari yo'qolgan kishilarga, ishi yurishmayotgan odamlarga qilib berilgan. Baxshi tomonidan qilingan bandni bemor yoki bandga muxtoj bo'lgan kishi baxshi aytgan kungacha taqib yurgan. So'ngra uni suvga tashlab yuborgan yoki o'tda yoqib yuborgan. Biz bunga o'xshash ip tugunlarni bog'lash odatini Sibir, Evropa va Old Osiyo xalqlarida keng tarqalganligini ko'ramiz. D.Frezer tugunlarning afsungarlik kuchi va qulflar to'g'risidagi asotirlarga batafsil to'xtalgan.

Umuman olganda Markaziy Osiyoning ko'plab boshqa xududlari singari Farg'ona vodiysida ham shamanlik e'tiqodini islomlashuvi o'ziga xos lokal ko'rinish kasb etishiga sabab bo'ldi deb aytishimiz mumkin. Qolaversa shamanlik e'tiqodiga oid bildirgan mulohazalarimizning ko'plari afsungarlik ko'rinishidagi marosimlarga oid bo'lib, g'ayri ilmiy, g'ayri-tabiiy ko'rinishlarda bo'lsada, lekin ular zamirida haqiqat zararlari mavjud emas, deb ayta

olmaymiz. Ilmiy bilimning bugungi taraqqiyoti avval inkor qilingan yoki haqiqat deb qabul qilingan ko'plab sir-sinoatlarga, turli hodisalarga aql bilan yondoshib, ularga oz bo'lsada, shubha bilan qarab, haqiqiy mohiyatini ochishni, bu orqali inson bilimini musaffolashtirib, yangi bosqichga ko'tarishni talab qilmoqda. Bugungi kunda shamanlikning ko'plab ochilmagan qirralari namoyon bo'lmoqda. Biz buni yuqorida shaman baxshilarning davolash jarayonida, ularning ruhlar bilan muloqotida, baxshilarning kasallarini davolash jarayonida, ruhlar yordamida yo'qolgan buyum, narsa, jonivor va odamlarni topish jarayonlarida ko'rib o'tdik. SHamanlarning shaman bo'lishdagi o'ziga xos "shaman kasali" ham o'ziga xos ko'rinishga egadir. Lekin bugungi kunda shamanlik e'tiqodiga oid ko'plab echilishi zarur bo'lgan muammolar turibdi. Biz buni shamanlarning shaman kasaliga chalilib, so'ngra shamanlikni bo'yniga olganidan so'ng tuzalib ketish jarayonida, shamanlarning homiy ruhlar bilan muloqotida va shu kabi shamanlik e'tiqodi bilan bog'liq ko'plab ko'rinishlarda uchramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Istiqloq va ma'naviyat .T.: O'zbekiston. 1994 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: Ma'naviyat. 1998 y.
3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. -T.: Ma'naviyat, 1998 y.
4. Abdullaev M. Abdullaev A. Ma'naviyat va madaniyat tarixi. Farg'ona. 1998 y.
5. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. T. 1996 y.
6. Ashirov A. Atadjanov SH. Etnologiya. T. 2007 y.
7. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. T. 2007 y.
8. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik. Farg'ona. 1998 y.
9. Murodov. M. Qorabaev U. Rustamova R. Etnomadaniyat.. T.: Adolat. 2003 y.
10. Etnomadaniyat fanidan ma'ruzalar matni. 1-qism. Farg'ona. 2001 y.

Mavzu: Zardushtiylik dini bilan bog'liq an'ana va marosimlar.

REJA:

1. Zardushtiylik dinining paydo bolishi.
2. Zardushtiylik dinidagi marosimlar.

Dunyoda yangi dinlarni insonlarga etkazuvchi, ijtimoiy-madaniy hayotda va tarixda o'chmas iz qoldirgan siymolar ko'p bo'lgan. Shulardan biri Zardushtdir. U eramizdan oldingi VII asrning oxiri va VI asrning birinchi yarmida Axura-Mazdani yakka-yagona Ilox deb e'lon qilib, tarixda birinchi bor vahdoniyat g'oya siga tayangan - zardushtiylik diniga asos solgan. Zardusht Spitama qavmidan (so'g'diycha Spitamen degan ism ham shundan kelib chiqqan) bo'lib, otasini - Purushasp, onasini - Dug'dova deb ataganlar.

Zardushtiylik ini bundan kariyib 3000 yil mukaddam Urta SHark, Urta Osiyodagi kupgina davlatlar xududiga yoyilgan va asosiy diniy e'tikodga aylangan. Eramizdan oldingi V-IV asrlardagi qadimgi yunon olimlarining asarlarida ilk bor Zardushtning nomi uchraydi. Yunonlar uni Zoroastra, u asos solgan dinni esa "zoroastrizm" nomi bilan yuritishgan.

Zardushtiylik atamasi dinga nisbatan shartli ravishda ishlatilgan. Bu hol dinni uning payg'ambari nomi bilan boglashdir. Aslida Zardusht dini Mazda Yasna deb atalgan, ya'ni Mazdaga, «Mutloq oqil» zotga sig'inish demakdir.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra bu dunyoning boshi bo'lganligi kabi oxiri ham muqarrar, ya'ni borliq, vaqt, zamon o'lchamida cheksiz emas. Hayot esa yaxshilik va yomonlik, rost va yolg'on, yorug'lik va zulmat o'rtasidagi doimiy va kelishtirib bo'lmaydigan kurashlardan iborat. Yo'rug'lik, yaxshilik va ezgulik kuchlarini Axura-Mazda va muqaddas ruh "Spenta-Mayn", qora zulmat kuchlarini esa buzg'unchi ruh Angramanyu (keyinchalik Axriman deyilgan A.A.) boshqaradi.. Axriman qo'shinlariga devlar, oldingi xudolar, hasad, yalqovlik, yolg'onchilik kabi jonlantirilgan yomon tushunchalar, yovuz kuchlar va jodugarlar kirgan bo'lib ular olovga, erga, suvga, chorvaga ziyon etkazishga harakat qilganlar. Axriman o'limni, qishni, sovuqni, jazirama issiqni, zararli hayvonlarni va hasharotlarni yaratgan. Axura-Mazda esa

yaxshilik, sog'lik, baxt keltiruvchi iloh hisoblangan. Zardusht "Biz Axura-Mazdani ulug'laymiz, u chorvani, suvni, o'simliklarni va yorug'likni yaratgan" - deb aytadi. Axura-Mazda hayotni va dastlabki odamni yaratuvchi iloh deb faraz qilinadi.

Har bir e'tiqodli zardushtiy butun hayoti davomida yuqoridagi uchlikni o'ziga mujassam etmog'i kerak. Bu to'g'risida Zardusht: «Madh etaman ezgu fikrat, ezgu kalom ila ezgu amalni. Jamiy ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amalga bag'ishlanaman, jumla yovuz fikrat, yovuz kalom va yovuz amallardan yuz buraman" - deb ta'kidlaydi.

Tarixiy manbalar va adabiyotlardan ma'lumki, zardushtiylik dinining asosiy qonun-qoidalari, axloqiy g'oyasi, falsafasi, urf-odatlar va an'analar ushbu dinning muqaddas kitobi - »Avesta«da bayon qilingan.

«Avesta»ning o'n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan yozilganligi to'g'risida qator tarixiy manba va adabiyotlarda ma'lumotlar mavjud. Ushbu fikrlar hozirgacha qator ilmiy nashrlar va maqolalarda ko'p marotaba ta'kidlangan bo'lsada, biz uchun mazkur faktning uch jihati juda muhimdir. Birinchidan, «Avesta»ning 12 ming qoramol terisiga yozilganligi o'sha davrlarda o'lkamizda chorvachilik xo'jaligi juda taraqqiy etganligidan dalolat beradi. Ikkinchidan, biz bundan bir necha ming yillar oldin ham mamlakatimiz xududida yozuv madaniyati bo'lganligi va ajdodlarimizning yuksak rivojlangan hamda nozik hattotlik maktabi bilimdonlari bo'lganligiga ikror bulamiz. Qolaversa ushbu faktning uchinchi muhim jihati shundan iboratki, aynan 12 ming qoramol terisiga muqaddas kitobning yozilganligi, bu davrda teriga ishlov berish san'at darajasida taraqqiy etganligidan dalolat beradi.

«Avesta» nafaqat ko'hna SHarq dini, tarixi va ma'naviyatining ilk yozma merosi tarzida, balki buyuk umuminsoniy qadriyati hamdir. Unda mazdoparastlik dinining asosiy qoidalari, farz va sunnatlari, YAzdoni pokning yakkayu yagona yaratuvchilik qudrati zikr qilinishi bilan birga milloddan avvalgi ikkinchi ming yillik o'rtalaridan birinchi ming yillik boshlarigacha o'lkamizda yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar ilk davlatchilik an'anlari, turli ijtimoiy tabaqalar, moddiy olam, xar-xil kasb sohiblarining turmushda tutgan o'rni, dunyo va insonning nokomilligi, oilaviy turmush-tarzi va u bilan bog'liq urf-odatlarga oid oid qimmatli ma'lumotlar mavjud. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra bu dunyoning boshi bo'lganligi kabi oxiri ham muqarrar, ya'ni borliq, vaqt, zamon o'lchamida cheksiz emas. Hayot esa yaxshilik va yomonlik, rost va yolg'on, yorug'lik va zulmat o'rtasidagi doimiy va kelishtirib bo'lmaydigan kurashlardan iborat. YOrug'lik, yaxshilik va ezgulik kuchlarini Axura-Mazda va muqaddas ruh "Spenta-Mayn", qora zulmat kuchlarini esa buzg'unchi ruh Angramanyu (keyinchalik Axriman deyilgan) boshqaradi. Axriman qo'shinlariga devlar, oldingi xudolar, hasad, yalqovlik, yolg'onchilik kabi jonlantirilgan yomon tushunchalar, yovuz kuchlar va jodugarlar kirgan bo'lib ular olovga, erga, suvga, chorvaga ziyon etkazishga harakat qilganlar. Axriman o'limni, qishni, sovuqni, jazirama issiqni, zararli hayvonlarni va hasharotlarni yaratgan. Axura-Mazda esa yaxshilik, sog'lik, baxt keltiruvchi iloh hisoblangan. Zardusht "Biz Axura-Mazdani ulug'laymiz, u chorvani, suvni, o'simliklarni va yorug'likni yaratgan" - deb aytadi. Axura-Mazda hayotni va dastlabki odamni yaratuvchi iloh deb faraz qilinadi.

Endi esa tadqiqotning asosiy muammosi zardushtiylik urf-odatlar va marosimlarini hada ularning o'zbek halqi an'anaviy turmush -tarzida islomiy an'analar bilan sinkretik tarzda saqlanib kelayotgan ko'rinishlarini tahlil borasida kengroq to'xtalib o'tamiz.

«Avesta» ning ko'p o'rinlarida oila, oila a'zolari va oila boshlig'ining vazifasi va majburiyatlari, oilada nikoh munosabatlari turli o'rinlarda, har-xil munosabatlar bilan mahsus bayon qilingan.

Zardushtiylik bir necha asrlar davomida ruhoniylar kuzatuv ostida o'zlarining urf-odat va marosimlarini shakllantirganlar. Zardushtiylik yil fasllari bilan bog'liq bayramlar, Navro'z, oylar bayrami, ajdodlar e'tiqodi, turli duolar aytish, poklanish marosimlari, o'smirlarni zardushtiylikka qabul qilish (sidrapo'shlik □ oq libos kiyib, belbog' bog'lash) va boshqa zardushtiylik tantanalari muhim rol o'ynagan. Bundan tashqari zardushtiylikda nikoh marosimi, bola tug'ilishi va dafn bilan bog'liq kator marosimlari ham mavjud bo'lib, bularda asosan yaqin qarindoshlari, shahar va qishloqning hurmatli kishilari bilan birga ruhoniylar ham ishtirok etgan.

Zardushtiylik marosimlari sirasiga kundalik ibodat ham kirgan.

Zardushtiylik jamoasi orasida nikoh bir umrga muhrlangan, bir erkakka ikki ikki nikoh yoki vaqtincha nikoh mumkin bo'lgan emas. eru xotinning bir-biriga xiyonati qattiq qoralangan, begona erkak bilan juftlashgan ayol badnom qilingan, jazolangan va nikohdagi eru uchun «harom» hisoblangan. «Avesta»ning Vendidot qismining to'rtinchi fargatida «kimning xotini bo'lsa, u xotinsiz va dunyodan farzandsiz o'tayotgan kimsadan yaxshiroqdir».-deb ta'kidlanadi.

Zardushtiylik tasavvuricha o'lim - bu yomonlik ifodasi, kasallik va o'limni keltiruvchi serjahl xudo Axrimandir. Qazo qilgan odamning tanasi harom hisoblangan. SHu bois zardushtiylik o'zlarining dunyodan o'tgan yaqinlarini erga ko'mishmagan, olovda ham kuydirishmagan, suvga ham tashlashmagan. Balki, zardushtiylik marosimlariga muvofiq o'limdan so'ng uch kechayu-kunduz o'likning ruhi narigi dunyoga etib borgunicha, maxsus xonaga qo'yilib, pok narsalardan ma'lum masofa uzoqlikda saqlangan. Bunda olovdan o'ttiz qadam, suvdan o'ttiz qadam uzoqlashtirilgan va hatto yaqin qarindoshlaridan ham chetlatilgan. SHu bois marhumlarga o'lik xizmatchilari - "nasasalar"gina (nasu - bu o'lim ifodasi, o'limni SHimoldan uchib kelgan pasha olib keladi, deb faraz qilingan) shug'ullanganlar Umuman olganda zardushtiylikning o'limdan keyingi ikkinchi hayot to'g'risidagi kontseptual qarashlari garchi Gohlar (gatlar) da uchramasada «Vendevdot» qismida juda yaxshi bayon qilingan.

«Vendidot»da bayon qilinishicha, marhumlarga tegib makruh bo'lgan kiyimlarni quyosh nurida poklash lozim bo'lgan. Farg'ona vodiysi bo'ylab olib borgan dala tadqiqotlarimiz jarayonida biz shunga o'xshash odatni ko'plab kuzatdik. Jumladan, Namangan viloyatining Kosonsoy, CHust, Pop, Yangiqo'rg'on tumanlarida dafn marosimi vaqtida marhumni qabristonga olib borishda ishlatilgan ko'rpa, yostiq, ko'rpacha, palak kabi narsalar qabristondan qaytib kelinganidan so'ng bir kecha-kunduz yulduz ko'rsin deb tashqariga osib qo'yilgan. Vodiya qo'shni bo'lgan Toshkent viloyatida shahrida esa marhumni qabristonga olib borishda ishlatilgan ko'rpa, ko'rpachalar bilan birga marhumning kiyimlari ham yulduz ko'rsin deb tashqariga yoyib qo'yilgan. Biz bunda osmon yoritgichlari –oy, yulduz va quyoshning poklovchilik xususiyatiga bo'lgan ishonchni kuzatamiz. Qolaversa, bu odat ham qaysidir ma'noda zardushtiylik an'analari izlaridan bo'lsa kerak.

Zardushtiylikning dafn marosimlarida koxinlar va marhumning qarindoshlari uch kecha-kunduz davomida zardushtiylikning maxsus duolarini o'qib turganlar. Marosimlar davomida suv ichish va ovqatlanish ma'n etilgan. To'rtinchi kun boshlanishi bilan, o'likning ruhi narigi dunyoga uchib ketganidan so'ng murda shahar, qishloq qo'rg'onlaridan chetdagi tepalik yoki tog'u toshlarga chiqarib, ochiq qo'yilgan. Murdalarning suyaklari qushlar, yirtqich hayvonlar tomonidan etidan tozalangach, "nasasalar" zardushtiylikning ochiq qabristonlariga kelib, suyaklarni maxsus xumchalar yoki sopoldan yasalgan qutisimon idishlarga yig'ib, "naus" deb ataluvchi maxsus maqbarada saqlashgan. Yilda ikki marotaba bahorgi Navro'z va kuzgi Mehrjon bayramlarida ota-bobolari arvoqlariga atab, is chiqarib, sadaqa va qurbonliklar qilishgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, zardushtiylik tasavvuriga ko'ra, inson vafotidan so'ng uning ruhi uch kun jasad atrofida bo'ladi va to'rtinchi kuni ertalab quyoshning zarrin nurlari ostida mayin shabadalar bilan samoviy olamga parvoz etadi. U olamda CHinvot deb atalgan ko'prik bor. U jahannam ustidan o'tkazilgan bo'lib Mehr, Surush va Rashna nomli yazdonlar (farishtalar) bu ko'prik yonida ko'z-quloq bo'lib turadilar. o'limdan so'ng marhum ruhi bilan o'tkaziladigan savol-javob jarayonida Haqiqat ilohi Roshnu ularni tarozida salmoqlab ko'radi. Tarozining bir pallasiga ezgu fikr, ezgu kalom, ezgu amallar boshqa pallasiga esa yovuz fikrat, yovuz kalom, yovuz amallar qo'yiladi. Agar ezgulik yovuzlikdan ziyodlik qilsa, marhum ruhi jannatga, Axura-Mazdaning yorug'lik maskaniga parvoz qiladi, aks holda tubanlikka – Axriman va devlar jamiyatining mashaqqatli domiga tushib ketadi. Zardushtiylik tasavvurida do'zax abadiy muzlik, sovuq joy ko'rinishida bo'lgan. Agar kishining yaxshi va yomon ishlari baravar kelsa ruh aralash joy "mivson tatu"ga ketadi. Bu erda na xafalik va na xursandlik bor, jon noxush kun kechiradi. Ularning tasavvurlariga ko'ra ming yilliklardan so'ng hamma tiriladi va so'nggi sud bo'ladi. Ya'ni tog'dan oqib tushayotgan olovsimon erigan ma'dan daryosidan insonlar ruhi birin - ketin o'tadilar, undan yaxshilar beziyon qutuladilar, hamma gunohkorlar, yomonlik va yovuzlik xudosi Axriman bilan birga halok bo'ladilar. Dunyoda abadiy baxtli hayot boshlanadi.

«Avesta»da doimiy badantarbiya bilan shug'ullanish, kunda yuz qo'lni bir necha marta yuvish, qo'lni yuvmasdan turib tananing boshqa joyini ushlamaslik, sochni toza tutib tirnoqlarni tozalab turish maslahat berilgan. Chunonchi, «Vendidot»ning 17-bobida shaytonning najosati to'planadigan va kesib tashlanadigan tirnoq va sochni nima qilish kerakligi to'g'risida yo'l-yo'riq beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat .T.: O'zbekiston. 1994 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: Ma'naviyat. 1998 y.
3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. -T.: Ma'naviyat, 1998 y.
4. Abdullaev M. Abdullaev A. Ma'naviyat va madaniyat tarixi. Farg'ona. 1998 y.
5. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. T. 1996 y.
6. Ashirov A. Atadjanov SH. Etnologiya. T. 2007 y.
7. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. T. 2007 y.
8. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik. Farg'ona. 1998 y.
9. Murodov. M. Qorabaev U. Rustamova R . Etnomadaniyat.. T.: Adolat. 2003 y.
10. Etnomadaniyat fanidan ma'ruzalar matni. 1-qism. Farg'ona. 2001 y.

Mavzu: An'anaviy oila - turmush marosimlarda qadimiy diniy e'tiqodlar.

REJA:

1. Oila va turmush marosimlarida diniy e'tiqodlar.
2. Farzand tugilishi bilan bog'liq marosimlar

O'tgan XX asr so'nggi choragidan boshlab dunyo miqiyosida etnolog va sotsial antropologlar tomonidan marosimlarni xalq madaniyatining fenomeni tarzida o'rganishga alohida e'tibor qaratildi va aynan mazkur mavzu doirasida bajarilgan ilmiy tadqiqotlar fandagi dolzarb mavzulardan biri tarzida e'tirof etila boshlandi. Ayniqsa so'nggi o'n yilliklarda dunyo miqiyosida kechayotgan globalizatsion jarayonlar etnik xususiyatlarning saqlab qolish omillarini va milliy marosimlarni tadqiq etish muammosini dolzarb muammolar tarzida kun tartibiga qo'yilishiga sabab bo'lmoqda.

Fanda qabul qilingan o'ziga xos mezonlarga ko'ra insoniyat hayotining muhim burilish nuqtalari bilan bog'liq holda o'tkaziladigan tadbirlar **oilaviy marosimlar** deb yuritiladi. Oila va oilaviy marosimlar etnosga oid madaniy va maishiy an'analar uzatuvchisi hamda davomchisi hisoblanadi.

Qadimgi an'analarga ko'ra chaqaloq bilan bog'liq ba'zi urf-odatlar tug'ilajak bolani turli xavf-xatarlardan saqlash maqsadida ayol kishining homiladorlik davridanoq o'tkazilgan. SHuni alohida ta'kidlash joizki, umuman olganda homiladorlik bilan bog'liq turli magik marosimlar va rasm-rusumlar dunyo xalqlari orasida keng tarqalgan bo'lib, tadqiqotchilar tomonidan ancha yaxshi o'rganilgan.

Kishilarga ism qo'yish tarixi qadimgi e'tiqod va topinishlar hisoblanmish, totemizm, shamanlik, afsungarlik animizm kabilar bilan bog'liq. Ba'zi ismlar bolaga og'irlik qiladi, degan mulohazaga ham borilgan. Hatto bola bu ulug', og'ir nomni ko'tara olmay baxtsizlikka uchrashi mumkin, deya irim qilingan. Umuman bunda mutanosiblik-munosiblik nuqtai nazariga amal qilingan. SHu bilan birga juda qadim zamonlardan bolaning sog' bo'lishi, yashab ketishi, kelgusi baxti unga qo'yiladigan ism bilan bog'liq bo'ladi, deb hisoblashgan. Binobarin, chaqaloqqa muvafaqiyatli tanlab berilgan nom uning taqdirini o'zida mujassam qiladi, kishi o'z ismiga o'xshaydi, deb ishonilgan. Natijada odamlar "xosiyatli" (qutli) va "xosiyatsiz", yaxshi va yomon ismlar bor, deb hisoblaganlar. Shu sababli chaqaloqning turli kasallarga chalinaverishi yoki oilada bolalarning turmasdan nobud bo'laverishi, bola badanida turli nuqsonlarning mavjud bo'lishi, qolaversa farzandning kelgusi baxti uning ismiga bog'liq deb bilganlar. Mana shunday tasavvurlar tufayli zamonlar o'tishi bilan chaqaloqqa beriluvchi ism odamni o'zaro farqlash, atashgina emas, balki uni turli balo-qazolardan asraydigan, muhofaza qiladigan, qutqaradigan

vositaga aylana borgan. Shu tufayli Farg'ona vodiysida ham kishilar qadim davrlardan bolaga ism berish ishiga mas'uliyat bilan yondashganlar.

Oilada farzand birin-ketin nobud bo'laversa o'z farzandiga Tursun, To'xtasin, O'lmas, Turdi, Turg'un, Turg'unoy, ergash, Mahkam kabi ismlar qo'yilgan. Qadimiy diniy e'tiqodlarga asoslanib ko'kka (osmonga) -Oy, Kun [Quyosh] va boshqa osmoniy jismlar qudratiga sig'inish asosida Oyxon, Oyqiz, Yulduz, Hulkaroy, CHo'lponoy, Quyoshbek, Tangriberdi kabi ismlar paydo bo'lgan. Ba'zi hollarda qadimda muqaddas deb ulug'langan hamda sig'inilgan ayrim hayvon va qushlarning nomlaridan ham ismlar yasalgan. Bunday ismlar guruhiga Bo'rivoy, Arslon, Lochin, Burgut, Qo'chqor, SHERzod kabi ismlar kiradi.

Ba'zi chaqaloqlar badanidagi biror bir ortiqcha belgilar, masalan, xol, toj, qizil tamg'a, ortiqcha barmoq va boshqa belgilar bilan tug'ilgan. Bu nuqson va belgilar bolalarga ism berishda hisobga olinmasa ular bolaning sog'ligiga, hayotiga, kelajak turmushiga xavf tug'diradi, deb tushunilgan. Bunday norasidalarini o'z nomi bilan tug'ilgan bola, deb hisoblashgan va ularga o'sha ortiqcha belgilar nomidan yasalgan ismlar qo'yilgan. CHunonchi Xolboy, Xolbib, Anor, Anorvoy, Anorxon, Toji, Tojixon, Tojigul, Ortiqvoy, Norboy, Norjon, Ochil va boshqalar.

Farg'ona vodiysi o'zbeklarida ham boshqa mintaqalarda yashovchi o'zbeklar va tojiklarda bo'lgani kabi singari muqaddas ziyoratgohlar va qadamjolariga nazr-niyoz qilinishi natijasida tug'ilgan chaqaloqlarga ham maxsus ism qo'yilgan bo'lib, ularga qo'yilgan ism bolani kelgusidagi hayotida turli balo-qazolardan himoya qilar ekan. Bunday tarzda tug'ilgan chaqaloqlarga ko'pincha Hazratqul, Pirimqul, Xo'jambar, To'ra qul, Pirniyoz, Ishonbar, Xo'jambar kabi ismlar qo'yilgan. Yuqorida ko'rib o'tilganidek, o'zbek tilidagi ismlarning aksariyatida dunyoga kelgan go'dakni turli ins-jinslardan himoya qilish g'oyasi, niyati mujassamlashgan.

Bu odat yovuz ruhlarni adashtirish maqsadiga qaratilgan, bolani yashirish yoki yovuz ruhlarni aldash afsungarligi bilan bog'liq.

Xalq tassavvurida chaqaloq bilan uning onasini ins-jinslar ta'siridan eson-omon saqlash ularning chilla davri tartib qoidalariga qanchalik rioya qilishlariga bog'liq bo'lgan. CHilla inson hayotidagi xatarli, eng og'ir va eng mas'uliyatli davrni anglatuvchi so'z hisoblanadi. Odatda farzand tug'ilganda va kelin-kuyov turmushining nikohdan, marhumning vafotidan keyingi 40-kunlik davriga nisbatan chilla atamasi qo'llaniladi va bu davrda ma'lum tartib-qoidalar, magik rasm-rusumlar, cheklashlar va tabularga amal qilinadi. Umuman chilla davri va u bilan bog'liq rasm-rusumlar va urf-odatlar ham ba'zi tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilganki, bu to'g'risida batafsil to'xtalmaymiz. Biz bu o'rinda inson hayotining uch davri bilan bog'liq chilla davri urf-odatlaridagi o'xshashliklarga e'tiborni qaratmoqchimiz. Avvalo shuni aytish kerakki, har uch davrdagi chillada ham asosiy maqsad chillali odamni va ushbu uyni yovuz kuchlar, yomon ko'zlar hamda turli ins-jinslar ta'qibidan himoya qilish bo'lgan. An'anaga ko'ra har uch chilla davrida ham chillali xonodonda qirq kun mobaynida ushbu uy chirog'i o'chirilmaydi va chillali odam yolg'iz qoldirilmaydi. Shuningdek har uch chillaning ham aynan bir xil kunlari (ko'pincha uchinchi, ettinchi, yigirmanchi, qirqinchi)ga ko'proq e'tibor berilgan va bu davrda chillali uyga isiriq tutatib turish doimiy shartlardan biri hisoblangan. Qolaversa, aynan chillaa davrida marosimiy cho'miltirish va kiyim kiydirish kabi urf-odatlar bajarilishi ham mazkur jarayonni initsiatsion xarakterga ega bo'lgan deyishimizga asos bo'ladi.

Chillali xonadonlarga kirib-chiqish qat'iy nazorat qilinadi. Begona kishilar ona-bola yotgan xonaga kirgizilmaydi. Ajdodlarimiz chaqaloq organizmining nozikligi va kasalga chalinuvchanligi tufayli chilla davrida ins-jinslar xurujidan kattalar yordamisiz o'zini himoya qila olmaydi, deb o'ylaganlar. Yovuz kuchlar yo'liqishining oldini olish, ularni chaqaloqli uy ostonasiga yaqinlashtirmasdan chalg'itib yuborish maqsadida bir qator afsungarlik harakatlari, irimlar, tabular bajarilgan. Ayniqsa, chillali uyga bolasi chala tug'ilib yoki boshqa sabablarga ko'ra nobud bo'lgan yoxud bepust ayollar hamda nopok kishilar kiritilmagan. Samarqandda chillali xonadonni yovuz kuchlardan himoya qilish maqsadida bola yotgan uyga mevali daraxt shoxidan qoqib qo'yilgan. CHaqaloqni ko'rgani kirgan har bir kishi ushbu shoxni qo'li bilan ushlab ichkariga kirgan.

Kosonsoy tumani axolisida chaqaloqni ko'rgani kelgan mehmonlar chillali ayol bilan qo'l

berib ko'rishmaganlar. Bizningcha, ushbu tabu zaminida qo'l berib so'rashish orqali ona va bolani ko'rgani kelgan odamlarning ziyonidan saqlanish, muloqotli afsungarlik (magiya) g'oyasi mujassamlashgan. Ona-bola yotgan joyga yomon kuchlar, yovuz ko'zlardan himoya vositasi sifatida pichoq, ko'zgu (oyna), qalampir, kulcha turli-tuman diniy kitoblar qo'yilgan. YAg'nob tojiklari esa chaqaloqni yovuz ruhlar, jumladan, alvasti ziyonidan asrash maqsadida xonadon ostonasiga katta pichoq qo'yishgan.

CHaqaloqning chilla davri ikkiga bo'lingan bo'lib, dastlabki yigirma kun *kichik chilla*, keyingisi esa *katta chilla* deyilgan.

Vodiy xalklarida chaqaloq yigirma kunlik bo'lgach, uning kichkina chillasi chiqdi, bir xavf-xatardan eson-omon o'tib oldi, xudo xohlasa bundan buyog'iga yashab ketadi deyilgan va kichkina chilla chiqqan kuni ona va bolani yaqin qarindoshlarinikiga "chilla qochdi" qilib mehmondorchilikka olib borganlar.

Namangan axolisi orasida ko'z yorgan ayolning ma'lum paytgacha tevarak atrofdagilar bilan bo'ladigan o'zaro muloqoti cheklangan. Bu davrda tuqqan ayol o'z oila a'zolari bilan bir dasturxonda o'tirmagan, ovqat pishirish, non yopmish, hovli supurish, sigir sog'mish kabi ro'zg'or yumushlariga aralashtirilmagan. Bu davr tuqqan ayolning nopoklik muddati deb ham atalgan. Odatda bu davr farzand tug'ilgandan so'ng etti-to'qqiz kun, ba'zan esa kichik chillasi tugaguncha davom etgan.

Bizningcha chilla davrida o'tkaziladigan tabular zaminida quyidagi ikki xil ma'no yotadi:

-birinchidan, bu davrda ayol kishi yomon ruhlar ta'siriga tez chalinadi;

-ikkinchidan, «ko'z yorgan» ayol bu davrda marosimiy jihatdan pokiza bo'lmaganligi sababli suv, non, o'choq olovi, taom va sigir sutini nopoklashi mumkin deyilgan.

CHaqaloq chillasi chiqqunicha qorong'ulikdan qattiq muhofaza qilinadi va bu davrda vodiya oldinlari xonadon o'chog'idagi olov, hozirda esa elektr chirog'i o'chirilmaydi. Bunday odat Toshkent o'zbeklari va Zarafshon vodiysi tojiklarida ham uchraydi. Nazarimizda bu odat yovuz kuchlarning yorug'likdan qochib qorong'ulikda faollashadi, degan qadimiy e'tiqodga asoslanadi. CHunki, Farg'ona vodiysida olib borilgan shaxsiy kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatdiki, chaqaloq chillasi bilan bog'liq rasm-rusumlarda olov, chiroq va yorug'likka e'tiqod qilish, ularni yovuz kuchlarni quvish xususiyatiga ega bo'lgan magik vosita, aniqrog'i himoya vositasi deb tushunish alohida o'rinni egallar ekan. Bu irimlar va e'tiqodlar qoldig'i ajdodlarimizning yorug'lik va olovni muqaddaslashtirish bilan bog'liq mifologik tasavurlari zaminida shakllangan an'analar sirasiga kiradi. Qolaversa, chilla davri bilan bog'liq marosimlardagi turli tabular va cheklashlar ildizlari qadimgi zardushtiylik marosimlariga borib taqalishi mumkin. Zero zardushtiylik e'tiqodiga ko'ra tug'ish, kasalliklar, hattoki inson farzandining tug'ilishi ham organizmning murdor, makruh bo'lishiga, insonning barkamol jismoniy holati buzilishiga olib kelgan. Poklanish marosimlariga oid zardushtiylik yozuvlarida ta'kidlanishicha, hayz ko'rgan, tuqqan va kasal bo'lgan ayollar ma'lum tabularga amal qilganlar. Ya'ni ular tashqariga chiqib oy va quyoshni ko'rishlari, bog'da ishlashlari, o'choq boshiga borib ovqat tayyorlashlari ta'qiqlangan. Zardushtiylik marosimiy poklanish davri og'ir, mashaqqatli bo'lib, qirq kun davom etgan.

Demak, bundan kelib chiqib, chilla davridagi ko'plab odatlar va ta'qiqlar qadimgi zardushtiylik marosimlari bilan bog'liq, deyish mumkin.

Farg'ona vodiysida bolani birinchi marta cho'miltirishda tajribali, ko'p bolali ayollar ishtirok etganlar. Bu marosimda ona bolasi oldiga bormagan, aksincha bolani onaning oldiga ko'tarib olib kelishgan. Bunda farzand butun umri davomida ota-onasiga xizmat qilsin, degan magik niyat mujassamlashgan. Bolani cho'miltirishda afsungarlik maqsadida suvga ozgina tuz va bir siqim tuproq tashlangan. Xalq ishonchiga ko'ra bu solingan ashyolarning xususiyatlari suv orqali chaqaloqqa o'tib uni yovuz kuchlar ta'siridan himoya qilgan. Shu maqsadda janubiy Xorazm o'zbeklarida tuz, tuproq va tuxum po'chog'i, Toshkentda yigirma tiyinlik kumush tanga], Andijonda esa chaqaloq qiz bo'lsa, onasi va momosining barcha taqinchoqlarini suvga solib cho'miltirilgan. Bu ashyolar ichidagi sho'r suvdan insonlar antik davrdan boshlab foydalanganliklari bizga ma'lum.

Sunnat to'ylari Farg'ona vodiysida ham bolaning toq yoshlarida, ya'ni uch, besh, etti,

to'qqiz yoshlarida katta to'y - tomoshalar bilan o'tkazilgan. Buning sababi, xatna juft yoshlarda qilinsa, bolaga baxtsizlik keltirar emish. Sunnat to'ylaridagi yoshning toq bo'lishi, birinchidan, bola umrining uzoq bo'lishini, ikkinchidan, farzandni sunnat qildirishdek baxt ota-ona uchun davomli bo'lishini anglatadi. Chunki toq narsa juftlikka to'lishga intiladi. Juftlikka to'lish esa kamolot va narsaning ma'lum ma'noda intihosini anglatadi.

Sunnat to'ylaridagi afsungarlik usullari boshqa marosim majmualaridan bizga yaxshi ma'lum. Sunnat to'ylarida ham to'yni o'tkazish tayyorgarliklari asosan piru badavlat odamlarga yuklatilgan. Buning sababi ularning yaxshi fazilatlarini marosimiy tarzda bolaga o'tsin deb niyat qilingan.

Sunnat to'yi va u bilan bog'liq marosimlar adabiyotlarda batafsil yoritilgan. Bu mavzu bizning tadqiqotimiz asosini tashkil qilmagaligi uchun unga keng to'xtalmasdan sunnat to'yi munosabati bilan o'tkaziladigan xatna marosimi va u bilan bog'liq bajariladigan afsungarlik usullarigagina qisqacha to'xtalib utamiz.

Xatna qilish, ya'ni bola olatining uchidan ma'lum teri qismini kesib olish odatining genezisi juda qadimiy va uzoq tarixga borib takaladi. Bu odat va u bilan bog'liq bajariladigan rasm-rusumlar ibtidoiy-jamoa tuzumi davrida yuzaga kelgan bo'lib, ba'zi xalqlarda sinov tariqasida, boshqa xalqlarda esa bir yosh boskichiga ikkinchi yosh chegarasiga o'tish belgisi sifatida amalga oshirilgan. Tarixiy manbalardan ma'lum bo'lishicha, eramizdan ikki, ikki yarim ming yil muaddam Misr kohinlarida oddiy odamlardan ajralib turish uchun xatna qilish odati mavjud bo'lgan.

Farg'ona vodiysi axolisida xatna qilish daraxtlar uyg'onmasdan burun maxsus usta-sartarosh tomonidan amalga oshirilgan. Ustalar ustoz-shogird munosabatlari orqali o'z kasblari davom ettirganlar. Ularning ham o'z pirlari bo'lgan bo'lib, vodiydagi sartarosh-ustalarning piri Salmonu pok bo'lgan.

Usta bolaning a'zosi uchiga g'arov (yog'ochdan yasalgan qisqich) qistirib, a'zoning chilpinadigan qismini ustara tig'i bilan kesib olgan. Kesish vaqtida bolaga umri uzoq, rizqi butun bo'lsin degan niyatda non tishlatilgan. Bu udumning o'tkazilishi og'riq paytida bolani chalg'itish uchun ham xizmat qilgan. Xatna jarayonida biz yana ko'plab qadimiy udumlarni uchratamiz. Axborotchilarimizning aytishicha, bolani xatna qilayotgan paytda onasi bolasi moyday yoqimli, dasturxoni to'kin bo'lsin degan niyatda bir barmog'ini unga, ikkinchi barmog'ini yog'ga botirib turgan. Ona bunday afsungarlik amali bilan go'yo farzandi og'rig'ining engillashishiga yordamlashgan.

Bolaning sunnatisi onasi tomonidan ramziy sotib olingan va juda ehtiyotkorlik bilan yashirin ravishda mevali daraxtning, masalan, tut tagiga ko'mib qo'yilgan. Bunday qilinishiga sabab, yuqorida ta'kidlaganimizdek befarzand ayollarning xurujidan himoyalaniish bo'lgan.

Bola tug'ilishi va tarbiyasi bilan bog'liq marosimlar yuzasidagi tadqiqot ishimizni yakunlar ekanmiz, xulosa qilib shuni ta'kidlaymizki, biz ushbu turkum marosimlarda totemizm, animizm, fetishizm, afsungarlik, shomonlik, zardushtiylik kabi ko'plab qadimiy e'tiqodlar izlarini uchratdik.

Ushbu turkum marosimlardagi afsungarliklar avvalo bo'lg'usi avlodni, ya'ni tug'ilgan chaqaloqning sog'ligini saqlashga qaratilganligini kuzatdik. Zarar etkazuvchi afsungarlik to'g'risida gapirganda ko'pincha u yoki bu kishiga yovuz kuchlar ta'siri bilan emas, balki odamning "kasalligi" (masalan, bepushtligi) o'zi xohlamagan holda boshqaga o'tishi mumkin deyilgan. Lekin biz Farg'ona vodiysi bo'yicha to'plagan dala etnografik materiallarimizda zarar keltiruvchi afsungarliklar kuchsiz ko'rinishga ega ekanligini ko'rdik.

CHaqaloqning dunyoga kelishi va undan keyingi chilla davri to'g'risida ayollarning marosimiy "makruh" sanalganligini, ona va bola chilla davrida yomon ruhlar, yomon ko'zli kishilar nigoha vaa yomon niyatli kishilarning zararli afsunlaridan marosimiy tarzda himoya qilinganligini hamda bu davrda ko'plab afsungarlik urf-odati va marosimlariga amal qilinganligini kuzatdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Istiqlo'l va ma'naviyat .T.: O'zbekiston. 1994 y.

2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: Ma'naviyat. 1998 y.
3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. -T.: Ma'naviyat, 1998 y.
4. Abdullaev M. Abdullaev A. Ma'naviyat va madaniyat tarixi. Farg'ona. 1998 y.
5. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. T. 1996 y.
6. Ashirov A. Atadjanov SH. Etnologiya. T. 2007 y.
7. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. T. 2007 y.
8. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik. Farg'ona. 1998 y.
9. Murodov. M. Qorabaev U. Rustamova R. Etnomadaniyat.. T.: Adolat. 2003 y.
10. Etnomadaniyat fanidan ma'ruzalar matni. 1-qism. Farg'ona. 2001 y.

Mavzu: Nikoh to'yi marosimlarida afsungarliklar va qadimiy diniy e'tiqodlar simbiozi.

REJA:

1. Nikoh to'yi marosimlarida afsungarliklar
2. Qadimiy diniy e'tiqodlar simbiozi.

O'zbek xalqining qadimiy rasm-rusumlari, dunyoqarashi, ishonch-e'tiqodlari, turmush-tarzi va hayot haqidagi falsafiy qarashlari, asrlar bo'yi jamlangan hayotiy tajribalari va turmush ko'nikmalarini o'zida mujassamlashtirgan eng jozibali marosimlarimizdan biri - nikoh to'yidir. Xalqimizning qadimiy e'tiqodlarini, madaniyat tarixi, orzu intilishlari, hayotga munosabatini o'rganishda nikoh to'yi bilan bog'liq marosimlar muhim ahamiyatga egadir.

Dunyodagi ko'plab boshqa xalqlar singari o'zbek to'y marosimlari sirasida nikoh to'ylari uzining turli xildagi marosimlarga, irim-sirimlarga boyligi, etnografik manbalarining rang-barangligi bilan alohida ajrab turadi.

O'zbek xalqi nikoh to'ylari majmuiga kiruvchi Farg'ona vodiysi o'zbeklari nikoh to'ylari ham oilaviy turmush va ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, uning ishtirokchilari tomonidan murakkab urf-odatlar va udumlar bajarilgan. Nikoh to'yi bilan bog'liq marosimlarda ko'plab qadimiy e'tikod va topinishlarni masalan, fetishizm, totemizm, tabiat e'tiqodi, olov va o'choq ibodati, ajdodlar e'tiqodiga sig'inish, shomonlik va boshqa bir qancha demonologik ko'rinishlar izlarini uchratish mumkin. Bularning barchasini bir mavzu doirasida yoritish mumkin. SHu bois, ushbu bo'limda nikoh marosimlarida eng ko'p tarqalgan afsungarlik ko'rinishlarigagina batafsil to'xtalishni lozim topdik.

Nikoh to'yi marosimlari bilan bog'liq afsungarlik usullari uning bajarilishi tartibiga ko'ra xilma-xil bo'lib, bundan kuzlangan bosh maqsad tashkillanayotgan yangi oilaning xotirjamligi va faravonligini ta'minlash, kelin va kuyov, qaynota-qaynona va kelin o'rtasida iliq munosabatni yaratish bilan birga, yana bir maqsad - bo'lg'usi avlodni davom ettirish - zurriyot qoldirish bo'lganligini ko'ramiz. Diniy tusdagi afsungarliklar ham kelin-kuyovning serfarzand bo'lishlarini tilab, ularning turli yovuz kuchlardan va yomon ko'zlardan saqlashga qaratilgan.

Xalqimizning nikoh to'y marosimlar o'zining tashkiliy qismlaridan tortib to nihoyasiga etgunicha bir qancha bosqichdan iboratdir. SHu bois biz ushbu turkum marosimlarda o'tkaziladigan afsungarlik va qadimiy diniy e'tiqodlar izlarini ma'lum bosqichlarga bo'lib o'rganamiz:

1. To'ygacha bo'lgan urf-odat, an'ana va marosimlardagi afsungarliklar;
2. To'y vaqti, ya'ni kelinni olib kelish va nikoh marosim bilan bog'liq holda bajariladigan urf-odatlarida diniy e'tiqodlar sinkretlashgan ko'rinishlar;
3. To'ydan keyingi marosimlardagi afsungarliklar va boshqa e'tiqodlar.

O'zbek xalqi nikoh to'y marosimlarini boshlab beruvchi dastlabki marosim sovchilikdir. Farg'ona vodiysi qipchoqlarida oldinlari sovchilikka irim qilib oq va qizil otda borilgan. Lekin sovchilar hech qachon qora otda bormaganlar. Chunki qora otda borishlik ishni bitmasligiga sabab bo'lar ekan. Sovchilar ishni bitirib kelganlarida bo'lg'usi kuyovga *"ish bitdi, endi kelinga sirg'a olib kel"* - deyishgan. Ayollar qulog'iga taqadigan sirg'alar dastlab afsungarlik ahamiyatiga ega bo'lgan. SHu bois hozir ham ayrim xalqlarda erkaklarning sirg'a taqish

odatlarini uchramiz.

Fotiha to'yi marosimida ham ko'plab afsungarliklarni uchramiz. CHunonchi, kuyov tarafidan kelinning xonadoniga kelgan mehmonlarga dastlab "*shirin suv*" olib kelinadi. Bu odat har ikki tomon boshlagan ishning yakuni ham xuddi shirin suv kabi o'tsin, yoshlarning turmushi shirin, totli bo'lsin, degan niyatda qilinadi. Aynan fotiha to'yidan boshlab, bo'lg'usi kelin-kuyovlar bir-birlarining qarindoshlariga uchrashib qolmaslikka harakat qilishib, ulardan o'zlarini tortib yuradilar. Ushbu odat ibtidoiy jamoa davri nikoh munosabatlarning qoldig'idir. Farg'ona viloyati Dang'ara tumani Tumor qishlog'i o'zbeklari orasida fotiha to'yi jarayonidan boshqa joylarda uchramaydigan «*qovurg'a sindirish*» nomi bilan yuritiluvchi uziga xos rasm-rusm mavjud. Bunga kura kuyov tomondan uch-to'rt ayol bo'lg'usi kelinning uyiga maxsus «*kelin kuchi*»ni olgani boradilar. Bunda ushbu kun uchun marosimiy tarzda pishirilgan sho'rvada qo'y qovurg'asi solingan bo'ladi va ushbu kun ikki ayol qolishadi va «*kelin kuchi*»ni olib qaytadilar.

To'y marosimlarida keksa yoshli, ko'p farzandli kishilarning ishtiroki zarur va uta muxim hisoblangan. Ular to'y marosimining ma'lum bosqichlarida o'ziga xos afsungarlik funksiyalarini bajarganlar. Biz buni bo'lg'usi kelinning sepini tayyorlash jarayonidan boshlab kuzatishimiz mumkin. Odatda bulgusi kelin-kuyovlar uchun ko'rpa-to'shaklarni tikish, ya'ni, "*ko'rpa soldi*" marosimida tikish-bichish ishlarini keksa yoshli ayollar tomonidan boshlab berilgan. Bunda keksa yoshli, ko'p farzandli ayollarning xususiyatlari bo'lg'usi kelin-kuyovga ham o'tsin degan afsungarlik niyati mujassamlashgan.

"*Ko'rpa soldi*" marosimida biz nafaqat keksa yoshli kishilarning afsungarlik xususiyatlarini, balki narsalarning ham afsungarlik xossalariga bo'lgan ishonchni uchramiz. Marosim oldidan keksa yoshli onaxonlarimiz kelin-kuyovning dastlabki ko'rpalari orasiga turli-tuman turli-tuman qand qog'ozlarini qo'shib tikkanlar. Bunda bo'lg'usi oilaning hayoti qanday shirin dasturxon qut-barakali, to'kin-sochin bo'lsin degan niyat mujassamlashgan.

Nikoh kuni kechki payt kuyov o'z yaqin do'stlari bilan yasan-tusan qilib, qutlovlar ostida to'yxonadagi oqsaqollarning duoi-fotihalarini olib, kelinning uyiga "*kuyovnavkar*" ga boradi. Kuyov o'z do'stlar qurshovida, karnay-surnaylar va turli qiyqiriqlar ostida yo'lga tushadi. Ushbu amallar nafaqat to'y shodiyonasinigina anglatadi balki yomon kuchlardan saqlovchi afsungarlik vositasi ham sanalgan.

Kuyovnavkarlar yo'l bo'yi kuyovni eltayotganliklarini bildirish maqsadida jo'shib-jo'shib, ustma-ust hayqirib jar solib borganlar. Ayrim hollarda qadimgi tasavvurlar ta'sirida ko'zikishdan saqlanish maqsadida kuyov boshiga chopon yopganlar. Kuyovnavkarlar kelin xonadoniga etib kelganlaridan so'ng maxsus tayyorlab kuyilgan uyga kirganlar. Uy ostonasiga poyandoz (oq rangli mato va qizil rangli belbog'ni bir-biriga qo'shib tikilgan) solingan. Poyandozni kuyov bosib ichkariga kirganidan so'ng, uning do'stlari shunday kuyovlik bizga ham nasib qilsin degan niyatda poyandozni o'zaro tortishadilar. Biz bunda poyandozni o'ziga xos muqaddaslik xossasini ko'ramiz. Kuyovnavkarlar dasturxoniga turli noz-ne'matlar bilan birga bo'lg'usi oila serfarzand bo'lsin deb tuxum ham qo'yiladi. Ular dasturxon atrofida o'tirganlaridan so'ng xonadonning keksasi duoi-fotiha qilgan. SHundan so'ng kuyovga atalgan shirinchoy olib kelingan, shirinchoyni dastlab kuyov, so'ngra uning do'stlari hayotlari shu shirinchoy kabi shirin bo'lsin, degan magik niyatda ichganlar. Kuyovnavkarlar dasturxon atrofida o'tirgan vaqtda mezbonlardan biri kuyovni yomon ko'zdan, yovuz kuchlardan himoya qilish maqsadida isiriq tutatadi. o'z novbatida kuyov va uning sheriklari minatdorchilik ramzi sifatida isiriqchiga pul berganlar. Biz bunda isiriqning o'ziga xos marosimiy afsungarlik xossasini ko'ramiz. Kuyovning do'stlari ziyofatni eb bo'lganlaridan so'ng kuyovga kuyovlik belbog'larini bog'laganlar.

Vodiy axolisi nikoh to'ylaridagi "yo'l to'sish" udumini ommalashuvi ham ana shu tushunchalar bilan bog'liq bo'lsa kerak. CHunki kuyovnikiga tushirib ketilayotgan kelin ham ramziy ma'noda qizlik olamidan ayollik dunyosiga o'tadi. YA'ni, nikoh yigit-qizlarni bir pog'onaga ko'tarib, er-xotinlikka o'tkazuvchi ramziy marosim deb sanalgan. SHu bois kuyovning uyiga borayotganda yo'lda duch kelingan ko'prik - majoziy ma'noda ana shu ikki olam chegarasi ham hisoblanadi. Kelin tushgan arava yoki mashina yo'lga arqon tutib yo'l

to'sish esa ramziy to'siq, ya'ni sinov elementidir.

Nikoh to'yi kuni kechga yaqin kelinni ayollarning o'ziga xos «karvoni» bilan kuyovning uyiga olib kelinadi. «Kelin karvoni» oldida albatta kichik yoshli o'g'il bolalarning bo'lishi va kelinni butun tana qismi bekutilgan kiyim yoki parangi kiygan kelin kelgan. Kelinni bunday tarzda kiyinib kelishi Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan odat hisoblanadi. Bu odatning tarqalish geografiyasi borasida R. Rahimov o'z asarida ma'lumot bergan. Kelinni olib kelayotganlar kuyovning uyi oldiga yaqinlashgach eshik oldida katta olov yoqiladi va kuyovning yangalari shakar solingan sut yoki qatiq va bir kiyimlik mato olib chiqqanlar. Sutni kelinchakka yaxshi niyatlar bilan ichkizilgan. Kelinga sut berishda sutday yo'li oydin, zurriyotli va zotli bo'lsin, degan magik niyat mujassamlashgan. Qolaversa qadimdan sut va sutli mahsulotlar turkiy xalqlarda eng muqaddas ashyolardan biri va aynan ma'lum bir guruhni ramzi hisoblangan. SHu bois uni begona urug' vakillariga berish qat'ian ta'qiqlangan. Inchinun vodiy o'zbek-qipchoqlari orasidagi nikoh to'yi tan'analarda kelinni sut bilan kutib olish uni, ya'ni bo'lg'usi kelinni kuyov urug'i vakillariga o'z urug'lariga qo'shganliklarini ramziy alomati bo'lsa kerak. SHundan so'ng «kelin karvon»iga qiz tomondan hamrohlik qilib kelgan kelinning kichik yoshli o'g'il ukasi, yoki jiyani tomonidan "pichoq" yoki "pichoq puli" talab qilingan. Bu odat CHortoq tumani Qoromurt qishlog'i o'zbeklarida *shop berish* deb nomlangan. Kuyov tomonidan tayyorlab qo'yilgan pichoq, agar pichoq tayyorlanmagan bo'lsa pichoq puli berilgan va kelinni qaynonasi ko'tarib tushirgan. So'ngra uni olov atrofida uch marta aylantirilib ichkariga olib kirilgan. Bunday odat nafaqat Farg'ona vodiysi o'zbeklari orasida balki Respublikamizning boshqa mintaqalarida yashovchi o'zbeklarda, qolaversa tojik, qirg'iz va turkmanlar orasida ham keng tarqalgan.

Kelin kuyovning uyiga olib kirilgach kelin tomonidan va kuyov tarafidan bittadan yangalar uyning o'ng tarafining yuqori burchagida chimildiq bog'lagan. CHimildiq kelinni yovuz kuchlardan va yomon ko'zlardan saqlovchi o'ziga xos afsungarlik vositasi bo'lgan. Nikoh to'yida kelin uchun maxsus chimildiq tutish odati nafaqat o'zbeklarda balki boshqa xalqlar orasida ham ma'lum bo'lgan. CHimildiq kelinni ramziy himoya qilish funktsiyani bajargan. SHu bois Marg'ilonda kelin-kuyov chimildig'iga oshiq (qo'ying oshig'i)ni osib qo'yish odati bo'lgan. Bu o'rinda shuni aytish kerakki oshiq qadimgi turkiylar ilohi Umayning simvol(ramz)laridan biri bo'lgan. SHu bois oltoyliklar qo'ying oshig'ini chaqaloqni yovuz ruxlardan himoya qilsin, deb uning beshigiga kindigi bilan birga osib qo'yanlar. Marg'ilonda nikoh to'yi marosimlarida kelin-kuyov chimildig'iga oshiq osib qo'yish odati zahirida ham yangi kelin-kuyovlarni Umay ona himoya qilsin degan magik niyat mujassamlashgan bo'lsa kerak. Darvoqe, vodiya chimildiqni bog'lagan yangalarning o'zlari ham kelin va kuyovga daxl qilishi mumkin deb tasavvur qilingan yovuz kuchlar va ins-jinslardan himoya qiluvchi ramziy xomiy hisoblangan. SHuning uchun to'ying boshidan oxirigacha yangalarning vazifasi juda ko'p bo'ladi. Farg'ona vodiysida yangalarni yanga, checha, oya, jengacha, kelinoyi deb atalgan. YAngalarni tanlashda ma'lum tartib qoidalarga amal qilingan. YAngalar odatda bir nikohli, serfarzand bo'lishi bilan birga uddaburon, so'zamol, hayot tajribalariga boy bo'lishlari shart bo'lgan. Nikoh marosimlari boshlanishidan to oxirigacha yangalar bir nechta afsungarlik vazifalarini bajaradilar. Qizni nikohga yangalar tayorlaydi. Kuyov kuyovnavkarlar bilan yangalar muomala qiladi. Kelinni olov atrofida yangalar aylantiradi.

To'y kuni serfarzand bir ayol yoki yangalardan biri kelinchakning sochini ikki o'rim qilib o'rib qo'yadi. Taniqli etnograf olim K.SHoniyozovni yozishicha, o'zbeklarda qizlar an'anaga ko'ra sochlarini maydalab, kelinchaklar va juvonlar esa juft qilib o'raganlar. Farg'ona viloyati Farg'ona tumani Kaptarxona qishlog'i tojiklarida nikoh kechasi kelin sut bilan boshini yuvgan.

Qizig'i shundaki jahonning ko'pgina xalqlarida, shu jumladan Evropada ham qizlar turmush qurmay, maishiy buzilgan juvonlar ham soch o'rimlaridan farqlanganlar. Bizningcha, bu tarixiy tipologik odat soch magiyasining mohiyatiga ko'ra turkiy xalqlar va qolaversa

butun jahondagi soch va jon to'g'risidagi qarashlarning o'zaro uyg'unligi natijasi bo'lsa kerak.

Soch o'rimlarining oilaviy hayot, maishiy turmush bilan bog'liqligi turli ma'nolarni anglatishi bizning kunlarimizda ham ma'lum darajada saqlanib qolgan. Qizlarning ma'lum yosh guruhidan boshqa pog'onalariga o'tishlarida, ya'ni yoshlikdan qizlikka, qizlikdan xotinlikka-juvonlikka o'tish pallasida, so'ng o'rta yoshli davriga va nihoyat qarilikda o'tish pallasida har biriga mos soch o'rimi tartibi saqlangan va shu bilan birga o'zining qaysi yoshda ekanligini ham namoyish etgan. Boshka ijtimoiy guruhga o'tish g'oyasi kelinning yangi faoliyatiga tayyorlash bilan bog'liq «*supra soldi*», «*eshik iluv*», «*tuynuk ochar*» kabi urf odatlarda ham namayon bo'lgan. Bunda kelinning ro'zg'or ishlariga nechog'lik tayyor ekanligi, uning uquvliligi, ishchanligi, epchilligi, ovqat pishirishga kabi fazilatlarini sinovdan o'tkazilgandir. To'yda kelin-kuyovning yangi ijtimoiy statusga (bu mavjud terminlarda aytiladi: Masalan, o'zbeklarda «qiz bola»-«kelin», «xotin», «yigit»-«kuyov») o'tganligidan qadimgi jins jamoalariga tegishli o'tmishdagi yosh initsiatsiya qoldig'ini ko'rish mumkin.

Farg'ona vodiysida yangalar kelin-kuyovlarga nikoh suvidan bir qulimdan ichirgan, qolganini olovga sepib, ularga to'shak solib bergan va ma'lum muddat ularning yonida yotganlar. Ko'rinib turibdiki, biz tilga olgan marosimlar majmuida soch magiyasi, suv kul'ti, shamanlik va zardushtiylik e'tiqodlari sinkretik tarzda qo'shib ketgan. Yanganing nikoh kechasi kelin-kuyov yonida yotishi odati hozirda ham ma'lum darajada saqlanib qolgan. Bu shubhasiz chillalik kelin-kuyovni yovuz ruhlar, yomon niyatli kishilarning turli afsunlaridan himoya qilishga qaratilgan.

Pichoq yoki yopilgan qulf bilan bog'liq ziyon keltiruvchi afsungarliklar dunyoning ko'plab xalqlarida uchraydi. D.Frezer o'z tadqiqotlarida bu to'g'rida qiziqarli ma'lumotlar keltirgan. Uning yozishicha, XVIII asrgacha Evropada nikoh marosimi vaqtida qulfni kalit bilan berkitish yoki ipni tugun qilib suvga tashlash orqali yosh kelin-kuyovlarni baxtsiz qilib qo'yish mumkin, deyilgan. Ularning baxtlari toki qulflar topib ochilmagunicha, ip tugunlari echilmagunicha ochilmas ekan.

Xalqimizda nikoh to'yidan so'ng o'tkaziladigan "bet ochar" marosimida "Supra soldi" odati bajarilgan. Bu odat Farg'ona vodiysining barcha xududlari bo'ylab keng tarqalgan. Bu tadbirda qatnashganlar davrasiga supra yozib bir tovoq un solinadi. Qaynona supradagi undan bir hovuch olib, kelinning qo'lga to'kadi. Kelin esa unni supraga to'kadi. Bu hol uch marta takrorlanadi. Buning sababi o'zbeklarda un oqli, yorug'lik hisoblanadi. SHu sababdan "supra soldi" udumida yaxshi niyat bilan kelin-kuyovning hayoti yorqin bo'lsin, mo'l ko'lchilikda ro'zg'or tutsin degan tilakda o'tkaziladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Farg'ona vodiysi nikoh to'y marosimlari bilan bog'liq afsungarliklarning ko'plari o'xshash afsungarlikdan tashkil topgan bo'lib nikoh to'yi marosimlarida bajariladigan afsungarliklarda asosiy maqsad serfarzand, mustahkam, farovon oilani yaratishga qaratilgan. Vodiya ham Markaziy Osiyoning boshqa xududlari singari bepustlik katta baxtsizlik deb qaralgan. Qolaversa xalqda bepustlik Ollohning bergan jazosi ham xisoblangan. SHu boisdan nikoh to'yi marosimlarining eng mas'uliyatli vazifalarida serfarzandli ayollar ishtirokining o'zi ham afsungarlik ko'rinishlarining biridir. Umuman olganda nikoh marosimlaridagi afsungarlik usullarini taxlil qilish jarayonida biz shunga amin bo'ldikki nikoh tan'talari bilan bog'liq tarzda o'tkaziluvchi marosimlarda o'tkaziluvchi afsungarliklar xilma -xil bo'lib ularni ikkita katta guruhga -apotrepeik afsungarlik, yoki boshqacha tarzda aytadigan bo'lsak himoyalovchi afsungarlikka va progropeik, ya'ni uyg'otuvchi va birlashtiruvchi afsungarlik kabi guruhlarga bo'lish mumkin. Birinchi guruh, ya'ni ximoyalovchi afsungarliklarda kelin-kuyov turli yovuz kuchlar va yomon niyatli kishilarning turli ilmiy-amallaridan himoya qilingan va bunga bo'lg'usi oilani himoya qilishga qaratilgan harakatlar va urf-odatlar kirgan. Ikkinchi guruh afsungarlik usullarida kelin kuyovni o'zaro birlashtirish yo'lida bajariladigan qator urf-odatlardan iborat ekanligini kuzatdik..

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Istiqloq va ma'naviyat .T.: O'zbekiston. 1994 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: Ma'naviyat. 1998 y.
3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. -T.: Ma'naviyat, 1998 y.
4. Abdullaev M. Abdullaev A. Ma'naviyat va madaniyat tarixi. Farg'ona. 1998 y.
5. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. T. 1996 y.
6. Ashirov A. Atadjanov SH. Etnologiya. T. 2007 y.
7. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. T. 2007 y.
8. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik. Farg'ona. 1998 y.
9. Murodov. M. Qorabaev U. Rustamova R. Etnomadaniyat.. T.: Adolat. 2003 y.
10. Etnomadaniyat fanidan ma'ruzalar matni. 1-qism. Farg'ona. 2001 y.

Mavzu: Motam marosimlarida arxaik diniy e'tiqodlar izlari.

REJA:

1. Motam marosimlarining oziga xos xususiyatlari
2. Motam marosimlarida diniy e'tiqod izlari.

Inson hayoti ibtidosidan intihosigacha turli-tuman marosimlar bilan ishtirok kiladi. Uning yoshi, maishiy hayoti va oilaviy holatida biror bir o'zgarish yuz bersa, ana shu o'zgarishlar muayyan marosimlar vositasida rasmiylashtirilgan. Ayniqsa, tug'ilish va o'lim turli tarixiy davrlarda va turli xalqlarning madaniy an'analari inson hayotining eng muhim bosqichi tarzida e'tirof etilgan. Qolaversa, bu jarayonlar bilan bog'liq marosimlar o'tkazilish tartibining qat'iyligi va har bir h hududda o'ziga xos konservativ ko'rinishi bilan ajralib turgan. SHu bois bunday marosimlar va an'analari har doim tadqiqotchilarni o'ziga jalb etib kelgan.

Motam marosimlariga nafaqat marhumni dafn etish bilan bog'liq urf-odatlar, balki motam va u dunyo bilan bog'liq tasavvurlar va magik urf-odatlar, turli-tuman tabular, ehson va qurbonliklar, metempsixoz g'oyalar, marosimiy yig'ilar, qabr toshlar, aza marosimlari va kiyimlari kabilar ham kiradi. Demak, yuqoridagi fikrlarga asoslanib mazkur turkumga kiruvchi marosimlar nafaqat tavsifiy jihatdan, balki tarixiy va nazariy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega deb aytish mumkin. Shu bois tadqiqotning ushbu qismida o'zbek xalqining an'anaviy motam marosimlarida odat tarzida bajarilib kelinayotgan turfa xil urf-odatlar va rasm-rusumlarning genezisiga, aniqrog'i, motam marosimlaridagi qadimiy diniy e'tiqodlar bilan bog'liq ko'rinishlarga to'xtalishni va bu an'analarni batafsil taxlil qilishni joiz deb bildik.

Xalqimizda bemorning holati, ayrim harakati yoki shifokorlarning bergan ma'lumotlaridan bemorning non-nasibasi tugaganligi ma'lum bo'lib qolsa, qarindosh-urug'lari va farzandlari odob saqlab buni unga bildirmaslikka harakat qiladilar. Biroq kishi jon berayotganda uning oila a'zolari, uy egalari ma'lum tayyorgarliklar ko'rganlar: uy hovlilarni tartibga solganlar, oyna, rasmlarni berkitganlar. Kishi jon berayotgan uydan oziq-ovqat, idish-tovoq olib chiqilgan yoki ularning usti yopib qo'yilgan. Chunki jon chiqishida go'yoki qon sachrab xonadagi barcha narsalar nopok bo'lar ekan. Shuni alohida qayd qilish kerakki, har qanday tayyorgarliklar o'ta yashirin tarzda bajarilgan.

Umr lahzalari tugab borgan sari qazo alomatlarini sezilib boraveradi: bemorning yuzida ba'zi holatlar paydo bo'ladi: so'zlashga harakat qiladi, tovush chiqarish uchun sarflagan quvvat og'iz bo'shlig'idan chiqmasdan xalqumga kelib qoladi. Bunday holni vodiya "*sharsharog*" yoki "*g'arg'ara*" keldi, deb aytiladi. Namangan viloyati Kosonsoy tumani o'zbeklarida kasal jon berayotganida jon chiqishiga halal bermaslik uchun boshi va elkasi pastroq qilib bosib turiladi. Bu holatda jon berayotgan kishi quyosh nuri tushmaydigan uyga yotqiziladi. Jon berayotgan odamni quyosh nuri tushmaydigan xonaga yotqizish - quyoshga sig'inish odatiga asoslangan bo'lib, bunda quyosh nopok bo'lmasin, degan magik ma'no ifodalangan.

Jon berayotgan kishining ko'kragi, boshi yonida uning yaqinlaridan ikki kishi o'tirgan. Avval bemorning o'zi, agar u tildan qolsa, ulardan biri "*Kalimai shahodat*"*ni o'qib turgan. Qolgan qarindoshlar esa jon cho'chiydi, deb alohida uyda gapirmasdan o'tirganlar. O'lim to'shagida yotgan odamning oldidan hayz ko'rgan, nifosli ayollar va junubli odamlar

chiqarilgan. Bundan tashqari, bolalar va homilador ayollar qoʻrqmasin, deb jon berayotgan kishining yoniga kiritilmagan.

Kishi vafoti bilan bogʻlik kuplab amallar boʻlib, ular dafn marosimlarida alohida xususiyat bilan ajralib turadi. Ushbu amallarning dastlabki xususiyati shundan iboratki, mazkur amallarni kechiktirilmasdan tez bajarish kerak, chunki, agar kechiktirilsa murda aʼzolari qotib qolishi mumkin. Ikkinchi xususiyati shuki, murdani mahtal qilmasdan dafnga tayyorlash kerak. Bunda jon chiqqandan soʻng tezda mayitning engagi (iyagi) bogʻlanadi, koʻzi yopib qoʻyiladi, qoʻllarining panjalari tekislanib, oyogʻi uzatiladi va boshmaldoqlari bir-biriga tekizib bogʻlab bedaning ustiga yotqizib qoʻyiladi. Bu bilan uchinchi, yaʼni mayitdan, oʻlikdan qoʻrqish emas, balki hazar qilishdan kelib chiqadigan xususiyat koʻzga tashlanadi.

Vodiyda kasal odam jon bergan zahoti yaqinlari tomondan "mahram" suviga olingan. Ushbu odat nafaqat Fargʻona vodiysida, balki boshqa mintaqalardagi oʻzbeklarda va Markaziy Osiyoning boshqa hududlarida ham uchraydi.

Motam marosimlarida yigʻi (boʻzlov, boʻzlash, marsiya aytib] yigʻlash alohida oʻrin egallaydi. Dafn kunidagi yigʻida erkaklar va ayollar (ayniqsa ayollar] baland ovozda dod solib, marsiya aytib yigʻlaydilar. Vafot etgan kishiga marsiya aytib yigʻlash dunyoning koʻplab xalqlarida uchraydi. Bu odat ildizlari ibtidoiy davrlarga borib taqaladi. Qadim zamonlarda ibtidoiy odamlar uchun oʻlim hayotning yakunlanishi hisoblanmagan. Jonsiz koʻrinishda yotgan oʻlik alida fiziologik va ruhiy hayot boʻlib, eshitadi va koʻradi. SHuning uchun yaqinlarining dastlabki qaygʻusi tabiiy ravishda marhum bilan ayriliq nolasi, yakkalanishdan hasrat, ojizlik, marhumni mardona xatti-harakatlari va yaxshi amallarini madh qilish koʻrinishidagi baland ovozli boʻzlash shaklini olgan.

Fargʻona vodiysida marhumning yaqin qarindoshlari (erkaklar) dafn marosimi kuni yangi, ohorli toʻn, doʻppi kiyib, bellarini belbogʻ bilan bogʻlab, qoʻllariga hassa (aso, yangi qirqilgan qora tol novdasidan) olib, unga suyangan holda marhum qoʻyilgan xona atrofida aylanib marsiya aytib yigʻlaganlar. Fargʻona vodiysida bunday maxsus yigʻichilarni-goʻyanda deyilgan. Islom dinida yigʻlab aytuvchilar-marsiyachilar - noix va noixa deyilib, motam marosimida marhum uchun yigʻlash navha solish deyiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Istiqolol va maʼnaviyat .T.: Oʻzbekiston. 1994 y.
2. Karimov I.A. Oʻzbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: Maʼnaviyat. 1998 y.
3. Karimov I.A. Maʼnaviy yuksalish yoʻlida. -T.: Maʼnaviyat, 1998 y.
4. Abdullaev M. Abdullaev A. Maʼnaviyat va madaniyat tarixi. Fargʻona. 1998 y.
5. Imomnazarov M. Milliy maʼnaviyatimizning takomil bosqichlari. T. 1996 y.
6. Ashirov A. Atadjanov SH. Etnologiya. T. 2007 y.
7. Ashirov A. Oʻzbek xalqining qadimiy eʼtiqod va marosimlari. T. 2007 y.
8. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik. Fargʻona. 1998 y.
9. Murodov. M. Qorabaev U. Rustamova R . Etnomadaniyat.. T.: Adolat. 2003 y
10. Etnomadaniyat fanidan maʼruzalar matni. 1-qism. Fargʻona. 2001 y.

Mavzu: OʻZBEKLARNING XOʻJALIK ANʼANALARIDA DINIY -EʼTIQODIY QARASHLAR SIMBIOZI.

REJA:

1. Anʼanaviy dehqonchilik mashgʻulotida tabiat etiqodlari
2. Qadimgi urf-odat va marosimlari.

Qadimgi anʼanaviy dehqonchilik xoʻjaligi va u bilan bogʻliq marosimlar hamda agrar kulʼtlar tarixchi, arxeolog va etnolog olimlar uchun doimo dolzarb va qiziqarli muammolardan biri boʻlib kelgan va bu borada mutaxassislar olib borgan ilmiy tadqiqotlar

natijasida ma'lum amaliy natijalarga ham erishilgan.

Ayniqsa, O'zbekiston xududidagi dehqonchilik va dehqonchilik madaniyati tarixi, sug'orma dehqonchilikning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari hamda u bilan bog'liq bo'lgan urbanistik jarayonlar doimo dolzarb muammolardan hisoblangan. Inchunun, vatanimiz xududidagi eng qadimgi dehqonchilik madaniyati tarixi, dehqonchilik marosimlari va ularning genezisini tadqiq qilish o'tmish ajdodlarimizning turmush-tarzini o'rganishda, tarixiy jarayonlarni rekonstruktsiya qilishda hamda xalqimizning qadimgi davlatchilik an'analari va mintaqadagi qadimgi davrda yashagan xalqlarning xo'jalik yuritish an'analari va diniy e'tiqodlari tizimini ilmiy-asosli tarzda o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari qatori vodiy o'zbeklarining ham an'anaviy dehqonchiligi sharq xalqlari taqvimi asosida olib borilgan bo'lib, bahorgi dala ishlari, mahalliy taqvimga ko'ra, yangi yil - quyoshning Baliq (Hut) burjidan Qo'y (Hamal) burjiga o'tgan vaqtdan boshlangan. Hozir amaldagi oy kalendari bo'yicha bu 21 martdan boshlanib 21 aprelgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan. Boshqacha kilib, aytganda dastlabki dehqonchilik yumushlari Navro'z tantanalari bilan bir vaqtda boshlangan.

Navro'z ayyomi dehqonlar uchun ayniqsa ahamiyatli bo'lgan. Chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu kunlarda ekin ekish, dala, bog' yumushlari boshlangan. Dehqonlar, bog'bonlar va chorvadorlar ayozli kunlardan omon-eson chiqib, bahorning issiq kunlarini intiqlik bilan kutib, katta dehqonchilik ishlariga jiddiy tayyorgarlik ko'rganlar, omoch-bo'yinturuqlarni, molalarni sozlab, taxt qilganlar, otlar sovutilgan, aravalar tuzatilib ishga yaroqli holga keltirib qo'yilgan. Asosiy ishchi kuchi bo'lgan ho'kizlarni yaxshi parvarishlab, ularni er haydashga olib chiqqanlar. SHu bois ham o'rta asrlarda Buxoroda bu dehqonchilik bayrami «*Navro'zi kishavorzon*» - «*dehqonlar bayrami*» deyilgan. Zahmatkash dehqonlar aynan shu kuni dalaga qo'sh chiqarib dastlabki urug'ni erga qadaganlar. Andijon o'zbeklarida bahorgi er haydashni shanba kuni boshlash lozim deyilgan bo'lsa, Xorazm o'zbeklari orasida hosil barakali bo'lishi uchun dushanba va chorshanba kunlari er haydab ekin ekish xayrli amal hisoblangan. Boshqa kunlarda er haydash xayrsiz deb hisoblangan va shu bois haftaning boshqa kunlari er haydash taqiqlangan. Agar er haydash kunduz kuni bo'lsa shimolga, kechasi bo'lsa janubga qarab haydalgan.

XX asrda, an'anaviy dehqonchilik mashg'uloti zamonaviy texnika taraqqiyoti bilan uyg'unlashgan bir davrda ham bahorgi dehqonchilik yumushlarini boshlashdan avval marosimiy qurbonlik qilish odati saqlanib qoldi va hatto bugungi kungacha davom etib kelmoqda. Jumladan, Namangan viloyati CHust tumani Dam qishlog'ida bahorgi dala ishlarini boshlashdan avval jamoa xo'jaligidagi traktorchilar traktor parkida yig'ilishib Piri Dovudga bag'ishlab xo'roz so'yib qurbonlik qiladilar. Bu, birinchidan, bahorgi dala yumushlaridan boshlashdan avvalgi marosimiy qurbonlik bo'lsa, ikkinchidan, traktorchilar marosimiy qurbonlik qilish orqali temirchilik piri hisoblanuvchi Hazrati Dovudga bo'lgan ehtiromlari ramzidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Istiqlo'l va ma'naviyat .T.: O'zbekiston. 1994 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: Ma'naviyat. 1998 y.
3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. -T.: Ma'naviyat, 1998 y.
4. Abdullaev M. Abdullaev A. Ma'naviyat va madaniyat tarixi. Farg'ona. 1998 y.
5. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. T. 1996 y.
6. Ashirov A. Atadjanov SH. Etnologiya. T. 2007 y.
7. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. T. 2007 y.
8. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik. Farg'ona. 1998 y.
9. Murodov. M. Qorabaev U. Rustamova R. Etnomadaniyat.. T.: Adolat. 2003 y.
10. Etnomadaniyat fanidan ma'ruzalar matni. 1-qism. Farg'ona. 2001 y.

Mavzu: CHorvachilik bilan bog'liq marosimlarda qadimiy diniy e'tiqodlar.

REJA:

1. Chorvachilik bilan bog'liq marosimlar.
2. Marosimlarda qadimiy diniy e'tiqodlar.

Chorvachilik an'anaviy xo'jalik mashg'ulotlarining eng qadimiy ko'rinishlaridan va tirikchilik manbaini belgilovchi asosiy mehnat turlaridan biri hisoblangan. CHorvadorlarning turmush tarzi, ushbu mashg'ulot bilan bog'liq qarashlar, urf-odat va marosimlar etnografik materiallar asosida ma'lum darajada o'rganilgan. Biroq, chorvachilik bilan bog'liq qadimiy diniy tasavvurlar va e'tiqodiy qarashlar alohida tadqiqot ob'ekti tarzida xanux maxsus tadqiq etilmagan. Zero, qadimgi davrlardan, ya'ni jonivorlarni qo'lga o'rgatish va xonakilashtirish jarayoni boshlangandan e'tiboran chorvachilik bilan bog'liq marosimlar va urf-odatlarida xalqning hayvonot olamiga bo'lgan munosabati aks etishi bilan birga, ularning bir necha ming yillik mehnat faoliyati bilan bog'liq hayot tajribalari, makon va zamonga bo'lgan munosabati, ma'naviy qarashlari va shubhasiz, o'sha davr diniy e'tiqodi aks etgan. Biz uchun bu o'rinda ahamiyatlisi chorvachilikka oid marosimlardagi diniy qarashlar, aniqrog'i, islomgacha bo'lgan diniy e'tiqodlar va qarashlar bilan bog'liq urf-odatlar hamda marosimlardir.

CHorvadorlar nazdida haftaning boshqa kunlari, ayniqsa, juma kuni ko'chish uchun xosiyatsiz hisoblangan. CHunki xalqona qarashga ko'ra, ushbu kun barcha musulmonlar kabi barcha jonzorlar uchun dam olish kuni hisoblanadi. SHu bois agarda ushbu kun yo'lga chiqadigan bo'linsa Allohning irodasiga qarshi boriladi va biror bir falokatga yo'liqish mumkin, deyilgan.

Har yili chorvani yaylovga olib chiqib ketishdan avval cho'ponlar piri CHo'pon ota va chorva piri Zangiotaga bag'ishlab qurbonlik qilinib, is chiqarganlar. Xalq orasidagi rivoyatlarga ko'ra Zangi ota kul'ti cho'ponlarning piri hisoblanadi. elshunos K.SHoniyozevning yozishicha, Farg'ona vodiysi qipchoqlarida yaylovga qo'ylar ketayotganda marosimiy qurbonlik qilingan va qishloq mullasi tomonidan cho'ponlar piri CHo'ponotaga bag'ishlangan risola o'qib berilgan [SHaniyozov K., 1974. S. 200]. Afsuski, biz Farg'ona vodiysida olib borgan dala tadqiqotlarimiz jarayonida va chorvachilik tarixiga oid tarixiy-ilmiy adabiyotlarda cho'ponlar risolasi borasida kengroq ma'lumotlar beruvchi materiallarni uchratmadik. SHu bois ham ishda cho'ponlik risolasining tarixi va uning mazmun-mohiyati borasida batafsil to'xtalmadik. Lekin shu o'rinda ham aytib o'tish kerakki, chorvadorlar orasida har bir hayvonning o'ziga xos piri bo'lgan va yilda bir marta mazkur pirga bag'ishlab qurbonlik qilingan. Jumladan, qo'y piri - Cho'ponota, qoramol piri- Zangiota, otning piri - Qambarota, echkinning piri - CHig'atota bo'lgan.

Azaliy turmush tarzi chorvachilik bo'lgan Farg'ona vodiysi qipchoqlarida chorvani yozgi yaylovga olib chiqish va yozgi yaylovdan qishlov eriga olib qaytishda qator afsungarlik rasm-rusumlari va urf-odatlari o'tkazilgan. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, suruvni bir joydan ikkinchi erga ko'chishi eng mas'uliyatli davr hisoblangan. SHu bois ular bu paytda chorvani turli ziyon-zahmatlardan poklab ko'chirishga harakat qilganlar. Bunda toqqa ketayotgan qo'y-qo'zilarni yovuz kuchlardan, yomon ko'zlardan saqlash maqsadida cho'ponlardan biri qo'lida gulxan ushlagan holda suruvni aylanib chiqqan va qo'ylarni olov yordamida poklagan. CHust tumani Ariqbo'yi, Sariqamish, Karkidon qishloqlarida yashovchi qipchoqlar chorvani toqqa haydab ketishda va tog'dan olib tushishda ham qo'y-qo'zilarga oq va qora rangdagi latta kuydirib alas-alas qilib, isiriq solganlar. Alas qilishda ayollar *«yangi yurtida yallo qolsin, eski yurtida balo qolsin»*, degan aytimni aytib turganlar. Andijon viloyati Jalolquduq tumani Karmish qishlog'ida yashovchi qirg'iz-qipchoqlarda esa chorvani yaylovga olib ketilayotganda qishloq mullasi tomonidan Qur'on kitobi ochiq holda ushlab turilgan va uning tagidan qo'ylar hamda cho'ponlar o'tkazilgan. Demak, biz bundan ko'ramizki, cho'ponlar uchun qo'y-qo'zilarni yaylovga haydash va yaylovdan qishki qishlov joyiga qaytish paytida cho'ponlar o'zlarining jonivorlarini ziyon-zahmatdan va yomon ko'zli kishilardan olov, isiriq. Qur'on kitobi yordamida poklagan. Olovning marosimiy afsungarlik xususiyatiga egaligi borasida oldingi qismlarda

batafsil to'xtalganimiz va ilmiy adabiyotlarda ma'lum darajada yoritilganligi bois bu o'rinda batafsil to'xtalmadik.. Shuningdek cho'ponlar piri CHO'ponotaga bag'ishlab is chiqarish va cho'ponlar risolasini o'qish amallarida ham islomiy qarashlarni islomgacha bo'lgan e'tiqodiy kul'tlar bilan sinkretlashgan ko'rinishini ko'ramiz.

Ayrim tadqiqotchilar fikricha, muqaddas ziyoratgohlar va qadamjolar bilan bog'liq marosimlar va tasavvurlarda totemizmning ayrim xususiyatlari saqlanib qolgan. Mashhur arxeolog olim S.P. Tolstovning fikricha, aynan mana shunday xususiyatlardan biri muqaddas ziyoratgoh va qadamjolarga tog' echkilari va qo'ylar shoxlarini osib qo'yishdir. Darhaqiqat, qo'y turkiylar orasida eng muqaddas jonzotlardan sanalgani bois ziyoratgohlarga qo'y va tog' echkisi shoxlari osib qo'yilgan. Jumladan, Namangan viloyati Kosonsoy tumani Qizilshox qishlog'idagi «Qirq chilton» ziyoratgohidagi avliyo qabri ustiga, O'shdagi mashhur Taxti Sulaymon ziyoratgohiga qo'chqorning uzun shoxi qo'yib qo'yilgan. Axborotchilaridan nima uchun bu shox qo'yilganligining sababini so'raganimizda aniq bir javobni ola olmadik. Bizningcha, aziz avliyolar qabrlari va muqaddas qadamjolarga osib qo'yilgan hayvon shoxi oddiy bezak vazifasini bajarmagan. Ziyoratga kelgan befarzand ayollar farzandli bo'lish maqsadida ziyoratgohga qo'yilgan hayvon shoxiga ip, latta va boshqa narsalarni bog'laganlar yoki shoxni sekin chertib ko'rganlar. Agar shohdan chumolilar tushsa, demak o'sha ayol farzandli bo'ladi, tushmasa farzandli bo'lmaydi, degan qarash bo'lgan.

Qo'ylarni muqaddaslashtirib uni hunarmandchilik buyumlarida tasvirlash an'anasi hozirga qadar saqlanib qolgan. O.A. Suxareva kashtalardagi qo'chqor shoxiga o'xshash naqshlar xususida shunday fikrlarni bildirgan: «Naqshlarda asosan qo'chqorning bitta belgisi, uning shoxi ifodalangan. Bunday naqshlar Markaziy Osiyoning mahalliy o'troq va ko'chmanchi xalqlarida «qo'chqorak», Farg'ona vodiysida yashovchi qirg'izlarda «qaykalak», Nurota o'zbek turkmanlarida «mo'yiz», turkmanlarda «choch bo'yiz» deb atalgan. Bu naqsh ikki spiralning qayrilgan ko'rinishidan iborat bo'lib, naqsh kompozitsiyasining markaziy qismida tushirilgan. Qo'y shoxi naqshi xam qo'y kul'tidan kelib chiqqan holda ishlanganligiga shak- shubha yo'qdir». Demak, yosh kelin-kuyovlarning uyiga qo'chqor shoxi naqshi tushirilgan so'zanalar bejiz ilinmagan. Ularni nikoh marosimida ilishdan maqsad kelin-kuyov uyini bezatish emas, balki yoshlarni turli ins-jinslardan asrash bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Istiqlo'l va ma'naviyat .T.: O'zbekiston. 1994 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: Ma'naviyat. 1998 y.
3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. -T.: Ma'naviyat, 1998 y.
4. Abdullaev M. Abdullaev A. Ma'naviyat va madaniyat tarixi. Farg'ona. 1998 y.
5. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. T. 1996 y.
6. Ashirov A. Atadjanov SH. Etnologiya. T. 2007 y.
7. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. T. 2007 y.
8. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik. Farg'ona. 1998 y.
9. Murodov. M. Qorabaev U. Rustamova R . Etnomadaniyat.. T.: Adolat. 2000.
10. Etnomadaniyat fanidan ma'ruzalar matni. 1-qism. Farg'ona. 2001 y.

Mavzu: O'ZBEK XALQI MODDIY MADANIYATIDA QADIMIY DINIY TASAVVURLAR VA E'TIQODIY QARASHLARNING ARXAIIK IZLARI.

REJA:

1. Turar joylar bilan bog'liq urf-odatlar va rasm-rusumlarda qadimiy diniy e'tiqodlar.
2. O'zbek xalqining moddiy madaniyatida qadimiy diniy tasavvurlar.

Etnologik yo'nalishda bajarilgan tadqiqotlarda moddiy madaniyat (turar joylar, kiyimlar, taqinchoqlar, oziq ovqatlar)ni odatda grafik tasvirlar, planlar, chertyojlar, rasmlar, fotosuratlar

yordamida batafsil tavsiflash va ilmiy tahlil qilish o'ziga xos an'anaga aylangan. Lekin aslida ushbu ma'lumotlar etnologik tadqiqotlarning bosh maqsadi emas, balki asosiy maqsadni isbotlashga ko'maklashuvchi tavsifiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Moddiy madaniyatning etnologik yo'nalishda tadqiq qilishda ko'zlangan asosiy maqsad o'rganilayotgan ob'ektning xalq ijtimoiy turmush-tarzi bilan aloqadorligini yoritishdan iborat. CHunki an'anaviy moddiy madaniyat namunalari insoniyat mehnati va ehtiyoji asosida yaratilsa-da, lekin uning ongli tafakkuri natijasi o'laroq u yoki bu ko'rinishni oladi. SHubhasiz, bu o'rinda moddiy madaniyat na'mnunalari aks etuvchi ramz, belgi g'oya ko'rinishida ham qiziqarli bo'lib, bu bevosita u bilan bog'liq tasavvurlar, e'iqodiy qarashlarni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqacha tarzda aytadigan bo'lsak, etnologlar uchun moddiy madaniyat namunalarining tavsifi emas, balki ularning inson bilan aloqadorligi qiziqarli hisoblanadi.

Tarixdan ma'lumki, turar-joylar inson uchun makon, boshpana tarzda foydalana boshlangan davrlardan boshlab u bilan bog'liq ilk tassavurlar ham shakllana boshlagan. Qadimgi uy-joylarning eng muhim xususiyatlaridan biri - uning o'ziga xos xavfsizlik xalqasiga ega ekanligidir. Insoniyatning ilk ajdodlari uy-joylarni yovuz kuchlar xurujidan muhofaza qiladigan o'ziga xos yopiq makon deb xisoblangan va u bilan bog'liq ilohiy tushunchalar tarqalgan.

Endi esa bevosita tadqiqotimiz xududi xisoblangan Farg'ona vodiysi o'zbeklari an'anaviy turmush-tarzidagi turar-joylar bilan bog'liq qarashlarda hamda uy-joylar bilan bog'liq urf-odatlardagi qadimiy diniy e'tiqodlar bilan bog'liq ko'rinishlarni birmuncha batafsilroq tahlil etishga harakat qilamiz. O'zbeklarda ota makon hisoblangan ota-bobolar joyi muqaddas dargoh hisoblangan va unga mehr qo'yishgan hamda mehr-muruvvat ko'rsatishgan. Qolaversa, ota-bobolar erining muqaddasligi borasida ko'p maqol va rivoyatlar yaratilgan.

O'zbeklar orasida ham boshqa ko'plab xalqlarda bo'lgani singari uy qurish ishlari dastlab uy poydevorini qurishdan boshlangan. Xalqona tasavvurga ko'ra, poydevorni qurishga haftaning xayrli va omadli kunlarida kirishilgan. Farg'ona vodiysi o'zbeklari orasida dushanba, chorshanba, payshanba va shanba kunlari uy qurilishidagi dastlabki ishlar boshlangan. CHunki aynan mazkur kunlar xosiyatli kunlar hisoblangan.

YAngi uyni qurish jarayonida uning dastlabki yog'ochlari ko'tarilgandan so'ng uy to'sini yoki xarisini ko'tarishda ajoyib bir udum bajarilgan. Odatda, usta sinch uylarning to'sin yoki xarisini o'rnatish chog'ida uy egasidan biror bir narsa (odatda ko'ylak, qiyiq va shu kabilar)ni ehson qilishni so'ragan. Bu narsa aholi orasida *keskilik* deb atalgan. Agar ustaga *keskilik* berilmasa, keyinchalik u(usta)ning ishi yurishmay, og'ir kasalga chalinar ekan. Axborotchilarimizning ta'kidlashlaricha, har bir hunarmandchilik sohasining o'z asoschisi (piru murshidi) bo'lgani kabi, ustachilikning ham asoschisi - piri bo'lgan. To'sin (yoki xari) ko'tarish paytida beriladigan keskilik o'sha pirning haqqi uchun ustaga berilgan. Usta esa o'zi ishlab pul topayotgan ushbu hunar asoschisining haqqiga duoi fотиha qilib turishi lozim bo'lgan.

Farg'ona vodiysining azaliy o'troq o'zbek va tojik xalqlari orasida uyning ayrim qismlari-to'sin, ustun, eshiklarini qo'yilishida qator ramziy ma'nolarga ega bo'lgan va aynan mazkur qismlar bilan bog'liq qator diniy-semantik urf-odatlarga amal qilingan. Jumladan, vodiylar o'zbeklarida ham, respublikamizning boshqa mintaqalarida bo'lgani singari, xona shiftiga qo'yiladigan to'sinlar soni doimo toq, ya'ni 5, 7, 9, 11 tadan bo'lib, xona turi va hajmini belgilovchi o'lchov bo'lib kelgan. Xalqona qarashlarga ko'ra, ayrim joylarda to'sinlardan bittasini, ya'ni juft bo'lmagani Allohga bag'ishlangan deyilsa, boshqa joylarda bitta to'sin vazifasini xonadon erkagi o'tagan, deb tushinishgan. SHu o'rinda uy to'sini bilan bog'liq Xorazmda o'ziga xos ramziy odatga amal qilinganligini ta'kidlab o'tish joiz. Taniqli etnograf olim M.V. Sazonovanning yozishicha, Xorazmning ayrim tumanlarida biror xonadonda ketmaket o'lim bo'lsa, shu oila a'zolaridan qolganlarining umrini saqlab qolish uchun xonaning o'lim soddir bo'lgan qismidagi tomning ikki to'sinini yoki tomning to'g'ri kelgan joyidan ikkita to'sinni, ayrim tumanlarda esa shiftning barcha to'sinlari butunlay almashtirilgan. Yangi qurilayotgan uyning devorini ko'tarish, tom yopish bilan bog'liq ishlar, shuningdek, ayni vaqtda ko'plab ishchi kuchini talab etadigan ishlarda mahalla erkaklari ishtirokida maxsus hashar uyushtirilgan. YAngi uyni o'urilishida hashar tashkillashtirish odati ilmiy etnografik

adabiyotlarda birmuncha yaxshi yoritilgan. Shu bois biz bu o'rinda ushbu odat to'g'risida batafsil to'xtalmagan holda hasharning vodiya xos lokal xususiyatlarigagina to'xtalib o'tishga harakat qildik. Namangan viloyati Xo'jamushkent qishlog'ida yashovchi o'zbeklarda bu tadbir «hokandozon» deyilgan. Hokandozon ko'pincha uyning tomini yopish paytida uyushtirilgan bo'lib, mahalla erkaklari va yigitlari uyning tomini yopish jarayonida maxsus belgilangan kunda hashar o'tkaziladigan uyga yig'ilishgan va uyning tomiga qoplarda tuproq olib chiqqanlar. Hashardagi eng katta qop *polvon qop* deyilgan. Mazkur qopni ko'tarib tuproq olib chiqan odamga sovg'a tariqasida uy egasi tomonidan belbog' berilgan.

Uy-joylar bilan bog'liq urf-odat va rasm-rusmlarning talay qismi yangi uy tiklab bo'linganidan so'ng ham o'tkazilgan. CHortoq tumani Qoramurt o'zbeklarida yangi uyga *dushanba va juma* kunlari ko'chib kirish xayrli deyilgan.

Yangi qurilgan uyga ko'chib kirish jarayonida ham ko'plab magik urf-odat va marosimlar bajarilgan. Namangan viloyati CHortoq tumani Oqsuv G'ovozon qishlog'i o'zbeklarida yangi uyga ko'chganda «ushbu uyda yashovchilarning kelgusidagi hayotlari misoli do'lanaday mustahkam bo'lsin», deb uyning to'rt burchagiga do'lana shoxi qoqib qo'yish odati bo'lgan. SHuningdek, ushbu uy doimo rizqli barakali bo'lsin, degan niyatda YAngiqo'rg'on tumani Oqsuv G'ovozon qishlog'ida uyga dastlab tuz olib kirilgan. Andijon viloyati Buloqboshi tumani SHirmonbuloq qishlog'ida yashovchi o'zbek turklarda yangi uyga ko'chib kirishda uyga doimo xizmat qilsin, degan niyatda ushbu uyga birinchi marta kapgir-cho'mich olib kirilgan. Qolaversa, uy egalarining o'zlari uydagi dastlabki kechasini yolg'iz o'tkazmagan. Ular bilan birga doimo keksa yoshli qariyalar birga tunaganlar. Ushbu uyda to'kin-sochinchilik bo'lsin, degan niyatda xudoyi sumalak qilinib, qo'ni-qo'shnilar va qarindosh-urug'larga tarqatilgan. Umuman olganda, ushbu afsungarlik ko'rinishidagi marosimlardan ko'zlangan asosiy maqsad kelgusida mazkur uyda yashovchi oilaning farovon hayot kechirishidir.

Xullas, yangi uyga ko'chib kelish bilan bog'liq yuqoridagi urf-odatlarga magik qarashlar asos bo'lgan. Uyning to'rt burchagiga do'lana qoqib qo'yishda o'xshash afsungarlik, ya'ni do'lanaga xos xususiyatlar magik yo'l bilan ushbu uy a'zolariga o'tishi hamda kapkir-cho'michni uyga birinchi bo'lib olib kirilishida esa ushbu xonadonni rizqli bo'lishiga qaratilgan magiq niyat asos bo'lgan bo'lsa, ikkinchisida o'xshash afsungarlik serpushtlilik afsungarligi bilan o'zaro qorishgan holda uchraydi. Keksalarning serfarzandlilik xususiyati hamda tuz va sumalakning odamlar tasavvuridagi rizq-baraka ramziga oid xususiyatlari kelgusida mazkur oilaga ham doimo hamroh bo'lsin, degan niyat aynan mazkur urfni bajarilishiga sabab bo'lgan bo'lsa ajab emas.

O'zbeklarda uyning turli joylari, ayniqsa, ostonasi, o'chog'i eng muqaddas joylardan biri hisoblangan va u bilan bog'liq qator diniy-afsungarlik urf-odatlari hamda irimlari bajarilgan. Bu o'rinda, avvalo shuni ham ta'kidlash kerakki, halqning kundalik turmush tarzida oston bilan bog'liq qator naqlar ham mavjud. CHunonchi «*Ostonada turmushga chiqmagan qiz o'tirsa baxtsiz bo'ladi*», «*ostonda turib bo'lmaydi, chunki biror bir kishisidan judo bo'lgan odam ostonada turadi*», «*ostonada quloch kerib turib bo'lmaydi, baraka to'siladi*», «*ostonada turgan holda salomlashilsa, o'rta sovuqlik tushadi*», degan naqlar bugungi kungacha xalqimizda saqlanib kelmoqda va ular hozirda ham omma orasida o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Qolaversa o'zbek xalqi lirikasida ham oston obrazini muhim ahamiyat kasb etgan va hatto bu obraz maxsus tadqiq ham qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat .T.: O'zbekiston. 1994 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: Ma'naviyat. 1998 y.
3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. -T.: Ma'naviyat, 1998 y.
4. Abdullaev M. Abdullaev A. Ma'naviyat va madaniyat tarixi. Farg'ona. 1998 y.
5. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. T. 1996 y.
6. Ashirov A. Atadjanov SH. Etnologiya. T. 2007 y.

7. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. T. 2007 y.
8. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik. Farg'ona. 1998 y.
9. Murodov. M. Qorabaev U. Rustamova R. Etnomadaniyat.. T.: Adolat. 2003 y.
10. Etnomadaniyat fanidan ma'ruzalar matni. 1-qism. Farg'ona. 2001 y.

Mavzu: An'anaviy kiyimlarda qadimiy diniy tasavvurlar va ramziylik.

REJA:

1. An'anaviy kiyimlarda qadimiy diniy tasavvurlar va ramziylik.
2. O'zbek milliy kiyimlarining tarixi.

Tarixdan ma'lumki, kiyimlar insoniyat turmush-tarzi taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq tarzda yuzaga kelgan. Qolaversa insoniyat tarixidagi ilk eng muhim ixtirolardan biri aynan kiyimni ixtiro qilinganidir. Chunki insoniyatni hayvonot olamidani uning tafakkur qobilayati ajratib tursa, ushbu taffakkurning bir mevasi libosdir. Qolaversa aynan kiyim insonlarni hayvonot olamidani ajratuvchi muhim tashqi alomatlardan biridir.

An'anaviy milliy kiyimlarning shakllanish tarixiga nazar tashlar ekanmiz bir necha ming yillar mobaynida uning qator muhim funktsiyalari tarkib topganligini ko'rish mumkin. Kiyimning birinchi va asosiy vazifasi -tanani sovuqdan va tabiatdagi turli boshqa noqulay vaziyatlardan va ta'sirlardan himoyalash bo'lgan bo'lsa kiyimlar taraqqiy etib borishi va unga tashqi (tabiiy) muhit, xo'jalik mashg'uloti, e'tiqodiy qarashlar, ijtimoiy, madaniy yo'nalishlardagi o'zgarishlar, milliy va diniy qarashlarning bevosita ta'siri natijasida ikkinchi muhim vazifasi, ya'ni jinsiy va ijtimoiy bo'luvchi hamda marosimiy - e'tiqodiy vazifasi ham paydo bo'lgan. Qadimgi davrga xos mifologik tasavvurlarga ko'ra har bir soha va predmetni o'ziga xos va mos ma'budasi bo'lgan bo'lib, SHumer-akkadlarning mifologik qarashlariga ko'ra kiyim-kechaklar ma'budasi Uyti nomli iloh bo'lgan Hozirgi kunga qadar etnologiya, san'atshunoslik, arxeologiya, madaniyatshunoslik kabi yo'nalishlarda o'zbek milliy kiyimlari tarixi, evolyutsiyasi, transformatsiyasi va mahalliy lokal xususiyatlarni o'rganish borasida ma'lum ijobiy yutuklarga erishilgan.

Farg'ona vodiysi o'zbeklari orasida ham asrlar mobaynida o'ziga xos kiyinish madaniyati va an'analari shakllangan bo'lib, bu an'analarda vodiy aholisining bir necha ming yillik milliy va diniy qadriyatlarini ham o'z aksini topgan. Kiyimlar va ularning ayrim qismlari bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlar hamda urf-odatlarini tahlili qilishdan avval aynan kiyimlarni bichib-tikish bilan bog'liq diniy-afsungarlik ahamiyatiga ega bo'lgan ba'zi rasm-rasumlarga to'xtalib o'tsak.

Vodiy o'zbeklari orasida asrlar davomida saqlanib kelayotgan asriy an'anaga ko'ra kiyimlarni bichib-tikishda bichiqchilar matoni qaychi bilan kesishmagan, balki qo'l bilan yirtib, ayrim qiyiq joylarini pichoq bilan kesishgan. Kiyimlar asosan bo'y, eng va yon qiyiqlardan iborat bo'lib, oldinlari aksariyati qo'lda tikilgan. Bichiqchi va tikuvchilar u yoki bu kiyimlik uchun olinadigan matodan iloji boricha qiyqim chiqarmaslikka harakat qilishgan. CHunki qadimgi matolarning eni shuni taqozo etgan. SHu bilan birga, qadimgi urf-odatlarga ko'ra, kiyim bichishda yoki uning qiyqimlariga yomon ko'zli yoki «nazari bor» kishilarning nigohi tushsa, o'sha kiyimni kiygan kishi kasallanadi, hattoki vafot etishi ham mumkin, degan e'tiqodlar mavjud bo'lgan.

Kiyimlar yuqorida ta'kidlab o'tilgan funktsiyalardan tashqari insonning bir yosh bosqichidan ikkinchisiga o'tishini, ya'ni initsion ahamiyat ham kasb etgan. O'z navbatida bu bilan bog'liq qator urf-odatlar bajarilgan. Jumladan, bola tug'ilganda chaqoloqqa, nikox marosimida bo'lg'usi kelinga va motamda marxumga maxsus ko'ylak kiydirilgan va bu ko'ylaklar o'ziga xos umumiyliklarga ega bo'lgan. Quyida biz bu o'xshashliklarga birmuncha batafsilroq to'xtalib o'tishga harakat qilamiz.

Nikoh marosimida ham kelin maxsus tikilgan oq rangdagi kelinlik libosini kiygan. Xalqimizda oq rang poklik, pokizalik ramzi hisoblanishi bilan birga ramziy ma'noda bo'lg'usi kelinni qizlik olamidani «ayollar» dunyosiga o'tayotganligini anglatgan.

. Markaziy Osiyo xalqlarida bo'lgani singari o'zbeklarda ham marhumga maxsus libos-kafan kiydirilib dorulbaqodan dorulfanoga kuzatiladi. Kafan asosan oq bo'z matodan tayyorlanadi. Kafan o'ralayotganda avval chap, so'ng o'ng tomonidan boshlab o'raladi, o'ng tomon ustida bo'lishiga alohida e'tibor qilinadi. Demak biz ushbu fikr-mulohazalardan shunday xulosoga kelish mumkinki, o'zbeklarda inson hayotining muhim uch bosqichida ham maxsus libos kiydirilgan. Ikkinchidan, ushbu xar uch libos doimo oq rangda bo'lgan va uning ham pastki qismi umuman qaytarilmagan. Uchinchidan, chaqaloqqa va kelinga hamda mayitga kiydiriladigan birinchi kiyim doimo marosimiy tarzda kiydirilgan. Demak, chaqaloqqa va kelinga hamda mayitga kiydiriladigan ushbu kiyimlarni insonni bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tayotganini ramziy ifodalovchi kiyim deb aytish mumkin. Darvoqe, bu borada ayollarning ro'mollari ham ranggi, holatiga ko'ra ularning yoshi, oiladagi o'rniga ko'ra ham o'ziga xos tarzda o'zgarib borgan. Qizlar turmush qurganda, juvonlar birinchi farzand ko'rganda, o'g'lini xatna qildirganda va nevaralik bo'lishganda bosh kiyim holati va rangini o'zgartirishgan. O'z navbatida bu jarayon, ya'ni yangi ijtimoiy guruhiga o'tishi bilan bog'liq qator holatlar urf-odatlar tarzida aks etgan. Qadimgi odatga ko'ra, qizlar turmushga chiqqanlarida nikoh kunlari yoki to'ydan so'ng uchinchi kuni qizlik ko'ylaklarini xotinlik ko'ylaklariga almashtirgan.

Vodiy o'zbeklarining an'anaviy kiyimlarini ilmiy asosda tahlil qilish jarayonida biz milliy kiyimlar va ularning ayrim qismlari, jumladan, ko'ylaklarga tikiladigan turli kashtalar, chirozlar ham kiyim egasini yomon ko'zlardan asraydi degan magik tasavvurlar asosida shakllanganligiga amin bo'ldik. Darhaqiqat, qadimgi odamlar tasavvurida kiyimning va zeb-ziynatning magik qudrati, uni yovuz ruhlardan himoya fazilatlariga ega bo'lib, bu borada ilmiy etnografik adabiyotlarda ham ayrim mulohazalar bildirilgan. Shuningdek marosimiy kiyimlarda raqamlarlar magiyasiga bo'lgan e'tiqod ham yaqqol aks etgan. Jumladan, nikoh to'yi marosimlari uchun tikib kiyiladigan kiyimlar doimo juft qilingan. O'z navbatida motam uchun qilinadigan kiyimlar toq bo'lgan bo'lib, ushbu amallar raqam magiyasi bilan bog'liqdir.

Vodiy qipchoqlarida yosh bolalarni turli balo – qazolardan yomon niyatli kishilar nigohidan saqlash maqsadida atrofdagi qo'shnilardan yoki uyning o'zidan turli mato bo'laklari yiqqan va matolar qiyqimidan quroqi ko'ylaklar tikib kiydirish rasm bo'lgan. SHuningdek bunday «quroqi»dan yangi kelin-kuyovlar uchun yostiqlar ham tikilgan. Xalqona qarashga ko'ra «quroq» yomon ko'zlardan saqlovchi himoya vositasi hisoblangan. Qadimgi davrlardan saqlanib kelayotgan tasavvurga ko'ra o'zgalarning muvofaqqiyatini, yaxshi narsalarga xasad bilan qaraydigan shaxslarni ko'zi, ko'rish iqtidori bor deyiladi. Shuning uchun ham xalq tomonidan ularga nisbatan xalq tomonidan ularga nisbatan «ko'zlik» iborasi ishlatiladi.

Endi esa bevosita kiyimlarning ayrim qismlari bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlar borasida birmuncha batafsilroq to'xtalib o'tsak. Avalo bu o'rinda Farg'ona vodiysidagi o'zbeklarida ham boshqa mintaqalarda yashovchi o'zbeklar singari an'anaviy milliy kiyim tarzda yozda – do'ppi yaktak, belbog', ishton, chorig', qishda esa – telpak, chopon, belbog', shim, maxsi-kovush kiyganligini ta'kidlab o'tish joiz. erkaklarga xos muhim kiyim-kechak elementlaridan xisoblanadigan belbog' va do'ppilar ham milliy kiyimlar tasnifida o'z o'rniga va marosimiy ma'nosiga ega bo'lgan kiyimlar hisoblangan.

Turkiy xalqlar orasida ham qadimda belbog' an'anaviy milliy kiyimning muxim bir qismini tashkil etish bilan birga belbog' egasining jamiyatda tutgan o'rnini ham anglatib turgan. Kishining belidagi belbog'iga qarab oldingilar uning qancha davlat va mol dunyo egasi ekanligini anglay bilganlar va qancha belbog'ning ko'pligi uning mol dunyosining shunchalik ko'pligidan dalolat bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Istiqloq va ma'naviyat .T.: O'zbekiston. 1994 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: Ma'naviyat. 1998 y.
3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. -T.: Ma'naviyat, 1998 y.
4. Abdullaev M. Abdullaev A. Ma'naviyat va madaniyat tarixi. Farg'ona. 1998 y.
5. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. T. 1996 y.

6. Ashirov A. Atadjanov SH. Etnologiya. T. 2007 y.
7. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. T. 2007 y.
8. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik. Farg'ona. 1998 y.
9. Murodov. M. Qorabaev U. Rustamova R. Etnomadaniyat.. T.: Adolat. 2003 y.
10. Etnomadaniyat fanidan ma'ruzalar matni. 1-qism. Farg'ona. 2001 y.

Mavzu: Marosim taomlari va ularning mexnati

REJA:

1. Marosim taomlari va ularning mohiyati.
2. O'zbeklarning an'anaviy milliy marosimiy taomlarida oziq-ovqatlarning tarkibi va ularning magik mazmuni

Tarixdan ma'lumki taomlar turli etnoslarga xos etnomadaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini uzatuvchi muhim elementlardan biri hisoblanadi. An'anaviy taomlar insoniyatning kundalik turmush-tarzida va hayot faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan va bir necha yuz yillar mobaynida turli xalqlar oilaviy va taqvimiy marosimlarining muhim uzvlariga aylangan. Natijada ma'lum bir marosim va urf-odat bilan bog'liq tarzda tayyorlanadigan maxsus marosim taomlari paydo bo'lgan. Marosim taomlari kundalik taomlardan farqli tarzda asta sekinlik bilan bajarilayotgan urf-odatning tarkibiy qismi - umumiy ovqatlanishning yoki magik harakatning ob'ektiga aylanib borgan. Ayniqsa marosimiy taomlarning mazmun-mohiyatiga yil fasllarining o'zgarishida: eski va yangi yil arafasida, qish va bahor oralig'ida yoki dehqonchilik yumushlarini boshlanishi va yakunlanishida katta e'tibor berilgan. SHuningdek an'anaviy xo'jalik mashg'ulotlarida, ya'ni ekinlar va mevalarni ekishda va ularni yig'ishtirishda yoki chorvachilikda sut va sut mahsulotlarini qayta ishlashda ham marosimiy taomlar alohida ahamiyat kasb etgan va ularni ilk marta iste'mol qilish ko'pincha marosimiy ko'rinish olgan. Ba'zida esa buning aksi tarzida ularni iste'mol qilish taqiqlangan va ovqat uchun qo'yilgan ta'buni bartaraf etish ushbu taomni muqaddaslashtirilishiga ham sabab bo'lgan Xalq orasida oziq-ovqatlarning alohida turlariga, uning magik harakatlardagi o'rniga qarab ularning hosildorlik manbai, davolovchi, shifobaxshlik kabi ilohiy xususiyatlari namoyon bo'lgan. SHu bois ayrim oziq-ovqatlar ba'zi hollarda yil mobaynida saqlangan va yangi bir amalni boshlashdan avval yoki tabiiy ofatlar yuz berganda ularni marosimiy taom tarzida iste'mol qilingan. e'tiborli tomoni shundaki marosim taomlarini ko'pincha insonning biologik ehtiyojini qondirish maqsadida emas, balki balo-qazolardan saqlovchi oziq-ovqat yoki marosimiy qurbonlik tarzida iste'mol qilingan.

Vodiy o'zbeklarida chorshanba kuni marhumlar ruhiga bag'ishlab o'yma pishirilib, is chiqariladi. Toshkent o'zbeklarida esa o'yma o'rnida bo'g'irsoq qilinadi. Umuman olganda chorshanba kun mushkullardan xalos bo'ladigan kun hisoblangan. SHu bois aynan chorshanbada oiladagi barcha muammolar echilsin deb «*tugun oshi*» tarzida *chuchvara* pishiriladi. Ushbu kun pishiriladigan chuchvara uchun xamir suvalasini oxirigacha pishirilgan 5 yoki 7 ta qo'shniga tarqatilgan. Ba'zi hollarda esa 5 yoki 7 ta qo'shni ayollar chaqirib ziyofat qilingan. Tugun oshini pishirish jarayonida oxirgi 5 ta yoki 7 ta chuchvarani tugunlari echilib ketsin deb tugulgan joyidan echib qozonga solingan. Payshanba kuni Farg'ona vodiysi o'zbeklarida *marxumlar kuni* deyilgan /Bunday qarash boshqa mintaqalarda yashovchi o'zbeklar va tojiklar orasida ham mavjudligi ilmiy adabiyotlarda ta'kidlab o'tgan. Bu kun o'tgan ajdodlar, arvohlar haqqiga deb palov tayyorlanib qur'on oyatlaridan o'qitilib is chiqariladi va chiroq yoqiladi. Andijon viloyati Buloqboshi tumanidagi o'zbek-turklarda esa bu kun marosimiy taom tarzida «*qora osh*» (qora osh borasida biroz keyinroq batafsil to'xtalib o'tamiz) qilinadi. YUqorida ta'kidlaganimizdek xalqona animistik tasavvurga ko'ra marhum vafotidan so'ng uning ruhi vaqti vaqti bilan, ayniqsa, payshanba kuni o'zi yashagan uyga tashrif buyurib turadi. Agar bu kun is chiqarilib biror bir marosimiy taom pishirilsa va o'tgan ajdodlar ruhiga bag'ishlanib qur'on oyatlari o'qilib duoi fотиha qilinsa arvohlar shod bo'lib ketadi deyiladi. Agar buni aksi bo'lsa marhumlar ruhi

bezovta bo'lib ushbu uydagi yaqinlaridan biriga zarar etkazishi mumkin deyilgan. Tojik etnografi O. Murodovning yozishicha, o'zidan keyin biror yaqini qolmagan ayol marhumlar ruhi och qolishi natijasida yovuz, tiriklarga zarar etkazuvchi ruhlarga aylanar ekan. Farg'ona vodiysi o'zbeklari motam marosimlarida marosimiy taom tarzida *holvaytar* bilan birga *qatlama* ham tayyorlagan bo'lib, bu o'tgan ajdodlar ruhiga deb bag'ishlangan. Xalqona tasavvurga ko'ra o'tib ketgan ajdodlar ruhi aynan mazkur kunda pishirilgan taomdan emas, balki taomni tayyorlash uchun ishlatilgan yog' isidan oziqlanar ekan. SHu bois marosimiy taom tarzida *qatlama* tayyorlash odati bo'lgan. O'z o'rnida shuni ta'kidlash kerakki marhumlar ruhi yog' isidan oziqlanishi to'g'risidagi animistik qarash nafaqat vodiyy o'zbeklari orasida balki Respublikamizning boshqa mintaqalarida yashovchi o'zbeklar va tojiklar, tatarlar, turklar, qoraqalpoqlar orasida ham keng tarqalgan

Marhumning o'lganiga uch kun bo'lganda xudoyi qilingan. Bu marosimda xudo yo'liga, marhum ruhiga atab qo'y so'yilgan va qurbonlik go'shtidan sho'rva yoki palov tayyorlanib, kelganlarga ulashilgan.

Farg'ona vodiysi o'zbeklari motam marosimlaridagi arxeik ko'rinishlarni maxsus tadqiq qilgan taniqli etnograf B.X. Karmisheva ta'kidlashicha, Farg'ona o'zbeklarida motam marosimining uchinchi kuni aynan mazkur marosim uchun so'yilgan qo'y go'shtini etti qismidan atala tayyorlanadi [Karmisheva B.X., 1986. S. 168]. Muallif bu odat ildizlari arxeik zardushtiylik e'tiqodi bilan bog'liq deb hisoblaydi. Darhaqiqat motam marosimining uchunchi kuni qo'yning etti qismidan atala tayyorlash odati an'anasi qadimiy zardushtiylik an'anasi bilan bog'liq ekanligini zamonaviy zardushtiylik motam marosimlarida ham marhum vafotiga uch kun to'lgunga qadar uning yaqinlari tomonidan go'shtli taom eyishlari ta'qiqlangan. To'rtinchi kunga o'tar kechasi maxsus motam marosimi uchun so'yilgan qo'yning etti qismidan maxsus taom-andom tayyorlanadi.

Vodiy o'zbeklari va tojiklarida faqatgina marhum chiqqan uyda uch kun davomida issiq ovqat tayyorlashga bo'lgan taqiq saqlanib qolgan. Qo'ni-qo'shnilar va yaqin qarindoshlar tomonidan olib kelingan issiq ovqatni, shu jumladan, go'shtli ovqatni ham uch kun mobaynida eyish mumkin bo'lgan. SHu bois bu odatni butkul zardushtiylik bilan bog'liq odat deb talqin qilib xam bo'lmaydi. CHunki, birinchidan, o'z yaqinidan ayrilib qolgan marhumning eng yaqin g'ambardorlari uchun bu kunlar taom tayyorlash ruhiy jihatdan og'ir bo'lsa, ikkinchidan, bu aynan mazkur uyni marosimiy nopok bo'lganligi, ya'ni jon berayotgan odamni qon sachratib uyni marosimiy nopok qilishi bilan bog'liq bo'lsa kerak.

Farg'ona vodiysida yashovchi turklar, qipchoqlar va qirg'izlarda o'troq o'zbeklar va tojiklardan farqli tarzda marhum dafn etilmasdan avval qo'y so'yib marosimiy taom-sho'rva tayyorlanadi. Lekin tayyorlangan sho'rva marhumni qabristonga dafn qilib kelingandan so'ng ichilgan. Bu taom xalq orasida «qora osh» deb ham yuritilgan (Dala yozuvlari Farg'ona viloyati Farg'ona tumani Kaptarxona qishlog'i 2004 yil). O'z o'rnida shuni ta'kidlab o'tish kerakki «qora osh» deganda motam marosimida marhum dafn qilingan kun tayyorlanadigan marosimiy taom tushunilgan. Qora oshni oddiy oshdan farqi shundaki qora oshga oddiy oshdagiday piyoz solmasdan pishiriladi. CHunki piyoz achchiq mahsulot bo'lganligi bois agar qora oshga qo'shilsa sovuq marakaga yana achchiqlik qo'shilib ketishi mumkin deyilgan.

Vodiyning boshqa xududlarida yashovchi o'zbeklarda marhumning qirqi o'tkaziladigan kun marosimiy taom tarzida *holvaytar* tayyorlash udumi keng tarqalgan. Qolaversa aynan mazkur kun o'tkaziladigan marosim ishtirokchilari uchun *chuchvara*, *moshkichra*, *shavla* kabi engil ovqatlar tayyorlangan va o'rikning qoqisi suvda qaynatilib *sharbat* tayyorlangan. Kexsa kishilarning ta'kidlashlaricha o'rik sharbatining hidi qabristongacha etib borar va undan marhum ruhi ham bahramand bo'lar ekan.

An'anaviy nikoh to'yi tantanalarida taomlar nafaqat marosimiy ahamiyat kasb etgan balki qator afsungarlik vazifalarini ham bajargan. Jumladan, Namangan shahri o'zbeklarida nikoh kechasi yosh-kelin kuyovlarga kelgusi hayotlari asalday totli bo'lsin deb asal yalatilgan, yoki «kelin kuyov hayoti kelgusida moshday bir-biriga qorishib ketsin», «*moshday serhosil va serfarzand bo'lsin*» deb kelin tushirib kelinganda dasturxonga turli noz-ne'matlar bilan

Nikohning ertasi kuni kelinning onasi kuyoviga atab nonushtalik jo`natgan. Bunda nonushtalikka asosan tuxum pishirilgan. Biz bu erda tuxumning serpushtlik, quvvatdorlik, serdavlatlik xususiyatlariga bo`lgan afsungarlik ishonchini ko`ramiz.

1. Karimov I.A. Istiqloq va ma`naviyat .T.: O`zbekiston. 1994 y.
2. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: Ma`naviyat. 1998 y.
3. Karimov I.A. Ma`naviy yuksalish yo`lida. -T.: Ma`naviyat, 1998 y.
4. Abdullaev M. Abdullaev A. Ma`naviyat va madaniyat tarixi. Farg`ona. 1998 y.
5. Imomnazarov M. Milliy ma`naviyatimizning takomil bosqichlari. T. 1996 y.
6. Ashirov A. Atadjanov SH. Etnologiya. T. 2007 y.
7. Ashirov A. O`zbek xalqining qadimiy e`tiqod va marosimlari. T. 2007 y.
8. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik. Farg`ona. 1998 y.
9. Murodov. M. Qorabaev U. Rustamova R . Etnomadaniyat.. T.: Adolat. 2003 y.
10. Etnomadaniyat fanidan ma`ruzalar matni. 1-qism. Farg`ona. 2001 y.

[illegible]

